ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2023

4-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

4-сан *2023*

ИЮЛЬ

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Холбой ИБРАГИМОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Шукурилло МАРДОНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Нурзода ТОШЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Fayzullayeva D. U., Maxmudova M. O‘qituvchilar tayyorgarligining mazmuni, tuzilishi va rivojlanish darajalarini belgilashda aqlli texnologiyalarni qo‘llash ... 6
Rashidova G. G‘. Pedagogika fanini o`qitishda Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati ... 10
Пирматова А. В. Инглиз тилини ўрганишда нофилологик мутахассисликлар талабалари ўртасида мотивацияни шакллантириш ... 15
Xusanova G. T. Antonimlarni o‘rganishning lisoniy va kognitiv jihatlari ... 21
Ulasheva U. M. Badiiy adabiyot vositasi maqollar yordamida xorijiy til o’qitish metodikasini takomilllashtirishda zamonaviy metodlardan foydalanish ... 25
Кадырова Н. Семантика железнодорожных терминов в русском и узбекском языках ... 31
Файзуллаева З. Развитие коммуникативных навыков посредством интерактивных технологий ... 35
Мухаммедова О. А. Иностранный язык для студентов вузов задачи обучения ... 44
Azizova M. M. Analysis of the word “toast” meaning and cultural influence ... 49
Niyatova M. N. Modern technology as a means of teching a foreign language ... 53

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ҳамдамова М. Т. Талабаларда бошқарув маданиятини ривожлантириш технологияларини такомиллаштириш ... 59
Rizayeva S. D. Oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini tashkil etishda individual yondashuvning konseptual modeli ... 63
Эшбуриева М. У. Ривожлантирувчи таълим тизими шароитида касбий ва шахслараро мулоқотнинг ўрни ... 72
Maxkamova D. “Individual maslahat” didaktik resurslarining o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimiga tadbiq etish ... 76
Adizova N. B. Talabalarda korpus texnologiyalari asosida pragmatik kompetentsiyani shakllantirishning modeli ... 82
Azizova D. G‘. Neft va gaz ishi asoslari fani negizida talabalarning muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi ... 87
Ҳошимов И. Ўзбекистон республикаси умумтаълим мактабларида тарихий-маданий миллий меросдан фойдаланиш йўналишлари ва модели ... 92
Djalolova S. X. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy karyerani loyihalashtirish ko’nikmasini rivojlantirish ilmiy-metodik kuzatuvning pedagogik xususiyatlari ... 103
Холбозорова Н. Х. Педагоглик касбига йўналтириш жараёнида талабаларнинг шахсий ривожланиши ... 112
Солиева М. Талабаларни дунёқарашини шакллантиришда бадииятнинг ўрни ... 120
Umirova N. M. Oliy ta’limda xorijiy tajribalarda sinalgan o‘quv dasturlardan foydalanishning pedagogik asoslari ... 129
Abdisharipova Sh. B. Kompetentsiyaviy yondoshuv asosida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning tarixiy-pedagogik asoslari ... 134
G’ayipova G. N. Egra, egma xalqaro baholash dasturlari va ularning ahamiyati ... 138
Israilova Sh. J. Mustaqil ta’limda o’qish ko’nikmasini qo’llash orqali og’zaki nutqni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik, konseptual zaruriyati ... 142
Nasriddinov X. B. Ta’lim oluvchilarning kreativligi pedagogik muammo sifatida ... 146
Raximova F. N. Oliy ta’lim muassasalarida multimediya vositalari asosida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish ... 152
Ravshanov O. A. Virtual psixologik xizmatni tashkil etishning vazifalari va afzalliklari ... 159
Qilichova M. X. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharof Rashidov asarlaridan foydalanishning o‘ziga xosligi ... 169
Alijonova M. Ekoestetik kompetensiyani shakllantirishda xalq og’zaki ijodining o’rni va pedagogik ahamiyati ... 176

Pulatova M. K. Umumta`lim maktablari o`qituvchilarida o`quvchilarni o`quv strategiyalariga (learning strategies) o`rgatish ko`nikmalarini rivojlantirish 183
Aripov Z. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zini ijodiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish 188
Saparboyeva D. S. Inson qadrini ulug`lash xususiyatlari 193
Nazarova D. A. Klaster yondashuvi – inklyuziv ta’lim siyosatini amalga oshirishning muhim strategik mexanizmi 197
Терехова О. Е. Практическая готовность к профессиональной педагогической деятельности 204
Самиева Ш. Х. Инновационное развитие проектных навыков учащихся на основе креативного подхода 209
Ismatova N. The Significance of Toponyms: A Study of Cultural and Geographical Identity 216
Khasanova G. X. Organizational and pedagogical features of socio-cultural activities of graduate students 220

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Baratov B. Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari 226
Qurbonov J. A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 238
Ҳошимов И. Тарихий-маданий миллий меросни сақлашда ўқитувчининг роли 249

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Эргашев Ж. Б. Электрон ахборот таълим ресурсларини лойиҳалаш технологиялари 258
Qurbanov A. Bo‘lajak muhandis-elektriklarda intellektual kompetentsiyalarini rivojlantirish komponentlarining tarkibiy tuzilmasi 265
Ashurmatov R. G‘., O‘tkirov Sh.X. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligiga oid muammolarning yechimlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ularning tahlili 273
Iskandarov B. Q., Muqimov Sh. I. Muhandis-talabalarni kasbiy tayyorgarligida zamonaviy axborot texnologiyalarning roli 279
Abdullayev Sh. A. Raqamli texnologiyalar bugungi kun ta’lim samarasi 283
Sattarkulov K. R. Akademik litseylarda kvant fizikasini o`qitishni ehtimoliy-statistik asosida takomillashtirish 288
Kamolov E. R. Noaniq ma’lumotlarning murakkab biotexnologik sistemalarga xos bo‘lgan asosiy ko‘rinishlari va turlari 292
Азимова Ф. Х. Нефть-газ саноатига оид терминлар типологияси 298
Obidova G. K. Ekologik ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish 307
Авлаярова Н. М., Азизова Д. Г., Номозов Б. Ю. Исследование процесса вытеснения газа водой и конденсатом из гидрофильных и гидрофобных пористых сред 312
Ражабов Ш. Проблема оптимального управления, связанная с экологическими проблемами 317
Muydinjonov D. R., Muydinjonov Z. R., Djurayev I .I. Home tutor for mathematics 326
Muydinjonov D. R. , Muydinjonov Z. R., Djurayev I. I. Mathematical economics 330
Muydinjonov D. R., Muydinjonov Z. R., Djurayev I. I. Mathematics and statistics 338

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Мансурова С. Р. Мактабгача ёшдаги болаларнинг гендер фарқлари ва ўзига хосликларини инобатга олиб ўқитиш:муаммо ва ечимлари 342
Musulmonova Sh. T. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi 350
Абдумўминова Л. А. Maktabga tayyorgarlik guruhi bolalarining o'quv faoliyatida o'zini nazorat qilishni rivojlantirishning asosiy yondashishlari 355
Sheraliyaeva M. A. Oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalarning munosabatlar kompetentsiyasi 361
Do'stov S. IV sinfda «tabiatshunoslik» fanini o'qitishda o'quvchi ekologik tafakkurini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda shakllantirish 366
Kenjayeva S. I. Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari (xususan matematika fani doirasida) 373
Asadov N., Temurov S. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar 378
Eshmirzayev G'. Y. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini media vositalar orqali axborot kompetentligini rivojlantirish 383
Adizova N. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini divergent fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni 387
Raxmatova F. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 394

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Султанов Х. Э., Марасулова И. М. Тасвирий санъатни ўқитиш жараёнида мустақил таълимни ташкил этиш 399

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

Qosimov A. N. O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning pedagogik asoslari va imkoniyatlari 404
Ismailova A., Abdikamalov Kh. The process of teaching volleyball to central asian students with the help of interactive technologies 412

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

O‘QITUVCHILAR TAYYORGARLIGINING MAZMUNI, TUZILISHI VA RIVOJLANISH DARAJALARINI BELGILASHDA AQLLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Fayzullayeva D. U.
Samarqand davlat chet tillar instituti
Maxmudova M. M.
Samarqand davlat chet tillar instituti

Tayanch so’zlar: texnologiya, raqamli ta’lim, gadget, oliygoh,maktab,mobil qurilma, muommolar, yechimlar, ma’lumot tarqatish.

Ключевые слова: технология, цифровое образование, гаджет,вуз,школа, мобильное устройство, проблемы, решения, распространение информации.

Key words: technology, digital education, gadget, university, school,mobile device, problems, solutions, information dissemination.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida farmonining **Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish** ustuvor bo‘limini oz ichiga olgan farmoni tasdiqlandi. Ushbu bo‘limning O‘zbekiston Respublikasi hukumati farmoniga kiritilishi yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalarining muhimligini namoyish etadi. Aytish joizki, mazkur taraqqiyot strategiyasi ta’lim dasturimizga bevosita daxldor. [1]. Raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyat uchun raqobatbardosh ishchi kuchi zarur. Bugungi kunda universitet bitiruvchilaridan nafaqat yuqori bazaviy tayyorgarlik, balki axborot va texnologik tayyorgarlik, ya’ni kuchli bilim talab etiladi. Raqamli texnologiyalar va olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, aniqlash, to‘plash va tahlil qilish uchun katta qobiliyat egalari zarur va shart. Ularni tayyorlash uchun kasbiy tayyorgarlik tizimiga, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimiga, shu jumladan, ta’lim tizimiga o‘zgartirishlar va aniqliklar kiritish, raqamli ta’lim vositalarini joriy etish va ularni axborot muhitiga kiritish kerak bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni strategik rivojlanish bo‘yicha 2022-2026-yillar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustivor yonalishlari **«Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish»**ning yangi ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan

edi. Mazkur strategiya bo‘limi doirasida umumta’lim maktablarida zaruriy infratuzilmani yaratish va joriy etish vazifasi muhokamaga qo‘yildi. Infratuzilma deganda quyidagilar nazarda tutiladi va inobatga olinadi:

– talabalar uchun elektron darsliklar yaratish tizimini yo‘lga qo‘yish va onlayn kurslarning mavjudligi;
– talabalar uchun tayyor ta’lim resurslariga ega yangi elektron ta’lim platformasi;
– o‘quvchilar va o‘qituvchilarga dars jarayonida ta’lim mazmuni bilan ishlash imkonini beradigan kompyuter va interaktiv uskuna va vositalar;
– innovatsion raqamli ta’lim yechimlarini qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchilarning malaka darajasini doimiy oshirish [129, 206].

Ta’limni modernizatsiyalash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agar o‘qituvchilar doimiy o‘zgarishlar sub’ekti, yangi ta’lim amaliyotining faol ishtirokchisiga aylanmasa, amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar kutilgan natijalarni bermaydi [165,3]. 2000-yil boshidan boshlab mintaqaviy ta’limni axborotlashtirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida interfaol ta’limiy uskunalar zamonaviy o‘qituvchining ishi uchun zaruriy vosita sifatida maktablarga yetkazib berildi. Biroq o‘qituvchilarni ushbu jihozlardan amaliyotda foydalanishga tayyorlashda tizimli yondashuv yo‘qligi sababli, ta’lim muassasalarida yangi o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish samarasiz bo‘lgan vaziyat yuzaga keldi. O‘qituvchilar o‘quv jarayonida aqlli texnologiyalardan foydalanishga yetarli darajada tayyor emasligi ma’lum bo‘ldi. “Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning aqlli texnologiyalardan foydalanishga tayyorligi” tushunchasi nima? Uning asosiy xususiyatlari va tuzilishi qanday? Quyida shu haqda to‘xtalamiz. Berilgan savollarga javob berishdan oldin yana bir savol – aqlli texnologiyalarning pedagogik salohiyati va ularning ta’lim jarayonining turli jabhalariga ta’siri haqida to‘xtalib o‘tish zarur. Bu masalalar 2000-yillardan boshlab tadqiqotchilarning faol diqqat markazida bo‘lib kelmoqda (I.V.Robert, S.I.Grigoryev, A.V.Xutorskoy va boshqalar). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, aqlli texnologiyalar ta’lim jarayonining barcha jabhalariga ta’sir qiladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

– uni turli darajalarda (mintaqaviy, institutsional) boshqarishdan individual talabaning ta’lim faoliyatini tashkil etishgacha. AKTning joriy etilishi o‘qituvchi faoliyatida ta’lim tizimlari, jarayonlar va vaziyatlarni modellashtirish, loyihalash va qurish funktsiyalarining rolini oshirish bilan birga keladi [59, p. 62].
– ta’lim tizimida axborot ta’lim muhiti shakllantirilmoqda, u yaxlit ko‘p komponentli tizim sifatida qurilishi kerak, uning elementlari o‘quv, ilmiy-tadqiqot, nazorat va baholash tizimi talablarga javob beradigan, atrof-muhitning o‘zi esa maksimal darajada o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lishi shart.

– oʻquv jarayoniga aqlli texnologiyalarning toʻgʻri joriy etilishi oʻquvchilarning oʻquv faoliyatiga va lingvistik kompetensiyasiga boʻlgan ishtiyoqini oshiradigan omil hisoblanadi. Bu axborot-ta'lim muhitining quyidagi xususiyatlari tufayli mumkin boʻladi: raqamli texnologiyalardan samarali foydalangan holda har bir talaba uchun individual tarzda trayektoriyani qurish va joriy etish qobiliyati; treyningda tezkor va aniq fikr-mulohazalarni taqdim etish;
– auditoriya va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida yangi avlod oʻquvchilarining idrok etish xususiyatlari va ehtiyojlariga muvofiqligi hisobga olinadi (virtual va toʻldirilgan reallik, aqlli texnologiyalar, onlayn oʻquv simulyatorlari); onlayn muhitda oʻquv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan oʻzaro aloqa qilish, bitta loyihada bulutli dasturiy ta'minotda ishlash.

Shuni ta'kidlash kerakki, aqlli texnologiyalar oʻqituvchiga dars davomida turli xil ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi: tovush, matn, vizual. Ushbu oʻquv vositalarining afzalligi – axborotni saqlash, qayta ishlash va oʻquvchilarga taqdim etishda koʻp qirrali hisoblanadi. Oʻz navbatida, raqamli vositalardan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayoni oʻqituvchidan uning oldida turgan pedagogik vazifa, turli vosita va shakllar, oʻqitish usullari va oʻziga xos dasturiy oʻquv vazifalarini loyihalash, yaratish va ulardan unumli foydalanish qobiliyatini talab etadi [19, 16].

Shu munosabat bilan ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishda oʻqituvchining oʻquv-tarbiya jarayonida yangi oʻquv vositalaridan samarali foydalanishga tayyorligi, didaktik vazifani toʻgʻri anglashi va etishi orqali fikrlash muammosi yuzaga keladi. Quyidagi savollarning tugʻilishi tabiiy: hozirgi kunda pedagoglar raqamli ta'limni amaliyotga joriy etishga tayyormi? Oʻqituvchilarning raqamli ta'lim vositalaridan, jumladan, «aqlli texnologiyalar» dan foydalanishga tayyorligini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud va zarur? Bu savollarga javob berish uchun biz birinchi navbatda quyidagi konseptsiyani koʻrib chiqishimiz kerak. Zamonaviy ilm-fanda tayyorgarlik – bu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti sifatida, shaxsni kelajakdagi faoliyatini oʻsishiga qaratilgan va tanlab olingan faoliyat sifatida ta'riflanadi [26, 4]. Tadqiqotchilar tayyorlik nafaqat zaruriy shart, balki faoliyatni tartibga soluvchi ham ekanligiga e'tibor berishadi [179, 7]. Bu pozitsiya kontseptsiya sifatida tayyorlik gʻoyasini kengaytiradi, ammo u qisman qolmoqda, chunki faqat bitta xususiyatni qoʻshish kontseptsiyani yaxlit tavsiflash uchun asos boʻla olmaydi. Bundan tashqari, regulyatorni kasbiy faoliyatga tayyorlik belgisi sifatida ajratib koʻrsatish haqiqati biz uchun bahsli koʻrinadi. Psixologik tadqiqotlarda tayyorgarlik tarkibiga faqat samarali bilimlar, shuningdek, faoliyatning eng

katta mahsuldorligini ta’minlaydigan shunday shaxsiy xususiyatlarni kiritishiga e’tibor qaratiladi [128, 11]. Biz bu xulosaga qo‘shilishimiz mumkin. Shu bilan birga, bilimning samaradorligi uning sifatining belgisi bo‘lib, uni boshqa ko‘plab tushunchalarga qo‘llash mumkin deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. Fayzullaeva Dilnoza Ubaydulloevna,Proceedings of international Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow,The use of digital technologies in english lessons,RussiaDate: 11th February, 2023ISSN: 2835-5733Website:econferenceseries.com ,10-14p

2. Fayzullaeva Dilnoza Ubaydulloevna,Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and HumanitiesHosted,The role of intelligent and informational technologies in teaching english as a foreign learning, online from Plano, Texas, USA.Date: 1st March, 2023ISSN: 2835-3196We bsite:econferenceseries.com,126-129p

3. Fayzullaeva Dilnoza Ubaydulloevna, International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India, O‘qituvchilarning aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorligini rivojlantirish modelini loyihalash,https: econferencezone.org 24th May, 2023.4-7p

4. Fayzullayeva Dilnoza Ubaydullayevna ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297 Сўз санъати халқаро журнали 6 жилд, 1 сон increasing the activity of students in education through the use of digital technologies OAK jurnali 128-131b

5. Fayzullayeva Dilnoza Ubaydulloyevna,Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi,2023-5/3Raqamli transformasiya jarayonida pedagog kadrlarni malakasini oshirishda aqlli texnologiyalarni o‘rni 152-156 b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta’limda raqamli texnologiyalar orqali o’quvchilarning ta’limdagi faolliklarini rivojlantirish borasida fikr yuritiladi. Shu bilan birga ta’limda raqamli texnologiyalarni qo’llash haqida qisqacha ma’lumot beradi. Undan so‘ng ta’limda raqamli texnologiyalarning muammolari va ularning kelajagi haqida munozara bo‘yicha fikr yuritiladi. Axborot texnologiyalari barcha fanlar va yo’nalishlardagi umumiy bilimlarni tarqatish va ma’lumotlarni to’plash, jamlash uchun paydo bo’ldi va ta’lim jarayonidagi asosiy kuchi hisoblanadi. Ayni damda O’zbekistonning chekka hududlaridagi maktab va litsey, kollej, oliygohlarga hamraqamli texnologiyalar va mobil qurilmalar kirib borgan, buning natijasida o’quvchi yoshlar ulardan erkinlik bilan foydalanmoqdalar.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается развитие образовательной деятельности студентов посредством цифровых технологий в образовании. При этом даётся краткая информация об использовании цифровых технологий в образовании. Затем следует обсуждение проблем и будущего цифровых технологий в образовании. Информационные технологии появились как для распространения общих знаний по всем дисциплинам и направлениям, так и для сбора и обобщения информации и являются основной силой в образовательном процессе. На данный момент цифровые технологии и мобильные устройства проникли в школы и лицеи, колледжи и вузы отдалённых районов Узбекистана, в результате чего ими свободно пользуется учащаяся молодёжь.

SUMMARY

In this article is discussed the development of students’ educational activities through digital technologies in education. At the same time, it provides brief information about the use of digital technologies in education. This is followed by a discussion of the challenges and future of digital technologies in education. Information technologies appeared for the distribution of general knowledge in all disciplines and areas, and for collecting and summarizing information, and is the main force in the educational process. At the moment, digital technologies and mobile devices have penetrated into schools and lyceums, colleges, and universities in remote areas of Uzbekistan, as a result of which young students are using them freely.

PEDAGOGIKA FANINI O`QITISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Rashidova G. G‘.
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o‘qituvchisi(PhD)
Soyimnazarov N. B.
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Psixologiya fakulteti talabasi

Tayanch so‘zlar: mutafakkir, tafakkur, axloq, adabiy-estetik, kamoloti, dahosi, ta’lim-tarbiya, barkamol, meros.

Ключевые слова: мыслитель, созерцание, мораль, литературно-эстетическое, зрелость, гений, воспитание, гармония, наследие.

Key words: thinker, thinking, ethics, literary-aesthetic, maturation, genius, education, perfection, heritage.

O‘tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o‘gitlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o‘rganish xalqimizning ma’naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo‘lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sharq mutafakkirlaridan biri, o‘zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o‘rganish, undan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’n –u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z sa’natkoridir. Ulug‘ shoir o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo‘shdi, umuminsoniy fazilatlar to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir. Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma’naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o‘rin oldi. Mustaqil O‘zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O‘zbekiston Davlat mukofoti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti, Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Opera va balet akademik teatri, O‘zbekiston Davlat

kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi. Navoiy, nafaqat o'zbek xalqi, balki butun dunyo, Sharq-u G'arb xalqlarini o'ziga rom etgan shoir. U kishining asarlarini hamma birdek sevib o'qiydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bu haqida shunday yozgan edilar: «O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa".

Alisher Navoiy deyarli barcha g'azallarida adolatli va ma'rifatparvar podsho hamda markazlashgan davlat uchun kurash g'oyasini ilgari suradi. Navoiyning fikricha, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, yurt osoyishtaligi, avvalo, hukmdorning o'ziga, uning shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi. Buyuk alloma Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy o'zi yashagan davrdagi insonlarning fe'l-atvorini uzoq sinchiklab kuzatdi. U o'z kuzatishlarini, ko'rgan-bilganlarini bir-biriga taqqosladi, ulardan tegishli xulosalar chiqardi. Alisher Navoiy "Mahbub-ul qulub" asarida quyidagilarni yozadi: "Har ko'cha-kuyda

yuguribman va olam ahlidan har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe’l-atvorini bilibman, yaxshi-yomon xislatlarni tajriba qilibman, yaxshilik va yomonlikning asalini ham, zaharini ham totib ko‘rdim. Xasislarni va karamlilar yetkazgan yara va bergan malhamni ko‘nglim tagi-tugi bilan sezgandir. Bir xildagi hamsuhbat va do‘stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rindiki, har toifaning xislatlaridan ma’lumotlari va har tabaqaning ahvolidan bilimlari bo’lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar”.

Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo‘lishga da’vat etadi hamda axloqni bunday ta’riflaydi: “Axloq shaxsning og‘ir baqolig‘ libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir”. Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir.

Oltin, kumush etma kasb davlat kunidin,
Kim tortar adab ulusni davlat tunidin,
Gar yo‘qdir adab ne sud oltin uni din,
Elning adabi xushroq erur oltundin.

Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi: Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta’riflaydi. Alisher Navoiyning yoshlar tarbiyasiga bog‘liq, ularning yaxshi fazilatlaridan biri bo‘lmish, yolg‘on so‘zlamaslik haqida tarbiyaviy ahamiyatga ega Sher va Durroj asari ham mavjud. Ushbu asarda Durroj chin gapirish o‘rniga yolg‘on gapirib, sherni aldagani va kunlardan bir kun bir falokat tuzog‘iga ilingani, endi esa chin so‘zni aytsada sher yolg‘on deb o‘ylab, bunaqa yolg‘onlarni u ko‘p eshitgani uchun (durrojning) chin qichqirig‘ini ham yolg‘on deb gumon qildi. U qancha rostakamiga qichqirmasin, rostini ham yolg‘on deb hisobladi. Uni qutqarish uchun iltifot ko‘rsatmadi; natijada uning hayoti qirqildi. Kimki beixtiyor rost gapirsa, yolg‘on gapirsa ham, xalq uni rost deydi. So‘zda, Navoiy, nima desang ham rostini gapir; rostni kuylagan ohanglarga tahsin ayt. Ey soqiy, yoqimli qadahni olib kel, uning bir qultumi bilan sherni oladigan qil. Bazmning asboblariga tartib ber, six, kabob, tovoqlarni ham hozir et degan edilar. Bu asar yoshlar tarbiyasida ahamiyatga molik durdona asar hisoblanadi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi nazarimda.

Navoiy asarlaridagi aql-zakovat durdonalarini o‘zlashtirish ham barkamollikka erishishning muhim omillaridandir. Jumladan Navoiyning

“Mahbub ul-qulub” asaridagi adabiy-estitik, inson va uning kamoloti haqidagi qarashlar undagi ulug‘ mutafakkirning umri davomida ko‘rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, hayotiy tashvishlarining qalb qatlam-u qavatlaridan sizilib chiqqan lo‘nda, umumlashma-xulosalari o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, uning ikkinchi qismida ma’naviy barkamollikka oid qator fazilatlar sharhlanadiki, ulardan yoshlarimiz uchun eng zarurlaridan biri qanoatdir. Qanoatga shunday ajoyib ta’rif beriladi: “Qanoat – bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. Yana asarda inson komillikka yetishishida safarning foydali jihatlari haqida yoritilganligi shak-shubhasiz o‘rinlidir fikri ojizimcha.

Turg‘un yer qayda-yu. aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Biri qimirlamay turgani uchun kishilar oyog‘i ostida poyandoz bo‘ldi; ikkinchisi esa, harakatda bo‘lgani tufayli, yuksaklarning yuksagi bo‘ldi. Azob va mashaqqat tavoze va adabning negizidir. Safar esa ranj-mashaqqatga sababdir. Safar - erituvchi va kuydiruvchi ko‘radir. U erish- kuyish esa er kishining vujud oltinini toblab xom gildan tozalovchidir. Safar - ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlami murod uyiga olib kiruvchidir. Safar - xom odamlami pishiruvchi va taomlami singdiruvchidir. Safar kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, g‘aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi. Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga musharraf va mukarram bo‘lmoq ham safardan; fayzli, ulug‘ zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safardan. Yo‘lovchining yurishiga quvvat beruvchi ham safar va ko‘ngliga har tomonga bonsh zavqini soluvchi ham safar. Musofirni turli joy va manzillar bilan tanishtiruvchi ham u; dunyoni kezish yo‘liga soluvchi ham u. Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi ham u; achchiq-chuchukdan ko‘ngilni ogohlantiruvehi ham u. Safar vodiysida musofirning oyog‘iga ko‘p dard-u balo tikanlari sanchdadi, lekin har qadalgan tikandan bir maqsad guli ochiladi. Yo‘l mashaqqati zarbidan kishining a’zoyi badani qaqshaydi: vujudi yo‘lovchilar oyog‘i bilan toptaladi va har a’zosi u oyoqlar ostida ushaladi. Ammo, ko‘nglining vayronligi tuzaladi va ruhi ko’zgusi ravshan tortib, jilo topadi. Har o‘lkaning go‘zalligi, har manzilning osoyishtaligini safarda yuruvchilardan so‘ra va musofirlardan eshit. Odam uchun doim harakatda bo‘lish – hayotlikdan asardir; jonsiz mavjudotlar - tiriklik nishonasidan bexabardir.

Alisher Navoiy do‘stlikni ulug‘laydi, shu bilan birga soxta, g‘araz bilan do‘st bo‘luvchi kishilarni qoralaydi. Alisher Navoiyning asarlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Dilorom, Qays, Shopur kabi ijobiy qahramonlar umuminsoniy tarbiya asosida tarbiyalanganlar, kamtarin, odobli, or-nomusli insonlardir.

Bu qahramonlar orqali yoshlarni ulardan ibrat olishga chorlaydi. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o‘z asarlarida har bir so‘zdan unumli va o‘rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo‘ladi. Ulug‘ shoir o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo‘shdi, umuminsoniy fazilatlar to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch . T- Ma`naviyat 2008
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.Yigirma jildlik. 16-jild. T.: “Fan”, 2000. B. 26
3. Tursunova D.Z Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari (2021)
4. Gulomovna, R. G. (2022). Talabalarda pedagogik muhitni shakllantirish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining, shaxs kamoloti va ta’lim-tarbiyadagi roli va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta’limiy-axloqiy qarashlari shaxsning shakllanishining fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье высказывается мнение о роли и значении трудов великого мыслителя Алишера Навои в развитии личности и воспитании. Освещены взгляды Алишера Навои на формирование совершенного человека, его учебно-нравственные взгляды на значение становления личности в развитии мысли.

SUMMARY

This article comments on the works of the great thinker Alisher Navoi, the role and importance of personality maturation and education. Alisher Navoi’s views on the formation of a perfect person, his educational and moral views are highlighted by the importance of the formation of an individual in the development of thought.

ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎРГАНИШДА НОФИЛОЛОГИК МУТАХАССИСЛИКЛАР ТАЛАБАЛАРИ ЎРТАСИДА МОТИВАЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Пирматова А. В.
Чирчиқ давлат педагогика университети таянч докторанти

Таянч сўзлар: нофилологик, инглиз тилини ўрганиш, чет тили, техник университет, интеграция, касб, мотивация, фаолият, тил таълими сифати.

Ключевые слова: нефилологический, изучение английского языка, иностранный язык, технический вуз, интеграция, профессия, мотивация, активность, качество языкового образования.

Key words: non-philological, English language learning, foreign language, Technical University, integration, profession, motivation, activity, quality of language education.

Бугунги кунда чет тилини билиш нафақат инсоннинг ижтимоий-маданий фазилатларининг бир қисми, балки шахсий алоқа шароитида ҳам, ишлаб чиқариш фаолиятида ишбилармонлик алоқаларини таъминлашда ҳам коммуникатив вазифаларни самарали ҳал этиш зарурати бўлиб, бу замонавий мутахассиснинг ушбу соҳада тенг ҳамкорлик қилиш имкониятини яратади. Бошқа маданият вакиллари билан мулоқот, маданиятлараро мулоқотнинг турли соҳаларида ва вазиятларида иштирок этишда ёрдам беради. Нофилологик талабаларда инглиз тилини ўрганиш инглиз тилининг коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга қаратилган унинг таркибий қисмларидан бири ижтимоий-маданий, коммуникатив компетенциядир. Компетенция шахснинг ажралмас характеристикаси сифатида унинг билим, таълим ва ҳаётий тажриба, қадриятлар ва мойилликлардан фойдаланган ҳолда Реал ҳаётий вазиятларда юзага келадиган муаммолар ва типик вазифаларни ҳал қилиш қобилиятини белгилайди [1]. Лингвистик бўлмаган университетда инглиз тилини ўқитиш муаммоси тўлиқ ҳал қилинмаган. Албатта, тилни ўзлаштиришни касбни ривожлантириш билан бирлаштириш, талабаларнинг инглиз тилини ўрганишга бўлган қизиқишини рағбатлантириш, мавзунинг келажакдаги касб билан боғлиқлиги тўғрисида хабардорликни ошириш керак. Касбий йўналтирилган инглиз тилини ўзлаштириш талабаларнинг шахсий фазилатларини ривожлантириш, ўрганилаётган тил мамлакати маданиятини билиш ва касбий ва лингвистик

билимларга асосланган махсус кўникмаларни эгаллаш билан бирлаштирилиши керак. [2]. Шу мақсадда ўқув жараёни дарсдан ташқари ишлар билан биргаликда дарсларнинг фаол ва интерактив шаклларидан кенг фойдаланишни таъминлайди. Мутахассислик бўйича инглиз тилини ўқитишнинг мавзу контекстини аниқлаш керак:

1) ўқув жараёнини намунавий вазифаларни ҳал қилишда талабаларнинг амалий ҳаракатлари учун касбий билим манбалари сифатида махсус ҳақиқий матнлар билан ресурс билан таъминлаш;

2) касбий фаолиятда келажакдаги макон ва хулқ-атворнинг етарли моделини яратишга ҳисса қўшадиган касбий фаолиятнинг одатий ҳолатлари каталоги;

3) ахборот ресурсларига кириш, шу жумладан онлайн, шу жумладан мутахассисларнинг роли хусусиятлари ва уларнинг касбий функцияларини акс эттириш;

4) хорижий тилларни ўқитишнинг замонавий технологияларидан фойдаланган ҳолда ўқитувчилар томонидан тайёрланган тақдимот материаллари.

Нофилологик муассасаларда инглиз тилини ўқитиш жараёнида фойдаланиладиган ўқув материаллари аниқ прагматик муносабатга эга бўлиши керак. Улар мураккаблик даражасига кўра махсус танланган матнлар ва вазифаларни ўз ичига олиши, талабаларнинг тайёргарлиги, уларнинг қобилиятлари ва нутқ қобилиятлари ва қобилиятларини шакллантириш даражасини ҳисобга олиши, шунингдек, муайян фаолият соҳасидаги замонавий ютуқларга йўналтирилиши, илмий кашфиётларни акс эттириши керак. Талабаларнинг касбий қизиқишлари, уларга касбий ўсиш имкониятини бериш, инглиз тили дарсларида олинган билимларнинг келажакдаги касбий фаолияти учун амалий аҳамиятини англаш лозим.

Ижтимоий контекст таълимнинг мақсад ва вазифаларига йўналтирилган, таълим ва касбий фаолият кўринишидаги ҳаракатлар ва ҳаракатларни тартибга солиш учун талабаларнинг интеллектуал ва ижтимоий фаоллигини рағбатлантирадиган бир қатор мураккаб технологиялар ва воситаларни ўз ичига олади:

– касбдаги тренинглар тўплами;
– ҳамкорликнинг ҳақиқий шароитларини моделлаштириш;
– лойиҳа фаолиятининг якуний маҳсулоти тақдимоти;
– юзага келадиган муаммолар ёки ҳолатлар бўйича аниқ вазиятларни ҳал қилиш усули.

Масалан, муайян вазият бир неча шаклларда тақдим этилиши мумкин: кўнгилочар ҳикоя ёки амалиётдан мавжуд иш; ечимни талаб қиладиган жумбоқ; таҳлили қўшимча маълумот излашни талаб қиладиган маълумот-

лар ҳажми; келажакда вазиятни давом эттириши мумкин бўлган долзарб муаммо; асосий нарсага тўғри келадиган кўпроқ ёки камроқ типик вазият-саволнинг» назарияси «[3]. Ҳеч шубҳа йўққи, «ўқитувчи фаол иштирокчи... касб-ҳунар таълими тизими. Таълим жараёнининг бошқа иштирокчилари билан ўзаро муносабатларнинг мақбул шаклларини топишга ҳаракат қилади»[4]. Бу билим, кўникма ва қобилият каби таълим компонентлари билан бирга шаклланадиган талабанинг билим фаолиятига сезиларли таъсир қилади; ва мотивлар, қизиқишлар, муносабатлар каби мотивацион. Айнан мотивацион компонентлар талаба учун у ўрганган ва ўзлаштирган нарсаларнинг аҳамиятини, унинг ўқув фаолиятига муносабатини, унинг мазмунини, ишлаш усулларини ва фаолият натижаларини белгилайди. Инглиз тилини ўрганишга ажратилган соатлар сони сезиларли даражада кам бўлган тил факултетлари ва тилсиз факултетлар талабаларининг мотивацияси фарқ қилади. Шу билан бирга, «махсус факултет талабалари тилни онгли ва мақсадли ўрганадилар - бу уларнинг келажа гикасб.....улар дастлаб ушбу мавзу бўйича чуқур билим олишдан манфаатдор [5]. Лингвистик бўлмаган мутахассисликлар талабаларининг мотивациясининг етишмаслиги ўқитувчининг ишини сезиларли даражада мураккаблаштиради ва муайян мақсад ва вазифаларни белгилайди. Мотивация биз томонидан фаолият манбаи ва шахсни ҳаракатлар ва нарсаларга йўналтириш манбаи сифатида кўриб чиқилади, бунинг натижасида ақлий ва нутқий эҳтиёж, фикрга, сўзга эҳтиёж пайдо бўлади. «ёзма ва оғзаки нутқ материаллари,.. диалогик нутқ алоқасини амалга оширади. Нутқни тасарруф этишнинг фазовий-вақтинча тақсимланишида ҳаётий фаолиятни ривожлантириш воситаси сифатида «[6]. Фаолиятни амалга ошириш учун фақат истак шаклида эҳтиёжга эга бўлиш етарли эмас. Бу мотивацияни талаб қилади, бу эҳтиёжларга жавобан фаолиятнинг мотиватори бўлади, унга маълум бир аниқ йўналишни беради, уни маълум бир эҳтиёжни қондиришга йўналтиради, ушбу фаолиятни рағбатлантиради. Инглиз тилини муваффақиятли ўзлаштириш учун мотивация ҳар бир алоҳида кўриб чиқилган алоҳида ҳолатда ҳаракат қилиш учун рағбатдир. Биз инглиз тилини ўрганишни ўйлаяпмиз. Инглиз тилини ўрганаётганда, битта талаба дарсларга қатнашгани ва маълум миқдордаги ҳисоботларни топширгани учун ваъда қилинган мукофотга эга - тест, савол жавоб, имтиҳон, бошқа талаба эса хорижий асл манбалардан инглиз тили билимларини олади. Биринчи ҳолда, ҳар бир шахсга нисбатан мотив ҳам ички, аммо таълим фаолиятига нисбатан у ташқи ҳисобланади. Иккинчи ҳолда, ўқувчини фаолиятга ундайдиган мотив шахсга нисбатан ҳам, таълим фаолиятига нисбатан ҳам ички ҳисобланади. Шундай қилиб, мотивациянинг бажарилган фаолиятнинг мазмуни ва хусусиятлари билан боғлиқ-

лигига қараб, биз ички ва ташқи мотивация ҳақида гапиришимиз мумкин. Ташқи мотивация ўқув фаолиятидан ташқари омилларга боғлиқ. Улар ижобий ва салбий бўлиши мумкин. Икки йўналишнинг мотивациясини кўриб чиқишимиз мумкин:

1) жамоатчилик фикри, жамият олдидаги бурч ҳисси туфайли, жазодан, норозиликдан, қоралашдан ва қоралашдан сақланиш учун пайдо бўладиган ижтимоий мотивация) ёки талабанинг машғулотларда юқори натижаларга эришишига ва сифатли таълим олишига умид қилган қариндошларига (улар билан ишлаш қобилияти). касбий ўсиш ва муваффақиятли мартаба зинапоясини қуриш учун олинган тил кўникмалари ва бошқалар.

2) индивидуал йўналтирилган мотивация (ижобий ёки салбий) мотивацияга асосланган талаба баҳолаш, мақташ, рағбатлантириш, мукофотлаш ва ҳоказоларни олиш учун таълим фаолиятини амалга оширади. Огоҳлантирувчи-бу таҳдид, жазо, танбеҳ, ёмон баҳо, синфдошлари орасида тенг бўлмаган мавқеини англаш (бошқа синфдошлар фонида билим даражаси етарли эмас) ва ҳоказо. Биз бундай стимуляторларни салбий мотивацияга боғлашимиз мумкин, уни авторитар шакл, қўрқувни шакллантириш шакли деб ҳисоблашимиз мумкин, бу кўпинча инглиз тилини ўқитишда намоён бўлади. Кўпинча ўқитувчи талабаларга қарши чиқади, у эътирозларга тоқат қилмайдиган императив оҳангга эга. У талабада ҳукмронлик қилади, уни ўзига бўйсундиради, уни бошқаради, виждон ва онгга чақиради, гарчи илгари таъкидланганидек, «ўқитувчининг мақсади ўқув жараёнини мақбул равишда қуриш, аниқ ўқув муҳитини ҳисобга олган ҳолда компонентларни ижодий қўллашдир[7]. Талаба биринчи навбатда ўзига, ўқитувчига ва бошқаларга қила олишини, муваффақиятга эришишини исботлашга ҳаракат қилади. Ҳар бир талабанинг когнитив эҳтиёжлари ва интеллектуал имкониятлари муҳим роль ўйнайди. Ўқитувчи томонидан қўйилган вазифани ҳал қилиш бир неча жиҳатлардан иборат бўлиб, «ўқитувчининг муваффақияти у ўз олдига қўйган мақсадларга эришиш билан белгиланади» [8]. У талабаларнинг психологик ва педагогик хусусиятларини гуруҳда ҳам, индивидуал равишда ҳам ҳисобга олиши керак. Ва агар талаба «ривожланган кўникмаларни ўз она тилида мулоқот соҳасига ўтказишга муваффақ бўлса, шу билан у ўзининг коммуникатив тажрибасини бойитади ва буни инглиз тилида қандай қилишни ўрганади» [9]. Инглиз тилини ўзлаштириш жараёнини касбни ривожлантириш билан бирлаштиришнинг дастлабки босқичи талабанинг билим фаолиятига асосланади ва қуйидагиларни ўз ичига олади:

– мажбурий умумий илмий-техник атамаларни ишлаб чиқиш асосида турли жиҳатларда чет тилидаги нутқ фаолияти кўникма ва малакаларини шакллантириш;

– тасвирий маълумотларни жалб қилган ҳолда ўқилган матн асосида индивидуал тушунчалар учун лексик ва семантик майдонларни тузиш;
– изоҳларни таржима қилиш ва тузиш бўйича тренинг ва бошқалар.

Бундан ташқари, матнлар мавзуси талабаларнинг касбий қизиқишлари туфайли кенгайтирилиб, уларни нашрлардан олиш мумкин. Катта курсларда талабалар касбий мулоқот кўникмаларини, янада мураккаб мутахассислик бўйича илмий-техник матнлар билан ишлаш қобилиятини, бизнес ва ролли ўйинлар доирасида касбий фаолиятни моделлаштиришни ўзлаштирадилар.

Ўқув жараёнида амалий таркибий қисмни ошириш вазифаси, шубҳасиз, ўқувчиларнинг ўзларини ўқув жараёнига фаол жалб қилиш орқали ҳал қилиниши керак. Талабаларнинг мустақил ишини ташкил этишнинг зарурий шарти бу зарур маълумотларни излаш, мақсадларни аниқлаш, таҳлил қилиш, гипотезаларни илгари суриш ва уларни синаб кўриш, таснифлаш, умумлаштириш, ўз нуқтаи назарини баҳслашиш, шерик билан келишилган қарорларни қабул қилиш ва хулосалар чиқариш кўникмаларини шакллантиришдир. уларнинг нуқтаи назари ёзма ва оғзаки шаклда.

Мустақил ишларни бажариш жараёнида талаба маъруза ёзувлари билан ишлайди, инглиз тили манбаларидан ҳақиқий материалларни танлайди, компютер тақдимоти билан ҳисоботлар тайёрлайди, интернетда маълумот, ўқув ва маълумотномаларни қидиради ва ҳоказо.

– ўқув дастурига мувофиқ ушбу фанни ўрганиш учун ажратилган бутун давр мобайнида назорат бўлимларининг тизимли табиати;
– ўқув режаси ва жадвалида белгиланган муддатда ҳар бир ўқув модулини ишлаб чиқиш учун ҳар бир талабанинг мажбурий ҳисоботи;
– ҳар бир талаба ишининг мунтазамлиги, ўқув интизомининг тегишли даражасини шакллантириш, ишдаги масъулият ва изчиллик;
– талабалар, ўқитувчилар ва маъмурий органлар ўртасида фикр-мулоҳазаларни тақдим етиш, бу сизга ҳар бир талабанинг ўқув ва когнитив фаолияти муваффақиятини мослаштиришга имкон беради;
– курс давомида ҳар бир талабанинг ўқув фаолиятини назорат қилиш учун ўқитувчининг жавобгарлиги [10].

Энг кенг тарқалган замонавий баҳолаш воситалари мониторинг, рейтинг, портфел, тест ва бошқалар. Амалда сўровлар, тестлар, якуний малака ва бошқа турдаги баҳолаш ишлари, тезислар, ҳисоботлар, тестлар ва имтиҳонлар каби анъанавий баҳолаш воситалари ўз аҳамиятини йўқотмайди.

Шундай қилиб, чет тилини ўқитишнинг касбий йўналиши ушбу фанни ихтисослаштирилган фанлар билан бирлаштиришни, ўқув материаллари мазмунини синчковлик билан танлашни талаб қилади, чунки ушбу фан-

ни ўрганиш ихтисослаштирилган фанларни ўрганишдан кам эмас. Инглиз тили ёрдамида ҳақиқий мулоқотга максимал яқинлашиш турли соҳалардаги мутахассисларнинг кенгроқ касбий ўзини ўзи англашига ҳисса қўшадиган таълим, касбий, илмий ва ишлаб чиқариш ҳолатларида юзага келиши керак.

Талабани «қўзғатиш», қизиқтириш, уни инглиз тилини ўрганишга ундаш, турли услубий методлар ва шахсий тажрибадан фойдаланиш, инглиз тили воситалари тингловчиларга тарбиявий таъсир кўрсатиши ва «ўқув жараёнида диққат ва ташкилотчилик каби хусусиятларни шакллантириши, ...тингловчиларнинг нутқ фаолиятини ўқитиш ва амалга ошириш учун зарур».

Адабиётлар:

1. Абрамова А. В., Шербакова О. В., Мурнева лингвистик бўлмаган факултетларда инглиз тилларини ўқитиш. Муаммоларни ўқитувчи қиёфаси призмаси орқали ҳал қилиш (Россия университети талабаларининг амалий кузатувлари асосида). - Социосфера, 2017. 96-Б.

2. Баукина С. А., Самойлова Е. В. чет тилида ишбилармонлик алоқасининг социолингвистик жиҳати / / гуманитар Фанлар ва таълим. - Саранск, 2016. - № 1 (25) . - Б. 97-100.

3. Мурнева М. И., Шестакова Н. А. техник факултетда инглиз тили ўқитувчилари ишининг услубий хусусиятлари/ / энергия тежайдиган ва ресурсларни тежайдиган технологиялар ва тизимлар: университетлараро илмий тр тўплами. / таҳририят кенгаши: Сенин П. V. ва бошқ. - Саранск: Мордовия нашриёти. БМТ-та, 2016. - 588 б.

4. Самойлова Е. В. ёш ўқитувчиларнинг касбий фаолияти стратегиялари / шахс, жамият, давлат, ҳуқуқ. 2012 йил 15-16 октябр 2 халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Пенза-Прага-Қўли: , 2012. - Б. 35-38.

5. Самойлова Е. В. техник университет талабаларига чет тилини ўқитишнинг долзарб муаммолари. / Ўзгарувчан дунёда таржима: халқаро илмий - амалий конференция материаллари, Саранск, 19 йил 20-2015 март-Москва: «Азбуковник» нашриёт маркази, 2015 йил. - Б 562-564.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада инглиз тили ўқитувчисининг инглиз тилини ўрганаётганда талабалар ўртасида мотивацияни шакллантиришдаги роли муҳокама қилинади. Мақолада нофилологик талабалари томонидан мавзу ва ижтимоий контекст доирасида касбга йўналтирилган инглиз тилини ўзлаштириш жараёни келтирилган. Инглиз тилини ўзлаштириш жараёнини касбни ривожлантириш билан интеграция қилиш босқичлари, мутахассисларнинг ўзини ўзи англашига ҳисса қўшадиган талабаларнинг мустақил ишларининг роли белгиланади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается роль преподавателя английского языка в формировании мотивации у студентов при изучении английского языка. В статье представлен процесс овладения профессионально ориентированным английским языком студентами-нефилологами в контексте предметного и социального контекста. Определены этапы интеграции процесса овладения английским языком с освоением профессии, роль самостоятельной работы студентов, способствующей самореализации специалистов.

SUMMARY

This article discusses the role of an English teacher in shaping motivation among students when learning English. The article presents the process of mastering professional-oriented English by non-philological students in the context of the subject and social context. Stages of integration of the process of mastering the English language with the development of the profession, the role of independent work of students contributing to the self-realization of specialists is determined.

ANTONIMLARNI O‘RGANISHNING LISONIY VA KOGNITIV JIHATLARI

Xusanova G. T.

Farg’ona davlat universiteti Boshlang’ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: til, antonim, kognitsiya, kognitiv qiziqish, lisoniy bilish, antonimik paradigma , kognitiv yondashuv.

Ключевые слова: язык, антоним, познание, познавательный интерес, языковое познание , антонимическая парадигма, когнитивный подход.

Key words: language, antonym, cognition, cognitive interest, linguistic cognition , antonymic paradigm, cognitive approach.

Olamni bilishni tilsiz tasavvur qilish qiyin. Atrof-olamdagi bor narsa va hodisalar, voqeliklarni anglash, ular haqida tinglovchilarda tasavvur hosil qilish uchun lisoniy vositalar, ya’ni so‘zlar, iboralar, gaplar va ularning birikmalari xizmat qiladi. Har qanday so‘z inson bilgan narsalarga nom beradi.

Nomsiz ob’ekt inson bilgan va kashf etgan olam uchun sanoqli va bundaylari noma’lum deyish ham mumkin. Inson bolasi so‘zni bilishi mumkin lekin ularning barchasini ilk davrlardayoq ob’ektlar bilan bog‘lay olmaydi. Ya’ni u so‘zni biladi, ammo so‘z o‘zi nima ekanligini anglamaydi. Demak, uni real olam haqiqatlari bilan bog‘lay olmaydi. So‘z nafaqat nomlaydi, belgilaydi, balki umumlashtiradi. Tildagi leksik-semantik tizim ob’ektlarini ko‘rib chiqishga lingvokognitiv yondashuv olamga alohida qarashni shakllantirmaydi, chunki uning ob’ektlari tadqiqotchining diqqatini jalb qiladigan so‘zlardir. Lingvokognitiv yondashuv lisoniy vositalarning xususiyatlarini emas, balki insonning ob’ektiv olamni ular yordamida ongida qanday aks ettirishi va uni o‘z nutqida til vositalaridan foydalanib qo‘llashga bo‘lgan urnishini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

муни, намоён бўлиш шакллари туғрисидаги билимларнинг мажмуаси бўлган замонавий аксиология, яъни қадриятшуносликнинг асосларини ўргатиш ниҳоятда муҳим. Ана шу сабабдан ҳам умуминсониятнинг қадрлаш меъёрлари борасида тўплаган ютуқларини умумлаштирган билим соҳалари имкониятидан фойдаланиш таълим-тарбия самарадорлигининг асосий мезонларидан биридир. Қадриятлар жамиятимизнинг бойлиги бизнинг миллий ифтихоримиз. Уларни авайлаб асраш ва муҳофоза қилиш барчамизнинг бурчимиздир. Дарҳақиқат маҳалла, туман, шаҳар ва вилоятлар, мамлакатлар ҳам оилалардан ташкил топади. Демак, оиланинг жамиятдаги муҳим ўрни, ма'навияхлоқий, тарбиявий аҳамияти, қадр-қимматини англаш ва шу ижтимоий педагогик вазифаларни амалга ошириш бугунги долзарб масаладир. Шундай экан талаба ёшларни энг аввало бадиий қадрятга йўналтиришнинг энг асосий омили оила, маҳалла ва оилй ўқув юртлари муҳум рол ўйнайди десак муболаға бўлмайди.

Талабаларни бадиий қадриятларни шакллантиришда қуйидагиларни бажар олиши зарур.

– бадиий таҳлил турлари ва уларни асарга тадбиқ этиш йўлларини амалга ошириш;
– бадиий асарни ҳар томонлама чуқур таҳлил ета билиш;
– жаҳон адабиёти ва адабиётшунослиги тажрибаларини миллий адабиётга
– қўллай билиш;
– бадиий таҳлил методлари тарихини англаш;
– барча турдаги асарларни таҳлил ета олиш.

Бадиий қадирятларни ўрганиш талабаларнинг адабий-эстетик тафаккурини юксалтиради, уларнинг эвристик ва креатив қобилиятини ривожлантиради, илмий мушоҳада қилишга ёрдам беради. Шунингдек, биз Чўлпоннинг «Адабиёт чин маъноси ила ўлган, сўнган, ўчган, ярадор кўнгилга руҳ бермак учун, фақат вужудимизга эмас, қонларимизга қадар сингишган қора балчиқларни тозалайдирғон, ўткур юрак кирларини ювадурғон тоза маърифат суви, хиралашган ойналаримизни ёруғ ва равшан қиладирғон, чанг ва тупроғлар тўлган кўзларимизни артуб тозалайдирғон булоқ суви бўлғонликдан бизга ғоят керакдир» каби бадиийликка даҳлдор фикрлари ҳамма замонлар учун ҳам муҳим ва долзарблигини етказа олишимиз лозим. Бадиий қадриятларга йўналтиишда талабалар ўртасида тажриба синов ўткзиш ва уни оммалаштириш мақсадга муофиқдир.Тажриба синов якуний хулосаларига таянган ҳолда бадиийликни шакллантириш дарслар кесимида келтирилиш даркордир.Тажриба синов дастурини тест шаклида

ишлаб чиқиш ва уларни тарғиб қилиш лозим.Тажриба синов жараёнлари бадиий қадриятларни ривожлантирида яхси самара беради. Хulosa қилиб айтганда талабагга бадиий қадгиятни sингдигиш дагциклар sifatида foйдаланиш ҳаётда ўз ўгнини торишга катта аҳамят касб этади. Бадиийликминг йиллар давомида то'планган инсониятнинг о'зига хос ма'навий капитали бо'либ, у нафақат қадрсизланмайди, балки, қоида тариқасида, о'сиб боради. Бадиий қадриятларнинг табиати қадриятлар назариясида о'рганилади, у қадриятлар ва инсон ҳаёти ҳақиқатлари дунёси о'ртасидаги муносабатларни о'рнатади. Бу, биринчи навбатда бадиийлик ҳақида. Улар ҳақли равишда энг юқори деб ҳисобланадилар, чунки улар бошқа қадриятлар тизимларида инсон хатти-ҳаракатларини белгилайди.

Адабиётлар:

1 Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрда қабул қилинган «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги Қонуни.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4307-сон қарори

4 Ўзбекистон республикаси президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-5040-сон қарори.

5 Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги «Таълим тўғрисида»ги Қонуни 1992, 1997, 2020й.

6 Ўзбекистон республикаси президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПҚ-5040-сон қарори.

7 Ўзбекистон республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2017 йил. 1 март № 107 сонли буйруғи

РЕЗЮМЕ

Мақола талаба ёшларни дунёқарашини шакллантириш бадиийликни ўрни бўлиб, бунда бадиийлик орқали креатив ғояларни илгари суриш ва бадиий қадриятга йўналтиришдан иборат.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена роли артистизма в формировании мировоззрения студенческой молодежи, которая заключается в продвижении творческих идей с помощью артистизма и направлении их к художественной ценности.

SUMMARY

The article is the role of artistry in the formation of the worldview of student youth, which consists in advancing creative ideas through artistry and directing them towards artistic value.

OLIY TA’LIMDA XORIJIY TAJRIBALARDA SINALGAN O‘QUV DASTURLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Umirova N. M.
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Maktabgacha va Boshlang’ich ta’lim fakulteti fakultetlararo pedagogika kafedrasi doktoranti

Tayanch so’zlar: zamonaviy ta’lim, metod, ilg’or ta’lim texnalogiyalari, pedagogik vositalar, xorijiy o’quv dasturlar.

Ключевые слова: современное образование, методика, передовые образовательные технологии, педагогические инструменты, зарубежные образовательные программы.

Key words: modern education, method, advanced educational technologies, pedagogical tools, foreign educational programs.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.07.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta’lim tashkilotlarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 421-sonli qarori hamda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017 yildagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-sonli Qarorilarini ijrosini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim tizimida yangi ilg’or xorijiy dasturlarni tadbiq qilish va amalda qo’llanilishini ta’minlash nazarda tutilgan.

Bugungi shaxs kamolotini shakllantirish uning fikrlash salohiyatini kengaytirish ta’lim tizimida ko’zda tutilgan asosiy mezonlardan biridir. Shaxsni komillikka yetaklash va uning ongini yuksak darajaga yetkazish ta’lim tizimining asosiy vazifasi bo’lgani uchun bu uchun nima tadbir qilish kerak bulsa shuni amalda qo’llash davlat siyosati darajasidadir. Oliy ta’limda talabalarni mustaqil fikrlashga o’rgatish va ilmiy dunyoqarashini kengaytirish uchun juda ham ko’p vositalardan va metodlardan foydalanilishi ta’limning maqsadli usullaridan biridir. Bugungi texnika asrining o’sib kelayotgan yosh avlodlari o’zidan oldingi yoshlarga nisbatdan ancha teran fikrga ega, o’z haq-huquqini yaxshi biladigan zamonaviy yoshlardir, chunki ular ta’lim va tarbiyani oila va ta’lim muassasalari bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar orqali o’zida shakllantirmoqda.

Hayot tarzimiz texnikalar bilan birgalikda yuksalayotgan bir vaqtda yoshlarimiz ham bilim olishni, kasb egallashni, ijtimoiy ehtiyojlarni zamonaviy usullarda amalga oshirmoqda. Ta'lim olishni masofaviy tarzda, savdo-sotiq, ma'lumot olish va topish va bor bir kasbni boshqa davlatlarda qanday usullarda egallayotganini internet orqali o'rganmoqda. Shuning uchun ham ta'lim zamonaviylikni talab qilmoqda va yangicha o'quv metodlar va vositalardan foydalanaish bugungi kun talabalarini talablarini bajarish ta'limdan ko'gli to'lishi, ilm olishga ishtiyoqini oshishi, kasb egallash sirlarini qiziqarli tajribalarda zamonaviy shaklda o'rganishi bugungi kun dorzarb masalalaridan biridir.

Oliy ta'lim tizimida talabalar bilim doirasini kengaytirish, kasbiy tayyorgarligini zamon talablari darajasida bajarish va xorijiy ilg'or usullardan foydalanish hamda hamkorlikda ishlash, ular bilan fikr almashish, talabalar bilim saviyasini xorijiy tajribalar darajasiga ko'tarish asosiy maqsaddir. Shuningdek ta'lim sifatini jahon talablari darajasiga yetkazish uchun xorijiy davlar o'quv dasturlaridan bevosita va bilbosita foydalanish ular tajribalaridan foydalanish ta'lim berish va olish sifatini oshishiga, hamda samaradorlikni o'sishiga bir muncha erishilgan bo'ladi.

Oliy talim bosqichida talabalarni mustaqil o'z fikrini bayon qila olishga talaygina milliy va tajribalarda sinalgan usulllardan foydalaniladi lekin buni xorijiy ta'lim muassasalarda foydalanilayotgan va samarasi yuqori bo'lgan usullarni olib kirishimiz bir muncha maqsadli bo'ladi. Ta'limda hamkorlik qilish ta'lim sifatini yaxshilanishga va talabalarni dunyoqarashini kengayishiga ta'sir qiluvch texnik vositalar va o'qitish usullaridan foydalanish biz ko'zlagan oliy maqsadlardan biridir. Oliy ta'limda talabalarni ular ega bo'lgan bilimlarni o'sishiga va kengayishiga ta'sir qiluvchu vositalarni va adabiyotlarni berish muhimdir.

Talabalar oliy ta'limga egallab kelgan bilimlarini shakllanishi asosan ilmiy dunyoqarashga qaratilgan bo'ladi, chunki birlamchi bilimlar hayotiy misollar orqali maktab darsliklari asosida shakllanadi. Bu mavjud bilimlar kasb egallashiga zamin bo'ladi. O'qitiladigan va talabalar ongida shakllantiriladigan bilimlar ilmiylikka asoslanib mavjud bilimlar kengaytiriladi. Xorijiy usullardan foydalanish milliy tushunchalarimiz bilan uyg'unlikda boyitilishi zamonaviy va xorijiy sifatlarga ega bo'ladi.

Bugungi kunda ko'pgina kasblar va soha mutaxassislari jamiyatda yo'qolib bormoqda va uning o'rniga boshqa kasblar paydo bo'lmoqda bu es o'z-o'zidan mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlarini shu o'zgarishlarga mutaxassis tayyorlashga tayyor turishini taqazo qiladi. Chunki jamiyatdagi

talablarga mos kadrlar chiqarib berishi talab bo'yicha ishlashi uchun oliy ta'lim tizimi xorij hamkorlari bilan tayyor turmog'i birgalida ishlashi yangiliklar va o'zgarishlarga tayor turishi lozim. Shundagina jamiyat va shaxs talablariga munosib bo'la oladi. Jamiyatdagi o'zgarishlardan bir muncha oldinga yurishi ta'lim sohasining vazifasidir.

Talabalarni zamon talabalari asosida bilimli va ilmli bo'lishi davlat ravnaqi uchun xizmat qiladi. Chet el hamkor davlat ta'lim tashkilotlarida talabalar tajriba almashishi, malakasini oshirishi va bilimini yanada kengaytirishi kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ta'lim va tarbiyani milliylik va zamonaviylik bilan birgalikda olib borish jamiyat ravnaqi va insoniyat ehtiyojlaridan kelib chiqib bajariladi. Ta'lim har 'oim rivojlanishni shakllanishni taqozo qilgan. Shuning uchun jahon ta'lim tashkilotlari rivojlangan mamlakat ta'lim muassasalari bilan tajriba almashishi va ularning tajribalaridan foydalanish bilan ta'limdagi qotib qolishdek muammolar yechiladi. Ta'lim oluvchilar talablari darajasida maqsad qo'yish ularni bilim olishga bo'lgan intilishini susytirmasdan ularning vaqtdan unumli foydalanishlari uchun kerakli topshiriqlarni ilg'or tajribalar asosida belgilab berish va tashkil etish zamon talabidir.

Talabalarni ilmiy va mustaqil dunyoqarashini kengaytirish ularni mustaqil izlanishlarini tashkil etish dastlabki nazariy va amaliy mashg'ulotlardan tashqari ualarni mustaqil tanlagan tadqiqotlari ustida ishlashi imkoniyatini yaratish va undash xorijiy tajribalarda sinalgan usuldir. Bu usulda talaba mustaqil resurs markazlariva labaratoriyalarda o'z mavzusi ustida izlanish olib borishi, ma'lumotlar to'plashi va tajriba-sinov ishlarini o'tkazishi samarali usul hisoblanadi. Talabani mustaqil ta'lim ishini tashkil etishida kerakli yo'l-yo'riqlarni berib borish va to'plagan ma'lumotlarini birgalikda taxlil qilish ve keyingi jarayonlarga topshiriqlar berib borish lozim. Talaba mustaqil izlanishi uning bilimlarini kengayishiga asos bo'ladi, chunki mustaqil ma'lumotlar to'plash jarayonida ko'plab ma'lumotlarni o'rganadi ko'p adabiyatlar bilan tanishadi va ma'lumotlarni yangiligini taqqoslash orqali fikr doirasi kengayib mustaqil tafakkur qila olish ko'nikmasi shaklana boradi.

Ikkinchidan, xorijiy o'quv dasturlarning yana bir ijobiy tomoni talabalarga nazariy bilimlar berilishi faqatgina bajarishi kerak bo'lgan topshiriqlarini va mustaqil tajriba-sinov ishlarini bajarilishi uchun yo'naltirilgan qisqacha ma'lumotlar va ko'rsatmalar beriladi. Asosiy ma'lumotlar topish va ularni taqqoslash talabalar o'zlariga yuklanadi.Auditoriya usulida o'tkaziladigan mashg'ulotlar ham asosan zamonaviy didaktik vositalar bilan o'tkaziladi.

Uchinchidan, jahon standartlari asosida o'qitilayotgan o'quv dasturlarning yana bir pedagogik asoslaridan biri bu muammoga va oldiga qo'ygan masalalarni,

topshiriqlarni, jumboqlarni yechimini mustaqil topadi, imtihonlarga ham mustaqil tayyorlanishadi, topshirolmagan talabalarga qaytadan to'lov orqali topshirishi qat'iy belgilab berilgan. O'quv jarayonini moliyaviy tomonga taqab qo'yishi talabalarda yanada harakat qilish, mustaqil izlanishga, o'zini ta'lim olishga bag'ishlashi taqozo qilingan.

Yana bir xorijiy o'quv dasturlarni afzallik tomani, o'quv jarayoni qisqa muddatli bo'lishi, talabalar o'quv jarayoniga moslashishi va o'qub yurti imkoniyatlarini o;rganib chiqish uchun moslashish davri belgilanadi, keyingi bosqish ma'ruzalarga qatnashish va topshiriqlarni olish hamda ularni bajarish muddatlarini belgilashdan iborat. Ya'ni bir o'quv smestri talaba imkoniyatlaridan kelib chiqib, fanlar va topshiriqlar muddati talaba imkoniyatidan kelib chiqib belgilanadi va qaytadan uzaytirilmaydi. Oxirgi belgilangan muddatda topshirolmagan talaba keyingi yildan bishqatdan topshirishga qoldiriladi. Bundan ko'zlangam maqsad talabalarni qunt bilan faqat o'zlari harakat qilishi va mavjud resurslardan oqilona foydalanishdir.

Undan tashqari xorijiy o'quv dasturlarda talabalarn dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish uchun dual ta'limdan ha keng foydalanailadi. Dual ta'limdan foydalanish talaba bevosita ta'limni amaliyot bilan bog'lashi nazarda tutilgan. Ya'ni nazariyani amaliyot bilan bog'lashi va olgan bilimlarini amaliyotda qanday natija berishini ko'rib borish samarali usullarni joriy qilish va dunyoqarashini kengayishi uchun sabab bo'ladigan tajribalarni o'z amaliyotida kuzatishi, maslahatlar olishi fikr almashishi va qo'llay olish usullarini joriy qilish kabi malakalari va ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birgalikda talabani mustaqil ishlay oladigan kadr qilib tayyorlash va o'z moliyaviy ahvolini ta'minlash imkoniyatlari ham mavjud.

Shuningdek o'quv jarayonida oliy talim talabalari fanlar majburiy va ixtiyoriy fanlardan mustaqil ma'lumotlar to'playdilar bundan asosiy ko'zlangan maqsad ular har bir ma'lumotgamustaqil yondashishi, munosabati o'rganiladi.Majburiy fanlar asosan mutaxassis fanlar va kasbga tayyorlash fanlari hisoblanadi tanlaov fanlar esa ular qiziqishlariga tayanib mustaqil tanlashadi va mustaqil nazariy va amaliy topshiriqlarga tayyorlanadi.

Yuqoridagi jahon tajribalarda sinalgan o'quv dasturlardan foydalanishmetodlardan foydalanib oliy ta'limda talabalar dunyoqarashini kengaytirish mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllanishiga erishish bugungi shiddatli hayotda dolzarb masalalardan biridir. Talabalarni mustaqil fikrlashga undash, ularni teran fikrlay oladigan qilish birinchi navbatda ularni mustaqil topshiriqlarni bajarishi, qanday usulda fikrlashidan qat'iy nazar ularni tinglash va munosabat bildirishga undash oliy ta'lim tizimining asosiy vazifasidir.

Shunday ekan milliy tarbiyamizga mos va mavjud shart-sharoitlarga ta’gri keladigan xorijiy dasturlarni ta’limga olib kirish, va o’quv dasturlar asosini talabalar ilmiy ongini kengayishiga turtki bo’luvchi mezonlarni amalga tadbiq qilish maqsadlidir.

Adabiyorlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 bet

2. I.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

3. A.Musurmanova, X. Ibragimov, O. Jamoliddinova, K. Risqulova, S. Yo‘ldosheva, A. Jumayev, F. Babashev, P. Isamova, S. Sharipova, G‘. Salohiddinova, K. Todjibayeva. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020.

3. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.

4. R. A. Mavlonova, N. H. Rahmonqulova, K. O. Matnazarova, M. K. Shirinov, S. Hafizov. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018

5. N.Shukrullayeva.Ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchiralda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishning ahamiyati.Maqola. Eurasian Journal of Academic Research, 2023 - in-academy.uz

6. Qulieva Sh.H., Ismoilova M.M. Ta’lim jarayonida tizim va tizimli yondashuv // Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 2010. – B. 148.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta’lim tizimining asosiy bo’g’inlaridan bo’lgan oliy ta’lim bosqichida talabalar mustaqil fikrlashiga asos bo’la oladigan jahon ta’lim standartlariga javob mos keladigan o’quv dasturlarning pedagogik jihatlari asoslari ochib berilgan. Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida xorijiy o’quv dasturlardan milliy dasturlar va darsliklar bilan bir qatorda asosiy va yordamchi vosita sifatida ta’lim oluvchilar ongini shakllanish va qolaversa kengayishi uchun xizmat foydalanishning ta’lim berish va ta’lim olishdagi ilg’or pedagogik metodlarini ochib berishdir.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрыты основы педагогических аспектов учебных программ, соответствующих мировым образовательным стандартам, которые могут стать основой самостоятельного мышления учащихся на этапе высшего образования, являющегося одним из основных звеньев системы образования. Сегодня во всех звеньях системы образования целью формирования и дальнейшего расширения сознания обучающихся наравне с национальными программами и учебниками основных и вспомогательных средств зарубежного обучения является раскрытие передовых педагогических методов использования услуг в обучении и обучении.

SUMMARY

This article reveals the basics of pedagogical aspects of educational programs that comply with world educational standards, which can be based on the independent thinking of students at the stage of Higher Education, which are the main branches of the educational system. Today, in all branches of the educational system, the use of foreign curricula as a basic and auxiliary tool, along with national programs and textbooks, as well as the formation and further expansion of the consciousness of learners, is the disclosure of advanced pedagogical methods in teaching and learning.

KOMPETENTSIYAVIY YONDOSHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdisharipova Sh. B.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Tayanch so‘zlar: kompetentsiya, kompetentlik, kompetentsiyaviy yondashuv, kreativlik, kreativ fikrlash, tarixiy-pedagogik asoslash, texnologiyalar, mezonlar, darajalar, mexanizimlar, natijalar.

Ключевые слова: креативности, способности, креативность, иннавацонные педагогические технологии, критерии, уровни, механизмы, технологические этапы, результаты.

Key words: creativity, ability, creativitiy, innovative pedagogical technologies, criteria, levels, mechanisms, technological stages, results.

Dunyoda globallashuv jarayonining jadallashuvi, ijtimoiy huquqiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bois 2 milliarddan ortiq yoshlarning ongi va dunyoqarashini o‘zgartirishga qaratilgan[1] kurash avj olmoqda. Yoshlar ijtimoiy faolligining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilab berish munosabati bilan mazkur masala toboro globol va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[2]. BMT assambliyasi tomonidan yoshlarni ijtimoiy-huquqiy va siyosiy jihatdan faol fuqaro sifatida tarbiyalash masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilgan.

“Tayanch kompetentsiyalar atamasi birinchi marta 1992-yil Yevropa kengashining “Yevropada o‘rta ta’lim” loyihasida paydo bo‘ldi va bu o‘quv jarayoni mazmunini modernizatsiya qilishning global tendensiyasini boshlab berdi. Natijada, 1996-yilda Yevropa Kengashi tomonidan Bernda o‘tkazilgan “Yevropa uchun tayanch kompetentsiyalar” simpoziyumida zamonaviy bitiruvchilarning 5 ta muhim kompetentsiyalari[82] aniqlandi. Yevropa ittifoqiga a’zo davlatlarning davlat ta’lim standartlarida 8 ta tayanch kompetentsiyalar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, 1. Ona tilida muloqot qila olish (Communication in the mother tongue). 2. Chet tilida muloqot qila olish (Communication in foreign languages). 3. Matematik savodxonlik, fan va texnikaga oid kompetentsiyalar (mathematical competence and basic competences in science and technology). 4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetentsiyasi (Digital competence).

5. O‘rganish uchun o‘qish yoki mustaqil bilim olish kompetentsiyasi (Learing to learn). 6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetentsiyasi (social and civic competences). 7. Tashabbuskorlik va tadbirkorlik kompetentsiyasi (science of initiative and entrepreneurship). 8. Turli madaniyatlar, qadriyatlarni tushinish va o‘z madaniyatiga ega bo‘lish, namoyish etish kompetentsiyasi (Cultural awareness and expression)dan [3] iborat.

Mazkur xalqaro ta’lim standartlariga asoslanib respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 6 ta tayanch kompetentsiyalari: komunikativ kompetentsiya, axborot bilan ishlash kompetentsiyasi, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, umummadaniy kompetentsiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yutuqlaridan habardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi [4] ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi ustuvorligidan kelib chiqib ularning psixologik yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi:

– komunikativ kompetentsiya ijtimoiy vaziyatlarda eng avvalo ona tilida hamda birorta xorijiy tilde o‘zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada ishlay olish layoqatini nazarda tutadi;
– axborot bilan ishlash kompetentsiyasi media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning havfsizligini taminlash ko‘nikmalarini egallashni hamda media madaniyatga ega bo‘lishni anglatadi;
– o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi esa doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilim va tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib boorish, o‘z xatti-harakatini adekvat baholash va mustaqil qaror qabul qila olishni bildiradi;
– ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lishni anglatadi;
– milliy va umummadaniy kompetentsiya vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga etiqodli bo‘lishni, badiiy va san’at asarlarini tushinish, orasta kiyinish, madaniy meyyorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishdan iborat;

– matematik savodxonlik fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan xolda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma va diagrammalarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan qulay shatr-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish ko‘nikmlalrini nazarda tutadi.

“Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

“Kompetensiya” tushunchasi, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi, bu atamalarning mazmuni haqida to‘xtalish uchun, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan bu boradagi milliy an’ana va qadriyatlarga e’tibor qaratamiz. Bizning yurtimizda biron-bir kasbkor egasi o‘z kasbini mahorat bilan egallab, uni shogirdlariga o‘rgata boshlasa, uning nomiga mazkur kasb atamasini qo‘shib atay boshlaganlar. Mosh tabib, Omon tabib, Oboqul kulol, Latif sartarosh, Murodjon hofiz, Mamatoy temirchi yoki Mamatoy aka pichoqlari va hokazo. Bu e’tirof aynan shu odamning ma’lum bir kasb egasi bo‘lganligi uchun emas, balki yuksak hudud aholisining biron-bir kasb bilan shug‘ullanishi ham ana shunday e’tirofga yuksak muvaffaqiyatlari orqali erishganliklari dan dalolat beradi. Chust pichoqlari, Chust do‘ppisi, Rishton kulollari, Urgut kulollari, Samarqand nonvoylari, nonlari va hokazo. Bu albatta, o‘z kasbkorini uzluksiz rivojlantirib, ko‘p yillar mobaynida elga xizmat qilgan kishi yoki kasbkor egasiga yoki jamoaga berilgan e’tirof, vakolat, ishonch – zamonaviy va ilmiy til bilan aytadigan bo‘lsak, kompetensiya ekanligini sezib olish qiyin emas. Xalq san’ati borasida ham shunday fikrlarni aytish mumkin, ammo kasbning oliy darajaga ko‘tarilishi, bu kompetensiyadan balandroq malaka –mahoratidir. Abdurahim Dorboz, Tursunboy polvon, Mamat o‘qituvchi, Mamat domla va boshqalar[5].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak “Kompetensiya” tushunchasini izohlar ekanmiz, bu atamaning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratamiz. Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetenlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Muxsiyeva A.SH. Umumiy o‘rta ta’limmaktabi o‘quvchilarida ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirish., Ped.fan.dok. … diss. – T., 2022. 9 b.

2. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.

3. Лебедев О.Е. Компетентносный подход в образовании. www.nekrasovepb.ru

4. Зимняя И.А., И.А. Ключевных. Компетенции – новая парадигма результата образования. quality.petrsu.ru

5. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. “TDPU” nashriyoti., 2018 yil.

РЕЗЮМЕ

Maqolada kompetentsiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning tarixiy-pedagogik asoslarini aniqlash, mezonlari va mexanizimlarini takomillashtirish bo‘yicha to‘xtalib o‘tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье определить историки-педагогичиеские основе компетентностного подхода и совершенствания и способностей.

SUMMARY

In the article, to determine the historical and pedagogical foundations of the development of students’ creative thinking based on the competence approach and improving their abilities.

EGRA, EGMA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA ULARNING AHAMIYATI

G'ayipova G. N.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: egra, egma, ta'lim, matematika, mantiqiy masala, pedogogika, texnologiya, faoliyat, baholash, qobiliyat.

Ключевые слова: egra, egma, образование, математика, логика, педагогика, технология, деятельность, оценка, способности.

Key words: egra, egma, education, mathematics, logical matter, pedogogy, technology, activity, assessment, ability.

Bugungi kunda ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini yaratishning muhim omili bo'lib bormoqda. AQSH, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlarda yuqori kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rivojlanishning asosiy yo'nalishi sifatida qaralib, ta'limda innovatsiyalarni, shu jumladan, o'qitishning ilg'or, interfaol va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi ta'minlanmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik hamda jahon ta'lim talablari bilan mosligi, o'quvchilarning matematik savodxonligi PISA xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etib ijobiy natijaga erishishi, ta'lim oluvchilarda olgan bilimlarini amaliyotda muvaffaqiyatli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, o'z qobiliyatlarini, ijodkorligini, tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta'lim muhitini joriy qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim oluvchilarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning kompotentlik mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalari tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-

o’zini baholash kabi indikatorlarni shakllantirish asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o’rin tutadi.

Mamlakatimizda ilg’or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun o’quvchilarda o’quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutuvchi umumiy o’rta ta’lim tizimida zamonaviy kompetensiyali yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida o’quvchilarda o’quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ularning ichki imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo’naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo’yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimida matematika fanlari alohida o’rin tutganligi bois, bu fanlarni o’qitishga qaratilgan asosiy e’tibor har doim o’z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Hozirgi kunda o‘quvchilarning o‘qish (**EGRA**) va matematika (**EGMA**) bo‘yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan.

Mazkur tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirishini yaxshilash hamda ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo‘llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o‘quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

EGRA va **EGMA** tadqiqotlari boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda tizimli bo‘shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o‘qish hamda savodxonlik ko‘nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi.

Bu tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan AQSh ning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o‘rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to‘g‘risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir

AQSh ning O‘zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta’kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang‘ich sinf o‘qivchilarning savodxonligi va matematika bo‘yicha ko‘nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Men “baholash” so‘zi bekorga tanlanmaganligini ta’kidlamoqchiman. Bu vosita bolaning bilimi, o‘qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko‘nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o‘tish yoki yomon baho bo‘lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko‘rikdan o‘tkazishdan avval uni tekshiradi. **EGRA** va **EGMA** esa boshlang‘ich sinflarda o‘qish hamda matematika bo‘yicha ko‘nikmalariga baho

beradi. Baholash natijalariga ko‘ra yangi o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi va yondoshuvlar O‘zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko‘rsatishi uchun mosla shtiriladi.

EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikma va malakalarini hamda o‘qish savodxonligini oshirishdan iborat.

EGRA og’zaki o’qish uchun ravonlikni tushunish, to’g’ridan to‘g‘ri ravonlikni o‘lchash, og‘zaki o‘qish ravonligi bo‘yicha kichik topshiriqdan tashqari belgilangan vaqtda so‘zlar va xarflar nomini aniqlash, so‘zsiz o‘qish, tanish so‘zlarni o‘qish aniqligini va tezligini belgilaydi

EGRA ning asosiy vazifasi tinglashni, tushunishni baholaydi, tushunishdagi qiyinchiliklar, avvalo o‘qish qobiliyatining pastligidan kelib chiqadimi yoki o‘qish qobilyatining yo‘qligini aniqlash.

EGMA (The Early Grade Mathematics Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvoffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko’nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan fandir.

EGMA bolalarning asosiy ko‘nikmalarini rivojlatirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko‘nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo‘naltiradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishda juda muhim.

EGMA – bu raqamlarni ta’kidlab, matematika va undagi operatsiyalarni erta o‘rganishni baholash.

EGMA quyidagi: raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo‘qolgan raqam); qo‘shish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so‘z muammolarini o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini

baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Demak, yuqoridagi vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimiz ta’lim tizimining xalqaro ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta’minlaydi, sohadagi bo‘shliqlarni aniqlashga, yangi vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘quvchilar bilimini adolatli va shaffof baholashga erishamiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish to‘g‘risidagi konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF -5712 farmoni.

2. Implementing the Proposed Mathematics Framework: Recommendations for PISA 2021, Peggy G. Carr, Ph.D., Vice Chair, PISA Governing Board Associate Commissioner, National Center for Education Statistics (NCES) May 25, 2018.

3. Carter, J. (2001), Creating Writers: A Creative Writing Manual for Schools, Routledge/Falmer, https://epdf.tips/creating-writers-a-creative-writingmanual-for-schools.html (accessed on 27 March 2018).

4. A.A.Ismailov, N, Karimov, B.Q.Xaydarov, Sh. Ismailov, Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning matematik savodxonligini baholash, uslubiy qo’llanma, Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2019-yil, 120 bet.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlaridan EGRA VA EGMA haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bu halqaro baholash dasturlari bilan ishlash ahamiyati va ularning vazifasi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье представлена информация о EGRA и EGMA из международных оценочных программ. Он также освещает важность работы с международными оценочными программами и их миссию.

SUMMARY

this article presents information about EGRA and EGMA from international assessment programs. It also highlights the importance of working with international assessment programs and their function.

MUSTAQIL TA’LIMDA O’QISH KO’NIKMASINI QO’LLASH ORQALI OG’ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK, KONSEPTUAL ZARURIYATI

Israilova Sh. J.
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti doktoranti

Tayanch so’zlar: gapirish ko’nikmasi, og’zaki nutq, mustaqil ta’lim, mustaqil o’qish, kommunikativ kompetensiya.

Ключевые слова: разговорные навыки, устная речь, самообучение, домашнее чтение, коммуникативная компетентность.

Key words: speaking skills, oral speech, self-study, home reading, communicative competence.

Kirish. Til o’rganish ming yillar davomida ko’plab tadqiqotchilarning doimiy e’tibor markazidagi masala bo’lib kelgan. Eng qadimgi davrlardan boshlab, tilshunoslik alohida ilmiy fan sifatida paydo bo‘lishidan oldin ham, odamlar tilning nafaqat kundalik hayotdagi muhimligi, balki insoniyatning o‘ziga xos xususiyati sifatida ham muhim rol o‘ynashini, insonni boshqa mavjudotlardan tubdan ajratib turishini anglab yetishgan.

Til biz uchun nafaqat dunyoni bilish va tushunish uchun, balki ma’lumotni to’plash, saqlash va yetkazish uchun ham mavjud bo’lgan asosiy tizimdir. Shuning uchun, tilni o’zaro muloqot qilish uchun mavjud bo’lgan asosiy tizim sifatida tushunish mumkin. Boshqa barcha ma’lumotlarni uzatish tizimlari aslida ushbu muhim, asosiy tizim-tilga asoslanadi.

Bugungi globallashuv davrida xalqaro tillarni o’rganish muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, ko’pgina imkoniyatlar eshigini ochishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda qay sohada bo’lishidan qat’iy nazar xohlagan sohadagi eng so’nggi va eng tezkor ma’lumotlar, axborotlar, yangiliklar va ilmiy manbaalar ham chet tili ayniqsa ingliz tilida yetarlicha topiladi. Bu esa, qaysi sohada bo’lishidan qat’iy nazar, jamiyatning kasbiy rivojlanishni istagan har bir vakilidan eng kamida bitta xalqaro chet tilini o’rganishni talab etadi. Aynan shu maqsadni ko’zda tutgan holda so’nggi yillarda mamlakatimizda chet tili ayniqsa ingliz tili o’rgatish va o’rganishga doir ko’pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

Berilgan imkoniyat va qo'llab-quvvatlash natijasi o'laroq bugungi kunda IELTS, Multilevel (CEFR), APTIS, TEFL, TESOL singari chet tili bilish darajasini aniqlovchi imtihonlarga talabgorlar hamda ingliz tilida 4ta nutq mahorati turlari (speaking, reading, writing, listening) bo'yicha tayyorlanayotgan o'quvchi va o'qituvchilar sonining oshishiga sabab bo'ldi.

Barchaga ma'lumki, til o'rganishdagi ko'plab qiyinchiliklar so'zlashuv (speaking) va yozuv (writing) nutq mahorati turlarida kuzatiladi va aynan so'zlashuv (speaking) mahorati o'qituvchidan ko'ra ko'proq til o'rganuvchining o'ziga bog'liq.

Ingliz tilida mustaqil ta'lim tushunchasi avtonom ta'lim deb ham ataladi. Bu tushuncha nafaqat Sharq mamlakatlarida balki G'arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Ushbu ta'lim kontseptsiyasiga ko'ra, o'quv jarayonida asosiy mas'uliyat o'qituvchi emas aksincha o'quvchi zimmasiga yuklanadi. Talabalar dars paytida ham faol bo'lib, dars tugagandan so'ng ham o'qituvchi tomonidan tavsiya etiluvchi mavzuga doir o'quv materiallaridan foydalangan holatda o'z ustilarida ishlashlari talab etiladi.

Mustaqil ta'lim tushunchasi albatta ilm-fan sohasiga endigina kirib kelgan atama emas va shubhasiz ko'pgina pedagoglar, tadqiqotchilar va olimlar ko'plab izlanishlar olib borishgan. Ularning har birlari mustaqil ta'lim atamasiga turlicha ta'rif beradilar. Ayrim olimlar bu jarayonni o'quvchi mistaqil holatda o'z fikrlari, ijodkorligi, izlanuvchanligi, iste'dod va qobiliyatlariga asoslangan holatda yangi bilimlarni egallab, olingan bilimlarni mustahkamlash jarayoni deb takidlashsa, yana boshqa bir guruh tadqiqotchilar bu jarayonda o'qituvchi ham o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u o'quvchiga yo'nalish ko'rsatishi kerakli, ma'lumotlar va adabiyotlar ro'yxati bilan ta'minlashi, unga o'z fikr-mulohazalari (feedback)ni bayon etishi, bir so'z bilan aytganda, maqsadgacha yetib boruvchi yo'l xaritasini shakllantirib berishi kerak deb fikr bildirishadi.

Adabiyotlar tahlili. Egelning [1] ta'kidlashicha esa, mustaqil ta'lim faoliyati insonning umri davomida ta'lim oluvchi sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Agar kimgadir mustaqil o'qish uchun ko'p imkoniyatlar berilsa, u ham umri davomida o'rganuvchi bo'lish orqali kerakli ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Biroq bu imkoniyat shaxslarning mustaqil ta'lim faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan ishtiyoqi orqali rivojlantirilishi kerak. Bugungi kunda jamiyatning har bir vakili zimmasida umrining oxirigacha mustaqil izlanuvchi bo'lish mas'uliyati mavjud. Har birimizdan ushbu jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan texnika asrida o'rganish va o'z ustimizda ishlab, bilimlarimizni yangilab borishimiz talab etiladi.

Gulyamova M.X. [2] ning ta'kidlashicha Xorijiy til (Ingliz tili) fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2017-yil 603-sonli buyrug'I bilan ruyxatga olingan. Ingliz tilining asosiy maqsadi talabalarning ko'p madaniyatli dunyoda kasbiy, ilmiy va maishiy sohalarda faoliyat yuritishlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat etib belgilangan. Uning vazifalaridan biri nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat etib belgilangan. Nutq faoliyati turlari ustida ishlash uchun quyidagi vaqt taqsimoti ajratilgan: tinglab tushunish 25%, gapirish 30%, o'qish 25% va yozuv 20%. Demak, kommunikativ kompetensiyaga erishish uchun gapirishga ko'proq e'tibor qaratilishi muhimligini taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bundan ko'rinib turibdiki, fanning asosiy maqsadi o'quvchini gapirtira olishga qaratilishi zarur. Darhaqiqat, har qanday tilni o'zlashtirishdan asosiy maqsad o'sha tilda so'zlashuvchi insonlar bilan muloqot qila olish, o'zaro fikr va ma'lumot almashishdir.

Til o'qituvchilari kasbiy faoliyatlari davomida ko'plab Grammatik bilimi kuchli bo'lgan, hattoki barcha grammatik qoidalarni yoddan ayta bera oladigan, so'z boyligi ham yetarlicha bo'lgan, tilga oid har qanday mashqlarni bemalol bajara oladigan ammo ushbu bilimlarni gapirish orqali amalda qo'llashga kelganda qiyinchiliklarga duch keladigan talabalarni ko'p uchratishadi.

Tahlil va natijalar. Oddiygina misol, "to have" fe'li hamda "there is/there are" so'z birikmalari o'rtasidagi farqni boshlang'ish darajadagi til o'rganuvchisi ham juda yaxshi bilishiga qaramasdan hattoki o'rta (intermediate) ba'zi hollarda undan ham baland darajadagi talabalar ham xato qilishlari, "there is/ there are" o'rnida to have fe'lini qo'llash holatlari juda ko'p kuzatiladi.

Our family has five members.

There are five members in our family.

Yoki bo'lmasam, yana bir ko'p kuzatiladigan xatoliklardan yana biri bu hozirgi oddiy zamon (Present Simple Tense) da "to be" fe'lini qo'llash orqali gaplar tuzish.

My brother is wake up at seven o'clock.

My brother wakes up at seven o'clock.

O'zbek tilida muqobil varianti yo'q bo'lganligi sababli holatni ifodalash uchun sifatlardan oldin "to be" fe'lining qo'llanilmaslik holatlari.

Our house big.

Bizning uyimiz katta.

Our house is big.

Xulosa va takliflar. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shu singari xatolar O'qish (reading) ko'nikmasi orqali bartaraf etilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek o'quvchi ma'lumotning 25% qismini ko'rish orqali eslab qoladi, shuningdek u ushbu jarayon davomida qaysi so'zlar birgalikda so'z birikmasi (collocation) sifatida ishlatilishi, grammatik strukturalarning ishlatilish holatlari va shunga o'xshash ko'plab tilga oid bo'lgan qonuniyatlarning qo'llanilish holatini ko'rish orqali yodda saqlanadi va nutqda ishlatilganda esa avtomatik tarzda bir so'z ortidan keyingi so'zni ishlatish darajasiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Egel I. P. Learner autonomy in the language classroom: From teacher dependency to learner independency. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 1(1), 2019, 2023–2026 pp. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2009.01.355.

2. Gulyamova M.X. //Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv//, Toshkent, 2019.

РЕЗЮМЕ

Bugungi kunda chet tilida so'zlashuv ko'nikmasini shakllantirishtirish chet tili o'qitish metodikasi sohasidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz tilida so'zlashuv nutq mahoratini shakllantirishda mustaqil ta'lim va mustaqil o'qishning tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

На сегодняшний день формирование навыка владения иностранным языком является одной из наиболее актуальных проблем в области методики обучения иностранному языку. В этой статье будет рассмотрена роль самообучения и домашнего чтения в развитии навыков разговорной речи на английском языке.

SUMMARY

Nowadays, the formation of the ability to speak in a foreign language is one of the most urgent problems in the field of foreign language teaching methodology. In this article the role of self-study and home reading in developing speaking skills in English will be discussed.

TA’LIM OLUVCHILARNING KREATIVLIGI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Nasriddinov X. B.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti stajyor tadqiqotchi

Tayanch so‘zlar: kreativlik, kreativ ta’lim, ijodkorlik, qobiliyat, kreativ shaxs, kreativ yondashuv.

Ключевые слова: креативность, креативное образование, креативность, способность, креативная личность, креативный подход.

Key words: creativity, creative education, creativity, ability, creative personality, creative approach.

Kreativlik sotsiologlar, psixologlar va pedagoglar tomonidan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqur o‘rnila boshlandi. “Zamonaviy psixologik lug‘at”da ushbu tushunchaga “insonning ijodiy imkoniyatlari (qobiliyatlari) bo‘lib, u fikrlashda, his-tuyg‘ularda, muloqotda, faoliyatning ayrim turlarida namoyon bo‘ladi, faoliyat mahsuldorligi, ularni yaratish jarayonlarida shaxsning alohida tomonlarini yohud yaxlit holda uni tavsiflaydi” deya ta’rif beriladi [12, 192 b.].

Pedagogik lug‘atda kreativlikka shaxsning ijodiy iqtidori darajasi, ijodkorlikka oid qobiliyati sifatida ta’riflanib, shaxsning nisbiy barqaror tavsifidan iboratligi ta’kidlanadi [5, 33 b.].

Kreativlik kasbiy pedagogikada ijodkorlikka, yangiliklarni qabul qilish va yaratish, nostandart fikrlashga, katta hajmdagi original va foydali g‘oyalarni generalizatsiyalashga oid qobiliyat sifatida qaraladi.

Shaxsning kreativligi uning o‘zgarishlarga tayyorligini, stereotiplardan voz kechishini belgilaydi, noaniq vaziyatlardagi murakkab muammolarga original yechim topishga yordam beradi; u insonning ichki resursi bo‘lib, unga jamiyatda o‘z-o‘zini muvaffaqiyatli anglashiga imkon beradi.

Xorijiy adabiyotlarda kreativlik tushunchasiga berilgan turli xil ta’riflar mavjud. Bu “turli xillikni” R.Xollmenning umumlashtiruvchi fikri bilan ifodalash mumkin: “Kreativlik o‘zida yangicha usulda amalga oshirilgan idrokning uyg‘unlashuvi (E.Makkellar), yangi bog‘lanishlarni topish qobiliyati (L.Kyubi), yangi munosabatlarni yaratish (K.Rodjers), yangi asarlarni yaratish (G.Merrey), yangiliklarni bilish va amalga oshirishga moyillik (G.Lassuel), yangicha

anglashga olib keladigan aqliy faoliyat (K.Jerar), yangi tashkilotga tajribaning transformasiyalash (F.Teylor), qiymatlarning yangi konstellyatsiyasi tasavvur qilish (I.Gizelin)ni namoyon qiladi" [15].

Boshqa eng keng qabul qilingan ko'pchilik zamonaviy xorijiy tadqiqotchilarning ta'riflarida unga yangi mahsulotni yaratish qobiliyati sifatida qaraladi (T.Amabayl, F.Barron, T.Lyubart, D.Makkinon, R.Okse, R.Shternberg) [7, 20 b.].

Dastlab kreativlik intellekt funksiyasi sifatida qaralgan, va intellektning rivojlanish darajasi kreativlikning rivojlanish darajasi bilan aniqlangan. Natijada, intellekt darajasi kreativlik bilan faqat ma'lum darajada korrelyasiyaga egaligi aniqlangan, o'ta yuqori intellekt esa kreativlikka xalaqit berishi ma'lum bo'lgan. Hozirda esa kreativlik shaxs intellektining ajralmas yaxlit funksiyasi sifatida qaralmoqda va u psixologik xarakteristikalarning butun kompleksi bilan bog'liqligi aytilmoqda (Dj.Gilford, Ye.Torrens, R.Vaysberg, K.Rodjers, A.Maslou, T.Amabayl va b.). Shu bilan birga, kreativlikni o'rganishdagi asosiy yo'nalish – u bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlarni o'rganishdan iboratdir. Kreativlik nazariyasi asoschilaridan biri J.Gilford [3] uning oltita ko'rsatkichini ajratib ko'rsatadi:

1) Muammolarni aniqlash va ularni qo'yish qobiliyati;
2) Ko'plab muammolarni generalizatsiyalash qobiliyati;
3) Semantik spontan egiluvchanlik– turli xil g'oyalarni mahsulotga aylantirish qobiliyati;
4) Originallik – har xil qarashlarni, noan'anaviy javoblarni, nostandart yechimlarni mahsulotga aylantirish qobiliyati;
5) Turli detallarni qo'shish orqali ob'yektni takomillashtirish qobiliyati;
6) Semantik egiluvchanlikni namoyon qilgan holda nostandart muammolarni yechish qobiliyati, ya'ni ob'yektda yangicha belgilarni, ulardan yangicha foydalanishni topish.

J.Gilford o'z nazariyasida kreativlikni ijodiy fikrlashni ta'minlovchi shaxsiy xususiyatlar yig'indisi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, kreativlik turli aqliy operatsiyalarga, xususan divergent fikrlashga tayanadi. F.Barron va D.Xarrington kreativlik sohasiga oid 1970 yildan 1980 yilgacha o'tkazgan tadqiqot natijalarini umumlashtirib, kreativlik haqida mashhur bo'lgan quyidagi xulosani berishadi: Kreativlik – bu yangicha yondashuvlarga va yangi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni adaptiv qabul qilish qobiliyatidir. Mazkur qobiliyat, garchi jarayonning o'zi ham anglangan, ham anglanmagan xarakteriga ega bo'lsa-da, hayotda yangiliklarni anglash imkonini ham beradi. Yangi ijodiy mahsulotni yaratilishi ko'p jihatdan ijodkor shaxsiga va uning ichki motivatsiyasi kuchiga bog'liq bo'ladi. Kreativ jarayon, mahsulot va shaxsning o'ziga xos xususiyatlari uning originalligi,

mahsuldorligi, adekvatligi bo‘lib, yana bir xususiyati uning muvofiqligi, ya’ni mazkur vaziyatga estetik, ekologik, samarali shakli, mosligi va originalligi bilan to‘g‘ri kelishi bilan xarakterlanadi.

Kreativ mahsulotlar tabiatan turlicha bo‘lishi mumkin: matematikaga oid muammolarning yangicha yechimi, kimyoviy jarayonga oid ixtirolar, musiqa, kartina va poema, yangi falsafiy va diniy tizimning yaratilishi, iqtisodiyot yoki yurisprudensiyadagi innovatsiyalar, ijtimoiy muammolarga oid yangi yechimlar va boshqalar [13].

Kreativlik to‘g‘risidagi zamonaviy tadqiqotlarda an’anaviy qarashlar to‘g‘risida so‘z borar ekan, A.V.Morozov quyidagilarga to‘xtalib o‘tadi, ya’ni “u shaxsiy kategoriya sifatida qaralib, munozara asosan uning izohlanishini aniqlashtirish bo‘yicha yuritilgan, xususan: kreativlik divergent fikrlash sifatida (J.Gilford, O.K.Tixomirov), yoki intellektual faollik (D.B.Bogoyavlenskaya, L.B.Yermolayeva Tomina), yoki shaxsning integrallashgan xususiyati sifatida (Ya.A.Ponomarev va b.) qaralgan” [8, 69 b.]. Tadqiqotlarda kreativlik fenomenini interpretatsiyalashga oid bir necha yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ularning ba’zilarida kreativlik yangi mahsulotni yaratilishi yoki ijodiy fikrlash natijasi ekanligini nazarda tutilsa (O.K.Tixomirov), boshqalarida yangining yaratilishidagi ijodiy jarayon (A.V.Brushlinskiy, V.A.Molyako, P.M.Yakobson) deyiladi.

Hozirgi kunda kreativlik to‘g‘risida vujudga kelgan an’anaviy qarashlar to‘g‘risida gapirilganda uni individlarning original qadriyatlarni yaratish, nostandart yechimlar qabul qilish, ma’lum bo‘lgan chegaradan chiqish borasidagi xususiyatlarini; shaxsning ijodiy imkoniyatlarini mujassamlashtirgan integral xususiyatlarini aks ettiruvchi qobiliyati sifatida ham tushunish talqin etiladi [10].

Kreativlik muammosiga oid tadqiqotchilardan “o‘z ichiga o‘zaro aloqador qobiliyatlar elementlarini birlashtiruvchi integrativ qobiliyat” sifatida kreativlikni interpretatsiyasiga yondashuvni yoqlaydigan olimlardan A.V.Xutorskiyni ajratib ko‘rsatish mumkin [14, 22 b.].

U ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagoglarning metodologik, kognitiv va kreativ faoliyatini ajratib ko‘rsatadi va bunda pedagog shaxsida mos ravishda metodologik, kognitiv va kreativ sifatlar shakllanishini qayd etib o‘tadi.

Xususan kreativ sifatlarga: assosiativlik, ijodiy tasavvur, rivojlangan intuitsiya, zehnlilik, ixtirochilik, fikrlashning o‘ziga xosligi va boshqalar kiradi. Chunonchi kreativlik – o‘z-o‘zini namoyon etishning ajralmas atributi bo‘lib, u barcha narsada ijod qilish uchun imkoniyatlarni topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini rivojlantirishga va ijodkorlikka yo‘naltirilgan kreativ odamlar kasbiy faoliyatdagi innovatsiyalarga psixologik tayyor bo‘ladi, kasbiy “charchash”larga kam yo‘liqadilar [2]. Ijtimoiy-madaniy o‘zaro ta’sirda kreativlik zaruriy tashkil

etuvchi sifatida aks etadi. Shaxsning kreativlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik uning ijodiy mehnati samarali bo‘ladi. Tadqiqotchilar kreativlikka “ijodkorlik” sifatida, ijodiy yondashuvni namoyon etish va ijodiy qobiliyat sifatida qarashadi (D.B.Bogoyavlenskaya, N.M.Gnatko, V.A.Prosetskiy va b.). “Ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarini ajratishga urinishlar ham mavjud.

Bunday differensial yondashuv doirasida ijodkorlik o‘zida jarayon va uning natijasini namoyon etsa, kreativlik esa uning sub’yekti bilan bog‘liq tavsifini ifodalaydi. Ijodkorlik – bu yangi mahsulotni yaratishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, kreativlik esa – shaxsning ichki potensiali bo‘lib, ma’lum doiradan chiqishni nazarda tutuvchi, fikrlash va faoliyatda stereotiplardan voz kechish, nostandart, original fikrlash va boshqalarga moyillikda namoyon bo‘ladi.

Ijodkorlikni o‘rganishga oid istiqbolli yo‘nalishlar orasida D.B.Bogoyavlenskayaning tadqiqotlari ajralib turadi. U ijodkorlik tahlilining birligini ajratib ko‘rsatgan. Bunday birlik sifatida intellektual faollik ajratib ko‘rsatiladi, u esa o‘zida ijodkor shaxsining bilish va motivatsion xarakterini birlashuvini aks ettiradi.

D.B.Bogoyavlenskaya kreativlikni intellektning o‘ziga xosligi yoki fikrlash darajasi sifatida, intellektual faollikning yuqori darajadagi sifat belgisi sifatida qarab chiqadi. U kreativlikni rivojlanishining shart-sharoitlari va manbalari haqida fikr yuritar ekan, uni ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflab, faoliyat davomida rivojlanishini qayd etib o‘tadi. D.B.Bogoyavlenskayaning nuqtai nazari bo‘yicha intellektual faollikning o‘lchami, uning sifat xarakteristikasi bu - intellektual tashabbusdir. Intellektual tashabbus – bu fikrlash faoliyatining mavjud sharoitdan tashqarida davom etishi bo‘lib, amaliy ehtiyojlar bilan ham, ishni tashqi yoki sub’yektiv salbiy baholanishi bilan ham bog‘liq emas [1, 104 b.].

Ob’yektiv mezonlar asosida u intellektual faollikning uchta darajasini ajratib ko‘rsatadi: rag‘batlantiruvchi-samarali, evristik va kreativ. Intellektual faollikning yuqori darajasi – kreativlik – ichki motivatsiyaga asoslangan, muammolarning yechish usullarining eng mukammal yo‘llarini topish faoliyatini nazarda tutadi. Kreativ darjasining aqliy faoliyati uchun qator vaziyatlarni taqqoslash majburiy talab etilmaydigan chuqurlashtirilgan jarayon xarakterlidir. Intellektual faoliyatning eng yuqori darajasiga erishgan pedagog o‘z kasbiy faoliyatini o‘zgartirishga qaratilgan innovatsiyalarning tashabbuskoriga aylanadi, deyish mumkin. Ushbu yondashuv amalda kuzatilgan innovatsion faoliyatni talqin qilishda, xususan, yangilik darajasi va kiritilgan innovatsiyalar darajasini tahlil qilishda samarali bo‘ladi. O‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda pedagog uni takomillashtirish zarurligini tushunadi. Bunga ikki yo‘l bilan erishish mumkin: shunchaki ma’lum tafsilotlarni qo‘shish orqali faoliyatga bo‘lgan yondashuvini takomillashtirish yoki eski pozitsiyadan butunlay voz kechish. Deyarli bir xil

sharoitda bo‘lgan pedagoglar innovatsion faoliyatga turlicha kirishishlari mumkin. Innovatsion faoliyatning o‘zlashtirilishidagi farqlar shu bilan birga shaxsning kreativlik darajasi bilan ham belgilanadi. Kreativ odamlar tanlangan faoliyat turini bu jarayonning deyarli barcha bosqichlarida taqlid qiluvchi harakatlarga murojaat qilmagan holda, ijodiy tarzda o‘zlashtiradilar, deb hisoblash qabul qilingan. Biroq mazkur hodisaga yana bir yondashuv mavjud bo‘lib, unga ko‘ra har qanday faoliyat singari ijodiy faoliyat ham ma’lum bir taqlid elementlarini o‘z ichiga oladi, degan taxminga asoslanadi (N.M.Gnatko, A.G.Kovalev, B.D.Larigin, V.A.Prosetskiy, P.A.Rudik va b.). Masalan, V.A.Prosetskiyning fikriga ko‘ra, ijodiy faoliyatning boshlang‘ich bosqichlari sezilarli darajada taqlid xarakteriga ega bo‘lib, asta-sekin taqlid ta’siridan xalos bo‘lib, haqiqiy ma’noda ijodkorlikka aylanadi [9, 40–41 b.]. Shu tariqa, taqlid qilishdan kreativlik rivojlanishga o‘tishning davriy chizig‘i, ya’ni ijodiy taqlid orqali nusxa ko‘chirish va ijodiy taqliddan haqiqiy ijodga o‘tish ko‘zga tashlanadi.

Mazkur chiziqning boshlang‘ich va oxirgi nuqtalari qarama-qarshi, so‘nggi qutblar bo‘lib, ular orasida oraliq, faoliyatning o‘tish shakllari mavjud. Bu yondashuvni N.M.Gnatkoning potensial va haqiqiy kreativlik haqidagi nazariyasi bilan integratsiyalashgan holda ko‘rib chiqish mumkin. Potensial kreativlik – bu, muallifning fikricha, shaxsni potensial moyilligi nuqtai nazaridan tavsiflanuvchi, muayyan tashqi sharoitlarda haqiqiy ijodkorlikni egallashga, ijodiy faollikni namoyon etishga asosiy tayyorlik shaklida ifodalangan faoliyatdan oldingi ijodkorlik; potensial kreativlik – ijodkorlikning zaruriy sub’yektiv shartidir.

Haqiqiy kreativlik – bu ijodiy shaxsning individual xususiyatlarining ma’lum bir faoliyat turining xususiyatlari bilan o‘zaro ta’sirining paydo bo‘lishi, bu uning egasining tegishli faoliyat turida ijodiy faoliyatni namoyon etishga haqiqiy, bevosita tayyorligini belgilaydi; haqiqiy kreativlik – ijodkorlikning yetarli sub’yektiv shartidir [4, 10–11 b.]. Shunday qilib, potensial kreativlik – bu imkoniyatdagi kreativlik. Imkoniyatdagi kreativlik voqelikdagi kreativlikka, ya’ni haqiqiy kreativlikka aylanishi uchun birinchi navbatda u o‘zining egasi tomonidan ma’lum bir faoliyat turini o‘zlashtirish orqali taqliddan haqiqiy ijodga o‘tishi lozim. Har bir inson tabiatan ijodkorlik salohiyatiga ega. Ijodiy qobiliyatlar, ya’ni mustaqil ravishda yangi narsalarni yaratish qobiliyati, individual va uyg‘unlashgan xarakterga ega bo‘lib, ular inson faoliyat turlari kabi xilma-xil ko‘rinishga ega. Ular tabiiyki kundalik faoliyat turlarida har xil darajada namoyon bo‘ladi, masalan, o‘quv-bilish, badiiy, sport, tashkilotchilik, mehnat faoliyatlari va boshqalar. Pedagogik tajribada har bir o‘qituvchining hayot sharoitlari, motivatsiyasi, pedagogik o‘zaro ta’sir xarakteri va boshqa sharoitlarning o‘zgarishi bilan ijodkorligining namoyon bo‘lish darajasi oshadi yoki pasayadi. Tabiiyki pedagogik jarayonning xarakteri – ta’lim oluvchilar

ijodiy qobiliyatini boshqarishning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik jarayon shunday tashkil etilishi lozimki, u ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va namoyon etish imkonini ta’minlasin. Amaliyotning ko‘rsatishicha, kreativlikning shakllanishi va mutaxassisning ijodiy individualligining rivojlanishi uning kompetentligi va professionalligini oshirish imkonini beradi. Mutaxassisni tayyorlash jarayonida kreativlikni shakllantirish muammosini o‘rganishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u kasbiy faoliyatning asosi bo‘lib, mutaxassisning ijtimoiy sohada ijodiy salohiyatini rivojlantirishga va uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Kreativ ta’lim jarayoni har bir ta’lim darajasidagi uning ishtirokchisiga nafaqat ijodiy salohiyatni rivojlantirishga, balki o‘z-o‘zini anglash, ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini ob’yektiv baholashga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish imkonini beradi. Zamonaviy oliy ta’lim talabalar kreativligini namoyon bo‘lishi uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu ularning iyerarxiyasida kasbiy faoliyatlarni rivojlantirish bilan ham bog‘liq. Oliy ta’limda bo‘lajak mutaxassisning potensial kreativligini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha keyingi ishlar uning kompetensiyasini shakllantirish uchun ham, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Башина, Т.Ф. Креативность как основа инновационной педагогической деятельности // Молодой ученый. — 2013. — №4. — Б. 521-525.

2. Богоявленская, Д.Б. Психология творческих способностей: Учеб.пособие для студ. высш. уч. заведений. — М.: Издат. центр «Академия», 2002. — 320 б.

3. Брякова, И.Е. Формирование креативных качеств личности в процессе открытого образования // http://obrazovanie21.narod.ru/Files/2009–1_p041–45.pdf

4. Гилфорд, Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления / под ред. А. М. Матюшкина. — М., 1965. — Б.124–145.

5. Гнатко, Н.М. Проблема креативности и явление подражания. — М, 1994.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning kreativligini rivojlantirish, mazkur muammoga mutaxassislarning yondashuvlari, zamonaviy ta’limda kreativ ta’limning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены развитие креативности обучающихся в образовательном процессе, подходы специалистов к этой проблеме, особенности креативного обучения в совремменом образовании.

SUMMARY

This article highlights the development of student’s creativity in the educational process, the apporoaches of specialists to this problem, the features of creative learning in modern education.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MULTIMEDIYA VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Raximova F. N.
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, talaba, funksiona, vazifalari, qadriyat, ahloqiy-tarbiyalash, pedagogik faoliyat.

Ключевые слова: высшее образование, студент, функция, задачи, ценность, нравственное воспитание, педагогическая деятельность.

Key words: higher education, student, function, tasks, value, moral education, pedagogical activity.

Kirish. «Multimediya» atamasi tahliliga to'xtalar ekanmiz, pedagogik atamalar lug'atida shunda ta'rif berilgan: "multimedia – kompyuterning o'quv materiallarni rangli grafika, matn va grafikda effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlashgan musiqalar, animasiya, shuningdek, to'laqonli videokliplar, hatto videofilmlar kabi turli xil ko'rinishlarda berilishi, ingliz tilida so'zlash manbalaridan kirib boradigan lotinizm, deyarli bir xil transkripsiyaga kiradi" deb ta'riflangan. Ushub tushuncha "mulyum" (ko'p) va OAV, MEDIA (Mentemorlik, vositalar, usul)" so'zlari tarkibida ham keladi deb ifodalangan. Shunday qilib, tom ma'noda «multimedia» «ko'plab muhitlar» degan ma'noni anglatadi.

Adabiyotlar tahlili. Multimediya vositalari asosida talablarni ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirishda asosiy masala talabalarning ijtimoiy tarbiyalanganligi hamda talabada, ijtimoiy faollikni, kreativ-ijodiy yondashishni, ma'naviy-ahloqiy tarbiyalanganlik masalalarini olimlari O.Musurmonova, O.Jomoliddinova, X.Tojiboyeva, N.Djamilova, Q.Quronboyev, B.Shermuhammadov, G.J.Tulenova, R.Safarova, A.Akromovlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar jaryonida tadbiq qilib, pedagogning faoliyat jarayonida ta'lim vositalaridan foydalangan holda ijtimoiy faol, axloqiy tarbiyalanganlikning ilmiy-nazariy asoslari va talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonini takomillashtirish darajasiga oid fikrlarni yoritganlar.

O.Musurmonova o‘z tadqiqotlari doirasida yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish, ularning pedagogik faoliyatida axloqiy tarbiyalanganlik sifatlari, ijtimoiy munosabatlarga kirishishda o‘qituvchining ma’naviy tarbiyalanganligi kabi muammolarga doir tadqiqot ishlarini olib borgan.

N.Djamilova o‘z tadqiqotlari doirasida pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlik g‘oyalarini rivojlantirish masalalariga to‘xtalar ekan, shunday ta’kidlaydi: “talabalarda tashabbuskorlik bu o‘quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g‘oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik” sifatlari uning jamoadoshlari orasida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishlarida namoyon bo‘ladi deb ifodalagan. Chunki ijtimoiy tarbiya talabalarda irodaviy, talabachanlik, axloqiy, qat’iyatlilik, mas’ulyatlilik, o‘zi-o‘zini iroda qila olishlari kabi sifatlar rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Q.Quronboyev o‘z izlanishlarida pedagoglar faoliyatida ijtimoiy tarbiya talabalarning pedagogik asoslari, ma’naviy–axloqiy muammolari, yoshlar ta’lim-tarbiyasida oid burch va mas’uliyat hamda ongli intizomni ma’naviy – ijtimoiy faolligini rivojlantirish uslublari va mazmuni, xususida fikr yuriganlar” va shu masalalariga doir vaziflarga to‘xtalib o‘tgan.

B.Shermuhammadov o‘z izlanishlarida “talaba yoshlarning ijtimoiy tarbiyalanganligi, salohiyati ilmiy-amaliy jihatdan o‘sish imkoniyatlarini, ijtimoiy faollik qobiliyatlarini oldindan aniqlashi, kreativ-ijodiy fikrlash” masalalariga doir tadqiqotlarga to‘xtalib o‘tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta’lim muassasalarida, multimediya vositalari asosida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirishda talabalarni alohida funksional – vazifalarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Masalan:

1. Talabalarning qadriyatga yo‘naltiruvchi funksiyasi - etik jihatdan, axloqiy o‘z-o‘zini anglash, axloqiy-ma’naviy fazilatlar va jamiyat me’yorlari va an’analariga mos munosabatlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Tarbiya beruvchi tashkilot sifatida, oliy ta’lim tashkiloti doirasida o‘ziga xos an’ana va me’yorlar mavjud. Ham umuminsoniy va ham kasbiy qadriyatlar asosida jamiyat va talaba o‘rtasida vositachi sifatida xizmat qiladi. Oliy ta’lim tashkilotining vazifasi va asosiy omillari bu professionallikni rivojlanishi, Oliy ta’lim muassasalari, tarbiya tashkiloti sifatida bo‘lajak pedagoglarni kasb, ta’lim va madaniyat qadriyatlari bilan bog‘liqligidir. Bizning tushunchamizdagi qadriyatlar - bu talaba shaxsi, ijtimoiy guruh yoki jamiyatda ijtimoiy tarbiyalashga harakat qiladigan har qanday moddiy yoki

mukammal hodisalardir. Ta'limning aksiologizasiyasi talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yo'nalish beribgina qolmay, balki uning dunyo va odamlar bilan o'zaro faoliyatini belgilaydigan qadriyatlar tarkibi va ierarxiyasi ham hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasining imkoniyatlari, shaxsini "talabani" ijtimoiy va individual faollashuvin o'zlashtirishini, oliy ta'lim tashkilotlarida uning kasbga, hayotga, qadriyatlarga, o'ziga qadriyatli-ma'no-mazmun munosabati amalga oshirilsa, u kasbiy faoliyatining xulosalarini, qadriyatlarga asoslab puxta o'ylangan, ehtiyoji rivojlanayotgan bo'lsa talaba shaxsining bo'lajak ijtimoiy va individual rivojlanish holatlarini oldindan ko'ra bilishga yordam beradi.

2. Talabalarni ijtimoiy tarbiyalashning kommunikativ funksiyasi. Bu funksiya interfaol pedagogik faoliyat- pedagogik jarayon ishtirokchilarining bevosita maqsadga yo'naltirilgan o'zaro kommunikasiyasidir. Bu kommunikasiyaning eng muhim xususiyati pedagog va talabalarning «o'zganing rolini qabul qilish», ularning muloqot bo'yicha sherigi tomonidan qanday qabul qilinishini tasavvur qilish va shunga ko'ra pedagogik vaziyatni izohlash, o'z harakatlarini loyihalashdir. Interfaol o'zaro ta'sir-pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro faoliyati bo'lib, uning zamirida har bir inson hayotining shaxsiy tajribasi yotadi.

Interfaol o'zaro faoliyat - pedagog va muallimlar birgalikdagi faoliyatlar almashuvi jarayoni, talabalar faoliyatining pedagog faoliyati bilan shartlanganligi va aksincha shartlanganlik bilan ifodalanganligi, va bu muallim va talabalarning uzviy faoliyati jarayonidir, uning sifatlari quyidagilar: ishtirokchilarning bir-biri bilan shaxsan axbarot almashish jarayonini imkonini beruvchi makon va zamonda ishtiroki; jarayonning umumiy maqsadining, oldindan kutilayotgan, har birining ehtiyojlarini amalga oshirishga yordam beradigan natijaning mavjudligi; harakatlarni rejalashtirish, nazorat qilish, tuzatish va muvofiqlashtirish; hamkorlikning, umumiy faoliyatning yaxlit jarayonining ishtirokchilar o'rtasida baham ko'rilishi; shaxslararo munosabatlarning paydo bo'lishi. Interfaol o'zaro faoliyat - pedagogik jarayon ishtirokchilarining jadal kommunikativ faoliyati, faoliyat turlari va shakllari, usullarining xilma-xilligi va o'zgarishidir. Samarali interfaol pedagogik o'zaro faoliyat natijasida pedagogik jarayon ishtirokchilarining sub'ektlararo munosabatlari vujudga keladi, bu esa ularning bir-birlarini ushbu jarayonning to'laqonli huquqli ishtirokchilari, o'z tipologiyasini anglaydigan betakror individualliklar sifatida idrok etishlarini belgilaydi.

3. Talabalar ijtimoiy pedagogik faoliyatida ahloqiy-tarbiyalashni dolzarblashtirish jarayoni, ushbu jarayon ijtimoiy pedagogik faoliyatda

tarbiyalashning ma’no-moxiyatini ifodalab. Bu orqali pedagogik jarayon sub’ektlarining o‘zaro faoliyatli, voqelik hodisalarini, o‘z faoliyatini refleksiya qilishi, boshqalar bilan o‘z individualligi holati-nuqtai nazardan o‘zaro faoliyat olib borish talaba amaliy faoliyatning motivi va maqsadlari bilan uning etakchi maqsadiga nisbati sifatida amal qiladi: «muayyan, konkret-psixologik ongli ma’no insonning boshida aks etgan uning ob’ektiv munosabati bilan yaratiladi. Uni harakatning uning o‘zi bevosita natijasi hisoblangan maqsadga tomon harakatga undaydi.

Talabalar ijtimoiy pedagogik faoliyati kasbiy-sohaviy bilmilarini egallashlarida kasbiy kompetensiyalar roli alohida ahamiyat kasb etadi. CHunnki ta’limda talabaning ijtimoiy pedagogik faoliyatda motivasion-qadriyatli yondashuv orqali pedagogik faoliyatda multimediya vositalaridan foydalngan holda tarbiyalanib boradi.

Kognitiv-faoliyat jarayonida talaba-shaxsining mustaqil fikrlash jarayoni, alohida iqtidorli bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida shaxsiy-refleksiv faoliyatda talabaning shaxsiy harakatlari va ularning qonun qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatida multimedia vositalaridan adaptiv ya’ni o‘quv faolyatiga moslashtirish orqali ta’lim-tarbiya jarayonida sub’ekt sifatida ma’lum bilimlar tizimini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tushunish jarayoni yotganligi sababli, bilimlarni o‘zlashtirishning strukturasi ma’no yaratishning strukturasini ham belgilab beradi, deb taxmin qilish mumkin.

Multimediya vositalari asosida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish tizimi quyidagilarlardan iborat: idrok qilish, ijtimoiy takomillashtirish, (yakka tartibli tarbiyani takomillashtirish), ijtimoiy tarbiyalashni rivojlantirish, individual tarbiyalash orqali umumlashtirish, moslashtirish, takomillashtirish, ijtimoiy-ahloqiy tarbiyani qo‘llash. Oliy ta’lim tashkilotining pedagogik jarayonida ma’no-mazmunni yaratish talaba va o‘qituvchilarning aqliy ijodiy faoliyatini ularning individual ma’nolarini taqdim etish va ularni boyitish maqsadida bu ma’nolarni almashish orqali yangi ma’no yaratishni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim tashkilotlari pedagogik jarayonining mazmuni uning ishtirokchilari ma’no-mazmun yaratishining mahsuli, natijasiga aylanadi. O‘quv-tarbiya jarayonining o‘ziga xos tashkil qilinishi mavjud. Oliy ta’lim tizimi faoliyatining mavjud turli xil (o‘quv, ijodiy, tarbiyaviy - axloqiy.) turlari asosda ma’no-yaratishni tashkil qilish uchun, shuningdek, taklif qilinayotgan faoliyatda variantlarida ishtirok etayotgan talabalar guruhlarini maxsus tanlash orqali ma’no yaratish jarayonida talabaning ijobiy his-tuyg‘ularini his qilish uchun vaziyatlarni yaratish asosida; guruhlarda ijobiy emosional-hissiy muhitni,

ijtimoiy tarbiyaviy tadbilarda maqom-roli ierarxik dinamikasini, muvaffaqiyat vaziyatlarni va boshqalarni yaratish asosida ma'no yaratishni tashkil qilish imkoniyatini beradi

4. Tashkilotchilik vazifasi. Bu funksiya oliy ta'lim tashkilotlarining turli tashkiliy darajalarida amalga oshiriladi: guruh, fakultet, oliy ta'lim tizimi. Talaba bo'lajak mutaxassis o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida harakatda bo'lishi va o'quv jamoasi va muallimlar o'rtasida bog'lovchi xalqa bo'lishi mumkin. O'quv guruhlarining boshliqlari yig'ilishida, fakultetning stipendiya qo'mitasida, oliy ta'lim tashkilotining saylov va ma'muriy organlarida o'z kursdoshlarining manfaatlarini himoya qiladi; talabalarning intizomini, fakultetdagi ichki tartib qoidalarga rioya qilishlarini ta'minlaydi.

Talaba oliy ta'lim tashkilotining vakili masalan, madaniyat tashkilotchisi, kasaba uyushmasi tashkilotchisi bo'lishi mumkin. Oliy ta'lim tashkilotida madaniyat tashkilotchilari birlashmalari mavjud. Bo'lajak mutaxassis oliy ta'lim tashkilotining madaniyat tashkilotchisi bo'lib, uning manfaatlarini ifodalaydi, boshqa talabalar nomidan amal qiladi, ish yuritadi, oliy o'quv yurtining tarkibiy bo'linmalarining boshqa vakillari bilan o'zaro faoliyat qiladi.

Tarbiya tashkiloti sifatida oliy ta'lim tashkiloti bo'lajak mutaxassislarga nafaqat o'zlari mansub bo'lgan fakultet doirasida, balki butun oliy ta'lim tashkiloti darajasida ham o'zlarini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Bo'lajak mutaxassislar ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etishi, shahar, viloyat, mamlakat miqyosidagi ijodiy faoliyatda oliy ta'lim tashkilotining vakili bo'lib qatnashishlari mumkin. Oliy ta'lim tashkilotida tyutorlik tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, u talabalar va guruhlarga ularning muammolarini hal qilishda oldini olish va tezkor yordam berishga qaratilgan sub'ekt-sub'ekt pedagogik o'zaro amaliy faoliyatda ijtimoiy qo'llab – quvvatlash, yo'l-yo'riq ko'rsatishlarida namoyon bo'ladi.

5. Amaliy faoliyatga asoslangan faoliyat funksiyasi. Oliy ta'lim tashkilotida bo'lajak mutaxassisni tayyorlash jarayoni faoliyatining bir-birini o'zaro to'ldiruvchi: ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy-pedagogik yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Bo'lajak mutaxassislarning uzluksiz kasb ta'limi doirasidagi ta'lim berish faoliyati etakchi faoliyat turi bo'lib, uning maqsadi talabani o'qitish ob'ektidan ta'lim va kasbiy amaliy faoliyat sub'ekti sifatida tan olishdan iborat. Talaba bevosita o'quv jarayoni va amaliyot bilan uyg'un holda tarbiyalanib boradi. Tashkil qilish nuqtai nazaridan, o'quv jarayoni turli guruhlarda amalga oshiriladi: ma'ruza o'qish guruhlari (bir kursning bir necha o'quv guruhlari), asosiy o'quv guruhi, seminarlar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun

kichik guruhlar. Yuqorida sanab o‘tilgan tashkiliy shakllar doirasida har bir talabaning ta’lim jarayonida turli darajada ishtirok etishi nazarda tutiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi holatida bo‘lishi, ya’ni faqat axborotni qabul qilishi va qayd etishi mumkin, yoki ijtimoiy faollikni namoyish qilish, o‘qituvchi tashkil qiladigan muhokamalar, munozaralarda ishtirok etishi, individual nuqtai nazarga ega bo‘lishi mumkin. Talaba kasbiy amaliyot faoliyatining natijasi bo‘lajak o‘qituvchi sifatida ijtimoiy tarbiyalanishida oliy ta’lim tashkiloti ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagogik tarbiya masalasi avvalo - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy holati hamda uning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan holda muayyan-tarixiy jarayonni aks ettiradi. Jamiyatning yangilanish sharoitida talabalarning ijtimoiy tarbiyasining natijalari va samaradorligi insonning madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi va qayta ishlab chiqishni ta’minlashi bilan emas, balki jamiyat a’zolarining ularga o‘tgan avlodlar tajribasi orqali oldinga surilgan vazifalarni bajarishlari lozim bo‘ladi. Shuning uchun, jamiyat taraqqiyotida talabalarning o‘zaro munosabatlarga kirishishlarida o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajarishlari va tadqiqot oldiga qo‘ygan muammoni yechish imkonini beruvchi ongli faoliyat va mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlik hamda tayyorlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Xulosa. Quyida keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, multimediya vositalari asosida ijtimoiy-madaniy faoliyatning tarkibiy qismi ekanligi, bu faoliyat ishtirokchilari bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Multimedia vositalari asosida mohiyatini real harakatlar yo‘llarida, o‘zaro faoliyatning muayyan turlari va ko‘rinishlarida ifodalash mumkin. Multimedia vositalari asosida-inson shaxsini ijtimoiylashtirish maqsadida maxsus tashkil etilgan va boshqariladigan faoliyat turidir. Shu mazmunda multimedia vositalari asosidagi faoliyatining tarbiyaviy imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari, strukturasi va mazmuni undan talabalarni ijtimoiy tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Хусайн Воиз Кошфий. Ахлоқи Муҳсиний.:Тошкент 2010 й..

2. Асмолов А. Психология личности: Принципы общепсихологи¬ческого анализа : учебник //. - М.: Изд-во МГУ, 1990 г..

3. Арипов М., Б.Бегалов, У.Бегимқулов, М.Мамаражабов Ахборот технологиялари.: Т.2009 й.

4. Абдуғаниев О.Т. Талабаларда ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияларини ривожлантириш. Дисс 2021 й.

5. Авлияқулов Н.Х., Н.Н.Мусаева Педагогик технология.: “Тафаккур Бўстони”.: 2012 й.

6. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. –160 б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida, multimediya vositalari asosida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirishda talabalarni alohida funksional – vazifalari ko‘rsatilingan masalan talabalarning qadriyatga yo‘naltiruvchi funksiyasi, talabalarni ijtimoiy tarbiyalashning kommunikativ funksiyasi, talabalar ijtimoiy pedagogik faoliyatida axloqiy-tarbiyalashni dolzarblashtirish jarayoni, tashkilotchilik vazifasi, Amaliy faoliyatga asoslangan faoliyat funksiyasi haqida fikr yuritilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье в совершенствовании социально-педагогической деятельности студентов высших учебных заведений на основе мультимедийных средств показаны специальные функциональные задачи студентов, например, функция ориентировки студентов на ценности, коммуникативная функция социальной воспитание учащихся, процесс актуализации нравственного воспитания в социально-педагогической деятельности учащихся, организационная задача, рассматривается функция деятельности, основанной на практической деятельности.

SUMMARY

In this article, in the improvement of the social pedagogical activity of students in higher education institutions, on the basis of multimedia tools, special functional tasks of students are shown, for example, the function of directing students to values, the communicative function of social education of students, the process of actualizing moral education in the social pedagogical activity of students, the organizational task. , the function of activity based on practical activity is considered.

VIRTUAL PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING VAZIFALARI VA AFZALLIKLARI

Ravshanov O.A,
O‘zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali “Yoshlar psixologiyasi” kafedrasi katta o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: internet, virtual, portal, oflayn, onlayn, axborot, kognitiv faollik, kognitiv jarayonlar.

Ключевые слова: интернет, виртуальный, портал, офлайн, онлайн, информация, познавательная деятельность, познавательные процессы.

Key words: Internet, virtual, portal, offline, online, information, cognitive activity, cognitive processes.

Har xil turdagi xizmatlarni, shu jumladan psixologik yordamni ko’rsatish uchun Internet maydonidan foydalanish faqat so’nggi bir necha yil ichida texnik jihatdan mumkin va iqtisodiy jihatdan foydali bo’ldi. Bu axborot tarmoqlari orqali ma’lumotlarni uzatishning yangi shakllarining paydo bo‘lishi, yuqori samarali va nisbatan arzon telekommunikatsiya uskunalarining joriy etilishi, Internet-kontentning modulli elementlarini ishlab chiqishda texnik yordam ko‘rsatuvchi qator muassasalarning paydo bo‘lishi va boshqalar bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, internet muhitida xizmatlarni samarali va muvaffaqiyatli taqdim etishning asosiy muammosi turli muammolarni hal qilishga qodir bo’lgan ixtisoslashtirilgan inson-mashina tizimlarini loyihalash va joriy etish asosiy vazifadir. Ushbu maqolada psixologlar va potentsial mijozlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida internetdan (psixologik portal shaklida) foydalanishga asoslangan virtual psixologik xizmatni (VPX) tashkil etish haqida fikr yuritiladi.

Psixologik xizmatlar ko’rsatish va psixolog va mijoz o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning o’zi Internet muhiti vositasida amalga oshirilganda, biz virtual psixologik xizmatni inson-mashina tizimining bir turi sifatida ko’rib chiqamiz. Internet orqali psixologik yordam ko’rsatish «mijoz-psixolog» qo’shma faoliyatining inson-mashina tizimlarini loyihalash uchun ideal muhitdir, chunki u manfaatdor ishtirokchilarni aniqlash, muhokama qilish jarayonida o’zaro munosabatlarning turli shakllarini joriy qilish uchun amalda cheksiz

resurslardan foydalanishga imkon beradi va turli masalalar va muammolarni amaliy hal qilishdir.

Internetda ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda (anonimlik, mijoz va psixolog o'rtasida jismoniy aloqaning yo'qligi, «birovni boshqa birovga taqlid qilish» qobiliyati) psixologik xizmatni yaratish modellar tizimini ishlab chiqishdan boshlanishi kerak. Bunday rivojlanish, birinchidan, psixologik internet portalining mazmunli dizayni va ushbu portal taqdim etishi mumkin bo'lgan vazifalar doirasini aniqlash, ikkinchidan, foydalanuvchilarning turli guruhlar so'rovlari (murojaatlari) xususiyatlarini tahlil qilishdan kelib chiqadi. [3]

Portallar (Vikipediya) - ma'lum bir mavzu yoki ilm sohasi bo'yicha bosh sahifa. Portallar bir nechta loyihalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Loyihalar faqat maqola ustida ishlashga (mualliflarga) mo'ljallangan bo'lsa, portallar ko'proq o'quvchilarga mavzular bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumot beradi.

Har bir portal quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- ma'lumotlar yig'ish;
- turli manbalardan olingan ma'lumotlarni turkumlash va ixtisoslashtish;
- hamkorlikni amalga oshirish vositalari (masalan, jonli muhokamalar, turli ilovalar va hujjatlar turlari bo'yicha hamkorlik qilish qobiliyati);
- turli parametrlar uchun o'rnatilgan qidiruv tizimlari;
- integratsiyalashgan (tizim ichida) individual foydalanuvchilarning talablariga qarab interfeysni moslashtirish qobiliyati;
- vaqt o'tishi bilan ma'lumotlarni boshqarish qobiliyati;
- axborotni tahlil qilish uchun o'rnatilgan mexanizmlar;
- ma'lum bir sohada o'z tajribasini e'lon qilish va aniqlash qobiliyati;
- ixtisoslashgan funktsional masalalar bo'yicha mutaxassislar bilan munosabatlarni o'rnatish mexanizmlari. [3]

Portallarning bunday xarakteristikalari to'plami dastlab tijorat muassasalari uchun ishlab chiqilganligi va turli korporativ axborot tizimlarini birlashtirish vositasi sifatida ishlatilganligi bilan bog'liq. Portallarda asosiy vazifa portal imkoniyatlaridan va axborot makonining birligidan muassasaning funktsional bo'linmalari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish vositasi sifatida foydalanishdan iborat. Ushbu turdagi portallarning qurilishi ko'p jihatdan muassasalarda jamoaviy ishning tarqalishi bilan bog'liq edi, bu ayniqsa 90-yillarning o'rtalarida sezilarli bo'ldi.

Shunday qilib, agar dastlab portal asosan axborot manbai bo'lgan bo'lsa, so'nggi bir necha yil ichida u muassasaning bir yoki bir nechta funktsional bo'linmalari doirasida o'zaro aloqa va aloqalarni tashkil qilish vositasiga

aylandi. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda portalning ma'lum bir mavzu bo'yicha ishi faqat ma'lum bir portalning imkoniyatlari bilan qanday vazifalar sinflari ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Rus psixologiyasida vazifaning eng aniq ta'rifi A.N.Leontiev tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra, faoliyatning umumiy tuzilishida maqsadning tarkibiy o'rnini vazifa egallaydi. Bu muayyan shartlar ostida berilgan maqsaddir. Bunday holda, vazifa aslida sub'ekt tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat maqsadi va shartlari birligining alohida turi sifatida ishlaydi. [1]

Savolning bunday shakllantirilishi boshidanoq tegishli muassasalarning imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olgan holda tashkiliy maqsadlarni aniqlashtirishga qaratilgan. Ta'lim muassasalar uchun vazifalarni (sinflarni) aniqlash, shuning uchun ularning potentsial mijozlari muassasa bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin bo'lgan maqsadlarni aniqlashdan boshlanadi. Shu bilan birga, mijozlar maqsadlarining «chegaralari» mijozlar tomonidan emas, balki muassasa tomonidan belgilanishi kerak; bu holda, mijozning maqsadlari muassasaning funktsional imkoniyatlari va cheklovlari sifatida ishlaydi.

VPX uchun tashkiliy maqsadlarning ushbu ta'rifi o'z mijozlari uchun ushbu mijozlarning turli talablari va talablarini qondiradigan bunday ish sharoitlarini asoslashni talab qiladi. Shuning uchun, potentsial foydalanuvchilarning maqsadlarini aniqlashdan VPXni loyihalashni boshlash kerak, ya'ni, potentsial mijoz-ziyoratchilarning ehtiyojlari va ushbu maqsadlarni VPXdagi ish sharoitlari bilan yanada bog'lash.

Dastlabki tahlillar shuni ko'rsatadiki, salohiyatli foydalanuvchilar - VPX mijozlari bir qator maqsadlarni taqib qiladi. Birinchidan, bu turli muammolarni hal qilish uchun psixologik maslahat (individual va guruh) berish bilan bog'liq maqsadlardir. Ikkinchidan, bu Internet orqali bolalarga turli xil amaliy ko'nikmalarni (bolalarda xotirani, e'tiborni va boshqalarni rivojlantirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, turli psixologik muammolarini hal qilish va hokazo) o'rgatish maqsadidir. Uchinchidan, axborot-psixologik xizmatlar ko'rsatish. Biroq, ushbu maqsadlarga erishish shakli VPX mijozlarining yoshiga bog'liq bo'lib, u turli yoshdagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan. U bolalar, o'smirlar va kattalar yoshidagi mijozlarni jalb qilishi kerak. Har bir segmentning batafsil xususiyatlari jadvalda keltirilgan.

Sigment-maqsadli tuzilgan, bir mezon asosida shakillanayotgan guruhni kategoriyalarga ajratish. NLd-neyrolingvistik dastur. Bolalar segmenti (yosh oralig'i - 6-12 yosh, 13-18 yosh, 18-45 yosh) [2].

Ayni paytda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari yoshini pasaytirish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Shunday qilib, yaqin kelajakda 5 yoshdan

Saljhiyatli foydalanuvchilarning yoshi	Maslahat berish		Axborot xizmatlari	O'quv-tarbiyaviy xizmatlar
	Individual	Guruhiy		
6-12 yosh segmenti	Anonim yoki koordinatalarni aniqlab on-line,off-line muloqat			Ta'lim muommolarini hal qilish uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim va tarbiya muhitini yaratish (6-12 yosh)
13-18 yosh segmenti	Anonim yoki koordinatalarni aniqlab on-line,off-line muloqat	Forum, "16 yoshgacha va undan katta", qiziqishishlar bo'yich guruhlar	"Siz so'radingiz biz javob beramiz", "Arxiv forumi" "NLD bo'limi", testlar" Ψ-info", "biz kimmiz"	Ta'lim muommolarini hal qilish uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim va ta'lim muhitini yaratish (13-15 yosh). (bundan tashqari ixtisoslsshgan fanlar)
18-45 yosh segmenti	Anonim yoki koordinatalar aniqlab on-line,off-line muloqat	"E-Forum" qiziqishishlar bo'yich guruhlar	"Siz so'radingiz biz javob beramiz", "Arxiv forumi" "NLD bo'limi", testlar " Ψ-info", "biz kimmiz"	

14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 50% ga yaqini yiliga kamida bir marta Internetga o‘tishini taxmin qilishimiz mumkin. Albatta, O’zbekistonda internet foydalanuvchilari soni ko’p omillarga bog’liq bo’ladi, ammo bunday prognoz, bizning fikrimizcha, juda o’rinli. Ushbu toifadagi mijozlar odatda oilaviy muammolar bilan murojaat qilmaydi. Ammo ko’plab bolalar kognitiv faollik shakllanmaganligi va kognitiv jarayonlarning zaifligi tufayli maktabda ortda qolmoqda, shuning uchun ular saytda o’quv o’yinlari joylashgan (xotira, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish va boshqalar). Bu o’yinlar ham individual, ham jamoaviy ishlarni o’z ichiga oladi.

O’smirlar segmenti (yosh oralig’i - 13-18 yosh). Bu mijozlar guruhidagi asosiy muammolar hayot ma’nosini izlash, muloqot muammosi, kasbga yo’naltirish, o’z joniga qasd qilish niyatlari, jinsiy aloqalar, qarama-qarshi jins bilan munosabatlar, maktab muammolari va boshqalar. Katta o’smirlar kelajakni tanlash bilan duch kelishadi. Kasb va psixologik xizmatda ularga o’z xohish-istaklarini tanlashda yordam beriladi. Ushbu yosh yo’nalishi uchun internet muhiti vositachiligida professional psixologik maslahat berish vazifalari hal qilinmoqda.

Kattalar segmenti (yosh oralig'i 18- 45 yosh). Mijoz internetga kirish huquqiga ega, bu uning ma'lum bir ijtimoiy doiraga mansubligini aks ettiradi. Asosan, u oliy yoki o'rta ma'lumotga ega bo'lgan katta shaharda yashovchi shaxs. Mijoz psixologik jihatdan sog'lom, aks ettirish qobiliyati, o'zini o'zi qadrlash, o'zini o'zi anglash kabi xususiyatlarga ega. U o'zining ichki dunyosiga yaxshi g'amxo'rlik qiladi. Mijoz psixologik xizmatga murojaat qiladi, chunki u muammoni mustaqil hal qilishning ichki zaxiralarini tugatdi. U virtual bo'lmagan psixolog bilan bir xil muammolarni hal qiladi (hayotning ma'nosini izlash (shaxs ichidagi mojaro), ota-ona va bola munosabatlari, shaxslararo muammolar, yaqinlaringizning o'limi, jismoniy shikastlanish, to'liq bo'lmagan oila, aloqa muammosi, yolg'izlik, moslashish, vazn muammosi, uyatchanlik va boshqalar), shuningdek, ba'zi mijozlar «haqiqiy» psixolog bilan bog'lanishdan uyaladigan yoki qo'rqadigan muammolar.

Albatta, internetda ishlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida unutmaslik kerak, bu mijozlarga qo'yiladigan muammolarni hal qilish yo'lini/shaklini belgilaydi. Internetda ishlashning asosiy xususiyati, odam bir sahifadan ikkinchisiga o'tganda yoki doimiy ravishda istalgan sahifaga tashrif buyurganida, juda tez o'zgaruvchan ish sharoitlariga e'tibor qaratish zarurati. Shu munosabat bilan biz VPX ishining ba'zi funktsional, texnologik va tashkiliy jihatlarini ajratib ko'rsatishni zarur deb hisobladik, ularning mavjudligi mijozlar va VPX vakillari (psixologlar) o'rtasida birgalikdagi ishlarni qurishning turli usullarini amalga oshirish uchun zarur shartdir.

Axborot yig'ish/axborot qidirish tizimi. Psixologik sayt turli manbalardan ma'lumotlarni to'plashi va indekslashi kerak. Xizmat foydalanuvchilari tomonidan ma'lumotlarni to'plash ikki usulda amalga oshiriladi: proaktiv (ma'lumotlar forumlar davomida mijozlarning o'zlari tomonidan olinadi) va faol (ma'lumot mutaxassislar tomonidan olinadi). [2] Shu bilan birga, alohida ta'kidlash kerakki, ixtisoslashtirilgan psixologik ma'lumotlar bazalari, shuningdek, turli xil psixologik saytlar bu holatda ma'lumot manbalari bo'lishi mumkin.

Turkumlash va tashkil etish. Barcha ma'lumotlar ma'lum bir ierarxiya bo'yicha shaffof tarzda tuzilishi kerak, bu mijozga uni qiziqtirgan ma'lumotlarni (manzil, ma'lumot, havolalar) tezkor qidirishni ta'minlaydi. Bu saytning turli toifalari o'rtasida turli munosabatlar (bog'lanishlar) tizimini yaratishni nazarda tutadi.

Tarqatish va nashr qilish. Mijoz va psixolog o'rtasidagi muloqot Internet orqali on-layn rejimda (jonli muhokamalar, maslahatlar, ovozli aloqa va videokonferentsiyalar), elektron pochta orqali va boshqa oflayn

texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladi. XML, HTML, PDF formatlari axborotni tarqatish va uni keyinchalik nashr qilish uchun ishlatiladi.

Mijozlarning istaklarini shaxsiy istaklarini to'plami. Sayt foydalanuvchilari o'zlarining shaxsiy talablari va sayt interfeysining vazifalariga moslashish imkoniyatiga ega. Bu ularga turli xil psixologik muammolarni hal qilish va / yoki muhokama qilishda o'zlarini qulay his qilishlariga imkon beradi

Axborotning hayotda aylanishi. Psixologik xizmatning ma'lumotni iqtisodiy va samarali saqlash, kerakli vaqtda tayyor bo'lishini ta'minlash va eskirgan ma'lumotlarni yo'q qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Axborotning hayotda aylanishi shuningdek, saytni yangilash uchun zarur tartib-qoidalarni, yangi ma'lumotlarni taqdim etish texnologiyalarini va eski ma'lumotlarni o'chirishni anglatadi.

Axborot hayot siklining ajralmas qismi auditdir - axborotdan foydalanish chastotasini (muvofiqligini), uni olish, o'zgartirish, takomillashtirishni aniqlash qobiliyatidir. Sayt foydalanuvchilari va uning ma'muriyati tomonidan mijozlarning talab va istaklarini kuzatish uchun maxsus tadbirlarni o'tkazishni ta'minlash kerak. Bunga so'rovlar, ixtisoslashtirilgan muhokama forumlari, VPX ning turli bo'limlarini ishlab chiqish bo'yicha qo'shma loyihalar kiradi.

Tajribaning ta'rifi. Foydalanuvchining tajribasidan foydalanishi. VPX ni loyihalash va amalga oshirish jarayonida uning virtual va tashkiliy tuzilmalari shunday qurilishi kerakki, psixologlar ham, mijozlar ham tegishli masalalar bo'yicha o'z tajribalarini baham ko'rishlari mumkin. Forum etakchisini professional tarzda tayyorlanishi va foydalanuvchilarning talablariga muvofiq muhokamalarni tashkil qilish uchun texnik vositalar bilan ta'minlanishi kerak.

Mahalliy ekspertlar guruhi mijozlardan kelayotgan joriy ma'lumotlarni kuzatish va sayt ma'murlari o'rtasida fikr almashish uchun zarur vositalarni (texnik va kontent) o'z ichiga oladi.

VPX faoliyati uchun funktsional va tashkiliy shart-sharoitlarni belgilab berganimizdan so'ng, biz ushbu xizmatni uning ishining mazmunli yo'nalishlari nuqtai nazaridan tavsiflaymiz. Virtual psixologik xizmat ishning to'rtta funktsional yo'nalishiga ega (ya'ni foydalanuvchilarga to'rt turdagi xizmatlarni taqdim etadi): individual psixologik maslahat, guruhli psixologik maslahat, axborot xizmatlari va bolalar foydalanuvchilari uchun maxsus trening xizmatlari (1-jadvalga qarang).

Individual maslahat. Ushbu sohaning bir qismi sifatida professional psixologik yordam ko'rsatiladi. Mijoz psixolog bilan onlayn - shaxsiy / individual, oflayn - elektron pochta orqali muloqot qilishi mumkin. Mijoz o'z muammosini sahifaga tashrif buyurganida taqdim etiladigan maxsus so'rovnoma yordamida

tasvirlaydi. Shu bilan birga, anketaning mavjudligi va to'ldirilishi potentsial foydalanuvchida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar spektrini aks ettirish elementi bo'lib xizmat qiladi.

To'ldirilgan so'rovnomani olgandan so'ng, VPX so'rovning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq, maslahat uchun ushbu muammoga ixtisoslashgan psixologga murojaat qiladi. Agar mijoz anonim ravishda maslahatlashmoqchi bo'lsa (bu so'rovnomada ko'rsatilgan), u holda javob elektron pochta orqali yoki yopiq shaxsiy chat rejimida yuboriladi, agar bo'lmasa, savol va javob saytda e'lon qilinadi.

Guruhda psixologik maslahat. Alohida, real vaqt rejimida potentsial foydalanuvchilarning eng dolzarb muammolarini muhokama qilish, turli pozitsiyalarni kelishish va qarorlar qabul qilish uchun kommunikativ-operatsion muhit (forum) mavjud, keyinchalik muhokamalar matnini keyingi o'qish va tahlil qilish uchun saqlash. Turli xil mijozlar guruhlari ehtiyojlariga eng mos keladigan bunday muhitlarning bir nechta toifalari mavjud:

«16 yoshgacha va undan kattalar» - bu o'smirlar uchun ixtisoslashtirilgan forum bo'lib, unda ularni tashvishga soladigan muammolar muhokama qilinadi. Uy egasi (moderator) forum ishtirokchilari birgalikda hal qilishlari kerak bo'lgan muammoli vaziyatni belgilaydi, jamoada ishlaydi, birgalikda ish jarayonida o'z pozitsiyalarini to'ldiradi.

«Elektron forum» - bu erda psixologik muammolarni hal qilish bo'yicha kechayu kunduz jamoatchilik muhokamalari bo'lib o'tadi. Forum ishtirokchilari kattalardir. Forumning asosiy vazifasi - hissiy va axborot yordami. «E-forum» - bu guruh ishining varianti bo'lib, uning davomida mijoz muhokama qilinayotgan muammo bo'yicha forum ishtirokchilarining turli fikrlariga duch keladi. Bunday ishlarda ko'p narsa rahbarga bog'liq. Uning asosiy vazifasi vaziyatni kuzatish va muhokama qilish, uni muammoni hal qilishga yo'naltirishdir. Mashg'ulotchi forumni shunday boshqaradiki, ishtirokchilar chetga tushib qolishlari va boshqa masala muhokamasiga o'tishlari oldini oladi. Forum ishini uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida psixologik xizmat tomonidan "Elektron forum" ishtirokchilari o'rtasida muloqot qilish qoidalari" ishlab chiqildi. «E-forum» va «16 yoshgacha va undan katta» forumi o'rtasidagi tub farq nafaqat foydalanuvchilarning yosh toifasida, balki ushbu forum ishtirokchilari undan o'zlarining fikrlarini aks ettirish vositasi sifatida foydalanishlaridadir o'z pozitsiyasi muammosi.

«Qiziqish guruhlari» Guruh ro'yxati oldindan tuziladi, muhokamada qatnashishni xohlovchilar «Takliflar kitobi»ga qayd etiladi. Munozara (forumdagi kabi) tajribali mutaxassis tomonidan olib boriladi. Bu guruhlarning

“E-forum”dan farqi quyidagicha: guruh a’zolari soni ancha kam (6-10 kishi), asosan, muhokama qilinayotgan muammo bilan jiddiy qiziqadigan odamlar. Suhbat shaxsiy rejimda, ya’ni faqat ushbu guruhning ro’yxatdan o’tgan a’zolari uchun amalga oshiriladi. Ushbu guruh haqidagi ma’lumotlar arxivi faqat ushbu guruh a’zolari uchun mavjud bo’lib qoladi.

Axborot xizmatlari. «Siz so’radingiz, biz javob berdik» tashrif buyuruvchilarning elektron pochta xabarlariga malakali psixologlarning har kuni ochiq bo’lgan javoblarini, eng ko’p muhokama qilinadigan mavzular bo’yicha ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Harflarni topishni osonlashtirish uchun ularga javoblar muammo bo’yicha tasniflanadi.

“Forum arxivi” forumlarda muhokama qilingan mavzular va muhokamalar natijalari sarhisobini taqdim etadi. Forum arxivi 30 kunlik muhokama uchun ma’lumotlarni saqlaydi. «NLD bo’limi» sizga muloqot qilish ko’nikmalarini, o’z-o’zini nazorat qilishni yaxshilash uchun turli xil texnikalar va amaliy mashqlar bilan tanishish imkonini beradi.

«Test» kasbiy yo’nalish bo’yicha sinovdan o’tish, psixologiya sohasidagi bilimlaringizni oshirish, o’zingizning «men» ni o’rganish, turli xil psixologik ma’lumotlarni tahlil qilishning umumiy mezonlarini bilish imkoniyatini beradi.

“ -info”da siz psixologlarning maqola va kitoblari, turli tadqiqotlar natijalari, so‘rovnomalar, psixologik xizmat manzillari ma’lumotlar bazasi bilan tanishishingiz mumkin.

«Biz kimmiz» bo’limida ushbu psixologik xizmatning bir qismi bo’lgan psixologlar (ularning kasbiy yo’nalishi, qiziqish sohalari, ular tomonidan yozilgan kitoblar va maqolalar) haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, VPX xodimlari faoliyatining amaliy misollari keltirilgan. Bu yerda siz “Shikoyat va takliflar kitobi” bo‘limini ham topishingiz mumkin, unda tashrif buyuruvchilar saytda nimani ko‘rishni hohlashlari, nimani o‘zgartirish, nima haqida gapirishlari haqida yozadilar.

Shu sababli, VPX ning dolzarb o’quv muammosini hal qilish qobiliyati nuqtai nazaridan samaradorligi uning ishtirokchilar tomonidan turli sinflardagi muammolarni hal qilishning umumlashtirilgan usullarini o’zlashtirish imkoniyatini qanchalik o’z ichiga olishiga bog’liq. Ikkinchisi tizimning turli foydalanuvchilarining birgalikdagi ishini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bu shuni anglatadiki, ta’lim muammolarini hal qilish jarayoni o’ziga xos xususiyat va xususiyatlarga ega bo’lgan maxsus, «virtual» jamoaviy taqsimlangan o’quv muhitini loyihalash orqali ta’minlanadi.

Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda taqsimlangan hamkorlikni qurish o’z-o’zidan yangilik emas.

Kompyuter maydonida turli foydalanuvchilarni «ulash» imkoni paydo bo'lishi bilanoq, kompyuter yordamida hamkorlikni tashkil etishning turli usullarini aniqlashga urinishlar boshlandi.

Ishtirokchilarning o'zaro ta'siri axborot muhiti vositasida amalga oshiriladigan qo'shma ishni qurishning xususiyatlari birgalikdagi ishda turli ishtirokchilarning funktsional pozitsiyalariga qo'shimchalar beradi. Funktsional pozitsiyalarni to'ldirish orqali ishtirokchilarning o'zlari tashkiliy imkoniyatlar va cheklovlarni yangicha tushuna boshlaydilar va o'z ishlarini samaraliroq bajaradilar, tashkiliy strategiyalarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

Biroq, hamkorlikda taqsimlangan o'quv muhitini loyihalash alohida muammo hisoblanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, jamoaviy taqsimlangan o'quv muhiti jarayon ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyati ob'ektning mazmuni xususiyatlari yoki xususiyatlari birgalikdagi faoliyatni tashkil etish usuli bilan bog'liq bo'lgan tarzda qurilganda yuzaga keladi. Natijada, har qanday ob'ektni ishlab chiqishda uning xususiyatlari va xususiyatlari barcha ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish usullari bilan belgilanadi. Shunday qilib, 6-12 va 12-18 yoshdagi VPX foydalanuvchilari uchun quyidagilarni ta'minlash kerak:

Dastlabki harakatlar va operatsiyalarni taqsimlash. Bu shuni anglatadiki, portalning mazmuni va ushbu yosh guruhidagi mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar harakatlarni taqsimlash muammoni hal qilishning zaruriy shartiga aylanadigan tarzda shakllantirilishi kerak;

Jarayon ishtirokchilarining o'zaro tushunishi. Internet muhitida bu vazifalarni ixtisoslashtirilgan taqsimlash yordamida sodir bo'ladi;

Internet muhitida tarqatish, almashish va ishtirokchilar o'rtasida o'zaro tushunish jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan aloqa;

Tegishli mijozlar guruhida yuzaga keladigan turli xil pozitsiyalarning cheklovlarini va turli muammolarni bartaraf etishni ta'minlaydigan aks ettirish.

Mulohaza xizmat foydalanuvchilarining turli pozitsiyalarini ta'kidlash, shuningdek, ixtisoslashtirilgan muhokama va hamkorlikning boshqa shakllarini joriy etish orqali ta'minlanadi. VPX ni yaratishning turli xil variantlarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, uning ishining samaradorligi ko'p jihatdan struktura, sayt mazmuni, texnik yordam foydalanuvchilarning birgalikdagi ishini tashkil etishning turli shakllarini ta'minlashi mumkinligiga bog'liq bo'ladi. xizmat. Bunga qarab, salohiyatli foydalanuvchilar Internet muhitida ishlashning umumiy imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olgan holda, VPX ning samarali ishlashini ta'minlaydigan turli muammolarni hal qilishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М., 1975.

2. Рубцов А.В. Организационно-психологические основы разработки новых продуктов. М.; Воронеж, 2002.

3. Watson J, Fennez J.Portal Technology//Infolmage Inc. Understanding Portals // Information Management Journal. 2000. № 2.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Internet muhitida psixologik xizmatlarni samarali va muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy muammosi va turli psixologik muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan ixtisoslashtirilgan inson-mashina tizimlarini loyihalash va joriy etish asosiy vazifa ekanligiga qaratilgan. Vtertual psixologik xizmat (VPX) ning o'rni va mijozlar bilan ishlashning bir qator maqsadlari va vazifalari dolzarb muammo sifatida o'rganilishi nazarda tutilgan. Salohiyatli foydalanuvchilar va VPX mijozlari bir qator maqsadlarni taqib qiladilar. Internet muhitida ishlashning umumiy imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olgan holda, VPX ning samarali ishlashini ta'minlaydigan turli psixologik muammolarni hal qilishlariga imkoniyat tug'iladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается основная проблема эффективной и успешной организации психологических служб в интернет-среде и главная задача проектирования и внедрения специализированных человеко-машинных систем, способных решать различные психологические задачи. Предполагается, что в качестве актуальной проблемы исследуется роль и ряд целей и задач работы с клиентами виртуальной психологической службы (ВПС). Потенциальные пользователи и клиенты ВПС преследуют ряд целей. Учитывая общие возможности и ограничения работы в интернет-среде, появляется возможность решать различные психологические проблемы, обеспечивающие эффективное функционирование ВПС.

SUMMARY

This article focuses on the main problem of the effective and successful organization of psychological services in the Internet environment and the fact that the design and implementation of specialized human-machine systems capable of solving various psychological problems is the main task.

The role of a Virtual Psychological Service and a number of goals and objectives of working with clients are envisaged to be studied as an urgent problem. Potential users and virtual psychological service customers pursue a number of goals. Taking into account the general possibilities and limitations of working in the Internet environment, an opportunity arises for them to solve various psychological problems that ensure the effective functioning of the Virtual psychological service

YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA SHAROF RASHIDOV ASARLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Qilichova M. X.
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: Sharof Rashidov, insonparvar adib, talaba yoshlar, oliy ta’lim muassasalari, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, ijtimoiy-siyosiy faollik, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, yosh avlod.

Ключевые слова: Шароф Рашидов, писатель-гуманитарий, студенческая молодежь, вузы, духовно-нравственное воспитание, общественно-политическая деятельность, патриотизм, национальные ценности, молодое поколение.

Key words: Sharof Rashidov, humanities writer, student youth, universities, spiritual and moral education, social and political activity, patriotism, national values, young generation.

Kirish. Yosh avlodni tarbiyalash kishilik jamiyatining hal qiluvchi harakatining shart va kafolati bo‘lib kelgan. U jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlari bilan belgilangan, biroq o‘z navbatida kishilar hayotiga har taraflama ta’sir o‘tkazib, jamiyat iqtisodiy rivojlanishida kuchli omil hisoblangan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. [1]

Talabalarni har tomonlama rivojlangan, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jismonan va ruhan tetik, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish zaruriyati tug‘iladi. Yoshlarda ma’naviyat, axloq, insonparvarlik, vatanparvarlik, hayotiy faollik kabi ma’naviy-axloqiy yuksak g‘oyalarini tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylandi. Milliy g‘oyamiz esa yoshlarni ma’naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy negizi sanaladi. Shuningdek, yoshlarni haqiqiy vatanparvar bo‘lish, ona Vatanga cheksiz mehr-

muhabbatini qaror toptirish, O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishda eng olijanob ishlarda faol qatnashishga undaydi.

Adabiyotlar tahlili. Sharof Rashidov asarlaridan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanish yoshlarga milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat, vatanparvarlik, halq dardini tushunish, fidoiylik, jonbozlik ko‘rsatish kabi sifatlarni shakllantirishda ma’naviy tarbiyaning asosi bo‘lib hizmat qiladi. Xalqlarning madaniyatiga va o‘zligiga bo‘lgan tahdidlar, yod g‘oyalarni singdirishga bo‘layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo‘lib qolayotganligi sababli bu yo‘nalishda qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada ilm ahlining qiladigan ishlari ma’lum: adib va davlat arbobi yozgan asarlar ustida tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, asarlarining tarjimalari ustida ilmiy ishlar olib borish kerak.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlardan biri Sh. Ergashevning “Erk istar ko‘ngil” [2, 200] nomli kitobi bo‘lsa, yana biri SamDU professori H. Umurovning SamDChTIda bo‘lib o‘tgan “Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati” mavzuli Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallarida nashr etilgan “Kashmir qo‘shig‘i” va uning tarjimasi G‘aybullo as-Salom talqinida” [3, 15-18] maqolasidir. Chunonchi, Shuhrat Ergashev o‘z kitobida shunday yozadi: “O‘zbekiston tarixining Sharof Rashidov rahbarlik qilgan bosqichi xalqimiz orasida katta qiziqish uyg‘otuvchi va ayni paytda, o‘ta ziddiyatli davrlardan biri. Xalq orasida bu davrga nisbatan munosabat o‘ta murakkab, yorqin va og‘ir taassurotlarga boy. Shu bois Sharof Rashidov davrini o‘rganish, unga ko‘pchilikni qanoatlantiradigan, obektiv baho berish juda murakkab ish va hali tarixchilar, siyosatshunoslar, adabiyotchi olimlardan ko‘p mehnat talab qiladi”. [2, 46] Professor H.Umurov o‘z maqolasida G‘aybullo as-Salomning Sharof Rashidov haqidagi quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Men Sharof Rashidov siymosida ikki Rashidovni bilaman. Biri – nafaqat respublika yoki sobiq ko‘p millatli mamlakat, balki dunyo miqyosida tanilgan atoqli davlat va jamoa arbobi. Ikkinchisi – yozuvchi. Biri – zukko siyosatdon, ikkinchisi – insonparvar adib”. [4, 17]

Oltinsoy va boshqalar, etnografik va maishiy realiyalar, milliy libos, taqinchoqlarning nomlari, uy-joy, jihoz, idish-tovoq, taom va ichimlik nomlari (hashar, supa, so‘ri, qamchi, hasip, qurut, parvarda, belbog‘, xontaxta, tandir va b.), hayvon nomlari (Boychibor, Pirat va boshqalar) hamda shunga o‘xshash tushunchalar (“Qizil yulduz”, oqsoqol, bosmachi, dehqon va boshqalar) Sharof Rashidov asarining milliy o‘zgachaligini yaqqol ko‘rsatib turadi. Chunki

“realiyalar har doim tabiiy so‘z yaratuvchiligi yo‘li bilan yuzaga kelgan, asosan, xalq maishiy turmushi bilan chambarchas bog‘liq xalqona so‘zlardir”. [5, 26]

Ayni shunday fikrni bolgar olimlari S. Vlaxov va S. Florinlar ham ta’kidlaganlar: “Realiyalar muayyan bir xalqning hayoti (turmushi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyoti)ga taalluqli bo‘lgan, boshqa tillarda aniq muqobiliga ega bo‘lmagan va o‘ziga xos yondashuvni talab qiladigan so‘zlar va so‘z birikmalaridir”. [6, 416]

Sharof Rashidov qanchalik muhim davlat ishlari, siyosiy mojarolar bilan band bo‘lmasin, Xudo bergan iste’dodi, so‘z san’atiga bo‘lgan cheksiz mehri tufayli ijod olamini hech qachon tark etmadi. Ko‘plab roman va qissalar, she’riy asarlar, publitsistik maqolalar yaratdi.

Ayniqsa, adibning “Kashmir qo‘shig‘i” asari o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos voqea bo‘lganini ko‘pchilik ijodkor ziyolilar e’tirof etadi. Eng muhimi, bu asarda yozuvchining dilidagi pinhoniy armoni – ozodlikka intilish g‘oyalari badiiy satrlarda o‘z aksini topganini zukko kitobxonlar yaxshi anglaydi. Adib voqealarni Hind yurtiga ko‘chirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sharof Rashidovning hayoti va ijodi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda asarlari ko‘pgina olimlar tomonidan o‘rganilgan. Sharof Rashidov faoliyatini o‘rganishda asosan birinchi prezidentimiz I.A.Karimov hamda amaldagi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevnin asarlari, maruzalari va nutqlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sharof Rashidov haqida shunday degan edi,- “Sharof Rashidov o‘z davrining farzandi edi, u mavjud tuzumga sadoqat bilan xizmat qildi. Ammo bedodlikni qarangki, shunday odam dunyodan ko‘z yumganida o‘zi umr bo‘yi himoya qilgan, sodiq bo‘lib xizmat qilgan tuzum unga xiyonat qildi. Misli ko‘rilmagan shakkoklik bilan uning xotirasini tahqirlab, jasadini ko‘chirdilar, oila a’zolari va qarindoshurug‘larini ta’qib etdilar. «Rashidovchilik» degan soxta iborani o‘ylab topib, uning xotirasini yomonotliq qildilar” [7, 343-344]

Sharof Rashidovning «G‘oliblar» va «Bo‘rondan kuchli» dilogiyasi urush davri va urushdan keyingi yillarning muhim badipy epik solnomasi bo‘lib qoldi. Bu asarlar ana shu yillarda O‘zbekiston yigit-qizlari, o‘zbek xalqinnng ko‘rsatgan matonati va qahramonliklari haqida hikoya qiladi. “Urushda Oyqizning akalari halok bo‘ladilar. Urush ortida qolganlar esa front uchun, jon olib jon berayotgan jangchilarimnz uchun tun-kun demay, ter to‘kib ishlaydilar. Oyqiz singari navqiron yoshlar frontga ketganlarning o‘rnini bildirmaslik uchun dalalarga chiqdilar”.[8, 7]

Sharof Rashidov kitoblaridagi bu obrazlar timsolida yoshlarni vatanparvar, baynalminal va bag‘rikeng qilib tarbiyalashda foydalanish zarur.

Sharof Rashidov ijodida maqolanavislik muhim o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ham uning badiiy ijodi namunalarida bu ruh yetakchilik qiladi. Adibning «G‘oliblar» (1953) qissasi, 1972 yilda qayta ishlanib, «G‘oliblar» romani sifatida nashr etiladi. «Bo‘rondan kuchli» (1958), «Qudratli to‘lqin» (1964) romanlari muxlislari qalbidan mangu joy olgan. Bu betakror asarlarda o‘zbek xalqining urushdan keyingi tiklanish yillaridagi mehnat jasorati o‘z badiiy ifodasini topgan.

Jumladan, «G‘oliblar» romanida ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek halqining front ortidagi zahmatkash mehnati, halqning irodasi matonati gavdalansa asarda yosh Oyqiz obrazining gavdalanishi yoshlarda matonat, jafokashlik, mehnatkashlik, tashkilotchilik va vatanparvarlik tuyg‘ularni shakllantirishda yuqori ahloqiy insoniy hislatlarni shakllantirish vositasi ekanligini yorqin namoyon etgan.

Yozuvchi T.Alimardonov “O‘chmas Sharaf” ilmiy monografiyasida Sharof Rashidov siymosini muvaffaqiyatli tahlil qiladi. Haqiqatda Sharof Rashidov hayoti va faoliyatining avlodlar tarixiy xotirasidagi sifatini u amalga oshirgan faoliyatga nisbatan ko‘p insonlar tomonidan bildirilgan yoki aytilgan fikrlar tarozisida o‘lchaydi. Buni muallif shunday ta’kidlab o‘tadi: “Sharof Rashidov shaxsiga baho berishda tadqiqotning bosh masalasi bo‘lgan totalitar jamiyatning O‘zbekistonga tatbiq etgan siyosiy boshqaruvining tajovuzkor mohiyati, xo‘jalik yuritishning ma’muriy-buyruqbozlik uslubi va undan kelib chiqqan fojialar ko‘lami, ziddiyatli inson va davlat manfaatlari, bo‘ysundirishning xufyona usullari va uning siyosiy-iqtisodiy va mafkuraviy vositalari, ayni paytda, xalqning zanjirbandligi holatida yuksalish va istiqbol maqsadlarga intilish, tashqi va ichki siyosiy tazyiqlar bosimini yumshatish va bunda millat yetakchisining jasorati, uning imkoni yoki vaqti yetmagan muammolari bilan uyg‘un qarashga hamda xulosalar chiqarishga harakat qildik”.[9, 276] Bu jamiyat va shaxs munosabatlari muammosini yoritishda ajoyib uslub va amaliy natija hisoblanadi.

Sharof Rashidov o‘z sherlarida siyosiy tuzum va shu bilan birga o‘zbek halqining erki ozodligini ham tarannum etgan.

Rusiya tunidek qorong‘i qafas,
Unda payhon umr, bo‘lmas hur nafas.
Qafasda yotardi erk istar ko‘ngil,
Ming olam o‘tida yonar edi dil.

Bunda yoshlarning mustaqillik, erkinlik naqadar oliy ne'mat ekanligini tushunish, his etish va buning qadriga yetish kerakligini uqtiradi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek,- "Biz uchun eng asosiy, eng muhim ustivor maqsad tengsiz oliy ne'mat mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, ximoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaveradi. Zero, ma'naviy yetuklikning muhim belgisi vatanparvarlikdir". [10]

Tahlil va natijalar. Mustaqillik kabi oliy ne'matni mustahkamlash, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun yoshlarning siyosiy-ma'naviy faolligini oshirish, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish mazmunidan o'rin olgan Vatan quvonchi, Vatan sevinchi, Vatan tuyg'usi, Vatan faxri kabi tushunchalarni ular ongiga singdirish lozim. Buning uchun oliy ta'limda o'qituvchi talabalarining o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda mustaqillik g'oyasining mohiyat-mazmuni to'g'risida ma'lumot berar ekan, avvalo, talabalarda vatanparvarlik, burch, mas'uliyat, fuqarolik tuyg'usi, faxr, iftixor birligini tarbiyalashga harakat qilmog'i zarur. Shunga asosan talabalarning darsda va darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda maxsus ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan oqilona foydalana olishlari darkor. Chunki talabalarning faoliyati davr hayoti, tarixi bilan bog'liq va u milliy-madaniy harakatlarga ega. Shu sababli, talaba ma'naviy ahloqiy ruhida tarbiyalash uchun barcha talablarga rioya qilish, ta'lim-tarbiyani maqsadga yo'naltirish, nazorat qilish, ijtimoiy-tarbiyaviy tadbirlardan o'rinli foydalanish va boshqarish ishlarini amalga oshirmoq darkor.

Sharof Rashidov asarlaridan yoshlarni jamiyat ma'naviyatini rivojlantirish, ilm-fanga, sog'lom turmush tarziga qiziqtirish, har xil tajovuzlardan himoya qilish uchun tarbiya sohasida xalqimizning an'analari, urf-odatlari, tili, dini, ruhiyatiga, milliy, umuminsoniy va zamonaviy qadriyatlariga tayanib, tarbiyaning samarali usullaridan foydalanish muhimdir. Bu borada harakatning ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishidagi ishlarni tashkil etish va rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa va tavsiyalar. Talaba yoshlarlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalarining vazifalari quyidagicha deb bilamiz:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning yoshlar siyosati to'g'risidagi ma'ruzalari asosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolik madaniyatini shakllantirish bo'yicha mulohazalarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksini o'rganish yordamida talaba

yoshlarda burch, mas'uliyat, vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini shakllantirish;

– oliy o‘quv yurti talabalarida millatidan qat'iy nazar o‘z davlatining mustaqilligini, uning ramzlari – gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga hurmat bilan qarash, ulardan faxrlanish his tuyg‘ularini tarbiyalash;
– ayni paytda dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar, terrorizm keskin tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko‘proq kuchga ega bo‘lib borayotgan bir vaqtda talabalar dunyoqarashida vatanga sadoqat mas'uliyati ko‘nikmalarini hosil qilish va ularni rivojlantirish;
– oliy ta'limda pedagogika ta'lim yo‘nalishlari ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga erishish;
– oliy ta'lim muassasalari hamda jamoat tashkilotlari bilan birgalikda talaba yoshlarga vatanparvarlik, burch, fuqarolik mas'uliyati, huquqi, odobi, faoliyati, his-tuyg‘ulari va ko‘nikmalarini tarbiyalash;
– talaba yoshlarlarda milliy, umuminsoniy qadriyatlarga, qadimiy an'analarga hurmat, ma'naviyatimizni asrab-avaylash hamda ular bilan faxrlanish, g‘ururlanish hissini tarkib toptirish;
– auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar hamda ma'naviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida talabalarda Vatan, millatga sodiqlik, yurt, ravnaqini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun qo‘ya olish va fidoyi, insonparvar fuqaro bo‘lish ishtiyoqi va ehtiyojini tarkib toptirish, talaba yoshlarda «Vatanparvar», «Komil inson», «Xalqparvar shaxs», «Erkin fikrlovchi fuqaro» kabi tushunchalar haqida ma'lumot berib, bu tushunchalarni ular ongiga singdirish;
– Yangi O‘zbekiston, mustaqil Vatan, erkin va farovon hayotni yaratuvchi, uni e'zozlovchi hamda turli ofatlardan himoya qiluvchi fuqaro bo‘lish his-tuyg‘usini har bir yosh talaba ongiga singdirish;
– talaba yoshlarda vatanparvarlik g‘oyasining milliy va milliy ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligini e'tirof etgan holda talabalarda milliy g‘oya va milliy-ma'naviyatga ishonch, e'tiqod ko‘nikmalarini hosil qilishga erishish;
– insonning insonligini ro‘yobga chiqarishda vatanparvarlik g‘oyalarining yetakchi omil ekanligini inobatga olib, talaba yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, o‘zligini anglash, iymon, e'tiqod kabi sifat ko‘rsatgichlarining tarkib topishiga amaliy yordam ko‘rsatish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish har bir talaba yoshda mustaqilligimiz, erkinligimiz va ezgu maqsadlarga to‘la erishish his tuyg‘usini

tarbiyalab, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim omili – Vatanimiz istiqlolini himoyalash fuqarolik burchi va mas'uliyatining oliy darajasi ekanligini anglashlariga ko‘maklashadi.

Zero, bu xususiyatlar har bir mamlakat fuqarosi uchun kuch-quvvat va ruhiy boylik bo‘lib, ertangi kunimizning ishonchli poydevori va kafolatiga aylanadi. Vatanimiz taraqqiyotida yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qudratli kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. M. «Kamolot» harakatining IV qurultoyidagi nutqi. O‘zbekiston yangiliklari. gazeta.uz. 2017-yil 1-iyul.

2. Ergashev Sh. Erk istar ko‘ngil. – T.: O‘zbekiston, 2017, 200-bet.

3. Umurov H. “Kashmir qo‘shig‘i” va uning tarjimasi G‘aybullo as-Salom talqinida. Maqola. “Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati” respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Samarqand, 2017 yil 2-iyun. 15–18-betlar.

4. Umurov H. “Kashmir qo‘shig‘i” va uning tarjimasi G‘aybullo as-Salom talqinida. Maqola. “Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati” respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Samarqand, 2017- yil 2-iyunь., 17-bet.

5. Мухтаров Т.А. Непереводимое в переводе//Tarjima masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami) -T.: 2012. C. 26.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talaba yoshlarni ma'naviy-ahlohiy jihatdan tarbiyalashda Sharof Rashidov asarlaridan foydalanishning o‘ziga xosligi o‘rganilgan. Maqolada Sharof Rashidovning hayoti va ijodi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati borasida olib borilgan tadqiqotlar tahliliy bayon qilingan. Shuningdek talaba yoshlarni ma'naiy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda bunyodkorlik g‘oyalarini yuqori darajada bo‘lishini ta'minlaydigan va komillikka yetaklaydigan aniq maqsadlar Sharof Rashidov timsolidan hamda uning asarlaridagi qahramonlar obrazidan foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается уникальность использования произведений Шарофа Рашидова в духовно-нравственном воспитании молодежи. В статье аналитически описаны исследования жизни и творчества Шарофа Рашидова, общественной и политической деятельности. Также разработаны предложения и рекомендации по использованию образа Шарофа Рашидова и образа героев в его произведениях, которые обеспечивают высокий уровень творческих идей и ведут к совершенству в духовно-нравственном воспитании учащихся.

SUMMARY

This article discusses the uniqueness of using the works of Sharof Rashidov in the spiritual and moral education of young people. The article analytically describes the studies of the life and work of Sharof Rashidov, social and political activities. Also, proposals and recommendations have been developed on the use of the image of Sharof Rashidov and the image of heroes in his works, which provide a high level of creative ideas and lead to perfection in the spiritual and moral education of students.

EKOESTETIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Alijonova M.
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, ekoestetik kompetensiya, mafkuraviy poligon, folklor, maqol, tez aytish, milliy va ma'naviy qadriyatlar, tasviriy ifodalar, tabiatni asrash, talaffuz kamchiliklari.

Ключевые слова: образование, воспитание, экоэстетическая компетентность, идеологическая полигония, фольклор, пословица, скороговорка, национальные и духовные ценности, образные выражения, сохранение природы, дефекты произношения.

Key words: education, upbringing, eco-aesthetic competence, ideological Polygon, folklore, proverb, fast saying, national and spiritual values, pictorial expressions, preservation of nature, disadvantages of pronunciation.

O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy umuman barcha soha yo'nalishlarini takomillashtirishda xalq ta'limi tizimiga alohida e'tibor qaratish, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichi ish faoliyatining yuqori darajaga ko'tarishi barcha uchun birdek muhim va dolzarbdir. Shu boisdan ham prezidentimiz SH. Mirziyoyev bugungi kunda bu sohaga alohida e'tibor bermoqdalar. Biz xohlaymizmi, yo'qmi, ahamiyati yo'q, kelajagimizning taqdiri bugun maktabda ta'lim ilm olayotgan yosh avlodning, o'quvchilarning, ta'limi bilan birgalikda olayotgan tarbiyasiga bog'liqdir.

Tarbiya berish faqatgina bir xil, siz bilan biz belgilab beradigan yo'ldan ketmaydi. Tarbiya jarayoni uzoq muddatli, mashaqqatli, ma'lum bir vaqt qamrovini o'z ichiga oluvchi hayotiy jarayon. Bu borada siz bilan biz suyanadigan, umumiy yo'l bu xalqning milliy va ma'naviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish. Negaki, bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda, yoshlar shuuri va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir vaqtda o'quvchilarni imkon boricha, maktab yoshidanoq tabiatni sevishga, ardoqlashga, to'g'ri munosabat bildirishga, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga o'rgatish hozirgi kundagi dolzarb masala, muhakamadagi jarayondir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ekoestetik kompetensiya dastlab oilada, bog’chada keyinchalik umumta’lim maktablarida, dars mashg’ulotlari jarayonida xalq maqollari yordamida bolalarda shakllantirilishi ham samarali va ommabop usul hisoblanadi.

Maqol - xalq donishmandligi namunasi. Maqolada fikr aniq, ifoda lo’nda va xulosa tugal bo‘ladi. Ko‘pi bilan 4 misradan iborat bo‘lib, misralari o‘zaro qofiyalangan boladi. Shu bois yodlab qolish judayam oson. Faqat nutqda o’rinli vaqtda qo’llash hammaga ham emas.

Boshlang’ich ta’lim mazmuni milliy qadriyatlar materiallariga boyligi bilan xarakterlanadi. Ko’plab darslik va qo’llanmalarga xalq og’zaki ijodi bo’lgan ertak, maqol, rivoyat, hadis, doston, qissa, afsona, topishmoq, folklor, xalq kuyi va qo’shiqlari kiritilgan.

Bularning ichidan biz maqollarning ekoestetik jihatini tahlil qilamiz.

Maqollar o’z mazmuni mohiyatiga ko’ra o’quvchilarda milliy odob-axloq madaniyati asoslarini shakllanishga xizmat qiladi. Xalq og’zaki ijodi vositalaridan maqsadli va unumli foydalanish o’qituvchining pedagogik mahoratiga bog’liq.

Xo‘sh, o‘quvchilarning nutqda maqollarni faol qo‘llashlashlari uchun pedagoglar qanday yo‘l tutishlari kerak? Ularga qo‘yiladigan talab nimadan iborat?

Avvalambor, shaxsan o‘zlari o‘quvchilari bilan muloqot jarayonida maqollardan o‘rinli foydalanishlari, mazmun mohiyatini tushuntirishlari darkor (Chunki ko‘plab maqollar majoziy xarakterga ega bo‘lib, tasviriy ifodalar, o‘xshatishlardan foydalanilgan bo’ladi). Ana o‘shanda bolalar ongli ravishda nutqiy faoliyatlarida maqollarni qo‘llay oladilar, ikkilanib qolmaydilar. Ulardan qachon va qanday foydalanishni o’rganadilar.

O’quvchining ekoestetik bilimlarini oshirish uchun tabiiy fan darsliklariga maqollarni qo’shish kerakmi? Yo’q, bu masala allaqachon yechimini topgan. Ya’ni tabiiy fan bilan ona tili va o’qish savodxonligi darsliklari bevosita integratsiya qilingan. Hatto buyuk pedagoglar ham o’z faoliyatida o’quvchilarga xalq og’zaki ijodi namunalarini dars jarayonida bevosita qo’llashgan. Bu orqali ular yoshlarning ma’naviy merosini boyitgan. Aslida, avlod-ajdodlarmizni barkamol kishilar qilib tarbiyalab kelgan birinchi va to’ng’ich pedagog o’qituvchi xalqidir. U asrlar davomida bola tarbiyasi sohasida katta tajribaga ega, uning bugungi kundagi o’rni ham beqiyosdir.

Xalq og’zaki ijodi namunalaridan maqol haqida so’z qotsak, maqol termini arabcha “qavlun” (aytmoq, gapirmoq) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida u xalq donoligining namunasi bo‘lmish aforistik janrlardan birining atamasiga

aylangan va ma’qul aytilgan so‘z, gap yoki ibora ma’nolarini anglatadi. Uni “Otalar so’zi” ham deydilar. Bola ekoestetik ta’lim-tarbiyasida maqollarning o’rni katta.

Maqol she’riy shaklda ham bo’lishi mumkin. Masalan:

Yer ichida oltin bor,
Qaziy bersang topasan.
Bog’ ichida kumush bor,
Kovlayversang topasan.

Ushbu maqolni tahlil qilsak, ushbu berilgan maqolda poliz ekinlari oltinga, mevalar esa kumushga tenglashtirilgan. Ya’ni “yerni shungor qilsang yoki chopsang mo’may daromadga ega bo’lasan” degani. Ushbu maqol zamirida mehnatkashlik va “Mehnatning baxt keltirishi” ifodalangan.

Xalq maqollarda o’sha xalqning tarixi, urf-odati, turmush tarzi, fe’l-atvori, ruhiyati butun borlig’i to’laqonli aks etadi. Chunki maqollar xalq donishmandligi namunasidir. Bundan tashqari xalq maqollarida tabiatni asrash uni sevish, insonlarning ona tabiatning bir bo’lagi ekanligini, uning bag’rida ulg’ayishi va unda kamol topishi haqidagi haqiqatlar yotadi. Masalan:

Tabiatga boqsang boqadi,
Oltin isirg’a taqadi.

Ya’ni inson tabiatga to’g’ri munosabatda bo’lsa, tabiiy boyliklardan to’g’ri va unumli foydalansa tabiat ham unga o’z marhamatini darig’ tutmaydi. Bundan tashqari, ushbu maqolda tabiatning aks ta’sir kuchi mavjudligi ham berib o’tib ketilgan. Qaysiki, “Zumrad va Qimmat” ertagidagi kabi, qilgan mehnati, Zumradning kampirga bergan yordamlari munosib baholanib, bir sandiq tilla olganidek, tabiatga zarar bermasak, uni asrab avaylasak, u bizni shunday go’zal ne’matlar bilan mukofotlaydiki, oltin isirg’a ham hech narsa bo’lmay qoladi.

Shu kabi bir qancha maqollar mavjud: Masalan,

√ Dehqon bo’lsang shudgor qil,
Mulla bo’lsang takror qil.
√ El hayoti yer bilan,
Yer hayoti suv bilan.
√ Yer haydasang kuz hayda,
Kuz haydamasang yuz hayda.
√ Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar.
√ Qora bulutdan tiniq suv tomar
√ Kuningdan bir kun qolsa ham ko’chat ek.

O’zbek xalq og’zaki ijodi shaxslarda to’g’ridan to’g’ri tarbiyasiga ta’sir etish vositasi bo’lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Xalq og‘zaki ijodi

turlaridan biri bo‘lmish **tez aytish** ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki tovushlarning so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. Ayniqsa, bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi bu murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan adashib ketishi tinglovchilarning beozor kulgusiga sabab bo‘ladi. O‘zbek tilida bu iboralarning tez aytish deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan.

Tez aytish — o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan jumlalar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan hisoblanadi. O‘tmishda katta yoshdagi odamlar ham o‘tirishlarda, to‘ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so‘z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo‘lishiga xizmat qiladi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida tez aytishlar qadim zamonlardan beri mavjud. Professor Hodi Zarif tuzgan «O‘zbek folklori» xrestomatiyasida tez aytishga 12 ta misol keltirilgan.

2005-yil fransuz tilshunosi professor Rémy Dor o‘zbek va qoraqalpoq tez aytishlaridan namunalarni fransuz tiliga tarjima qilib izohlar bilan nashr ettirdi

Tez aytishlar, asosan, bolalarni to‘g‘ri va tez talaffuz qilishga o‘rgatadi. Bir xil tovushlarni, ayniqsa, undoshlarning har bir so‘zda keltirilish, u yoki bu boladagi ayrim talaffuz kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Tez aytishlar yoki so‘z o‘yinlari o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodining kichik janrlaridan biri bo‘lib, ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilish yoki tovushlarnig so‘z va iboralar tarkibida murakkab joylashishiga asoslangan. Tez aytishlar ham deyarli hamma xalqlarning og‘zaki ijodlarida uchraydi. Tez aytishlar hajmi jihatdan kichik bir jumladan iborat yoki katta-bir necha jumlalardan iborat bo‘lishi mumkin.

Masalan,

- Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.
- Shirin sholg’om shirinmi, sholg’om shirin sholg’ommi.
- Qurilishga terak kerak, Demak, ekmoq kerak terak.

“Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish”. Ushbu tez aytish orqali kishmishning qishda pishmasligi, agar pishsa qish fasli emasligi aytib o’tilgan. O’quvchilarga tabiat haqidagi qiziq bir fakt tez aytish asnosida berilgan.

“Qurilishga terak kerak, Demak, ekmoq kerak terak”. Ushbu tez aytish o’ziyoq terakning eng zaruriy qurilish jihozlaridan biri ekanligi, usiz uy

qad rostlab bo'lmasligi, terak ekish zarurat ekanligi haqidagi tavsiya berib o'tilganligining o'ziyoq ekoestetik bilim berishda tez aytishning ahamiyati beqiyos ekanligini ko'rsatib bergan.

Topishmoq - bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan xalq og'zaki ijodining bir ko'rinishi bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi. Topishmoqlarda ta'riflar bo'rttirish, teskari o'zgartirish va o'zgartirish orqali yaratilgan Bunda matn she'riy yoki nasriy bo'lishi mumkin. So'roq gap bo'lishi shart emas. Topishmoqlar bir necha so'zdan tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo'lishi mumkin. Ko'p topishmoqlar qofiyali holda keladi.

Topishmoqlar:

► Qo'shaloq tovoq ichi to'la yog'.(Yong'oq)

Kichgina dekcha ichi to'la mexcha.(Anor)

► Qo'lsiz oyoqsiz eshik ochar.(Shamol)

► Joni bor jondan, Suv ichar qo'ldan,

Ko'zlari nurdan,Terisi puldan. (Baliq)

► Gulsiz bo'lar mevasi Shirin-shakar donasi.(Anjir)

► Tom ustida piyola,

Ichi to'la gul-lola,

Imo qilib chaqirsam,

Uyaladi qiz bola. (Oy va yulduz)

► "Yer tagida qizil qalpoq" (Lavlagi)

"Qo'shaloq tovoq ichi to'la yog'" (Yong'oq). Ushbu topishmoqda yong'oqni chaqqandagi ikki pallasi tovoqqqa, ichidagi mag'zi esa yog'ga qiyoslangan. Chunki yong'oq mag'zi yog'ga to'la. Bularning barchasi o'quvchini yong'oq haiqdagi ma'lumotlarni to'plashga, nimaga qiyos qilinayotganligini tahlil qilishga undaydi.

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida yetuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'onada **matal**; Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda **ushuk**, Xorazmda **varsaki**, Toshkent shahri va uning atrofida **cho'pchak** deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib va g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi.

Ertaklar, asosan, didaktik vazifani bajaradi. Ertaklarning «Ming bir kecha», «Panchatantra» va boshqalar yaxshi namunalari, G.X. Andersen, V.Xauf, A.S.Pushkin kabilarning mumtoz adabiy ertaklari jahon madaniyati xazinasiga kirgan.

Birinchi sinfdan to‘rtinchi sinfga qadar o‘qish darsliklarida xalq og‘zaki

ijodi bo‘limi mavjud bo‘lib, bu bo‘limlarda bolalar ko‘plab xalq og‘zaki ijodi folklor namunalari milliy qadriyatlarimizni o‘quvchi ongiga singdiruvchi vosita

bo‘libgina qolmay, balki chiroyli nutq va ekoestetik did sohiblarini yetishtirishda ham birlamchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Namuna

ROSTGO’Y BOLA

(Ertak)

Qadimda bir podshoh bo’lgan ekan. Podshohning farzandi yo’q ekan. Shuning uchun u doimo xomush bo’lib yurar ekan. Podshoh vazirning maslahati bilan bolalarga gul urug’i tarqattiribdi. Kimning guli chiroyli bo’lsa, o’shani podshoh farzand qilib olmoqchiligini aytishibdi.

Oradan birmuncha vaqt o’tibdi. Pod¬shoh gul o’stirganlarni ko’rish niyatida shahar aylanibdi. Ko’p bolalar va ular o’stirgan gullarni ko’rib o’taveribdi. Bir ko’chaga yetganda podshohning ko’zi gulsiz tuvak ushlab o’tirgan bolakayga tushibdi. Bolakayning oldiga borib:

— Sen o’stirgan gullar qani? — deya so’rabdi.

Shunda bolakay gul urug’i o’sib chiqmaganligini aytibdi. Podshoh:

— Men farzand qilish niyatida axtargan bola mana shu bo’ladi, — debdi.

Chunki podshoh gul urug’larini qaynattirgan ekan.

Ushbu ertak qisqa va lo’nda bo’lib, ushbu ertakdan o’quvchilar tushunadigan eng muhim insoniy fazilatlardan biri bu - rostgo’ylik, shu bilan bir qatorda yana bir qiziq fakt bu qaynatilgan urug’ning unib chiqmasligidir.Ertak vositasida ushbu haqiqatlar bolalar tushunadigan sodda va aniq tilda tushuntirib berilgan.

Xulosa

Ta’limning poydevori mustahkam bo’lishi uchun o’quvchining ilmiy tafakkurini, dunyoqarashini va aqliy salohiyatini rivojlantirish kerak. Jamiyatimizdagi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz asnosida ekoestetik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning vazifalari keng va ko’p qirrali ekanligini unutmasligimiz kerak. Bunda har bir pedagogda oldindan rejalashtirilgan o’quv rejasi, nimani o’rgatishni va qanday o’rgatishni bilishi

juda-juda muhim. Bunda xalq og’zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o’quvchilarda ekoestetik kompetensiyani milliy qadriyatlarni asos qilib olgan holda tarkib toptirish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Rahmatullaeva M.D. O‘smirlarda sinfdan tashqari ishlar jarayo-nida tabiat estetikasiga qiziqishlarini shakllantirish. Ped. fan. nomz ... diss.

2. Rahmatova H.A. O‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigienik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari (VII–IX sinf-lar misolida): Ped. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2005.

3. Rafiqov A.A. Tabiatda ekologik muvozanat. – Toshkent: Fan, 1990

4. Nishonova N.O‘. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish (Adabiyot ta’limi jarayonida). Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001

5. Nishonboeva M.G‘. Biologiyani o‘qitishda ekologik ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish (botanika va umumiy biologiya misolida). Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o’quvchilarda ekoestetik madaniyatni shakllantirishda xalq og’zaki ijodi namunalarining o’rni va ahamiyati, ta’lim bilan bir qatorda tarbiya berishdagi roli, xalq donishmandligi namunalari vositasida ekoestetik ongni tarkib toptirishning, o’quvchilarda ekoestetik kompetensiyani milliy qadriyatlarni asos qilib olgan holda rivojlantirishning ahamiyati, shu bilan bir qatorda, o’ziga xosliklari yoritilgan. Xalq og’zaki ijodi namunalaridan maqol, topishmoq, tez aytish, ertak haqida nazariy ma’lumotlar keltirilib, bir qancha namunalari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещаются роль и значение образцов устного народного творчества в формировании экоэстетической культуры у учащихся, их роль в воспитании наряду с образованием, значение содержания экоэстетического сознания средствами образцов народной мудрости, развитие экоэстетической компетентности у учащихся, взявших за основу национальные ценности, а также их самобытность. Из образцов устного народного творчества приводятся теоретические сведения о пословицах, загадках, скороговорках, сказках, анализируется ряд образцов.

SUMMARY

The article highlights the role and importance of samples of folk oral creativity in the formation of eco-aesthetic culture in students, the role in education as well as upbringing, the importance of content creation of eco-aesthetic consciousness through the means of samples of folk wisdom, the importance of developing eco-aesthetic competence in students on the basis of national values, as well From the samples of folk oral creativity, theoretical information about Proverbs, riddles, quick sayings, fairy tales were brought, and several samples were analyzed.

UMUMTA`LIM MAKTABLARI O`QITUVCHILARIDA O`QUVCHILARNI O`QUV STRATEGIYALARIGA (LEARNING STRATEGIES) O`RGATISH KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Pulatova M. K.
Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: pedagog, ta'lim oluvchi, strategiya, o'quv strategiyasi, kasbiy rivojlanish, o'quv strategiyalari bo'yicha maslahatchi, oson o'quv uslublarini o'rganish.

Ключевые слова: педагог, обучающийся, стратегия, стратегия обучения, профессиональное развитие, консультант по стратегиям обучения, изучение простых стилей обучения.

Key words: educator, educationist, strategy, learning strategy, professional development, educational strategies consultant, easy learning methods study.

Bugungi kunda o`quv jarayonini yanada mazmunli tashkil etish maqsadida soha vakillari tomonidan ta`lim berishning innovatsion yondashuvlaridan foydalanish masalasi yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, sifatli bilim olish zaruriy ehtiyoj va istiqbolli kelajak kaliti ekanligini o'quvchilari ongiga singdira olish ko'nikmasi har bir pedagogning professiogrammasi tarkibiga kirishi lozimligidan kelib chiqib, pedagoglarda mazkur ko'nikmani rivojlantirish yosh avlodning muvaffaqqiyatli hayoti poydevori bo'la oladi deyish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabrda qabul qilingan "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3289-sonli qarori bugungi kun o'qituvchisining kasbiy kompitentliligi, o'z ustida muntazam ishlashi, faoliyatini innovatsion tamoyillar bilan uzviy bog'laganligi, kasbiy trayektoriyasini zamonaviy strategik yondashuvlar asosida tashkil etishini nazarda tutadi. Pedagogning kasbiy rivojlanishi nuqtai nazaridan o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish masalasi o'zining yangi yechimlarini kutayotgan yo'nalish sifatida innovatsion takliflarni talab etmoqda. Strategiya so'zi inglizcha "strategy" - "uzoq muddatli yoki umumiy maqsadga erishish uchun mo'ljallangan harakatlar

rejasi" ma'nosidan kelib chiqqan. O'quv strategiyalari - bu ta'lim oluvchining umumiy o'rganish qobilyatlarini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan usullardir. O'quv strategiyalari g'oyalar, xotiralar, mantiqiy fikrlash, his-tuyg'ular kabi resurslardan foydalangan holda o'rganish mazmunini o'zlashtirish va eslab qolishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Samarali o'quv strategiyalari har xil turdagi o'quvchilarga xotira va diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilash, o'qish va yozish ko'nikmalarini sifatini oshirish, muammolarni hal qilish qobilyatini yaxshilashga yordam beradi. O'quv strategiyalarining yangi ko'rinishlari o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni rag'batlantirish, oson o'quv uslublarini o'rganish, kam vaqt mobaynida hajm va sifat jihatdan ko'lami katta ma'lumotlarni osonlik bilan o'zlashtirish usullarini o'zida kashf etish kabi komponentlarni o'zida jamlagan ko'rinishi o'quv strategiyalarining modern usuli sifatida baholanadi.

Ta'lim oluvchi jamiyatda muvafaqqiyatga erishgan shaxs sifatida kamolga yetishi uchun o'z ehtiyojlari savfiga o'qish, bilim olish, ko'nikmalarni mustahkamlash kabi harakatlarni turmush tarzining ajralmas qismiga aylantimog'i lozim. O'quvchi ongida muntazam ravishda o'z ustida ishlash ko'nikmasini kundalik hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishida dastlabki turkini pedagog o'z vaqtida bera olishi muhim ahamiyatga ega.

D.Kidd (Kanada), M.Noulz (AQSh), P.Djarvis (Angliya) kabi olimlarning pedagogik qarashlarida ilgarilab ketishga mo'ljal olish g'oyasi muhim nazariy asos sifatida e'tirof etiladi. Bu kontekstda nafaqat oliy ta'limda tayyorgarligi, balki faoliyatining undan keyingi bosqichlarida ham o'qituvchi pozitsiyasini davr talablariga hamohang tarzda kasbiy darajasini uzluksiz oshirib borish orqali faoliyatini yuritishga qodir bo'lgan umrbod o'quvchi o'rnida belgilash qimmatli yondashuv sifatida tasavvur qilinadi. O'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan yangi talablar hamda chaqiriqlarga tez va samarali munosabat bildirgan holda uning mustaqil ravishda o'zgartirishlar kirita olish kompetentliligi ham zaruriy sifat tariqasida baholanadi [5;5-b.]. O'qitishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan kurslar tashkil qilish, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish va ommalashtirish o'qituvchilarning o'z faoliyatlarini tashxislashlarini ta'minlash, pedagoglarning kreativ salohiyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Individual rivojlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan ta'lim oluvchida o'quv stratigiyasi tushunchasini shakllanganlik darajasi muhim. Schumaker va Deshlerlar yondoshuviga ko'ra o'quv strategiyasi - bu maktabda, shuningdek, akademik bo'lmagan sharoitlarda ta'lim mazmunini o'rganish yoki boshqa vazifalarni yanada samarali bajarish

uchun shaxsning muayyan ko'nikmalar to'plamini tashkil qilish va ishlatish usuli.

O'quv strategiyasi bo'yicha ko'rsatmalar o'quvchilarga qanday o'rganish lozimligi, muammolarni qanday hal etish usullari va muvafaqqiyatga erishish uchun o'rgangan ma'lumotlaridan qanday foydalanishni o'rgatish orqali o'qish jarayonini osonlashtiradigan tamoyillar, strategiyalar hisoblanadi. O'quv strategiyalari imtihondan o'tish uchun o'qish rejasini ishlab chiqishni o'rganish, ma'lumotlar mazmunini tushunishni nazorat qilib borish, o'quv materiallarini aniqlashtirish va natijalarni baholashni o'z ichiga oladi. O'quv strategiyalari umr davomida o'qib o'rganish (lifelong learning) ning kaliti bo'lib, quyidagicha bosqichli startegiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

– maqsadlarni belgilash;
– o'z-o'ziga o'rgatish;
– o'z-o'zini nazorat qilish;

Mazkur jarayonda ta'lim beruvchi o'quv ko'nikmalari bo'yicha maslahatchi maqomiga ega bo'ladi. O'quv strategiyalari bo'yicha maslahatchiga aylangan pedagog o'quvchilarga o'quv dasturi materialining mazmunini yoki muayyan ko'nikmalarni o'rgatish bilan birga, qanday qilib o'rganishni o'rgatadi. Jarayonda pedagog imkoniyatlar bo'yicha ma'lumotlarga asoslanib, har bir o'quvchiga o'ziga kerak bo'lgan individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqish yoki takomillashtirishga yordam berish uchun mo'ljallangan maxsus amallar ketma-ketligini rejasini tuzadi va tanishtiradi, o'quv yili mabaynida muntazam ravishda kuzatadi. O'qituvchi o'quvchilariga quyidagi turlarga mansub o'quv strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin: vaqtni boshqarish va tashkil etish, matnni o'qish va tushunish, ma'lumotni o'rganish va eslab qolish, yozib borish va qayd etib qo'yish, samarali muloqot qilish, motivatsiya, muammoni hal qilish, topshiriq natijasini sifat jihatidan oshirish.

Dunyo hamjamiyati bugungi kunda o'quv strategiyalarini ma'lumotlarni o'rganish va vazifalarni yanada samaraliroq bajarish kabi maqsadlarda foydalanishni asoslaydi. Mazkur strategiyalar quyidagi maqsadlarda yordam berishini nazarda tutadi: matnni o'qish va tushunish, loyihalar va yozma ishlarni bajarish, eslatmalar yozib olish, vaqtni boshqarish, tashkil eta olish, ma'lumotlarni o'rganish va eslab qolish, test topshirish, muammoni hal qilish, o'z-o'zini himoya qilish.

Xorijda ta'lim oluvchining ma`lum maqsadli o'quv faoliyatini rejalashtirish uchun o'quv startegiyalarini tuzib beradigan o'quv strategisti xizmatlari ham bugungi kunda rivojlanib bormoqda. O'quv strategiyalari bo'yicha maslahatchi ta'lim oluvchining jismoniy imkoniyatlari, nogironlik bilan bog'liq

ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchi bilan birgalikda kerakli o‘quv strategiyalarni ishlab chiqish yoki takomillashtirishga mo‘ljallangan mahsus mashg’ulotlar ketma-ketligi rejasini yaratadi.

Yurtmizda ushbu amaliyotni o‘quv jarayoniga tadbiq etish yuzasidan bugun yechimini kutayotgan masalalar bisyor. Ayni vaqtda, o‘qituvchilarning aksriyati o‘quvchilarga faqat ta’lim mazmunini sifatli yetkazib berish bilan cheklanib qolayotgani sir emas. Mavzu miqyosida belgilab olingan ma’lumotlar sifati birinchi o‘ringa ko‘tarilgan ayni vaqtda, mazkur ma’lumotni o‘quvchi qay darajada o‘zlashtira olishi ehtimolini prognozlash biroz e’tibordan chetda qolmoqda. Innovatsion g’oyalar bilan boyitilgan mazmunni qanday usullar, strategiyalar yordamida “hazm” qilish usullarini o‘quvchiga o‘rgatish, shakllantirish va takomillashtirish borasida yangi izlanishlar olib borilishi maqsadga muvofiq.

Pedagoglar uzluksiz ta’lim jarayonining eng muhim bo’lagi sifatida o‘z faoliyatini doimiy ravishda rivojlanib, o‘zgarib boradigan ijtimoiy-iqtisodiy hamda kasbiy sharoitlarga moslashtirib borishi, mahoratini, kasbiy va shaxsiy kompitentliligini rivojlantirishi uchun yangiliklarni ijod qilishi lozim. O‘qituvchi doim kasbiy bilimini boyitish, ko‘nikmalarni uyg’unlashtirish, amalga oshirish kabi yangi bilim va tajribalarga ochiq bo‘lishi muhim. Samarali ta’lim atributlarini tushunishda har xil turdagi o’quvchilarga yordam beradigan strategiyalarni o‘rganish, o‘rgatish, ijod qilish, diognozlash ko‘nikmasini har bir o‘qituvchining kasbiy komponentlariga kiritish muvafaqqiyatli ta’lim jarayonini kafolatlashi prognoz qilinmoqda.

Jamiyatimizda barkamol insonni tarbiyalash jarayonida o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari va bilimlarini kengaytirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, metodlarini boyitishda o‘quv strategiyalaridan foydalanish amaliyotini qo‘llab-quvvatlash va tashkil etish maqsadga erishilgan ta’limning asoslaridan biri bo‘la oladi.

Adabiyotlar:

1. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari.¬ – T.: “NAVRO‘Z” 2019.-15b.

2. Ibragimov A. Pedagog xodimlar kasbiy kompetentlililigini takomillashtirishga ilmiy-metodik hamrohlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2017. – №1/5. – B. 214-219. (13.00.00; №15).

3. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini shakllantirish texnologiyasi.–T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 168 b.

4. Musurmanov R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini joriy etish mexanizmlari. - T.: “O‘zPFITI”, 2013. – 122 b.

5. Савинова Л.Ф. Современные модели повышения квалификации: опыт, проблемы, перспективы // Научные обеспечение системы повышения квалификации кадров. – Челябинск, 2013. – № 3-4 (16-17). - 5b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonlari qamroviga kirgan o’quv startegiyalari, pedagoglarning kasbiy rivojlanish tendensiyasi, o’quvchilarning sifatli bilim olishi, o’z ustida mustaqil ishlay olish ko’nikmlarini rivojlantirishda pedagoglarning roli, o’qituvchilar o’zlarida yangi yondoshuvlarni shakllantira olishi va mavjud ko’nikmlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены идеи по вопросам образовательных стратегий, охватывающих современные образовательные процессы, тенденции профессионального развития педагогов, роль педагогов в формировании у учащихся навыков получения качественного образования, самостоятельной работы над собой, способности учителей формировать у себя новые подходы и развивать имеющиеся навыки.

SUMMARY

This article describes the issues of educational startups that are part of the scope of modern educational processes, the trend of professional development of educators, the quality knowledge of students, the role of educators in the development of skills to be able to work on themselves independently, teachers can form new approaches in themselves and develop their existing skills.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI O‘ZINI IJODIY RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Aripov Z.
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: o‘qituvchi, ijodiy, tanqdiy fikrlash, ilhomlantirish, ijodkorlik.
Ключевые слова: учитель, творческий, критическое мышление, вдохновение, творчество.
Key words: teacher, creative, critical thinking, inspiration, creativity.

O‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni juda muhimdir, chunki ular o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Texnologiyaning rivojlanishi va o‘zgaruvchan ta’lim manzarasi bilan ajralib turadigan bugungi tez o‘zgaruvchan dunyoda kelajakdagi o‘qituvchilarni 21-asr muammolarini hal qilishga tayyorlash juda muhimdir. Ushbu tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri bu izlanuvchan o‘qituvchilar orasida ijodkorlikni rivojlantirishdir.

Ijodkorlik-bu yangi g‘oyalarni yaratish, tanqidiy fikrlash, muammolarni ijodiy hal qilish va o‘rganishga qiziqish va yangilik bilan yondashish qobiliyatini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali va dinamik qurilish. O‘qituvchilar ta’limi sharoitida ijodkorlik badiiy ifoda bilan cheklanib qolmay, balki o‘qituvchilarga talabalarni jalb qilish, turli xil o‘quv yehtiyojlariga moslashish va dinamik va rag‘batlantiruvchi o‘quv muhitini yaratishga imkon beradigan kengroq ko‘nikma va munosabatlarni qamrab oladi.

O‘zgaruvchan ta’lim manzarasi rivojlanayotgan texnologiyalarni boshqarish va ulardan foydalana oladigan, fanlararo yondashuvlarni qabul qiladigan va tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan o‘qituvchilarni chaqiradi. Ijodiy o‘qituvchilar talabalarni ilhomlantirish, ularning qiziqishini rag‘batlantirish va chuqur o‘rganish tajribalarini yengillashtirish qobiliyatiga yega. O‘qituvchilik amaliyotiga ijodkorlikni kiritish orqali o‘qituvchilar talabalarga o‘zlari faol o‘quvchi va ijodiy fikrlovchi bo‘lish imkoniyatini berishlari mumkin.

Ta’limda ijodkorlikning ahamiyatini anglagan holda, o‘qituvchilarni o‘qitish dasturlari kelajakdagi o‘qituvchilar orasida ijodiy o‘zini namoyon qilish va o‘zini

rivojlantirishni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishi kerak. Ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish deganda insonning ijodiy salohiyatini qasddan yetishtirish, uzluksiz o‘rganish va kasbiy o‘sish tushuniladi. Bu o‘qitish samaradorligini oshirish uchun ichki motivatsiyani, o‘z-o‘zini aks yettirishni va yangi bilim va ko‘nikmalarni yegallashni o‘z ichiga oladi.

Ushbu maqola ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganishga va kelajakdagi o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish strategiyasini taklif qilishga qaratilgan. Tegishli adabiyotlarni o‘rganish va yempirik tadqiqotlarga asoslanib, biz o‘qituvchilarni o‘qitish dasturlari doirasida ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini aks yettirish va kasbiy o‘sishni rivojlantirish haqida tushuncha berishga intilamiz. Oxir oqibat, maqsad kelajakdagi o‘qituvchilarga o‘z o‘quvchilarini ilhomlantiradigan va ta’lim landshaftining rivojlanayotgan yehtiyojlarini qondira oladigan innovatsion va moslashuvchan o‘qituvchilar bo‘lish imkoniyatini berishdir.

O‘qituvchi ta’limida ijodkorlikning ahamiyati

O‘zgaruvchan Ta’lim Manzarasi

Ta’lim manzarasi texnologik taraqqiyot, globallashuv va o‘zgaruvchan ijtimoiy yehtiyojlar tufayli sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu dinamik muhitda faqat bilim berish va yodlashga qaratilgan an’anaviy o‘qitish usullari yendi yetarli yemas. Talabalar 21-asrda rivojlanish uchun tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishlari kerak.

Ushbu muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishda ijodkorlik muhim rol o‘ynaydi. Ijodiy o‘qituvchilar talabalarni jalb qiladigan, izlanishni rag‘batlantiradigan va tushunchalarni chuqur tushunishga yordam beradigan innovatsion o‘quv tajribalarini loyihalashtirishi mumkin. O‘qituvchilik amaliyotiga ijodkorlikni singdirish orqali o‘qituvchilar qiziqish, motivatsiya va o‘rganishga bo‘lgan muhabbatni ilhomlantiradigan dinamik va interaktiv sinflarni yaratishi mumkin.

Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijodkorlikning roli

Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash yonma-yon ketadi. O‘qituvchilar ijodiy fikrlashni rag‘batlantirganda, ular talabalarni muammolarga ko‘p nuqtai nazardan yondashishga, noyob yechimlarni yaratishga va o‘z g‘oyalarining oqibatlari va oqibatlari haqida tanqidiy fikrlashga undaydi. Ijodkorlikni tarbiyalash orqali o‘qituvchilar talabalarga murakkab muammolarni ishonch bilan hal qila oladigan mustaqil fikrlovchi va muammolarni hal qiluvchi bo‘lishga imkon beradi.

Ijodiy o‘qituvchilar, shuningdek, xatolar o‘sish va o‘rganish uchun imkoniyat sifatida ko‘riladigan muhitni yaratadilar. Ular talabalarni tavakkal qilishga, tajriba o‘tkazishga va muvaffaqiyatsizlikni muvaffaqiyatga qadam sifatida qabul qilishga

undaydi. Ijodiy muammolarni hal qilish tajribalari orqali talabalar chidamlilik, qat'iyatlilik va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradilar, bu ularning kelajakdagi akademik va kasbiy ishlarida muvaffaqiyat qozonish uchun muhim ko'nikmalardir.

Talabalarni ilhomlantirish va jalb qilish uchun ijodiy o'qituvchilarga yehtiyoj

Talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilish ularning ilmiy yutuqlari va umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Ijodiy o'qituvchilar o'quvchilarning ye'tiborini jalb qilish, ularning tasavvurlarini uyg'otish va o'rganishni yoqimli va mazmunli qilish qobiliyatiga yega. Hikoyalar, amaliy mashg'ulotlar, vizualizatsiya va real aloqalar kabi ijodiy o'qitish strategiyalarini o'z ichiga olgan holda o'qituvchilar talabalar bilan rezonanslashadigan unutilmas o'quv tajribalarini yaratishi mumkin.

Ijodkorlik, shuningdek, talabalar bilimlarni qurishda faol ishtirok yetadigan talabalarga yo'naltirilgan ta'limni targ'ib qiladi. Ijodkorlikni rivojlantiradigan o'qituvchilar hamkorlik, munozara va so'rovga asoslangan o'rganishni rag'batlantiradi, bu talabalarga o'z qiziqishlarini o'rganishga va turli mavzular va kontekstlar o'rtasida aloqa o'rnatishga imkon beradi. Talabalarga yo'naltirilgan ushbu yondashuv talabalarning motivatsiyasini, avtonomiyasini va faolligini oshiradi, bu yesa chuqurroq o'rganish natijalariga olib keladi.

Ijodiy O'z-O'zini Rivojlantirishni Tushunish

Ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishning ta'rifi va tarkibiy qismlari

Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish deganda shaxslar o'zlarining ijodiy qobiliyatlari, ko'nikmalari va tafakkurini rivojlantiradigan va rivojlantiradigan qasddan va uzluksiz jarayon tushuniladi. Bu o'sish uchun imkoniyatlarni faol izlash, yangi g'oyalarni o'rganish va ijodkorlikni tarbiyalaydigan faoliyat bilan shug'ullanishni o'z ichiga oladi. Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish shaxsning ijodiy salohiyatini yaxlit rivojlanishiga hissa qo'shadigan turli xil tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy komponentlardan biri ijodiy qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Bu ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ifoda yetish bilan bog'liq aniq texnikalar, bilimlar va strategiyalarni olish va takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Aqliy hujum, turli xil fikrlash mashqlari va turli xil vositalar bilan tajriba o'tkazish kabi faoliyat bilan shug'ullanish orqali shaxslar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlashlari va ijodiy repertuarlarini kengaytirishlari mumkin.

Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishning yana bir tarkibiy qismi bu ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir. Bunga qiziqishni qabul qilish, noaniqlikni qabul qilish va yangi g'oyalar va istiqbollarga ochiq bo'lish kabi ijodkorlikni qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiradigan munosabat va ye'tiqodlarni qabul qilish kiradi. Qiyinchiliklarni qamrab olishga va muvaffaqiyatsizliklar oldida turishga qaratilgan o'sish tafakkurini rivojlantirish, ayniqsa, ijodiy o'zini rivojlantirish

uchun juda muhimdir. O‘sish tafakkuri odamlarga muvaffaqiyatsizliklarni o‘rganish imkoniyatlari sifatida ko‘rishga va ijodiy ishlarga chidamlilik va qat’iyat bilan yondashishga imkon beradi.

3.2 ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishda ichki motivatsiya va Yehtirosning roli

Ichki motivatsiya va yehtiros ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga turtki beradigan va qo‘llab-quvvatlovchi hal qiluvchi omillardir. Ichki motivatsiya faqat tashqi mukofotlar yoki bosimlar uchun yemas, balki o‘ziga xos qoniqish, zavqlanish va shaxsiy qoniqish uchun faoliyat bilan shug‘ullanishni anglatadi. Shaxslar ichki motivatsiyaga yega bo‘lganda, ular o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy harakatlarni amalga oshirish uchun vaqt va kuch sarflashlari mumkin.

O‘qituvchilar kelajakdagi o‘qituvchilarda ularning shaxsiy qiziqishlari va kuchli tomonlarini qadrlaydigan va tarbiyalaydigan muhitni yaratish orqali ichki motivatsiya va ishtiyoqni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. O‘quv tajribalariga tanlov va avtonomiyani kiritish orqali o‘qituvchilar intiluvchan o‘qituvchilarga o‘z yehtiroslari bilan rezonanslashadigan mavzular va yondashuvlarni o‘rganish imkoniyatini berishlari mumkin. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini boshqarish va shaxsiy loyihalar uchun imkoniyatlar yaratish kelajakdagi o‘qituvchilarga o‘zlarining ichki motivatsiyasini rivojlantirishga va o‘zlari tanlagan sohalarda ijodiy o‘zini rivojlantirishga intilishlariga imkon beradi.

O‘z-o‘zini aks yettirish va o‘zini baholashning ahamiyati

O‘z-o‘zini aks yettirish va o‘zini baholash ijodiy o‘zini rivojlantirishning muhim jarayonlaridir. O‘z-o‘zini aks yettirish bilan shug‘ullanish odamlarga o‘zlarining fikrlari, harakatlari va ijodiy jarayonlarini tekshirishga, ularning kuchli tomonlari, takomillashtirish sohalari va shaxsiy o‘sishi haqida tushuncha olishga imkon beradi. O‘zlarining ijodiy tajribalari haqida mulohaza yuritish orqali shaxslar qanday yondashuvlar va strategiyalar muvaffaqiyatli bo‘lganligini aniqlashlari, qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklardan saboq olishlari va ijodiy rivojlanishi to‘g‘risida asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

O‘z-o‘zini baholash o‘z ishi va taraqqiyotini baholash, maqsadlarni belgilash va shaxsiy o‘sishni kuzatishni o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini baholash orqali shaxslar o‘zlarining ijodiy yutuqlarini o‘lchashlari, taraqqiyotlarini o‘lchashlari va yanada rivojlanishga intilayotgan sohalarini aniqlashlari mumkin. Haqiqiy va aniq maqsadlarni belgilash odamlarga o‘z kuchlarini yo‘naltirishga va taraqqiyotini kuzatishga yordam beradi, ularning ijodiy o‘zini rivojlantirish yo‘lida yo‘nalish va maqsad hissini beradi.

Ustoz ta’lim dasturlari o‘ychan amaliyotini birlashtirgan va hidoyat va hisobot bilan ta’minlash orqali izlanuvchan o‘qituvchilar orasida o‘z-o‘zini aks yettirish va o‘z-o‘zini baholash yengillashtirish mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy o‘qitish strategiyalari, dars rejalari va talabalarning o‘zaro munosabatlari haqida

fikr yuritishga undaydigan topshiriqlar tanqidiy o‘z-o‘zini tahlil qilish va kasbiy o‘sishga yordam beradi. Mentorlik va tengdoshlarning fikr-mulohazalari uchun imkoniyatlar o‘z-o‘zini baholash jarayonini yanada qo‘llab-quvvatlashi, qimmatli tushunchalar va turli istiqbollarni taqdim yetishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish ijodiy qobiliyat, ko‘nikma va fikrlashni qasddan o‘stirishni o‘z ichiga oladi. Ichki motivatsiya va yehtiros ajralmas o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context: Update to the social psychology of creativity. Westview Press.

2. Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C. (Eds.). (2014). Nurturing creativity in the classroom. Cambridge University Press.

3. Craft, A. (2005). Creativity in schools: Tensions and dilemmas. Routledge.

4. Cropley, A. J. (2006). In praise of convergent thinking. Creativity Research Journal, 18(3), 391-404.

5. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention. HarperCollins.

6. Hennessey, B. A., & Amabile, T. M. (2010). Creativity. Annual Review of Psychology, 61, 569-598.

7. Kaufman, J. C., & Beghetto, R. A. (2009). Beyond big and little: The four C model of creativity. Review of General Psychology, 13(1), 1-12.

РЕЗЮМЕ

Ijodkorlikni rivojlantirish kelajakdagi o’qituvchilarni 21-asr muammolarini hal qilishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy maqola o’qituvchilar ta’limi sharoitida ijodiy o’zini o’zi rivojlantirishning ahamiyatini o’rganadi va izlanuvchan o’qituvchilar orasida ijodkorlik mexanizmlarini takomillashtirish strategiyasini taklif qiladi. Tegishli adabiyotlarni tahlil qilish va empirik tadqiqotlarga asoslanib, ushbu maqola o’qituvchilarni tayyorlash dasturlari doirasida ijodiy fikrlash, o’z-o’zini aks ettirish va kasbiy o’sishni rivojlantirish haqida tushuncha berishga qaratilgan. Topilmalar shuni ko’rsatadiki, ijodiy o’zini o’zi rivojlantirishga kompleks yondashuv kelajakdagi o’qituvchilarga o’z o’quvchilarini ilhomlantiradigan va ta’lim landshaftining rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirishga qodir innovatsion va moslashuvchan o’qituvchilar bo’lishga imkon beradi.

РЕЗЮМЕ

Развитие творческих способностей имеет важное значение для подготовки будущих учителей к решению задач 21 века. В этой научной статье исследуется важность творческого саморазвития в контексте педагогического образования и предлагаются стратегии по усилению механизмов креативности у начинающих педагогов. Анализируя соответствующую литературу и опираясь на эмпирические исследования, эта статья призвана дать представление о том, как способствовать творческому мышлению, саморефлексии и профессиональному росту в рамках программ подготовки учителей. Полученные результаты свидетельствуют о том, что комплексный подход к творческому саморазвитию может помочь будущим учителям стать инновационными и адаптируемыми педагогами, способными вдохновлять своих учеников и удовлетворять меняющиеся потребности образовательного ландшафта.

SUMMARY

The development of creativity is essential in preparing future teachers to meet the challenges of the 21st century. This scientific article explores the importance of creative self-development in the context of teacher education and proposes strategies to enhance the mechanisms of creativity among aspiring educators. By analyzing relevant literature and drawing on empirical research, this article aims to provide insights into fostering creative thinking, self-reflection, and professional growth within teacher preparation programs. The findings suggest that a comprehensive approach to creative self-development can empower future teachers to become innovative and adaptable educators capable of inspiring their students and addressing the evolving needs of the educational landscape.

INSON QADRINI ULUG`LASH XUSUSIYATLARI

Saparboyeva D. S.
University of science and technologies
"Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim" kafedra mudiri

**Tayanch so`zlar:** inson, qadr, aql, idrok, tafakkur, jamiyat, ma`naviyat, ishonch, madaniyat, kamolot, insoniyat, tarbiya.

Ключевые слова: человек, ценность, интеллект, восприятие, мышление, общество, духовность, доверие, культура, зрелость, человечность, образование.

Key words: human, value, intellect, perception, thinking, society, spirituality, trust, culture, maturity, humanity, education.

Inson qadrini ulug'lash axloqiy tarbiya jarayonining asosiy negizi sifatida har bir kishi faoliyatining barcha muammolarini ijobiy nuqtai nazardan takomillashtirishda axloqiy hissiyotlari, tasavvuri, estetik didini rivojlantirishda erkin jamiyat va komil inson madaniyatini taraqqiy ettirish kabilar yangi bilan bog'liq. Shu bois inson qadrini ulug'lash bo'yicha biron muammo yoki tadqiqot yo'qki, unda inson haqida fikr yuritilmagan. Inson qadrini ulug'lash madaniyatiga oid masalalar doimo tafakkur ahlining e`tiborini jalb etib kelgan. Inson his-tuyg'ulari, aql idroki va iroda-ixtiyori har doim qadr ehtiyoj sezib yashaydi. Zero, tabiat, jamiyat va insonning rivojlanish muammolari bilan bog'liq jarayonlarda inson qadrini ulug'lashga murojaat qilish, haqiqatni anglash maqsadi, haqiqat va uni yuzaga keltirishda jamiyat va inson muammolariga yondoshadi. Shuning uchun ham inson qadri haqida gapirilgan joyda, albatta uning axloqiga "zo'r inson" deb baho beriladi va uning xulqiga munosabat bildiriladi. Inson qadrini ulug`lash axloqiy madaniyat mezoni sifatida barcha tushunchalar uchun asos bo'ladi. Shuning uchun ham odatda inson qadri nimani anglatadi, inson qadrining maqsadi nima, axloq qanday fan degan savollarga "Inson -bunyodkor", "Inson maqsadi-tinchlik o'rnatish", "Inson hayot gulistoni"-degan javob beriladi. Ko'rinib turibdiki, inson qadri har qanday savol va javobi uning masalasiga borib taqaladi. Inson qadrini o'z-o'zidan vujudga keladigan hodisa emas, balki shakli, mazmuni va xususiyatiga ko'ra uning tafakkur mahsuli kishini hayratga soladi. Insonning bunyodkor g'oyalari bevosita uning bilimiga bog'liq. Har qanday narsa – hodisa uning ishonchlilik, qiziqarlilik, haqqoniylik mezonlari bilan o'lchanadi. Inson qadrini ulug'lash madaniyatini his etganda, uning mohiyatini bilgandagina

zavqlanadi, huzur qiladi. Zero, inson qadrini bilish, idrok etish uning tafakkurini o'stiradi. Inson tushunchasining mazmun-mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning tarixiy taraqqiyot hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonida moddiy va ma`naviy zaruriyatga aylangan tushuncha ekanligini kuzatish mumkin. Bular birinchidan – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida inson qadrini ulug'lash, uning qonuniyatlarini ma`naviy jarayonlarda qo'llash orqali ulug'vor qadriyatlar tizimi yaratish, jamiyatda insonning ulug'ligini namoyon etish, ikkinchidan –inson qadrini ulug'lash amaliy jihatdan yuksak ahamiyatga ega ekanligi yanada oydinlashadi. Chunki, hozirgi kunda tinchlikni barqarorlashtirish, ekologik xavfning oldini olish, davlatlararo va etnik nizolarga chek qo'yish, ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni yo'q qilish, terrorizm, genotsid, giyohvandlik va turli ko'rinishidagi kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik kabi umumbashariy muammolar bevosita insonning tafakkuri asosida bartaraf etilmoqda. Uchinchidan – inson hayotni – baholash xususiyatiga ega. Chunki, inson hayotni his etish, uni qadrlash orqali o'zida uyg'unlikni namoyon qiladi. Uyg'unlik insonni faollikka undaydi, loqaydlik, dangasalik kabi illatlardan halos etadi. O`qituvchi faoliyati shaxsning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy kuchlarini rivojlantirishga ko'maklashsa, inson qadri yanada ulug'lashadi.

Insonning qadri hamma sohalarda tushuncha, qonuniyat, nazariya sifatida yoritilgan. Xususan, inson qadrini ulug'lash madaniyatini nazariy va amaliy tahlili, ma`naviy va axloqiy mohiyati, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini bir qancha turlarga ajratish mumkin. Insonning ulug`ligini ilmiy-nazariy asoslarni o'rganish. Insonni ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq holda amaliy-pragmatik asoslarini yaratishga yo'naltirish. Bundan tashqari, inson qadrini o'rganishda uning tafakkuri haqidagi qarashlarini o`rganish, tabiat va jamiyat taraqqiyotida inson munosabatlarini takomillashtirish, inson manfaatlarini holi tarzda idrok etish, insonlarni muhokama qilmay turish maqsadga muvofiqlikka erishish, insonning barcha uchun zaruriyligi kabilardir.

Inson faoliyatida kutilmagan holatlar yuzaga kelsa –da, uni borliqdan ajratib bo'lmaydi. Inson haqiqat bilan qaysidir bir joylarda emas, balki borliqning real tasviri aks etgan tartibli, mukammal va mustahkam hududlarida uchrashadi. Inson qadri falsafiy-pedagogik mohiyatiga ko'ra fikrlarni bayon etish, uning faqat moddiy yoki ma`naviylik xususiyati bilangina cheklanib qolmay, balki, ularni uyg'unlashtirgan holda ifodalash lozim; ikkinchidan, insonga munosabat bildirganda, avvalo, uni anglash va faoliyatining mushtarakligiga e`tibor qaratish; uchinchidan, inson faqat hayot baxsh etuvchi hodisa sifatida emas, balki insonni harakatga, faoliyatga undovchi holat tarzida baho berish zarur; to'rtinchidan, inson namoyon bo'lishida asosiy unsur hisoblangan me`yor, uyg'unlik, maqsadga

muvofiqlik, hamoxanglik, moslik, mutanosiblik singari tushunchalarga qarab qo'llanilsa uning falsafiy-pedagogik mohiyati yanada kengroq ochiladi.

beshinchidan, inson qadrini nazariy jihatdan tahlil qilganda uning manfaatdorlik, ma`naviylik xususiyatlariga beg'araz munosabat tarzida yondashish maqsadga muvofiq. Insonning eng muhim tushunchasi bu –"fahm" va uning mohiyati bilan bog'liq masalalarga hisoblanadi. Avvalo, "fahm" bevosita va bilvosita inson faoliyatida bu uning farosat tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, aqliy qobiliyatning natijasidir. U aqlga mos holat, hodisa, jarayon tufayli ro'yobga chiqadi. Aqlga nomuvofiq yoki oqilonalikka zid holatda bo'lish esa befahmlikdan dalolatdir. Befahmlar to'g'rini noto'g'ridan, haromni haloldan, go'zallikni hunuklikdan ajrata olmaganlari bois qilgan ishlarining oqibati xayrli bo'lmaydi. Inson qadrining yana bir xususiyati uning did tushunchasi bilan bog'liq. Ushbu jarayonda idrok, faxm, farosat kabilar aqlga borib taqaladi. Faxm –aqliy, farosat –axloqiy, did –estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchala qobiliyatning ibtidosi tabiiy –tug'malikka borib taqalsa-da ular o'zlarini asosan tarbiya ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Demak inson qadrini ulug`lash bevosita tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iborat hisoblanadi. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, inson paydo bo'lgandan buyon unga doimo ikki ehtiyoj hamrohlik qilib kelgan. Biri moddiy ikkinchisi –ma`naviy. Agar moddiy ehtiyoj inson paydo bo'lgandan keyingi davrlarda ma`naviy qadriyatlar oliy maqomda e`tirof etildi.

Bugungi kunga kelib hayotini faqat bir tomoninigina o'zgartirishga intilish e`tiborni faqat bir sohaga qaratish bilan ko'zlangan maqsadga erishish qiyinligi ayon bo'lmoqda. Inson kamolatida xulqiy va axloqiy mohiyatini ham shunga qiyoslash mumkin. Zotan insonning faqat ma`naviy madaniyatiga e`tibor berish uni ulug'lash masalalari dolzarb bo'lgan. Ana shuni teran xis qilganimizdagina ko'zlangan maqsadimizga etishishimiz mumkin bo'ladi. XXI asrga kelib dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ma`rifiy va ma`naviy manzarasi tubdan o'zgardi. Kishilik jamiyati insonda oliyjanob fazilatlarni rivojlantirdi. Shu bilan birga g'ayri insoniylikning turli ko'rinishlarini ham yuzaga keltirdi. Afsuski insoniyat butun tarixi davomida bu kabi hodisalarga hamroh bo'ldi va bo'lmoqda. Inson ongi qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan hozirgi davrda insonni ulug'lash hayotiy zaruriyatga aylandi. Endilikda insonni ulug'lash mezonlari o'zgarmoqda. Bu jarayonlarga nisbatan munosabat va yondashuvlarni o'zgarishiga olib keladi. Bugun erkin fuqaro ma`naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish ma`rifatchi ziyolilar oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Unga ko'ra "inson qadrini ulug'lash" tushunchasining mazmuni nafaqat alohida shaxslarni balki butun –butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan. Ular ma`naviy va ma`rifiy sohasida tengsiz yutuqqa ilhomlantirganligi e`tirof etilmoqda.

Bugungi kunda insonni qadrini ulug'lash deganda avvalo o'z haq –huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, tevarak atrofda sodir bo'layotgan voqea –hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his etadigan, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, ma`naviy jihatdan yuksak jismonan baquvvat, erkin shaxs tushuniladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Mamlakatimizda ma`naviy va jismoniy jihatdan inson qadrini ulug'lash umummilliy umumdavlat miqyosidagi vazifaga aylangan. Chunki dunyoda globallashuv jarayoni ketayotgan hozirgi davrda yoshlarning turli xil mafkuraviy kuchlarning ta`siriga berilishi va buning oqibatida yovuz kuchlarning g'ayriinsoniy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan harakatida bilib –bilmay ishtirok etish holatlari tez –tez uchrab turibdi. Endilikda mazkur bo'shliqni to'ldirish, xalqni turli xil tajovuzlardan himoya qilishga ijtimoiy -ma`naviy zarurat sifatida qaralib, yoshlarni ana shunday tahdidlardan himoya qilish uchun xalqimizning ilg'or an`analari, ma`naviy tafakkuri va dunyoqarashiga asoslanish hamda umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish zarurligi uqtirilmoqda. Bunga erishish esa inson qadrini ulug'lash uyg'unligini ta`minlashni taqazo etadi.

Inson qadrini ulug'lashning ma`naviy va jismoniy tomonlarini uyg'unlashtirishga erishish orqali axloqiy, pedagogik, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy tarbiya shakllarini tarbiya bilan hamohang tarzda olib borish uchun imkoniyatlar kengayadi. Inson tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha ishtirok etadigan jarayon. Inson qadrini ulug'lash tarbiyaga muhtoj hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022 yil
2. U.Mahkamov, D.Mahkamov, N.Mahkamova, D.Isroilova. Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish.. "ZERO PRNT" Toshkent-2022 yil
3. Luiza Xey Eng sara asarlari "BOOK MEDIA NASHR" Toshkent-2020
4. Jon Grey. Eng sara asarlari "BOOK MEDIA NASHR" Toshkent-2020
5. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada inson qadrini ulug`lash madaniyatining pedagogik, falsafiy, ma`naviy, psixologik jihatlari nazariy jihatdan asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье теоретически обосновываются педагогические, философские, духовные, психологические аспекты культуры почитания человеческого достоинства.

SUMMARY

This article theoretically substantiates the pedagogical, philosophical, spiritual, psychological aspects of the culture of honoring human dignity.

KLASTER YONDASHUVI – INKLYUZIV TA'LIM SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING MUHIM STRATEGIK MEXANIZMI

Nazarova Dildora Asatovna
Oriental universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Tayanch tushunchalar: inkluziv ta'lim, klaster, mexanizm, ilmiy va o'quv klasteri, ota-ona, farzand, yondashuv.

Ключевые словы: инклюзивное образование, кластер, механизм, научно-образовательный кластер, родитель, ребенок, подход.

Key words: inclusive education, cluster, mechanism, scientific and educational cluster, parent, child, approach.

Kirish. Inklyuziv ta'lim makoni ichki muhiti muhim unsurini pedagoglar faoliyatining mazmuniy-funksional va tashkiliy tomonlari tashkil etadi.

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati pedagogik jarayonda ota-onalar va oila a'zolarining faol ishtirok etishiga chambarchas bog'liq. Teng sherikchilik asosidagi munosabatlarda oila faolligi yanada oshadi, ularning pedagogik jarayonga jalb qilinishi, farzandlari tarbiyasi borasidagi muammolarni hal etishga qaratilgan tadbirlardagi ishtiroki inklyuziv ta'limning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati uning turli toifa o'quvchilari bilan ishlash jarayoniga ijodiy yondashishi, tafakkurining moslashuvchanligi, egiluvchanligiga bog'liq. S.V.Alexina barcha darajalarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish mexanizmi sifatida uzluksiz ta'lim vertikalining modelini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

M.A.Alekseyeva uzluksiz ta'lim vertikalini tuzishning tamoyillarini belgilaydi:

Kengqamrovlik. Erta yoshda inklyuziv muhitga tushib qolgan bola, ulg'ayishning har bir bosqichida tengdoshlar bilan birga bo'lishi kerak. Bolani tarbiyalash va rivojlantirishni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash uning hayotining barcha sohalariga ta'sir qiluvchi kengqamrovli jarayondir.

Muassasalar faoliyatining bog'liqligi. Har bir tumanda o'ziga xos inklyuziv ta'lim vertikali «Bolalar bog'chasi - resurs markazi - maktab» bo'lishi kerak.



Ta'lim vertikali tamoyillari (M.A.Alekseyeva).

Maqsadlarning mushtarakligi (birligi). Barcha inklyuziv institutlar umumiy rivojlanish strategiyasiga va yetarli darajada mos keladigan uslubiy ta'minotga ega bo'lishi kerak.

Uzluksizlik. Barcha inklyuziv muassasalar vertikal va har bir ta'lim darajasida hamkorlik va tajriba almashish uchun ochiq bo'lishi kerak; bolaning rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar unga ta'lim vertikalining barcha darajalarida kuzatilishi kerak.

Kasbiy kompetensiya. Inklyuziv ta'limga jalb qilingan barcha o'qituvchilar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va metodik ta'minlash uchun samarali mexanizm ishlab chiqilishi kerak.

Y.A.Klimov, V.A. Yasvin, S.V. Tarasov turli toifa bolalarini ijtimoiylashtirishda ta'lim makoni muhim o'rin tutishi, shuningdek, u fazoviy-predmetli, mazmuniy-uslubiy va kommunikativ-tashkiliy tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lishi lozimligini ko'rsatib o'tadilar. Jumladan, Y.A.Klimov shaxs faoliyati va taraqqiyotida subyekt uchun ichki va tashqi shart-sharoitlardan iborat muhit omilini muhim, deb hisoblaydi. V.A.Yasvin ta'lim makoniga tavsif bera turib, bola shaxsini shakllantirish, uning rivojlanishi uchun ijtimoiy va fazoviy-obyektiv muhitda mavjud imkoniyatlar to'plamiga ega ta'sirlar va sharoitlar tizimi ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta'limni rivojlantirish mamlakatning ravnaqi uchun zaruriy shart ekanligi tan olingan davlatlarda mazkur tizimni isloh qilish yangi ta'limiy voqelik – inklyuziv ta'lim muhitining yaratilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunday voqyelikning zaminida quyidagi omillar turishini ko'rsatib o'tamiz:



Ijtimoiy – jamiyatda insonparvarlik va uni demokratlashtirish g'oyalarining singdirib borilishi; ta'limda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar sonining ortib borishi; jamiyat tomonidan ta'lim sifatiga erishish va uni olishga imkoniyatlarning ortib borishi; oila va uning farzand tarbiyasidagi o'rni, ularning ta'lim-tarbiyasiga mas'uliyatiga e'tiborning kuchayib, ota-onalarning ta'lim jarayoniga sub'ekt sifatida jalb qilinishi zarurati;

Qonuniy – BMT va davlatimiz tomonidan bola va nogironligi bo'lgan shaxslarning rivojlanishi, himoya qilinishi, munosib hayot kechirishiga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ijrosi;

Nazariy – fandagi zamonaviy yondashuvlar: shaxsni tez o'zgaruvchan zamonda yashashga, uning ijtimoiy hayotiy voqyeliklarga moslashuvchan etib tayyorlashga, o'zini-o'zi rivojlantirish ko'nikmasini shakllantirishga erishish kabi muammolarning amaliy yechimiga erishish, pedagoglarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

Iqtisodiy – inson resurslariga e'tiborning kuchaytirilishi: har qanday nogironligi bo'lgan shaxs olgan ta'limining darajasining uning o'zi va oilasi, xuddi shuningdek, mamlakat rivojiga qo'shadigan ulishi sifatida qaralishi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Rossiyalik olimlar mazkur ta'limiy muhit moslashuvchan yakka yo'naltirilgan ijodkorlik tavsifiga ega bo'lib, o'quvchi umumiy bo'lgan topshiriqlar, masalalarga shaxsiy yo'naltirilganlik asosida tashkil etilgan jamoada ijtimoiy-madaniy munosabatlarga kirishar ekan, o'zini anglash, o'z o'rniga ega bo'lish kabi xislatlarni egallab borib, ijtimoiy jipslashuv shaxsning «mavjud bo'lish» san'atini egallashga asos bo'lishini ta'kidlaydilar.

I.A.Bayeva yuqoridagi fikrlarni davom ettirgan holda «Ta'lim muhiti» kategoriyasi ta'limni ijtimoiy hayot sohasi sifatida, o'z navbatida, atrof-muhit esa ta'lim omili sifatida qaralishi lozimligini ta'kidlaydi.

D.Mitchell ta'limning samarali bo'lishi uchun ta'lim maydoni xavfsiz va har bir o'quvchini rivojlantiruvchi tavsifga ega bo'lishi lozimligi, atrof-muhit

barcha bolalarga zarur bo'lgan narsalarni o'rganish imkoniyatini yaratishi, ularning ta'limi haqiqatan ham shaxsiy hayotlari sifatini yaxshilashga hissa qo'shishi, mustaqillik va o'zaro bog'liqlik o'rtasidagi muvozanatni topishlari va jamiyat hayotida to'liq ishtirok eta olishlariga tayyorlashi, imkon berishi muhimligini qayd etadi.

B.B.Aysmontas, M.A.Odinsova inklyuziv ta'lim «to'siqsiz muhit» sharoitida barqaror bo'lishi, bunday muhit jamiyat hayotining barcha jabhalarida rivojlanishida muammolari bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan keng qamrovli sharoitlarni tushunish lozimligini ta'kidlasalar, N.N.Bukovsova «To'siqsiz ta'lim muhiti nogiron bolalar uchun qulay muhit. Bu esa ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini va ularni oddiy maktablarda qo'shma o'qitish jarayonini ta'minlaydi» deya qayd etadi.

K.Yildirim va S.Yenipinar «istisno» (12 band), «qo'llab-quvvatlovning mavjud emasligi» (4 ta band), «tortinish» (3 ta band) omillariga tayangan holda turk maktablarida 19 banddan iborat «psixologik «xavfsiz emaslik» o'lchovi»ni ishlab chiqib, atroflicha isbotladilar.

Tadqiqotchilar ta'lim makonini tarkibining mavjudligi, moslashuvchan yoki qat'iy tuzilishi, darajasi, shuningdek, tashkil etilishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflaydilar. Uning o'ziga xos xususiyatlari mavjudlik darajasi, predmetlarning ko'pligi, ko'p darajali o'zgaruvchan ekanligida namoyon bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim makonini modellashtirishda pedagogik jamoalar, shuningdek, faoliyat subyektlari bo'lgan o'quvchilar va ota-onalar maqsadli tizimli faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlash va ko'p qirrali rivojlantirish, farzandlarining ta'lim makoniga ijtimoiy-pedagogik moslashishini inobatga olish muhim sanaladi. Shuningdek, ta'lim makonini modellashtirishda biz bir-biriga moslashuvchan, o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ko'p darajali ta'lim muassasalarini o'z ichiga oluvchi ierarxik tuzilma bo'lgan inklyuziv ta'lim vertikalini tanlashimiz muhim.

Ta'lim muassasalarini ilmiy va o'quv klasteriga birlashtirish va muvofiqlashtirish maxsus ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy va o'quv klasterini aniqlashda eng muhim mezon uning barcha tarkibiy qismlari uchun yagona umumiy maqsadning mavjudligi bo'lib, u amalda birlashgan ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'rifiy loyihalarda ifodalanishi mumkin bo'lib, bu davrda ishtirokchilarda ijobiy fazilatlar, xususan, o'quvchilarning har birlari uchun va xuddi shuningdek, klasterga kiritilgan tashkilotlarning yangi hayotiy, ijtimoiy vakolatlari shakllanadi.

Klaster doirasidagi hamkorlik ijtimoiy axloqiy me'yorlarga muvofiq, ixtiyoriy ravishda, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish, imkoniyatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.



Ta'lim klasterining hamkorlik maqsadlari

Mazkur yondashuv asosida ta'lim tizimini rivojlantirish orqali sub'ektlar sherikchilikni kuchaytirib, bir-biriga o'zaro ta'sir qilgani holda, alohida unsurlar, shuningdek, klasterning afzalliklarini ham kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Klaster yondashuvi boshqa yondashuvlarga nisbatan inkor etib bo'lmaydigan afzalliklarni beradi va yangi ta'lim siyosatini amalga oshirishning muhim strategik mexanizmiga aylanadi.

M.P.Voynarenko klasterning iqtisodiyotning yuqorilashuviga olib keluvchi muhim yo'l ekanligini asoslash bilan birga uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi: yangilikni tadbiq etish, ma'lumotga tayanish, uyg'unlashish, umumiy manfaatlarning mavjud bo'lishi, ishtirokchilarning



Klasterning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar. «5I» konsepsiyasi.

tashabbuskorligi omillaridan iborat «5I» (rus tilidagi so'zlar abreviaturasi) konsepsiyasini ilgari suradi.

O.Yu.Muller va F.D.Rasskazov ta'lim makonini tarkibining mavjudligi, moslashuvchan yoki qat'iy tuzilishi, darajasi, shuningdek, tashkil etilishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflaydilar. Uning o'ziga xos xususiyatlari mavjudlik darajasi, predmetlarning ko'pligi, ko'p darajali o'zgaruvchan ekanligida namoyon bo'ladi. Ilmiy va o'quv klasterini aniqlashda eng muhim mezon uning barcha tarkibiy qismlari uchun yagona umumiy maqsadning mavjudligi bo'lib, u amalda birlashgan ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'rifiy loyihalarda ifodalanishi mumkin bo'lib, bu davrda ishtirokchilarda ijobiy fazilatlar, xususan, o'quvchilarning har birlari uchun va xuddi shuningdek, klasterga kiritilgan tashkilotlarning yangi hayotiy, ijtimoiy vakolatlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. David Mitchell «What Really Works in Special and Inclusive Education» First published 2008 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN2008 David Mitchell

2. Yildirim K., Yenipinar S. Psychological unsafety in schools: The development and validation of aScale. Journal of Education and Training Studies. 2017. 5(6).

3. Айсмонтас Б.Б., Одинцова М.А. Инклюзивная образовательная среда вуза как ресурс для развития жизнестойкости и самоактивации студентов с инвалидностью.// Психологическая наука и образование. 2018. Т. 23. № 2. С. 29-41.

4. Алехина С.В. Инклюзивное образование для детей с ограниченными возможностями здоровья // Современные образовательные технологии в работе с детьми, имеющими ограниченные возможности здоровья: монография / Н.В. Новикова, Л.А. Казакова, С.В. Алехина; под общ. ред Н.В. Лалетина; Сиб. Федер. ун-т, Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева [и др.]. Красноярск, 2013. С. 71 – 95

5. Баева И.А. Психологическая безопасность в образовании: Монография.- СПб.: Издательство «СОЮЗ», 2002. -271 с.

6. Буковцова, Н. И. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья: проблемы и перспективы / М.: МГППУ, 2011.-286 с.

7. Войнаренко М.П. Кластеры в институциональной экономике: монография. Экономическое возрождение России. / АНО "Институт проблем экономического возрождения"/Санкт-Петербург: АНО ИПЭВ, 2013. FB 1 14-9/234

8. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: учебное пособие для студ. высш.учеб.заведений/М.: Издательский центр «Академия», 2010.-304 с.;

9. Муллер О.Ю., Рассказов Ф.Д. Научно-образовательная кластерная модель как единая система непрерывного инклюзивного пространства. Современные проблемы науки и образования. 2016. № 5

10. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие /Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др.; под ред.Д.З. Ахметовой. – Казань: Изд-во «Познание» Института экономики, управления и права, 2013 – 204 с.

11. Тарасов С. В. Образовательная среда как социокультурная и педагогическая категория // Вестн. ЛГУ им. А. С. Пушкина. – 2014. – № 1.–Т.3.Педагогика.-С. 5-16.

12. Ясвин В.А. Образовательная среда:от моделирования к проектированию. - М.: Смысл, 2001.-365 с.

RESUME

Mazkur maqolada inkluziv ta’lim, uni amalga oshirish mexanizmi, klaster yondashuv, inkluziv ta’limni klaster mexanizmi bilan yuzaga chiqarish shart-sharoitlari, uzluksiz ta’lim vertikalining modeli mohiyati, ilmiy va o‘quv klasteri masalasi tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется инклюзивное образование, механизм его реализации, кластерный подход, условия создания инклюзивного образования с кластерным механизмом, сущность вертикальной модели непрерывного образования, проблематика научно-образовательного кластера.

SUMMARY

This article analyzes inclusive education, the mechanism of its implementation, the cluster approach, the conditions for creating inclusive education with the cluster mechanism, the nature of the vertical model of continuous education, and the issue of the scientific and educational cluster.

ПРАКТИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Терехова О. Е.
PhD, и.о.доцента кафедры «Педагогики и психологии дошкольного образования» ТГПУ имени Низами

Tayanch so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, tayyorgarlik, nazariy tayyorgarlik, amaliy tayyorgarlik, mashg'ulot mazmuni, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot.

Ключевые слова: профессиональная готовность, подготовка, теоретическая готовность, практическая готовность, содержание обучения, педагогические умения, педагогическое общение.

Key words: professional readiness, preparation, theoretical readiness, practical readiness, content of training, pedagogical skills, pedagogical communication.

«Мы должны построить такое общество, чтобы учительство было самой престижной профессией! В этом мы опираемся, прежде всего, на тысячи учителей и наставников, посвятивших свою жизнь воспитанию подрастающего поколения! Общество, чтящее учителей, никогда не проиграет, оно обязательно достигнет своих целей.», — сказал Шавкат Мирзиёев [1]. Качество подготовки педагогических кадров – самый важный компонент образовательной системы потому, что реализация всех остальных компонентов напрямую зависит от тех человеческих ресурсов, которыми обеспечена та или иная образовательная система.

Анализ литературы позволил определить практическую готовность как комплекс психолого-педагогических и методических умений и качеств личности педагога (эмпатия, эмоциональная устойчивость, наблюдательность, общительность и т.д.), необходимых для оперативного выбора и реализации оптимального варианта решения конкретных учебно-воспитательных задач.

В современных исследованиях подчеркивается значение для успешной профессиональной деятельности умений, «связанных с различными видами деятельности, в которые учитель должен уметь включать учащихся» (Н.В.Кузьмина), необходимость и обязательность формирования этих умений, независимо от индивидуальных качеств будущего педагога.

В настоящее время определена номенклатура основных профессионально - педагогических умений, дана и их классификация. Совершенствованию профессионально-педагогической деятельности будущих учителей посвящены исследования, направленные на изучение отдельных профессиональных умений: конструктивных, гностических, организаторских, коммуникативных, информационных, исследовательских, дидактических как обобщенных умений выполнения обучающей деятельности.

В исследованиях были выявлены условия объективного и субъективного характера, при которых формирование профессионально-педагогических умений становится продуктивным. Сравнительный анализ этих условий позволил свести их к совокупности следующих компонентов:

– *наличие определенных* знаний о сущности формируемых умений:
– тренировка в выполнении операций, составляющих умения, которая чаще всего выступает в виде системы усложняющихся заданий;
– создание положительной мотивации у студентов в процессе освоения ими профессиональных умений.

К сожалению, богатый материал о подготовке студентов к различным аспектам их будущей профессиональной деятельности, накопленный в педагогической науке, недостаточно внедряется в практику. Это в значительной степени относится и к исследованиям по проблеме формирования практической готовности к педагогической деятельности.

Как показывают наблюдения и специальные исследования, наибольшие сложности у начинающих педагогов вызывает установление контакта в общении с воспитанниками, регулирование внутригрупповых отношений и др. Эти затруднения являются следствием недостаточной сформированности коммуникативных умений, которые могут даже компенсировать временную нехватку у начинающего педагога других умений, поэтому особенно остро встает проблема формирования умений педагогического общения. Готовность к педагогическому общению рассматривается как центральное ядро профессиональной готовности к педагогической деятельности, как важнейшее условие развития всех педагогических способностей.

В связи с этим необходимо обратиться к понятию педагогического общения, без изучения проблем которого невозможно исследовать деятельность педагога, процесс формирования его профессиональной готовности.

В понимании педагогического общения мы исходили из определения А.А.Леонтьева: «Педагогическое общение - это профессиональное общение преподавателя с учащимися на уроке или вне его (в процессах обучения и воспитания), имеющее определенные педагогические функции и направленное (если оно полноценное и оптимальное) на создание благоприятного психологического климата, а также на другого рода психологическую оптимизацию учебной деятельности и отношений между педагогом и учащимися и внутри ученического коллектива».

Для научного изучения проблем педагогического общения характерно многообразие подходов, свидетельствующих о сложности явления. Чаще педагогическое общение рассматривается в его воспитательной функции: как метод воспитания, как фактор воспитания личности, как особый вид творчества, как фактор оптимизации учебно-воспитательного процесса. Менее разработаны вопросы педагогического общения в его обучающей функции - *как* формы учебного взаимодействия педагога и обучаемых [2].

Для обозначения педагогического общения в его обучающей функции используются термины: «дидактическое общение», «дидактический монолог», «дидактический вербализм», «дидактический разговор», «учебный диалог». Сопоставляя эти термины, мы вычленили как наиболее адекватный рассматриваемому понятию термин «дидактическое общение», так как другие относятся к его частным характеристикам.

В литературе термин «дидактическое общение» используется применительно к общению учителя с учащимися на уроке и в связи с ним. Специфика обучения речи детей дошкольного возраста (процесс усвоения родного языка идет не только и не столько на занятии) позволяет использовать этот термин применительно к процессу развития речи детей и за пределами специально организованной формы обучения. Мы можем говорить о дидактическом общении во всех случаях речевого взаимодействия воспитателя с детьми, когда педагог решает дидактическую задачу. Среди черт своеобразия дидактического общения, решающего задачи развития речи детей дошкольного возраста можно назвать следующие:

– стабильность ролевых отношений (воспитатель-дети, в ситуации дидактического общения позиция взрослого - обучающего более ярко выражена, чем в других ситуациях педагогического общения);
– заданность объема учебного материала, сроков обучения (программные требования к речи, нормативы речевого развития, возрастные показатели);

– направленность на установление контакта с детьми, духа сотрудничества,

взаимопонимания (характерных для диалогического, субъект-субъектного общения).

Основываясь на выделенных в работах по вузовской педагогике особенностях коммуникативных умений, их перечне, мы планируем в дальнейшем определить состав умений дидактического общения воспитателя с детьми дошкольного возраста с целью развития их речи. При этом считаем необходимым исходить из понимания структуры педагогического общения и его единиц.

По мнению ученых, структура педагогического общения соответствует общей логике педагогического процесса:

1. моделирование педагогом предстоящего общения (прогностический этап),

2. организация непосредственного общения (начальный период общения),

3. управление общением в педагогическом процессе,

4. анализ осуществленной системы общения и моделирование новой [3].

Структурной единицей общения как формы двустороннего взаимодействия является коммуникативный акт. При этом важно, что любой акт непосредственного педагогического общения - это не воздействие педагога на ребенка (хотя и этот вариант не исключен), а их взаимодействие. Процесс общения строится как система сопряженных актов.

В свою очередь, структура коммуникативного акта (как и всякого действия) включает:

а) анализ и оценку ситуации,

б) формулировку целей и операционального состава действия,

в) реализацию плана и его координацию,

г) оценку эффективности действия.

Таким образом, педагогическое общение представляет собой процесс после-довательного решения коммуникативных задач партнерами общения. Коммуникативная задача есть «результат ориентировки в проблемной ситуации», имеющий целью воздействовать на партнера общения в желаемом направлении.

Чтобы рациональным способом решить коммуникативную задачу, требуется сориентироваться в условиях общения, а затем решить серию

сменяющих друг друга задач, направленных на достижение результата, в нашем случае оптимального уровня речевого развития каждого ребенка.

Установленные в результате анализа литературы особенности готовности педагога как сложного комплексного образования, обеспечивающего выполнение профессиональных функций, позволяют перейти к вопросу о процессе формирования профессиональной готовности в условиях вузовского обучения. Не претендуя на исчерпывающее раскрытие этой сложной проблемы, мы стремились вычленить основные пути совершенствования процесса формирования профессиональной готовности. Анализ современных исследований по вузовской подготовке специалистов позволил выделить два направления научного поиска путей повышения уровня сформированности профессиональной готовности. Первое связано с определением объема учебного материала, второе - с нахождением оптимального характера организации учебного процесса, его технологии.

Литература:

1. Мирзиеев Ш.М. «Мы должны учить ребёнка так, чтобы это согласовывалось с его желаниями и запросами» — президент. https://www.gazeta.uz/ru/2022/12/29/teachers/

2. Сластенин В.А. и др. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. -- М.: Издательский центр «Академия», 2002. - 576 с.

3. Николаенко С.А. Автоматизация технологических процессов, Учебное пособие, Краснодар: Крон, 2017. – 108 с.

4. Н. В. Кузьмина. Акмеологические факторы продуктивности и профессионализма воспитателя детского сада: монография. - Санкт-Петербург: Изд-во НУ «Центр стратегических исследований», 2018. — 119 с.

РЕЗЮМЕ

O’qituvchining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonini ilmiy asoslash uni tayyorlashning umumiy sifatini oshirish, pedagogik mahoratini oshirishning eng muhim sharti bo’lib, ko’plab psixologik-pedagogik tadqiqotlarning maqsadi hisoblanadi.

РЕЗЮМЕ

Научное обоснование процесса формирования профессиональной готовности педагога является важнейшей предпосылкой повышения в целом качества его под¬готовки, совершенствования педагогического мастерства и составляет цель многих психолого-педагогических исследований.

SUMMARY

The scientific substantiation of the process of forming the teacher’s professional readiness is the most important prerequisite for improving the overall quality of his training, improving pedagogical skills and is the goal of many psychological and pedagogical researches.

ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

Самиева Ш. Х.
Кандидат педагогических наук (PhD), доцент
Бухарский государственный университет

Tayanch so'zlar: dunyoqarash, ijodkorlik, ta'lim, iste'dod, ijodiy fikrlash, ijodkorlik, intellektual qobiliyat.

Ключевые слова: мировоззрение, творчество, воспитание, талант, креативное мышление, креативность, интеллектуальные способности.

Key words: worldview, creativity, upbringing, talent, creative thinking, creativity, intellectual abilities.

O‘qituvchi pedagogik faoliyatning asosiy sub’yekti hisoblanadi. O‘z faoliyatidagi so‘z va harakat namunalari orqali u o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazadi. Shundan kelib chiqilgan holda o‘qituvchining referentligi to‘g‘risida gapirish mumkin bo‘ladi.

To‘g‘ri shakllangan bu konsepsiya o‘qituvchi ijodiy imkoniyatini to‘g‘ri yo‘naltiradi, hamkasblar hamda o‘quvchilar bilan birgalikda ishlashda asqotadigan kerakli usullar, va vositalar zahirasini yaratadi. Shu sababli u hamkor faoliyat yo‘nalishini ko‘proq belgilab beradi. Agar faqat shu maqsad qo‘yilsa o‘qituvchi turli variantli usullarga ega bo‘lishi mumkin, lekin ularning natijasi kamroq bo‘ladi. Chunki bunda o‘quvchi faoliyatdagi hamkor emas, maksimal e’tibor kuchini talab qiladigan passiv ob’yektga aylangan bo‘ladi. Natijada o‘qituvchining ishi «sub’yekt - sub’yekt»li emas, balki «sub’yekt - ob’yekt»li mazmunga ega bo‘ladi. Bunday vaziyatda o‘qituvchi ma’muriy – buyruqbozlik mavqeida bo‘lib, hech qanday hamkorlikka yo‘l qo‘ymaydi va uni qabul qilmaydi.

Shaxsning o‘z–o‘zini ijtimoiy belgilashi bu «men obrazidagi» o‘zligini anglash, uni rivojlantirish va hayotda o‘z o‘rnini topishdan iborat bo‘ladi. U esa insonning o‘z hayotining haqiqiy egasi bo‘lishi va u bilan bog‘liq barcha vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi bilan belgilanadi. Bunda usha inson nafaqat ma’lum bir hayotiy – kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, balki tarbiya sohasida o‘quvchilar uchun yuksak insoniy obraz timsoliga aylanadi.

Tarbiya xususidagi nazariy tasavvur avvallambor bu juda sifatli kasbiy tafakkur bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan tarbiya jarayonini to‘laqonli qura olish hamda undagi natijalar shakli bo‘lgan bolalar reaksiyasi bilan bog‘liqligidadir. Nazariy qarashlar o‘z ifoda kuchiga ega bo‘ladi va namoyon bo‘lish shakli ham o‘ziga xos bo‘ladi. Bu o‘qituvchining pedagogik pozisiyasida aks etgan bo‘ladi.

V.I.Slobodchikov so‘zlaricha kasbiy pozisiya o‘ziga xos tarzda noyob va yakayu yagonadir. U bir vaqtning o‘zida shaxsiy pedagogik (o‘qituvchining bola bilan tarbiya jarayonidagi uchrashuvida aniqlanadi) va pedagogik-professional (kasbiy pedagogik maqsadlarga erishish jarayonida kuzatiladi) mazmunga ega bo‘ladi. O‘qituvchi tarbiya jarayonidan tashkarida hech qayerda, hech qachon bola bilan «ob’yekt» sifatida uchrashmasligini (agar u oddiy inson materiali bilan ishlamaydigan haqiqiy pedagog bo‘lsa) bu yerda maxsus kayd etish lozimdir, ya’ni: shaxsiy pozisiyasida u boshqa kishi bilan, kasbiy yo‘nalishda esa tarbiya rivojining sharoitlari bilan uchrashadi.

Tarbiya jarayonida o‘qituvchi asosiy sub’yekt sifatida bo‘ladi. Uning sub’yektiv jihatlari ishda uning qanday kasbiy va ijtimoiy pozisiyada turganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa jamiyatning o‘qituvchilardan talab qiladigan asoslar va uning ichki dunyoqarashi hamda tarbiya saviyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli pedagog pozisiyasida uning shaxsiga xos barcha jihatlar o‘z aksini topgan bo‘ladi. Undagi tizim ijtimoiy va kasbiy asoslardan iborat bo‘ladi.

Pedagogik pozisiya – pedagogik tafakkur mahsuli, tarbiya jarayonini his etish va tarbiya jarayoniga tayyorgarlik darajasidir. Bu shunday holatki, o‘qituvchining bolalarga nisbatan egallagan dastlabki pozisiyasi uning keyingi faoliyati yo‘lini belgilab beradi. Chunki shu pozisiya orqali turli vaziyatlar o‘qituvchiga o‘z hukmini o‘tkaza boshlaydi. Agar o‘qituvchi bolani «sindirish», «yengish» yoki «buysundirish»ga intilsa, bolaning kichik xatosi ham uni g‘azablantiradi va natijada bolaga qichqirish, qattiq tanbeh berish, yomon baho qo‘yish va uni kamsitish kabi holatlar ro‘y beradi. Agar o‘qituvchi sinfga «ishlash», «tarbiyani anglash», «muayyan muloqotga kirishish», «maqsadga erishish» uchun borsa, u o‘quvchilarning bosh maqsadga tomon umumiy harakatiga xalaqit bermagan holda undagi ayrim kamchiliklarni yo‘l-yo‘lakay bildirmasdan hal etib boradi. Pedagogik pozisiyadagi farqlarni turli o‘qituvchilar faoliyatidagi farqlarga qarab yengil ajratish mumkindir. O‘qituvchilar mahoratining turlichaligi pozisiyalardagi rang – baranglikni oshiradi.

Tranzakt tahlil nuqtai nazari bo‘yicha inson muomalani uchta ichki pozisiyadan kelib chiqib quradi, ya’ni: ota – ona pozisiyasi (avaylab-asrash va nazorat kilish), bolalar pozisiyasi (o‘ziga e’tiborni kutadi va javobgarlikni bo‘yniga olmaydi), kattalar pozisiyasi (mas’uliyatni teng bo‘lishish va hamkorlikka intilish).

Pedagogik pozisiya jihatidan buni S.D. Polyakov quyidagicha izoxlaydi: birinchidan «bolalar pozisiyasi» beqaror pozisiya bo‘lib, unga tayanilsa o‘qituvchi ta’siri ma’noga ega bo‘lmaydi; ikkinchidan o‘qituvchi «katta va kichik» hamda «katta va katta» holatidagi kelishilgan hamkorlikka intiladi. Chunki turli yoshdagi bolalar bilan munosabatlarda ular tegishli tarzda qo‘llaniladi; uchinchidan, o‘qituvchi egallagan pozisiya uning faoliyati davomida turlicha namoyon bo‘lishi mumkin.

Insonparvar pozisiyada o‘qituvchi alohida yo‘nalishlarda, ya’ni «bola uchun», «ota – ona uchun», «jamiyat uchun», «davlat uchun» maxsus ish olib bormaydi, balki shularning har birida o‘z tarbiyasini ko‘radi va ularni ixtiyoriylik asosida insonparvarlik jihatdan birlashtirishga harakat qiladi. Insonparvar pozisiya (dunyoqarash sifatida) – ijtimoiy pedagogikani loyihalashtirish asosidir.

Hozirgi zamon pedagoglarining pedagogik pozisiyasi ulardagi pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Pedagog – nafaqat bilimlarni yetkazuvchilik kasbi, balki o‘quvchini inson qilib, unda odamiylikni shakllantiradigan katta bir mas’uliyatli vazifadir. Shu jihatdan pedagogik ta’lim yangi tipdagi o‘qituvchini shakllantiradigan uzluksiz kasbiy ta’limdir. Pedagog uchun juda muhim kasbiy sifatlardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi: yuksak fuqarolik burchi, ijtimoiy faollik, bolaga mehr, ziyoliylik, madaniyatlilik, kasbiy mahoratlilik, doim o‘z ustida ishlash, jismoniy – ruhiy sog‘lomlik va o‘z ishining ustasi bo‘lish.

Maxsus qobiliyatlar musiqa, tasviriy san’at, matematika, teatr kabi maxsus malaka talab etiladigan sohalardagi alohida yo‘nalishlarning yuqori natijalarini belgilab beradi.

N.D. Levitov pedagogik qobiliyat deganda tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan o‘qituvchi shaxsi sifatlarini nazarda tutadi. Bu bilimlarni qisqa va qiziqarli yetkazish, o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunish, mustaqil ijodiy fikrlash, topqirlik, tashkilotchilik va tarbiya jarayonida mo‘tadil muhitni yarata olish kabilardan iboratdir.

F.N. Gonobolin esa qobiliyatlarni bevosita va bilvosita guruhlariga ajratadi. Bu qobiliyatlar o‘quv materialini o‘quvchilar o‘zlashtirishlari uchun qulay qilish, o‘quvchilar intilishlarini anglash, ijodkorlik, bolalarni o‘ziga jalb qila bilish, sinfni jipslashtira olish, bolalar qiziqishlariga singib borish, nutqning tushunarli va yorqin bo‘lishi, darsining hayotiyligi, kuzatuvchanlik, hurmat-izzat hamda qat’iy talabchanlik kabilardan tashkil topgandir.

Hamma pedagoglar ham qobiliyatga ega bo‘lavermaydilar. Buni ikki dalil asosida aniqlash mumkin. Birinchidan, kasbiy mahoratli hamma pedagoglar ham o‘quvchilar bilan ishlaganda juda ularda yuqori ko‘rsatkichlarni (keng ko‘lamli bilim, ijodiy qiziqish, mustaqil harakat qila olish, o‘z bilimlarini erkin qo‘llay olish v. h.k.zo) shakllantira oladilar. Ikkinchidan, pedagog o‘z ishiga nisbatan juda kuchli mas’uliyat bilan yondashsa-da, u o‘quvchilari orqali bir narsaga erisha olmasligi mumkin.

Shunday qilib, qobiliyatlar insonning tarbiya ob’yekti, vositalari, faoliyat sharoitlari va yuqori natijaga erishish uchun kerak bo‘lgan samarali yo‘llarni nafis his etishi bilan bog‘liq individual ko‘nikmalar majmuidir.

Pedagogik mahoratni biz o‘qituvchida bo‘lishi lozim bo‘lgan bir qancha shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida tushunamiz. Bu shaxsiy sifatlar kasbiy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga imkon beradi. Shunday muhim sifatlarga – o‘qituvchi faoliyatining insonparvarligi; uning kasbiy bilimi; pedagogik qobiliyatlari va pedagogik teknikasini kiritish mumkin.

Shu o‘rinda quyidagi holatlarni ta’kidlash joiz: birinchidan, pedagogik mahorat shaxs ruhiyatidagi o‘z–o‘zini tashkil etuvchi tizim bo‘lib, insonparvar yo‘nalganlik bu tizimning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi; ikkinchidan kasbiy mahoratni rivojlantirish zaminida (asosida) o‘qituvchi xatti–haraktalarining asl mohiyati asoslanganligi, ongliligini belgilaydigan kasbiy bilim yotadi. Yo‘nalganlik va kasbiy bilim professional yuqori darajadagi faoliyatning “skelet”i sanalanadi, u o‘z–o‘zini tashkil etuvchi tizimning yaxlitligini ta’minlaydi; uchinchidan, pedagogik qobiliyatlar mahoratning shakllanishini tezlashtiradigan hamirturush bo‘lib hisoblanadi; to‘rtinchidan, bilim va qobiliyatga tayanadigan pedagogik texnika, u barcha ta’sir vositalarini maqsad bilan bog‘lashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik faoliyat strukturasini muvofiqlashtiradi. Shunday qilib, pedagogik mahorat tizimining to‘rt tarkibiy qismi ham o‘zaro bog‘liq. Ularning o‘sishida faqat tashqi ta’sirning o‘zigina kifoya emas, ular o‘z–o‘zini rivojlantirishni ham talab etadi. O‘z–o‘zini rivojlantirish maxsus bilim va ko‘nikmalarga asoslanadi. Muvaffaqiyatning asosiy sharti – bu qobiliyatlar, vositasi esa pedagogik texnikadir. Endi pedagogik mahoratning to‘rt elementi to‘g‘risida batafsil to‘xtalamiz.

1. O‘qituvchi shaxsining insonparvarligi. Fikrlar to‘qnashuvi va o‘z pozisiyasi uchun kurashni dramma deb hisoblasak, tarbiyachining butun, faoliyati dramalardan iborat. Binobarin, mahorat darajasi qancha yuqori bo‘lsa, ziddiyatlar ham shunchalik aniq bo‘ladi. Chunki, ijodkor o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan tizimning yangiligi odatda, eskirgan qarashlarning qarshiligiga uchraydi.

“Shaxs yo‘nalganligi nimalardan iborat?”, - degan savolga psixologiya fani ideallar, qiziqishlar, qadriyatlar deb javob beradi.

Ko‘raylikchi, bu dramaning boshalanishi emasmi? O‘qituvchi qanday uy–xayol bilan maktabga keladi?

“Qoidadon” o‘qituvchi “dars o‘tish”, dasturni bajarish xayoli bilan maktabga kelyapti. Uning qiziqishi 45 daqiqa mobaynida o‘zlashtirishi lozim bo‘lagan materiallarga qaratilgan.

Yangi yetakchi maktabga yorqin bayralar, marosimlar orzusida kelyapti. Endigina ish boshlagan yosh o‘qituvchi ham darsga kelyapti. Uning fikru xayoli o‘zining o‘qituvchining mavqeini saqlab qolishda. U avvalo yoshlari orasida uncha katta farq bo‘lmasa–da o‘quvchilar uni o‘qituvchi sifatida qabul qilishlari to‘g‘risida qayg‘uradi.

Donesklik o‘qituvchi V.F.Shatalov ham darsga kelyapti. Uning maqsadi o‘z o‘quvchilariga zafarli bilim olishlari uchun ko‘maklashish.

Ularning hammasi maktabga, bolalar oldiga kelishyapti, lekin ular shaxsiy yo‘nalganligi asosining o‘ziyoq drama(tik). Lekin ularning bu tarzdagi shaxsiy taraddudi tarbiyaning asosiy maqsadi – barkamol insonni shakllantirish vazifasiga qanchalik mutanosib. Masalaning muhimligi ana shunda.

Har bir o‘qituvchi shaxsining yo‘nalganligi turli xil bo‘lib, ularning eng asosiysi, qimmatlilari quyidagilardir: 1) o‘ziga nisbatan yo‘nalganlik, ya’ni o‘z–o‘ziga ishonch, “menda bilimli, talabchan, haqiqiy o‘qituvchini ko‘rishsin”, - degan istakning mavjudligi; 2) pedagogik ta’sir vositalariga yo‘lnalaganlik; 4) pedagogik faoliyat maqsadiga yo‘nalganlik – insonparvar strategiya, faoliyat ob’yekti va vositalariga nisbatan ijodiy yondashish.

Pedagog uchun korreksiyalangan barcha turdagi yo‘nalishlar bilan yo‘g‘rilgan, maqsadga olib boruvchi asosiy yo‘nalish, ya’ni faoliyatni insonparvarlashtirish muhimroqdir. Lekin faqat kelajak oldidagi mas’uliyatni his etish, ongli tirishqoqlik, bolalarga nisbatan cheksiz muhabbat orqaligina o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllanadi: ”Agar o‘qituvchi ham ishiga, ham bolalarga nisbatan muhabbatni o‘zida mujasamlashtira olsa”, - degan edi L.N.Tolstoy.

Insonparvarlik yo‘nalishi yuqori topshiriq sifatida uning kundalik ishidagi muayyan vazifalarni belgilab beradi. Ikki xil vaziyatni taqqoslab ko‘ramiz. Birinchi kurs talabasi Ta’lim markazi muzeyiga sayohat olib borayotib, nima uchun aynan shu muzey haqida bolalarga gapirib berishi kerakligini tushuntirishga qiynaladi. Mahoratli usta pedagog esa sayohatdan ko‘zlangan bir necha vazifalar hamohangligini ko‘ra oladi, ya’ni o‘z–o‘zini anglashga yetaklash, pedagoglik kasbini egalashlaga targ‘ib etish, o‘qituvchi mehnatining ichki tomonlarini ko‘rsatish va shu orqali bu mashaqqatli kasb egalariga nisabatan cheksiz hurmat hissini uyg‘onish va pirovard natijada o‘quvchining ijtimoiy rivojlanishning yanada yuqoriroq pilla poyasida tura olishiga ko‘maklashish.

O‘qituvchining insonparvarligi uning faol xatti–harakatlarida namoyon bo‘ladi. Lekin shunday vaziyatlar ham yuz berishi mumkin: ertaga o‘quvchilar yana paxta yig‘im–terimiga chiqishlari kerak. Lekin ular tergan paxtalar bir necha kundan buyon o‘lchanmay, olib ketilmay dalada turganligi bois o‘quvchilarning ishlagilari kelmay turibdi. O‘qituvchi bolalar haqligini bilib tursada, ularga baqirib beradi: ”Siz paxtani terishingiz shart, uni qachon olib ketishlari sizning ishingiz emas”. Agar o‘qituvchi paxtani o‘z vaqtida o‘lchab olib ketilishini ta’minlay olmasa, bolalarga yo‘l qo‘yilayotganligini ochiq–oydin aytishiga nima xalaqit beradi. Axir o‘qituvchi bu xo‘jasizlikni bartaraf

etish uchun nima qilish mumkinligi to‘g‘risida bolalar xo‘jasilik, beparvolik bilan birgalikda bosh qotirishi mumkinku?!

2. Kasbiy bilim. Usta-mahoratli o‘qituvchi kasbiy yo‘nalganligining asosida ikki narsa yotadi – o‘zi dars beradigan predmeti bilan mashg‘ulligi va bolalar bilan muloqot qilishga ehtiyoji. Pedagogik mahoratning fundamental asosi – bu kasbiy bilimdir. O‘qituvchining bilimi bir tomondan fanga, ikkinchi tomondan uni o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga qaratiladi. Kasbiy bilim mazmuni esa o‘z predmeti nazariyasi va metodikasini pedagogika va psixologiyani yaxshi bilish bilan belgilanadi. Kasbiy pedagogik bilimning o‘ziga xosligi uning kompleksligidir. U o‘qituvchida o‘rganilayotgan fanlarni sintez qila olish qobiliyatini talab etadi. Sintezning asosini esa pedagogik topshiriqlarni yechish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish, o‘zaro hamkorlik vositalarini tanlash tashkil etadi. Har bir alohida pedagogik topshiriqni hal etish jarayonida o‘qituvchining pedagogik kasbiy bilimi faollashadi va yagona tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy bilimning kompleksligi, umumlashganligi bilan birga uning shaxsiy bo‘yoqdorligi ham muhim ahamiyatga ega. IX sinfda adabiyot darsi boryapti. Yusuf xos Hojibning ”Qutadg‘u bilig” asari xususidagi o‘z fikrlari, uning tarjimalari undagi qahramonlar haqida ko‘p gapirildi. O‘quvchilar ham o‘z fikrlarini bayon qildilar. Bu suhbatni olib borayotgan o‘qituvchi esa biror marta ham ”Menimcha”, “Men o‘ylaymanki...” degan so‘zlarni aytmadi. Fan, madaniyatning butun zahirasi to‘g‘risidagi bilim o‘qituvchining o‘z qiziqishlari va ideallari bilan boyitilsa, uning o‘z pozisiyasi sifatida qabul qilinadi. O‘qituvchining mahorati bilimlarni insoniylashtirishda, unga ruh bag‘ishlashda namoyon bo‘ladi. Zero, bilimlar shunchaki kitoblardan olingan ma’lumotday emas, balki o‘zining olamga munosabati tarzida yetkazilishi lozim.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Pedagogning kasbiy bilimi asosida pedagog tafakkuri – prinsip va qoidalar shakllanadi. Ular o‘qituvchi xatti–haraktlari, xulq–atvorida namoyon bo‘ladi. Bu prinsip, qoidalarni har bir o‘qituvchi tajribasiga tayangan holda quradi. Lekin faqat kasbiy bilim orqaligina uni anglash va uning qonuniyatlarini ko‘ra olish mumkin. “Abadiy doskaga chiqarilgan” – o‘qituvchi haqida shunday deyiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, o‘qituvchini tayyorlash, kasbga layoqatli bo‘lishini ta’minlash juda murakkab jarayon. Chunki kasbiy bilim bir varaqayiga barcha darajalarda teng shakllantirilashi kerak: metodologik (rivojlanishning umumfalsafiy qonuniyatlarni, tarbiya maqsadi, shart-sharoitlarini bilish), nazariy (pedagogika va psixologiyaning qonun–qoidalari, prinsiplari, faoliyatning asosiy shakllari va b.), metodik (o‘quv–tarbiya jarayonini ko‘ra olish darajasi), texnologik (muayyan sharoitda ta’lim–tarbiyaning amaliy topshiriqlarini hal etish darajasi).

Bu ma'lum darajada rivojlangan kasbiy tafakkurni, ya'ni pedagogik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bilimlarni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlashni talab etadi.

Lekin pedagogik mahoratni egallash kasbiy bilimning o'sish darajasi bilan qat'iy chegaralab qo'yilmaydi. Haqiqatdan ham, oliy dargohda a'lo darajada o'qiydigan talaba pedagogik amaliyotda muvaffaqiyatga erisha olmasligi mumkin. Chunki muvaffaqiyatli faoliyatning alohida xususiyatlari, kasbiy ulg'ayishning stimulyatori – qobiliyatlar mavjud.

3. Padagogik qobiliyatlar. Demak pedagogik mahorat tizimining uchinchi elementi – bu pedagogik qobliyatlardir. Ular pedagogik faoliyat samaradorligini belgilaydigan psixik jarayonlarning kechishini ko'rsatadi. Pedagogik qobiliyatlar tasnifi bir qancha tadqiqotlarda berilgan.

Kasbiy tayyorgarlik sur'ati, bo'lg'usi pedagog pedagogik faoliyat shakl va usullarini qanchalik chuqur va puxta egallaganligiga qarab uning pedagogik layoqatini bilish mumkin.

Fikrimizcha, pedagogik qobiliyatlarni tekshirishni komunikativlikdan, ya'ni muloqotdan boshlangan ma'qul. Umuman bu qobiliyat hammada ham bor, lekin u turli darajada namoyon bo'ladi. Agar o'qituvchida komunikativlik darajasi past bo'lsa, bu kasbiy faoliyat muhitining buzilishiga olib keladi, o'quvchi bilan o'zaro hamkorlik qilishga to'siqinlik qiladi. Demak, siz ko'pchilik davrasida bo'lish ehtiyojini sezasizmi, shuni aniqlash kerak. Buni aniqlash uchun ko'pgina qiziqarli metodikalardan foydalanish mumkin.

Kommunikativlik faqat muloqotga kirisha olish bilan emas, balki qurilgan muloqotdan qoniqish hissi bilan ham belgilanadi. Bolalar va odamlar bilan muloqot jarayonida xayrixoxlik va qanoatlanish ishchanlik xususiyatini saqlashga, ijodiy kayfiyatni oshirishga yordam beradi.

O'qituvchining til topa olish qobiliyati perseptiv qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Agar o'qituvchi ozgina tashqi belgisidan ham o'quvchining ichki his–tuyg'ularini anglay olmasa, haqiqiy diqqatdan yuzaki diqqatini ajrata olmasa, xatti–harakatlarning motivlarini tushunmasa, qanday qilib aniq maqsadli bir qarorga kelishi mumkin.

Kuzatuvchanlik qobiliyati juda murakkab xususiyat. U faqat eshita olish va ko'ra olish bilangina belgilanmaydi. Kuzatuvchanlik qobiliyati bizning diqqatimiz qaratilgan narsaga nisbatan ortiq qiziqish, aqlning intensiv faoliyati va axborotlarni qayta ishlay olishida ham namoyon bo'ladi. Biz nimani ko'rishni xohlasak, o'shani ko'ramiz, haqiqiy qiziquvchanlik ana shundan boshlanadi. Kuzatish bu tahlil, ana shu yerdan idrok etilayotgan hodisalarni tushunish uchun o'z-o'zimizga savol bera boshlaymiz.

Kuzatuvchanlik va tajriba intuitiv qobiliyatning rivojlanishiga asos bo‘ladi. A.S.Makarenko “Pedagogik poema” asarida shunday yozadi: ”Bu paytga kelib mening ko‘zim yetarli darajada ravshanlashgan edi. Men birinchi qarashdayoq, kishining tashqi belgilari, ovozi, yurishi va yana qandaydir mayda belgilari orqali, balki hatto hididan ham, har bir muayyan holatlarda bu xom ashyodan qanday mahsulot olish mumkinligini deyarli aniq ayta olar edim”.

Mahoratli usta–pedagog bo‘lish pedagogik jarayonning kechishini, kutilgan qiyinchiliklarni oldnidan anglash, pedagogik sezish qobiliyatiga ega bo‘lish demakdir. Bunday qobiliyat, garchi uning shakllanishi qiyin bo‘lsada, rivojlantirilishi mumkin. Bu o‘rinda V.A.Suxomlinskiyning ”Avvalo bola qalbining xatti–haratlarini tushunish lozim” – degan fikrini keltirish o‘rinlidir.

4. Pedagogik texnika. Nihoyat pedagogik mahorat tizimining to‘rtinchi elementi – o‘qituvchi xulq–atvorining tashkiliy shakli, ya’ni pedagogik texnikadir. Xatti-harakat usullarisiz bilim, yo‘nalganlik va qobiliyat yuqori natijalarga erishish uchun kafolat bermaydi. Pedagogik texnika ikki xil ko‘nikmani – o‘z–o‘zini boshqara olish hamda pedagogik topshiriqlarni hal etish jarayonida o‘zaro hamkorlik qila olish ko‘nikmalarini mujassamlashtiradi. Brinchi guruh ko‘nikmalariga o‘z gavdasini, his–tuyg‘alarini, nutq texnikasini boshqarish kirsa, ikkinchi guruh ko‘nikmalarga didaktik, tashkilotchilik, aloqaviy ta’sir texnikasiga oid ko‘nikmalar kiradi.

Pedagogik mahoratni ko‘rib o‘tilgan elementlari pedagogik faoliyatda bu hodisani sistemaliligini ko‘rsatadi. Mahoratning yuqori darajasi butun pedagogik ishning Yangi sifatini belgilaydi; ya’ni kasbiy pozisiya shakllanadi; bilimlarni oshirib borish o‘qituvchi uchun o‘z ishini tahlil qila olish, o‘z–o‘zini rivojlantirish imkonini beradi; qobilyatlarning yuksak darajasi o‘qituvchi shaxsining yanada yorqin namoyon bo‘lishiga olib keladi; pedagogik texnikani takomillashtirish esa bosh maqsadga monand natijalarga erishish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Pedagogik mahorat mezonlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin;

– maqsadga qaratilganlik; (yo‘nalishiga ko‘ra)
– mahsuldorlik; (natijaga ko‘ra)
– samaradorlik; (tanlangan vositalar)
– ijodkorlik: (faoliyat mazmuniga ko‘ra)

Mahoratni egallashning bir nechta darajalarini ham ajratish mumkin. Oliy o‘quv yurtining vazifasi talabaga pedagogik mahoratni kasbiy tayyorgarlikning boshlang‘ich darajasida egallashi uchun ko‘maklashishdir, ya’ni yo‘nalganlikni shakllantirish, bilim berish, qobiliyatlarini rivojlantirish, texnika bilan qurollantirish.

Xulosa (Заключение/Conclusion). Xulosa qilganda, pedagogik mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi deb aytish mumkin. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida taraqiy etadi. Shunga asoslanib, «Faoliyat dunyoni o‘zlashtirishning birinchi shartidir”,-deb aytish mumkin. Ko‘rib o‘tganimizdek pedagogik mahoratning asosiy ob’yekti – inson, uning aql – idroki, irodasi, ishonchi, tafakkuri, shuuridir. Bular yuksak darajada bo‘lishi, ilmga, uni egallaganlik darajasiga bog‘liq. Ilm esa tinimsiz mehnat, mashaqqat va azob – uqubatlar orqali qo‘lga kiritiladi. Shuningdek pedagogik mahorat ham faoliyat, mehnat, o‘z malakasi ustida muttasil ishlash yordamida shakllanadi. Shunday ekan, «Pedagogik mahorat» fanining pedagogik – psixologik fanlar tizimida mavqei baland. Zero, pedagogik mahoratsiz ta’lim – tarbiya, ya’ni pedagogik jarayon muvaffaqiyatini ta’minlab bo‘lmaydi. Bu esa pedagogik mahoratni egallash, har bir talaba, o‘qituvchi, tarbiyachi uchun zaruriy shart degani demakdir.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O’qituvchi, 1992. –B. 58.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O’qituvchi, 1992. –B. 35.
3. Maxmudov T. Avesto haqida.T.: Sharq, 2000: -B. 117.
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. -T.: O’qituvchi, 2004. –B. 8.
5. Maxmudov T. Avesto haqida.T.: Sharq, 2000: -B. 14
6. Musurmonova O. O’quvchilarni ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1998. – B. 56
7. Musurmonova O. O’quvchilarni ma’naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1998. – B. 26
8. Mahkamov U. Axloq odob saboqlari. – T.: Fan, 1998.-B. 15
9. Mavlonova R. va b.q. Pedagogika. Darslik. -T.:O’qituvchi, 2001.-B. 26
10. Shodiev N. Tabiiy fanlarning ilk manbai (“Avesto” yozma yodgorligi asosida) // ―Ziyokor‖ jurnali, 2001, 9-son. –B. 38-41.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas’uliyat hissini uyg‘otishga, jamiyadagi turli islohotlarni rivojlantirish to’g’risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены мнения о повышении активности педагогических и психологических аспектов подготовки будущих учителей к процессу непрерывного духовного образования, воспитании чувства ответственности за избранную профессию, разработке различных реформ в обществе.

SUMMARY

In this article, opinions on increasing the activity of introducing educational standards based on a new approach to the training of future physical education teachers, on awakening a sense of responsibility for the chosen profession, on the development of various reforms in society are presented.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA INTELLEKTUAL MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Qurbonov J. A.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, «ommaviy madaniyat», intellektual madaniyat, falsafiy tanqid, innovatsion usul, pedagogik metod va vositalar.

Ключевые слова: будущие учителя, «народная культура», интеллектуальная культура, философская критика, инновационный метод, педагогические методы и средства.

Key words: future teachers, «popular culture», intellectual culture, philosophical criticism, innovative method, pedagogical methods and tools.

Kirish. Hayotga tadbiq etilayotgan 2030 yilga mo‘ljallangan ta’lim kontseptsiyasi asosida oliy ta’lim muassasasi talabalarining intellektual madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Globalashayotgan olamda teran tafakkurga va kuchli intellektual salohiyatga ega kadrlarni tarbiyalash har bir jamiyat barqaror rivojlanishining muhim garovidir. Mamlakatimizda ham salohiyatli oliy ta’lim muasasalariga va ularda yetishib chiqadigan yangicha dunyoqarashga ega raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev bu borada shunday yozadi: «Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo bugungi kunda yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur»[1].

SHunday ekan, «farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etmog‘imiz zarur[2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish bo‘yicha

tadqiqotlarni ikki guruhga – G‘arb va SHarq mamlakatlarida o‘rganilishi, deb ajratish mumkin.

G‘arb mamlakatlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish masalalari N.Hamfrey, K.Klifton, H.Broud, R.Felder, R.Brent, J.Doland, P.Kollinslar tomonidan tadqiq etilgan.

SHarq mamlakatlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish metodikasini olimlar S.Panturat, P.Syuvonnoi, J.Ketchaturat o‘z izlanishlarida tahlil qilgan.

O‘zbekistonda bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish muammosini O.Musurmonova, D.X.Turdiboev, S. Fayzulina kabi faylasuf, tarixchi va pedagog olimlar tadqiq qilganlar. SHunga qaramasdan, bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish metodikasi alohida tadqiqot muammosi sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mustaqillikdan keyingi yillarda oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga, ularda tarbiyalanayotgan bo‘lajak kadrlar saviyasiga e’tibor qaratsak, quvonarli manzarani guvohi bo‘lmaymiz. Sababi sobiq tuzum davridan meros bo‘lib qolgan eskicha o‘qitish tizimi, pedagogik usullar, fanlarga bo‘lgan munosabat, fanlarni o‘qitishdagi yuzakiliklarga duch kelish mumkin. SHuningdek, ta’lim muasasalarida akademik erkinlikning yo‘qligi, dars mashg‘ulotlarida ma’ruza-bayon qilish usulining keng qamrovliligi, talabalarga qat’iy tartib-qoidalar asosida ta’lim-tarbiya berish zarur degan tushunchani singib qolganligi, o‘quv darslarining ko‘p qismi fanni o‘rgatishga emas, tarbiyani kuchaytirishga qaratilganligi intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirib chiqarishni ikkinchi darajaga tushirib qo‘ydi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida oliy ta’limni ham isloh qilish imkoniyati yuzaga chiqdi. Oliy ta’lim muassasalarida yangicha o‘qitish mexanizmlari sekin-astalik bilan joriy qilinmoqda. Hukumat tomonidan dars mashg‘ulotlarini ham innovatsion usulda yangicha tartibda olib borishga doir tajribalar va ilmiy tadqiqotlar qo‘llab-quvvatlanmoqda[3]. Bunday sharoitda ilmiy tadqiqotlardagi asosiy masala qanday qilib va kay usullarda talabalarning intellektual madaniyati – tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv, teran tafakkur, keng dunyoqarashi, olgan bilimlarini amaliyotda erkin qo‘llay bilish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘lib qolmoqda. Har bir fan sohasi o‘z ob’ekti va predmeti doirasida bu masalani fundamental tadqiqotlar orqali yechishga urinmoqda. Ushbu tadqiqot ishi ham talabalarning intellektual madaniyatini innovatsion usulda rivojlantirish texnologiyalariga pedagogik yechimlar taklif qilishga asoslangan. Ushbu ishda falsafiy fanlar-falsafa, etika, estetika va

mantiq fanlari misolida talabalarning intellektual madaniyatini yangicha usulda yuksaltirish masalasi zarurati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. «...Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo‘nalishida qo‘lga kiritilgani tasodifiy emas. SHuning uchun endilikda fundamental fanlarni har tamonlama qo‘llab-quvvatlash, sohani iqtidorli yosh kadrlar bilan ta’minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda»[4]. «CHunki, jamiyatimizda oliy ma’lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko‘p bo‘lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo‘ladi»[5]. Masalan, Yaponiya davlatining milliy taraqqiyotidagi asosiy omil ta’limga kuchli e’tibor va salohiyatli kadrlar tayyorlash metodikasini ishlab chiqilishi ekanligi ilm-fan taraqqiyoti va yuksak intellektual madaniyatli kadrlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatib turadi. Dissertatsiya ishining ushbu bobida talabalar intellektual madaniyatini innovatsion usulda rivojlantirish texnologiyasini yaratishda falsafa fanlarining ta’lim-tarbiyaviy maqomi, kadrlar tayyorlashda falsafiy dunyoqarashning ahamiyati yoritilgan. Ishning ilmiy faraziga ko‘ra falsafa ta’limi bo‘lajak kadrlar intellektual madaniyatini rivojlantirishning muhim omili va samarador metodidir.

Zero, falsafa ta’limning talabalar intellektual madaniyatini innovatsion usulda rivojlantirishdagi o‘rni qanday, talabalarga falsafiy tafakkur nima beradi, umuman olganda, bo‘lajak kadrlarga falsafa fanidan nima naf? Ushbu savollarga javob berish asnosida falsafa fanini o‘qitishning samarasi va talabalar intellektini rivojlanishiga ta’siri yoritiladi. «Har bir shaxs jamiyatda o‘z o‘rnini egallashga intilar ekan, u ana shu ta’sirga nisbatan qanday aks xatti-harakatlar bilan javob berishi shu shaxsning o‘z taqdiri uchun ham, u mansub jamoa uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda shaxsning voyaga yetish davomida egallagan bilim, ko‘nikma va malakaviy tajribasi asosiy o‘rin tutadi. Buni izohlash maqsadida misollarga murojaat etaylik. Odamlar qabila bo‘lib yashagan sharoitda o‘rtacha shaxsning bilimi yoki ko‘nikmasi deyarli ahamiyatga ega bo‘lmagan – qabila a’zolaridan birining vazifasini boshqasi bajarib ketavergan. Yaqin o‘tmishda esa «sotsializmda ishsizlik bo‘lmaydi» degan shiorga asoslangan tuzumda yalqov bilan jonkuyar dehqon, darsni latifa aytib o‘tkazadigan o‘qituvchi bilan xalqaro olimpiada g‘olibini tarbiyalagan muallim maoshi o‘rtasida farq katta bo‘lmagan. Bunday sharoitda esa, tabiiy, bilim ham, malaka ham shaxs taqdirida hal qiluvchi rol o‘ynamas, odamlar ko‘proq «nima qilib bo‘lsa ham kamroq ishlab, ko‘proq topish»ga intilar edi. Hozirgi mavjud vaziyat shaxsdan mustaqil, faol, tashabbuskor bo‘lishni talab qilmoqda. SHu munosabat bilan yirik ingliz mantiqshunosi va faylasufi Bertran Rasselning so‘zlariga e’tibor beraylik: «Falsafa muayyan savollarga aniq javob

olish uchun o‘rganilmaydi. Negaki, odatda, bunday savollarga ishonchli deb hisoblash mumkin bo‘lgan aniq javobni umuman berib bo‘lmaydi. Falsafa aslida savol qo‘yishni o‘rganish uchun o‘rganilishi lozim. CHunki savollar nima ehtimol haqiqat bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchamizni kengaytiradi, intellektual tasavvurimizni boyitadi va tafakkurga to‘siqlik qiluvchi cheklanish, o‘ziga bo‘lgan mutaassibona ishonchni kamaytiradi»[6].

SHunday ekan, falsafa ta’limi bo‘lajak mutaxassisga mehnat marketingiga o‘zini bilimini emas, balki bilimlar asosida shakllangan ko‘nikma va malakalarini taklif etadi. SHubhasiz, bunday ko‘nikmalar har bir soha mutaxassisi uchun juda zarur.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yangicha yondashuv asosida izchil rivojlantirishi qaratiladigan keng ko‘lamli ishlarni intellektual faoliyat doirasida samarali ravishda amalga oshirish uchun eng avvalo yangilikni yaratish va uni ro‘yobga chiqarishga qaratiladigan ijodiy izlanish va tadbirkorlik uchun qulay muhitni yuzaga keltirish lozim edi. Aynan shunday muhit intellektual faoliyatning yaxlit makonida yaratiladi.

O‘zbekistonda intellektual faoliyatni qo‘llab-quvvatlashi yo‘na-tirilgan keng ko‘lamni tadbirlarning samarasi o‘laroq intellektual faol-likni ta’minlovchi muhit yuzaga kelgan. Yangi intellektual texno-logiyalarni yaratish va joriy etish pirovard ijobiy natija to‘liq kafolatlangan vengur moliyalashtirishni taqozo etadi. O‘zbekistonda intellektual faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratiladigan faoliyatning o‘ziga xos mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Bunday mexanizm davlat byudjetidan mablag‘ ajratish bilan bir qatorda innovatsiyanijoriy etishdan manfaatdor bo‘lgan korxona va muassasalarning investitsiyalarni jalb etishni ko‘zda tutuvchi ikki yoqlama moliyalashtirishga asoslanadi. Yangi mexaniz shuningdek davlat tomonidan ajratilgan mablag‘larni qaytarish, soliq sohasida bir qator imtiyozlarni yaratish hamda yangi loyihalarni reinvestitsiyalash (mablag‘larni qaytalashtirish) kabi usullarda foydalanishni ko‘zda tutadi.

Bu mexanizmning samarali shlashi uchun bank tizimining o‘zida ham intellektual texnoligiyalari joriy etish zarur bo‘ladi. Intellektual faoliyatga investitsiyalarni kiritish jarayonida malbag‘ ajratilayotgan korxona yoei muassasada ishlab chiqilishi ko‘zda tutilayotgan innovatsiyaning qay darajada asoalanganligi, unga bo‘lgan talabning barqarorligi, intellektual korxona yoki muassasaning moddiy – texnik, intellektual, infratuzilmaviy resurslar, salmiy salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlanganligi, marketing strategiyasining ishlab chiqilganligi, aniq harakat dasturining mavjudligi, yaratilayotgan intellektual mahsulotning kommertsializatsiyalashtirish

darajasini aniqlash kabi juda ko‘plab masalar yuzasidan ekspertli xulosalariga suyanish lozim bo‘ladi.

Falsafa fani hayot haqiqatlarini anglashga undovchi, dunyoqarash xarakteridagi fan bo‘lib, olam va odam o‘rtasidagi o‘ziga xos aloqadorliklarni tadqiq etuvchi soha hisoblanadi. Falsafa olamga nisbatan har qanday ongli munosabatning asoslarini topishga harakat qiladi. SHuning uchun falsafiy bilim mantiqan tartibli tizim sifatida emas, balki mavjud muammoni hal qilish yo‘llarini baholash, tanqidiy qiyoslash va tahlil qilinayotgan jarayonni sinchiklab muhokama qilish sifatida namoyon bo‘ladi[7]. Falsafaning asosiy masalasi – barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, tartiboti, o‘zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o‘tishni har tomonlama tekshirish uchun zaruriy imkoniyat, voqelik sabab tamoyillarini asos qilib olishdan iborat. Sababiyatni anglash uchun esa, voqea va hodisalarga tanqidiy tafakkur, analitik tahlil va kreativ yondashuv kerak bo‘ladi. Bu xususiyatlarni shakllantiruvchi fan, albatta, falsafa hisoblanadi. SHuningdek, yosh faylasuf Hurshid Yo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, «Falsafa – inson aqliy faoliyatining o‘ziga xos bir turi bo‘lib, bunday faoliyat orqali aql o‘zini o‘zi taftish etadi, iroda, tuyg‘ular va mayllar o‘rtasidagi murakkab va ko‘pincha chalkash, hatto ziddiyatli munosabatlar ustidan nazorat qilishga intiladi. «Nega?» kabi savollarni qo‘yish o‘z navbatida «chindan ham shundaymikan?» deya savol va uning ortidan «asl haqiqat qanday ekan?» degan qiziquvchanlikni tug‘diradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafiy tafakkur bilish, ishonch-e’tiqod va mayliy intilishlar uchun o‘ziga xos fon, ta’bir joiz bo‘lsa, inson aql-idroki uchun «asab sistemasi»ga o‘xshash vazifani bajaradi.

Insoniyatning bugungi tamaddunida «ijodkor – inson»ning tobora «iste’molchi – inson»ga aylanib borayotganligi tashvishlanarli holdir. Bu jarayon esa o‘z navbatida, ijodiy fikrlovchi, intellektual rivojlangan shaxslarga ehtiyojni tobora oshirmoqda. Axborot urushlari maydonida har qanday informatsiya yoki xabar orqali insonlarni boshqarish va yo‘ldan ozdirish imkoniyati yaratildi. CHunki bugungi zamon insonlari juda ishonuvchan, sodda va faqat shou xabarlarnigina haqiqat deb biladigan holatga kelib qoldi. Bo‘lajak kadrlarda intellektual madaniyatni shakllantirish va yanada yuksaltirishning nazariy-metodologik omillarini ilmiy asoslash butun kishilik jamiyati kelajagining, jumladan, mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotini belgilovchi ma’naviy-madaniy asosdir. Bunda falsafiy fanlarning oliy ta’lim muassasalari tizimida yuqori darajada o‘qitilishi dolzarb ahamiyatga ega. Bu jarayonda falsafaning dunyoqarashni shakllantirish vazifasiga tayanib, talabalarda ratsional tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ularni hozirgi zamon fani, texnikasi va texnologiyasi haqidagi aniq bilimlar bilan qurollantirish lozim. SHu ma’noda globallashuv sharoitida

ijtimoiy fanlar inqirozdan chiqishning eng faol ishtirokchisidir. Ayniqsa mantiq fanini o‘qitish orqali yoshlarda intellektual qobiliyatlarni tarbiyalash, ularni ijtimoiy taraqqiyotning da’vatkor omiliga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Bunda, avvalo, talaba-yoshlar tafakkurini, ularning huquqiy-ma’naviy saviyasini yanada oshirish lozim. Yangicha qarash va tafakkurni shakllantirish esa faqatgina falsafa fanining vazifasi hisoblanadi.

Eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan falsafa ta’limi ham o‘zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, talabalarda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishga o‘rgatadi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni teran dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa ta’limi orqali talabalar intellektual madaniyatini yuksaltirish boshqa fanlarni o‘qitishdan katta farq qiladi. Bu farq falsafaning ma’naviy madaniyatning qanday sohasi ekanidan kelib chiqadi. Zero bilamizki, asl falsafa fanning o‘zigina emas, balki borliqqa donishmand ko‘zi bilan qaraydigan eng yuksak elitar madaniyat shakli, dunyoqarashning o‘ziga xos tarixiy tipidir. Demak, falsafa ta’limi talabaga nafaqat bilim berish, uning tafakkurini boyitish bilan cheklanmaydi, balki uni hayotga donishmand ko‘zi bilan qarash sirlaridan boxabar etadi. Ushbu jihatdan kelib chiqib, falsafa ta’limi boshqa fan shakllaridan farqli ravishda, avvalo, juda ko‘p vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Bular asosan falsafaning insonda yuksak va teran dunyoqarashni, ya’ni elitar madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, eng umumiy axloqiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va boshqa normalar asosida yotuvchi universal qonun va qonuniyatlarni ko‘rsatish va asoslash hamda shu yo‘l bilan insoniyatni tarbiyalash kabi yuksak vazifalaridir. Masalan, aniq fanlarda; matematika, fizika, ximiya, biologiya, geologiya, geografiya va hokazolarni o‘qitishda o‘qituvchi o‘z sohasiga tegishli bilimni talabaga singdirish uslubiyatini o‘zlashtirishi yetarli bo‘lsa, falsafani o‘qitishda har ikki jihat – bilim berish va tarbiyalash bir-birini to‘ldirgan, uzviy bog‘liq ravishda qatnashgan bo‘ladi. Falsafa ta’limining boshqa fanlardan asosiy farqi ham shunda. SHunga ko‘ra falsafa ta’limini o‘qitishda uning barcha vazifalarini birgalikda qanday amalga oshirish kerakligi faylasuf-pedagogning hamisha diqqat markazida bo‘lishi zarur. Buyuk yunon faylasufi Aristotelning falsafiy merosini, dialektika, mantiq va boshqa asarlarini o‘qitish, arastucha tafakkur usulini ta’lim tizimida qo‘llash tinglovchi intellektini yangicha ko‘rinishga olib keladi[8]. Aslida, falsafa ham metod, uni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish ta’lim taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Falsafa ta’limidagi pedagogik metod va vositalarning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, u xususiy fan sohalaridan biri emas, balki dunyoqarashdir. Dunyoqarash sifatida uning mazmuni nafaqat fanning barcha sohalari bilan, balki ma’naviy madaniyatning barcha sohalari hamda amaliyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur. Demak, boshqa fan o‘qituvchilari o‘z darslarida, odatda, o‘z fanlari, xatto o‘z fanlarining tor sohalari mazmuniga kiradigan bilimga tayanib dars o‘tishlari yetarli bo‘lsa, falsafa o‘qituvchisi bilimning barcha sohalariga tayanishi hamda amaliyotning xamma qirralarini hisobga olishi zarur. Bu esa falsafa ta’limi talabalar intellektual madaniyatini nechog‘lik yuksaltirishini, haqiqiy hayotga tayyorlashini ko‘rsatib beradi.

Bertran Rassel fikricha, «o‘qitishning an’anaviy metodlari anglanmaganlikka deyarli ta’sir etmaydi. Ya’ni zakiylikni hozirgi ta’lim usullari orqali shakllantirib bo‘lmaydi. Axloqni ham, uning urf-odatlardan iborat qismi bundan mustasno, hozirgi usullar vositasida singdirib bo‘lmaydi. SHu bois mazkur sohalarda ijobiy o‘zgarishlar faqat intellektual vositalar orqali amalga oshishi mumkin»[9].

Umuman olganda, mantiq inson intellektual tafakkurini oshiruvchi va intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi, aqliy layoqatini o‘stiruvchi amaliyot hisoblanadi. SHuning uchun, oliy ta’lim muasasalarida mantiq fanini o‘qitishni kengaytirish va talabalarni ko‘proq tafakkur doirasini o‘stirish, aqliy mushohadakorlik saviyasini yuksaltirish zarur.

Bugungi kun falsafa o‘qituvchisi borliqni yangicha – noratsional va nochiziqli-sinergetik anglash bilan ham cheklanmasligi, balki ilmiy va estetik intuitiv ong madaniyatiga ham ega bo‘lishi va bu madaniyatni o‘z talabalariga ham singdirishi kerak. Bunday yondashuv va fikrlash tarzi noan’anaviy bo‘lib, shubhasiz, talabalar intellektual madaniyatini yuksaltiradi va yangicha fikrlashga o‘rgatadi. SHu tarzda falsafa ta’limi talabalarda bir vaqtning o‘zida ham mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantiradi, ham yuksak ahloqni tarbiyalab, oliyjanob elitar madaniyat egasi bo‘lgan – ijodkor va tashabbuskor ijtimoiy faol mutaxassisni yetishtirish vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar. Jahonda oliy ta’lim tizimida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish omili sifatida intellektual madaniyatni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, talabalarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar intellektual savodxonligining zaruriy komponenti bu fikrlash operatsiyalarining va refleksiv harakatlarning yaxlitligidir.

Bertran Rasselning mazkur qarashini ko‘proq bugungi talaba-yoshlarni o‘qitishda, ta’lim-tarbiya jarayonida shakllantirsak, maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda yuksaltirish lozim bo‘lgan intellektual madaniyatning ichki tuzilmasi quyidagilardan iborat:

– intellektual kompetentlik, o‘z ichiga keng dunyoqarash, sotsiumda hayotiy faoliyat olib borishga tayyor intellektual tayyorgarlik, intellektual universalliklar tizimini oladi;
– intellektual layoqatlar va ular asosida rivojlangan intellektual qobiliyatlar tizimi;
– o‘z-o‘zini intellektual refleksiya qilish asosida shakllantirilgan tushunchalar;
– intellektual tizimda talaba adaptatsiyasini ta’minlovchi muhim sifatlar majmuasi.

Falsafa ta’limi talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirish asosida quyidagi malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratadi.

– bir sohaning boshqa bir soha bilan yoki sohalar bilan aloqalari va munosabatlarida paydo bo‘luvchi masalalarning mazmun-mohiyatini anglash va uni tushunarli qilib yetkazib berish;
– qarama-qarshilik asosidagi va nizoli ijtimoiy muammolarni vaziyatga mos tarzda anglash, tahlil qila olish;
– voqea va hodisalarni tadrijiy rivojlanish tendentsiyasini aniqroq ilg‘ay olish va tushunchalarini, mulohazalarini bayon qila olish;
– mantiqiy ziddiyatlarni anglash va topa olish, ularga yetarli asosga ega dalillar keltira olish, tahlil qilish;
– uslubiy xatolarni, e’tiqodiy xatti-harakatlarning mazmunini, tafakkurdagi chalkashliklarni aniqlay olish;
– bahs-munozarali masalalarga shaxsiy yondashuvi va fikrini aniq bildirish;
– ijtimoiy masalalarga taklif etilgan fikrlar va yechimlarni tahlil qilib, solishtira olish, ijobiy, salbiy jihatlarini ilg‘ay olish;
– mustaqil fikrlay olish, kreativ yondashish, analitik tahlil qila olish, xolis tanqidiy fikrlash malakasi.

Falsafa ta’limi shakllantiruvchi bunday sifatlar, ko‘nikma va malakalar talabaning raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishi uchun juda muhimdir. Ushbu malaka va ko‘nikmalarsiz kuchli liderlar va siyosiy yetakchilarni tarbiyalab bo‘lmaydi. Bunday sifatlarni iqtisodiyoti kuchli davlatlarning ish beruvchilari ham yuksak qadrlaydilar. Bugungi kunda ushbu sifatlarning ahamiyati yuqorilab borayotganligini hisobga olsak, falsafani o‘qish va o‘qitish talabalar uchun amaliy jihatdan qanday naf keltirishi ma’lum bo‘ladi.

Falsafa ta’limi orqali talabalarda ijodkorlik madaniyatini belgilashda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash layoqati alohida o‘rin tutadi. Binobarin, ijodiy fikr masalani tubdan yangicha hal etish mahsuli hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashning bu jarayondagi vazifasi esa muayyan sohada qo‘llaniluvchi qarorlarning bajarilish sifatini aniqlab turishni nazarda tutadi. Bu esa bo‘lajak kadrlaring intellektual salohiyatini yuksaltiradi, jamiyatda o‘z qiziqishlari bo‘yicha erkin ishlash imkoniyati yaratiladi. Falsafa fani va mantiq ilmi asosida shakllangan ijodiy tafakkur talabani yangi g‘oyalar yaratishga yo‘naltiradi, tanqidiy tafakkur esa ularning kamchilik va yetishmovchiliklarini aniqlaydi. Garchi alohida qo‘llanilsa-da, tafakkurning har ikki ko‘rinishi ijodiy vazifalarni bajarish uchun zarur, binobarin, tanqidiy tafakkur ijodiy fikrlashga ko‘pincha to‘siq yoki aksincha ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Ijodiy tafakkur talabaning o‘z fikrlariga to‘la erkinlik berish va ularni muayyan sohaga yo‘naltirishni taqozo qiladi. Buni, odatda, fikriy erkin bog‘lanish deb yuritadilar. Talaba ongiga kelgan har qanday bema’ni narsani gapirishi mumkin. Lekin fikran erkin bog‘lanish avvallari psixoterapiyada qo‘llanilgan bo‘lsa, endilikda jamoa o‘z oldiga qo‘ygan vazifani bajarishda ham «aqliy hujum» tarzida ishlatilmoqda.

Mantiq fani doirasida shakllangan va bugungi kunda barcha fanlar uchun samarali usul bo‘lgan «aqliy hujum» talabaning aqliy salohiyatini, tezkorligini, hozirjavobligini, zakovatini, tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim vositaga aylandi. «Aqliy hujum» texnologiyasi keyinchalik sinektik usul bilan uyg‘unlashdi. Sinektikaning mohiyati esa notanishni-tanish, oddiyni-yotga aylantirishdan iborat.

Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishda falsafa ta’limi metodikasini tashkil etish va Davlat ta’lim standartlarini bajarish uchun o‘qituvchi-pedagoglar oldiga:

- darsning maqsadi va mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish;
- dars jarayonini to‘g‘ri va aniq manbalarga asoslanib tashkil etish;
- mavzuni o‘zlashtirish va o‘rgatish nuqtai nazaridan pedagogik faoliyatga ega bo‘lish;
- fanlararo integratsiya qoidalarini puxta egallash;
- davr va zamon tushunchalarini aniq manba, voqea va hodisalar bilan mutanosibligini ta’minlash;
- mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar va manbalarni bog‘lay bilish salohiyatiga ega bo‘lish.

Talabalar intellektual madaniyatini rivojlantiruvchi pedagogik ta’lim-tarbiya jarayoni didaktik talablarga ham muvofiq kelishi lozim, ya’ni ular quyidagi parametrlarga ega bo‘lishi lozim.

– ilmiy bilimlarning yetakchi roli;
– umuminsoniy qadriyatlarni bilib olish;
– tarbiyalanuvchi shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish;
– ta'limning bir maqsadga qaratilganligi;
– ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga muvofiqligi;
– didaktik printsiplariga amal qilinishi va h.k.

Pedagogik texnologiyani yaratishning bir necha tamoyillari mavjud:
– muayyan dars, mavzu, o'quv predmetida ko'zlangan maqsadni shakllantirib olish;
– umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilayotgan maqsadni va modullar hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish;
– modulь ichida yechiladigan masalalarning har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish;
– maqsadlar aniq bo'lib, test va savollar tuzilganidan keyin maqsadlarga erishish usullari saqlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarini belgilab olish;
– tizimli yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish[10] ».

Xulosa qilib aytganda, talabalarda intellektual madaniyatning shakllanishi ko'proq bilimi, ijtimoiy faolligi, tafakkur va intellektning rivojlanish uyg'unligi bilan bog'liqdir. SHu bois talaba-yoshlarning shaxs sifatidagi kamolotida ulardagi qobiliyat va iqtidor malakalarini oldindan ko'ra olish va ularni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltira olish kerak.

- intellektual madaniyat talabaning o'zini va dunyoni anglashi hamda baholashi asosida shakllanib, uning yordamida ijodiy ongini o'stirishi va tafakkurini kengaytirishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki bular orqaligina erkin va mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli, buzg'unchi oqimlarga qo'shilmaydigan bo'lajak malakali mutaxassislarni salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

- globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, zamonaviy ilm-fan, texnika-texnologiyalar borasidagi yutuqlarni ilmiy asosda o'rganish va falsafiy tahlil qilish bo'lajak yosh mutaxassislar intellektual madaniyatini kengaytirishda mustahkam ilmiy-pedagogik asos bo'ladi.

-talabalar intellektual salohiyatini muntazam ravishda rivojlantirib borish fuqarolik jamiyatining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. – B. 17.

Xulosa va takliflar. Intellektual kompetentsiya mohiyatini aniqlash uchun biz «intellekt» va «intellektual kompetentsiya» kabi tushunchalarni ko'rib chiqdik. Intellektual kompetentsiyani biz turli xil kasbiy muammolarni samarali hal qilish imkonini beradigan ma'lumotlarni tushunish, qo'llash, tahlil qilish, umumlashtirish, baholash va sintez qilishda faol kognitiv jarayonlar usullarini o'zlashtirish murakkablik darajalari, ma'lum bir fan sohasida natijaga erishish maqsadida individual tajriba asosida shaxsiy fazilatlardan foydalanish qobiliyati deb hisoblaymiz.

Biz intellektual kompetentsiyani motivatsion-qiymatli, kognitiv, o'z-o'zini tarbiyalash va tadqiqot komponentlar bilan ifodalanadik. Intellektual kompetentsiyaning tavsiflangan tarkibiy qismlari bizga intellektual kompetentsiyani shakllantirish yuqori, o'rtacha va past darajalarini aniqlashga yordam berdi.

Talabalarning yuqori darajadagi intellektual kompetentsiyasi intellektual muammolarni hal qilish va natijalarni tahlil qilishga ijodiy yondashish qobiliyatini ta'minlaydi. O'rtacha daraja talabalarning intellektual faoliyatining ma'nosini, ahamiyatini tushunishi, faoliyat maqsadini tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Talabalarning intellektual kompetentsiyasining past darajasi intellektual kompetentsiyaning ahamiyati va ahamiyatini tushunmaslik, o'z intellektual faoliyatini tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar:

1. Холодная М. А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. 2-е изд., перераб. и доп. СПб, 2002. 272 с.

2. Kostrova Yu.S. Formirovanie intellektualnoy kompetentnosti studentov. European Social Science: Evropeyskiy zhurnal Evropeyskih nauk. 2011. № 6. 5

3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. - № 5.-2003.-С. 34-42.

4. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования/М.А.Холодная. - СПб.: ИЗд-во Питер, 2002 - 272с.

5. Sagdeeva G. S. Razvitie intellektualnoy kompetentnosti buduschih spetsialistov: avtoref. dis. … kand. ped. nauk: 13.00.08. Kazan, 2013. 20 p.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada intellektual kompetentsiyani shakllantirishning asosli tarkibiy qismlari va uning shakllanish darajalari aniqlangan hamda talabalarni intellektual kompetentsiyalarini pedagogik yondashuvlar asosida shakllantirishga qaratiladi. Ushbu ishlarda ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv kasbiy va umumiy, intellektual rivojlanish g'oyalarini o'z ichiga olaganligi va kompetentsiyalar an'anaviy bilimlarni, shuningdek, umumiy ta'lim, intellektual, kommunikativ, ijodiy, o'zaro bog'liqliklarni o'zida mujassam etgan metasubyekt shakllari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье определены основные компоненты формирования интеллектуальной компетентности и уровни ее формирования, а также акцентировано внимание на формировании ин-

теллектуальной компетентности учащихся на основе педагогических подходов. В этих работах компетентностный подход в образовании включает в себя идеи профессионального и общего, интеллектуального развития, а компетенции включают традиционные знания, а также общеобразовательные, интеллектуальные, коммуникативные, творческие, взаимосвязи.

SUMMARY

In this article, the main components of the formation of intellectual competence and the levels of its formation are determined, and it focuses on the formation of intellectual competence of students based on pedagogical approaches. In these works, the competency-based approach in education includes the ideas of professional and general, intellectual development, and competencies include traditional knowledge, as well as general education, intellectual, communicative, creative, interrelationships. the forms of metasubject embodied in zida are highlighted.

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGIGA OID MUAMMOLARNING YECHIMLARI BO‘YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR VA ULARNING TAHLILI

Ashurmatov R. G‘.
TKTI Yangiyer filiali, assistent-o’qituvchisi,
O‘tkirov Sh. X.
TKTI Yangiyer filiali, stajor-o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: metodik tayyorgarlik, kasbiy faoliyat, innovatsion metod, pedagogik muhit, integratsiya, metodik mahorat.

Ключевые слова: методическая подготовка, профессиональная деятельность, инновационный метод, педагогическая среда, интеграция, методическое мастерство.

Key words: methodological training, professional activity, innovative method, pedagogical environment, integration, methodological skill.

Kirish. Avvalo, pedagogika sohasida tahsil olayotgan bo‘lajak fizika o‘qituvchisining metodik jihatdan tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari, zamonaviy metodik tayyorgarligini belgilovchi huquqiy me’yoriy mezonlar va ularning metodik tayyorgarligini rivojlantirishdagi ahamiyati, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik xususiyatlari tahlilini olib borish zarur.

Butun jahon oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak fizika o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga oid muammolarning yechimlari bo‘yicha juda ko’plab ishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar natijasida ko’plab ilmiy yutuqlarga erishilgan: bulardan, o‘qituvchilar tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishning metodik tizimi xalqaro hamkorlik mexanizmlari asosida takomillashtirilgan (Association for Educational Communications and Technology – AECT), bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari umumyevropa ehtiyojlari optimallashtirilishi asosida takomillashtirilgan (Belfield pedagogical university), o‘qituvchi kasbiy faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy tuzilmali modeli ish beruvchilar talablari funksional asosida takomillashtirilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university, Moskva davlat pedagogika universiteti), bo‘lajak o‘qituvchilarning auditoriyaga

axborotni uzatish ko‘nikma va malakalari uzluksiz ta’limni modernizatsiyalash prinsiplarini tatbiq etish asosda takomillashtirilgan (University of Sorbonne), bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalarining innovatsion metodlari yaratilgan (Seoul of National University), bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlashda dasturlashtirish texnologiyasi omillari va komponentlari kasbiy ehtiyojlar asosida takomillashtirilgan (Miyagi pedagogikal university, Japan). Ushbu erishilgan ilmiy natijalar bo’lajak fan o’qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan e’tiborning yuksak ekanligini ko’rsatadi.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: o‘qitishning innovatsion metodlarini joriy qilish asosida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyat olib borishga motivatsiyasini shakllantirish, pedagogik muhitga moslashuvchanligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uning sifatini baholash, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish. Yurtimizning yetakchi pedagog olimlari M.Djoraev, M.Mirzahmedov, K.Nasriddinov, S.Qahhorov, M.Qurbonov va boshqalar tomonidan fizika o‘qitish metodikasi muammolari, A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.Sh.Begimqulov, L.V.Golish, M.Ochilov, E.N.Sayidahmedov, D.I.Yunusovalar tomonidan innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, B.S.Abdullaeva, S.D.Bazarova, N.A.Muslimovlar o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish tadqiq qilingan. Pedagog xodimlarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar S.K.Abdulina, G.V.Abramyan, V.V.Aleynikov, K.Angelovski, R.S.Arefev, O.R.Badagueva, V.Bespalko, L.S.Выgotskiy, P.Ya.Galperin, N.Gomulina, V.V.Davidov, N.V.Kuzmina, M.V.Seliverstova, V.D.Shadrikovlar tomonidan olib borilgan. O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy masalalari G.S.Drori, Marta Ruiz-Corbella, Cropley A, Drapeau Patti, Benjamin Crowell, John Dirk Walecka, D. Schaeffer tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur sohada qator ilmiy ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosiga bag‘ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari juda ham kam olib borilgan. Yuqorida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga oid nazariy-konseptual yondashuvlar, o‘qituvchi kasbiy va metodik tayyorgarligini

takomillashtirishga doir fazilatlar tizimi hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil qilishning psixologik-pedagogik

xususiyatlari ustida ishlar olib borilgan.

Respublikamizda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish jarayonida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ya’ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimizning rivojlanishida muhim omillardan biridir.

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lgan o‘zgarishlar, o‘qituvchining malaka darajalarini va kasbiy qobiliyatlarini oshirishga majbur qiladi, bu degani o‘zining metodik bilimlarini oshirishiga majburligidir. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi jamiyat, davlat va shaxsning zamonaviy tarbiyalarga mos bo‘lishi, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan.

Bo’lajak fizika fani o‘qituvchisini metodik bilim va ko’nikmalarini rivojlantirishda pedagogik hamda texnik-texnologik muammoli vaziyatni tashkil qilishga imkon beruvchi, sharoitlarning to‘plami sifatida qayd etiladi. Pedagogik sharoitlar mazkur jarayonni yuzaga keltiribgina qolmay, balki uning mavjud holatini ham belgilaydi.

Bo’lajak fizika fani o‘qituvchisini metodik bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish bosqichma-bosqich, pedagogik turkum fanlarining integratsiyasi, fanlararo aloqadorlik darajasida innovatsion yondashuv asosida pedagogik faoliyatida hamda muammoli-vaziyatli topshiriqlarni yechish orqali amalga oshiriladi.

Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlanishi quyidagi pedagogik tizim maqsad, jarayon va natija tarzida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy qoidalar metodik rivojlanish darajasini baholashda muhim asoslar sifatida aks etadi va ular, o‘z navbatida, Davlat ta’lim standarti mazmunida qayd etiladi. Ta’lim tizimi faoliyatini baholashda uning samaradorligi hamda pedagogik tizim rivoji bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Aynan ana shu ko‘rsatkichlar o‘qituvchining metodik rivojlanish darajasini baholash mantiqini asoslab beradi.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi– bu insonning turli sohalarida maqsadli innovatsion yondashuv asosida faoliyati, uning intellektual va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida innovatsion ta’limni qo‘llash muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda.

Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa ta’limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol

namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarini amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisini metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan boyitib borilmoqda.

Pedagogning metodik jihatdan tarbiyalanganligini tadqiq qilishga bag‘ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

– maxsus bilim va malakaga ega bo’lishligi – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
– ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, metodik muloqot uslublarini egallaganlik, o‘z kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas’ullik tushuniladi.

Yevropa davlatlarida shakllangan an’anaga muvofiq kasbiy malakada mutaxassisning metodik tayyorgarligi, uni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimi esa – bilim, ko‘nikma va malakalar darajasi bilan o‘lchanadi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashda eng asosiy ta’sirni o‘qituvchi ko‘rsatar ekan, o‘qituvchining metodik tayyorgarligini rivojlanganligi, o‘quv va tarbiya jarayonini boshqarishda namoyon bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining innovatsion yondashuv asosida metodik tayyorgarligini rivojlantirishni tashkil etish muammosiga yetarli darajada katta e’tibor qaratilmaganligi aniqlandi. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning innovatsion yondashuv asosida metodik tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishda foydalaniladigan shakllar, metodlar, vositalar yetarli ilmiy asoslanmaganligi kuzatildi. Innovatsion yondashuv – o‘quv-tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan dedaktik, metodik, tashkiliy-texnik o‘zgarishlar bo‘lib, metodik tayyorgarlikni rivojlantirishda talabada qiziqish, xohish, qobiliyat, innovatsion g‘oyalar bilan ishlashga ehtiyoji bo‘lishi, talabalarning innovatsion ta’lim olishiga qator psixologik omillar ham ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Fizika ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak bakalavr-o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishni bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida rivojlantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida fizika ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak bakalavr-o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisi metodik tayyorgarligi faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirishi va bu maqsadga erishish uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

1. O‘z bilimini innovatsion yondashuv asosida oshirish mazmunini bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik amaliyot o‘tayotgan ta’lim muassasasida aniq sharoitlarga, amaliyotning sharoitlari, talablariga moslashtirishi kerak.

2. Fizika fani o‘qituvchisi ma’lum maqsad asosida va ma’lum tartibda o‘zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- talabalarning intilishlari, yangi g‘oyalari, innovatsion qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga ola bilish;

- talabalar bilan emmotsional aloqa o‘rnatish, ularning aqliy tasavvurlari, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta’sir etish.

3. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisi umumiy pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi va gigienasi, texnika va texnologiya hamda maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanlarini o‘zlashtirgan bo‘lishlari shart.

4. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisi o‘zining pedagogik va metodik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob’ektlarni to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi kerak.

5. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual tarzda yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirishda innovatsion yondashuvdan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

6. Bo‘lajak fizika fani o‘qituvchisi o‘z bilimlarini oshirishni doimiy innovatsion yondashuv asosida ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma’lum maqsadga yo‘naltirish zarur.

Buning uchun u:

- innovatsion yondashuv asosida ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi;

- innovatsion yondashuv asosida ijodiy izlanishlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

Xulosa. Bo’lajak fizika fani o‘qituvchisi mutaxassislik fanlaridan darsga tayyorlanayotganda har xil metod va usullarni qo‘llab yangi materialni qanday bayon qilishni o‘ylaydi. U o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va kasb unumdorligiga ta’sir qiladigan boshqa faktorlarni hisobga olgan holda ish ob’ektlarini tanlaydi. Ma’lumki, hozirgi zamon ishlab chiqarishi juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Dars jihozlari,

texnologik jarayonlar uzluksiz takomillashib bormoqda. Bu ma'lum darajada fizika fanida o'z aksini topishi kerak. Demak, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari fan va texnika sohasidagi taraqqiyotni uzluksiz kuzatib borishi, ulardan ta'lim oluvchilarni tushunarli shaklda xabardor qilib turishi va o'zi innovatsion yondashuv bilan pedagogik faoliyat yurita olish darajalari ustida ishlashi kerak.

Shunday qilib, tuzilmani innovatsion yondashuvli faoliyatida pedagog ilg'or ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o'ch bo'lishi kerak. Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiyali qismlardan iborat bo'lib, faoliyatni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Izlanish jarayonida, aniqlanadiki, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak fizika fani o'qituvchisi yangiliklarni ta'lim muammosiga kiritish bo'yicha ijodiy faoliyatini jalb etishga tayyorgarligi, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish uchun innovatsiyalar kiritishga qaratilgan harakatlar natija berishga ishonchi, shaxsiy maqsadlarining innovatsion faoliyat bilan mosligi va muvofiqligi hamda pedagog o'zini innovatsion faoliyatiga yo'naltirish uchun yangilikni (innovatsiya) idrok qilishga tayyorlash va yangicha harakat qila olish ko'nikmasini shakllantirishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Djo'rayev M. Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi. -T. Fan va texnologiya, 2015, 352 b

2. Mirzahmedov B. va boshq. Fizika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. 2 qism. -Toshkent, 2010. -130 b.

3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. -Toshkent: Fan, 2009 . -145 b.

4. Kan–Kalik V.A., Nikandrov N.D. Pedagogicheskoe tvorchestvo. –M.: Pedagogika, 1990. – 144 s.

5. Markova A.S. Texnologiya massovogo testirovaniya studentov: Uchebnoe posobie. – M., 1996. -182 s.

6. Muslimov N.A., Usmanboeva M.U., Mirsolieva. Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv–uslubiy majmua. Toshkent-2017.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar ularning tahlili hamda natijalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация об их анализе и результатах научных исследований, направленных на совершенствование системы подготовки будущих учителей физики к педагогической деятельности в высших учебных заведениях.

SUMMARY

This article provides information on their analysis and results of scientific research aimed at improving the system of training future physics teachers for pedagogical activity in higher educational institutions.

MUHANDIS-TALABALARNI KASBIY TAYYORGARLIGIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Iskandarov B. Q.
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
"Matematika va tabiiy fanlar" kafedrasi stajyor o'qituvchisi
Muqimov Sh. I.
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
"Axborot texnologiyalari" kafedrasi stajyor o'qitivchisi

Tayanch so'zlar: axborot, muhandis-o'qituvchi, texnologiya, pedagogik tajriba.
Ключевые слова: информация, инженер-преподаватель, технология, педагогический опыт.
Key words: information, engineer-teacher, technology, pedagogical experience.

Kirish. Ma'lumki, ta'limni axborotlashtirish bu o'quvchi yoshlarni o'z kasbiy faoliyatida to'laqonli va samarali qatnashishga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha qismlariga axborot texnologiyalarini joriy etish demakdir. Muhandis pedagoglarni tayyorlash jarayonini axborotlashtirish deganda esa mazkur yo'nalishdagi ta'lim jarayonining axborot-ta'lim muhitini yaratish tushuniladi. Bu muammoning yechimi esa o'qitish vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashdek muhim vazifani hal etishni taqozo etadi. Chunki, o'qitish vositalaridan samarali foydalanish va axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tadbiq etish, iqtisodiy samara berish bilan bir qatorda, o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarni samarali qo'llashga keng imkoniyat yaratadi.

Pedagogik tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, jadallashtirish faqat ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qitishning har xil usullari va shakllari bilan bog'liqgina bo'lib qolmay, balki ingliz tili fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan o'qitishning didaktik vositalari bilan o'quv muassasasining qanchalik ta'minlanganligiga bilan ham bog'liq muammodir.

Bugungi kunda ta'lim tizimini innovatsiyalashtirish zamonaviy ilm-fan rivoji saviyasiga keskin ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, kompyuter texnologiyasi rivoji va ulardan amaliyotda foydalanishga keng yo'l ochilishi bilan loyiha

konstruktorlik ishlarini bajarishda, lug‘atlar tuzishda, ilmiy tadqiqot ishlarida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishda, jarayon va hodisalarni modellashtirishda, boshqarishni algoritmlash kabilarda yaqqol sezilmoqda. Zamonaviy ilm-fanda xususiy sohalar bilan birgalikda, ularning integratsiyasi ham paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekistonningijtimoiy-iqtisodiyrivojlanishiko‘pjihatdanjahonintellektual salohiyatiga to‘laqonli qo‘shila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga bog‘liq. Buni ta’minlash esa bo‘lajak muhandis-pedagoglarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bunday muhim vazifani hal qilishning samarali yo‘llaridan biri bo‘lajak muhandis-pedagoglarni ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan qilib, ya’ni ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ko‘nikma va malakalariga ega qilib tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifani bajarishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, hozirda ilm-fan va texnika-texnologiyalar kun sayin, soat sayin takomillashib, rivojlanib bormoqda va natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug‘ilmoqda. Bu borada, ya’ni bo‘lajak muhandis-pedagoglarni tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta’minlash, rivojlangan ta’lim tizimiga uyg‘unlashish, ta’limda hamkorlikni rivojlantirish, bo‘lajak muhandis-pedagoglarni innovatsion rivojlangan qilib shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar bo‘lib hisoblanadi.

Muammoning qo‘yilishi. Muhandis-o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligida zamonaviy axborot texnologiyalarning rolini o‘rganish.

Tadqiqot uslublari va natijalari. Hozirgi kunda bo‘lajak muhandis-pedagoglarni tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalari va ularni hayotga joriy etish tajribasidan foydalanib, ularning o‘z kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirib borish va bunda samarali innovatsion uslublarni o‘zlashtirib olib, ularni amaliyotga joriy qilishi lozimligi kelib chiqadi. Oxirgi yillarda, o‘quv muassasalari har xil texnikaviy o‘qitish vositalari bilan jihozlanmoqda. Ular uchun xilma-xil ekranli tovushli apparatlar, diografoproyektorlar, televizion qurilmalar, videomagnitofonlar, elektron hisoblash kurilmalari, bilimlarni nazorat qilish uchun dasturlashtirilgan qurilmalar, trenajyorlar, kompyuterlar, media apparaturalar va boshqalar ishlab chiqilmoqda. Ammo, talabalarning muhandis-pedagoglik bo‘yicha bilimi, ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish va o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish, o‘zlashtirishlar o‘quv muassasasidagi o‘qitishning didaktik vositalari majmuasi soni, turiga bog‘liq bo‘lmay balki ularni ishlatish metodikasiga ko‘p jihatdan bog‘liqligi amaliyotda tasdiqlangan. Chunki dasturdagi mavzularni o‘zlashtirish qanchalik ushbu mavzu uchun zarur bo‘lgan o‘qitish vositalarining imkoniyatlarini, funksiyalarini bilish va ulardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liqdir. Buning uchun o‘qituvchi o‘qitish vositalarining imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur.

Ta’lim muassasalarida AKT o‘qitish jarayonini tahlil qilish natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘qituvchilar, talabalar bilan qilingan suhbatlarda ularning ko‘pchiligi o‘qitish vositalarini tanlash va qo‘llashda ma’lum darajada qiynalishadi, yoki bo‘lmasa o‘quv muassasasidagi bor hozirgi zamon vositalardan foydalanishga harakat qilishmaydi. Natijada o‘quv jarayoni samaradorligi oshmaydi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda o‘qitishning didaktik vositalar majmuasidan pedagogik asoslarini ishlab chiqish va dars jarayonida o‘z o‘rnida qo‘llash muammosini hal etish dolzarb masalalardandir. O‘qituvchi dars jarayonida an’anaviy va noan’anaviy o‘qitish metodlaridan foydalanishi bilan birga bu metodlarga qanday o‘qitish vositalarini qo‘llashni yaxshi bilishi kerak va o‘rnida foydalanishi zarur. Bular esa o‘z navbatida qo‘shimcha vaqtni sarf etishni taqozo etadi. O‘qitishning didaktik vositalari nima? Didaktik vositalar-o‘quv muassasasining material – texnik ta’minlanishining tarkibiy qismi bo‘lib, talabalarda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularning ta’limiy bilish, o‘rganish, ilg‘ash faoliyatini boshqarish. barkamol rivojlantirish, tarbiyalash uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonida foydalaniladigan materiallar tizimidir.

Didaktik vositalar o‘quv ma’lumotini (axborotli) uzatish uchun, o‘qitish jarayonini boshqarish, nazorat qilish hamda ta’lim mazmunini o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi faoliyatida muhim o‘ringa ega bo‘lib, ularni o‘z o‘rnida ishlatishni talab qiladi.

Didaktik vositalarni ingliz tilini o‘qilish jarayonida asosli qo‘llash uchun avvalambor ularning turlarni, funksional imkoniyatlarini bilish kerak. Shuning uchun ham har bitta o‘qitish vositasining funksional (xizmat vazifasi) nimadan iborat ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lmoq kerak.

O‘qitish vositalari klassifikatsiyasi. O‘qitish vositalari moddiy va ideal obyektlarga bo‘linib, ular ta’lim jarayonida axborotlarni beruvchi, yetkazuvchi uzatuzchi sifatida qo‘llaniladi va talaba hamda o‘qituvchining (pedagogning) faoliyat quroli sifatida foydalaniladi.

Texnologik taraqqiyotga nisbatan an’anaviy ko‘rgazmali qo‘llanamalar hozirgi davrda ko‘plab ishlatiladigan (axborot vositalari, o‘qitishining multimediyali o‘qitish vositalari, kompyuterlar, veb-saytlar, lokal va global kompyuterlar setlari va boshqalar kiradi. Ta’lim jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy tariqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatiga ega vositadir. Ayniqsa, XXI asrda ta’limga bo‘lgan talab misli ko‘rilmagan darajada o‘sib bormoqda.

Xulosa. Yosh avlodning yangi bilimlarni, g‘oya va ko‘nikmalarini egallashida, ijtimoiy, madaniy hamda iqtisodiy taraqqiy etishda ta’lim hal qiluvchi omil bo‘lmoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, XXI asr ta’lim

olishning o‘ziga xos davri bo‘lishi kutilmoqda, chunki endilikda ta’limning barcha turlari axborotlar oqimi sharoiti faoliyatida bo‘ladi. Xozirgi paytda bir xaqiqatni har qachongidan ko‘ra teran anglab olish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda samarali amaliy natijalarga erishish jahon intellektual salohiyatida raqobatga kirisha olish zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish darajasiga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. Djurayev R.X. Ta’limda texnologik yondashuv.// Uzluksiz ta’lim. IMJ. – T., 2007, № 1, 3-12-b.

2. Djurayev R.X. Neprerivnoye obrazovaniye i professionalnoye razvitiye pedagoga // Uzluksiz ta’lim IMJ. - T., 2014, №1, 39-45-b.

3. Jalolova D. F. Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantirish. Ped. fan. nom… diss. avtoref. - T., 2009, 26 b.

4. Ibragimov X.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirish // Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar: muammolar, yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Jizzax, 2006, III qism, 150-152-b

РЕЗЮМЕ

Hozirgi zamon ishlab chiqarishida texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fan jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o‘z bilimlarini mustaqil hamda muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to‘ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Ushbu maqolada bo‘lajak muhandis-talabalarni kasbiy tayyorgarligida zamonaviy axborot texnologiyalarning roli o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

Модернизация техники и технологий в современном производстве, стремительный прогресс науки и науки требуют от специалистов самостоятельного и систематического углубления, обновления, дополнения и расширения своих знаний. В данной статье исследуется роль современных информационных технологий в профессиональной подготовке будущих студентов-инженеров.

SUMMARY

The renewed development of technology and technology in modern production, the rapid development of Science and science requires specialist personnel to independently and regularly deepen, update, replenish and expand their knowledge. This article explores the role of modern Information Technology in the professional training of future engineering students.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR BUGUNGI KUN TA'LIM SAMARASI

Abdullayev Sh. A.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiya, dars, internet, farmon, qaror, ta'lim tizimi.
Ключевые слова: цифровые технологии, урок, интернет, постановление, постановление, система образования.
Key words: digital technology, lesson, internet, decree, decision, education system.

Kirish. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish

esa an’anaviy ho‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Online darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma’lum [4].

Bugungi Yangi O’zbekiston sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifalari mazmunan boyib borishi, ijtimoiy vazifalarining takomillashib borishi taabiiy xolatdir. Ana shunday ijtimoiy vazifalardan biri, ta’limda raqamli texnologiyalarni qo’llash va ulardan foydalanish bo’yicha o’quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishning barcha komponentlarini o’zida mujassamlashtiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish, bugungi axborot asrida tizimining bosh maqsadini tashkil etmog’i zarur. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlari va davlatimiz rahbarining farmon va qarorlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan: “…mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g’oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo’lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo’lishlari uchun ularda zarur ko’nikma va bilimlarni shakllantirish bilan birgalikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o’rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish hamda ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta’lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo’yicha tizimli ishlarni amalga oshirish” [1] kabi O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari belgilab berildi.

Tadqiqot natijalari. Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil

etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma’lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo‘l kelsa, katta hajmli ma’lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi [2].

Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida sun’iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg‘or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta’lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo‘ladi, ularni ta’minlovchi institutlar mas’uliyatini oshiradi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo‘ladi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash orqali ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o’rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e’tibor qaratilayotganligi, ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalarning o’rni va ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini ko’rsatib bermoqda.

Bugungi globallashuv jarayoni kechayotgan davrda, kundalik hayotimizni axborotkomunikatsion texnologiyalari, kompyuterlar va Internetsiz tasavvur qilish mushkuldir. Shuning uchun ham bugungi kunda raqamli texnologiyalar asta sekin kundalik hayotimizning barcha sohalariga kirib, ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Aynan, ana shu muhim jihatni hisobga olgan xolda mamlkatimizda 10 dan ortiq texnika va raqamli texnologiyalar

yo„nalishidagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o„quv yurtlari faoliyatini yo„lga qo„yilganligi ham raqamli texnologiyalarning nafaqat iqtisodiyot, siyosat kabi sohalarda balki, ta‘lim tizimida ham katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ommalashuvini asosiy sababi sifatida nafaqat pedagoglar uchun, balki, o’quvchilar uchun ham qulay bo’lgan tomonlarining mavjudligini ko’rsatishimiz mumkin. Masalan, o’quvchilar o’zlari istagan xolda va xohlagan vaqtda ta’lim olish imkoniga ega bo’ladi. Bundan tashqari ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali biz quyidagi:

- pedagog kadrlar yetishmaydigan hududlarda ham o’quvchilarni onlayn yoki masofaviy shaklda ta’lim olishlari;
- o’qituvchi va o’quvchilarning internet tarmog’idan o’zlari istagan fanga oid ma’lumotlarni olish, izlash, tarqatish va undan foydalanish;
- tizimda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida ta’lim samaradorligini oshirish, vaqt va mablag’ sarfini kamaytirish;
- ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo’llash orqali o’quvchilarning shunchaki, fanlarni o’zlashtirishlari emas, balki ularning bilimlarni qay darajada o’zlashtirayotganligi va muammoli vaziyatlarga tayyorligi hamda ularda tanqidiy tafakkurni shakllanganligi, shuningdek, o’quvchilarning mustaqil o’z ustida ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirish kabi imkoniyatlarga ega bo’lamiz.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga faol kirib borayotganligining bosh omili bu darslarning sifatini ijobiy tomonga o’zgartirishdagi samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etayotganligidir. Bunday sifat darajasini yanada yuksalirishda o’qitishning turli vositalari va raqamli texnologiyalarni qo’llashning yangi strategik loyihalarini ishlab chiqish hamda sohaga joriy etishning normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan o’quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalarni o’z ichiga olgan markazlarni tashkil etish muhim omil bo’lib xizmat qiladi [3].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, birinchidan, o’qitishning samaradorligini ta’minlash, ikkinchidan, dars jarayonlariga oid turli ilyutratsiya, video roliklar, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash, uchinchidan, o’qituvchi-pedagoglarning multimedia maxsulotlari, kompyuter texnikasi, Internet vositalaridan foydalanish va ularni dars jarayonida qo’llash malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi xulosalarimizdan

kelib chiqib quyidagi: birinchidan, o’qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish malakalarini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz metodik xizmat tizimini yaratish; ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan darslarga moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirish kabi zarur tavsiyalarga amal qilish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6108-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, Xalq so‘zi 2020 yil 25 yanvar.

3. Xolmuxammedov M.M. “Professional ta’lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish”. Uzluksiz ta’lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.

4. Yuldashev U.A., Xudoyberdiev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.

//Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada muallif raqamli texnologiya, bulutli texnologiyalar, raqamli texnologiyani ta’lim tizimi vositalari, raqamli texnologiya ustunliklari, ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyatini nazariy asosda yoritib, o‘z tavsiyalarini bergan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор изложил свои рекомендации, теоретически осветив цифровые технологии, облачные технологии, цифровые технологии как инструменты системы образования, преимущества цифровых технологий, актуальные аспекты и важность использования цифровых технологий в образовании.

SUMMARY

In this article, the author gave his recommendations, covering the current aspects and importance of digital technology, cloud technologies, digital technology educational system tools, digital technology advantages, the use of digital technology in education on a theoretical basis.

AKADEMIK LITSEYLARDA KVANT FIZIKASINI O`QITISHNI EHTIMOLIY-STATISTIK ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Sattarkulov K. R
Guliston davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: plank, Reley-Jins qonuni, fotoelement, fotoelektr, fotoeffekt
Ключевые слова: планк, закон Рэлея-Джинса, фотоэлемент, фотоэлектричество, фотоэффект.
Key words: planck, Rayleigh-Jeans law, photoelectric cell, photoelectricity, photoelectric effect.

Fizika fanini o‘zlashtirgan talaba, uni rivojlanish tarixi, fizikaning nazariy asoslari, fizikaning ajoyib mo‘jizalari, masalalarni ishlash yo‘llari, test variantlarining javoblarini topish va fizikaning hayot va iqtisodiyotdagi beqiyos roli bilan tanishadi.

Bizga ma‘llumki, kvant fizika mikroolam qonuniyatlarini ochishga doir fizikaviy nazariya bo‘lib, uning metodi kvant elektrodinamikasi, qattiq jismlar fizikasi, zamonaviy kimyo kabi sohalarda, shuningdek atom yadro tuzilishi, elementar zarralar xossalarini o‘rganishda keng ravishda qo‘llaniladi.

Kvant fizikasi klassik mexanikaga nisbatan dunyoni tushunishning yuqori pog‘onasidir. O‘quvchilar kvant nazariyasi haqida ma’lum bilimga ega bo`lsin degan maqsadda, XX-asrning oxirlarida o‘rta maktab fizika dasturiga, keyinchalik Akademik litseylar fizika dasturiga kvant fizikasi elementlarini kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi degan xulosaga kelindi. Bundan tashqari, kvant fizikasida o‘rganiladigan zarralar to‘lqindan iborat bo‘lishini hisobga olsak, ko‘rgazmali qurollar juda kam bo‘lganligi uchun, kvant fizikasi masalalarini akademik litseylar kursiga juda ehtiyot bo‘lib kiritish kerak degan xulosaga kelindi. [1,12-bet]

Aniq fanlar yo‘nalishidagi Akademik litseylarda va fizika chuqur o‘rganiladigan aniq fanlar yo‘nalishidagi Akademik litseylar uchun ishlab chiqilgan o‘quv rejasida umumiy fizika kursi uchun jami 768 soat ajratilgan. O‘quv rejaga ko‘ra “Kvant fizikasi” bo‘limini o‘rganish uchun, jami 22 soat ajratilgan bo‘lib, shundan 6 soat nazariy ma’ruza darsi uchun, 6 soati masala

yechish darslari uchun, 4 soati labarotoriya mashg‘uloti va mustaqil ishga 6 soat ajratilgan.

Akademik litsey “Kvant fizika”ni o‘qitishda o‘quvchilarni maktabda ya’ni 6-sinf va 9-sinflarda olgan boshlang‘ich tushunchalarini yanada rivojlantirish maqsadida, ya’ni oddiydan boshlab murakkabga qarab o‘qitilishini nazarda tutib, talabalarning boshlang‘ich bilimga ega bo‘lganini bilgan holda “Kvant nazariyasi” sifatida o‘qitiladi. Akademik litseylarining ikkinchi kursida kvant fizikasi o‘qitila boshlanadi. Akademik litseylarda bu mavzular o‘quvchilarga chuqurroq yetkazib beriladi; talabalar fizika kursi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida esa o‘zlari tanlagan yo‘nalish bo‘yicha ko‘proq tayyorlanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. [2, 89-bet]

Bu turdagi akademik litseylarda kvant fizikani o‘qitish jarayonida ko‘proq fizikaning amaliy ahamiyatiga e‘tibor qaratilishi, fanlararo bog‘lanish masalasi butun kursni o‘rganish jarayonida amalga oshirilishi, hamda ularni oliy o‘quv yurtlariga kirishi uchun zamin tayyorlashi zarur, buning uchun, o‘qituvchi fakultativ darslar tashkil etib, ularda ko‘proq masalalar yechishga e‘tibor qaratishi kerak.

Dastur, har bir kurs uchun ko‘rgazma, namoyishlar, laboratoriya ishlarining ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, ulardan litsey imkoniyatlariga qarab tanlab olinadi. “Dasturning mazmuni”da fizikaning har bir bo‘limi bo‘yicha o‘quvchilar bilishi kerak bo‘lgan mavzular, qonunlar va tushunchalar aks etgan. Bugungi kunda fizika ta‘limi mazmunini ifodalovchi uchta dastur mavjud. Shu jumladan akademik litseylarda o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarni hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirilgan holda o‘qitishni ta‘minlaydi. [1, 3-bet]

Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘zlari tanlagan yo’nalish bo‘yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur, mukammal o‘zlashtirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Aniq fanlarga yo‘naltirilgan akademik litseylarda fizikaning “Kvant fizika” bo‘limi ham aniq fanlar yo‘nalishidagi akademik litseylarda kasb hunar kollejlariga,jumladan, tabiiy fanlarga yo‘nalgan akademik litseylarga nisbatan kengroq va chuqurlashtirib o‘tiladi. Ko‘proq bu bo‘limda nazariyaga va masalalar yechishga e‘tibor qaratiladi. [5, 158-bet]

O‘quvchilarga kvant fizika elementlarini tushuntirishdan oldin, kvant fizikasining paydo bo`lishi va rivojlanishini o`rganadilar. Aniq fanlar yo`nalishidagi akademik litseylarda va fizika chuqur o`rganiladigan tabiiy fanlar yo`nalishidagi akademik litseylar uchun ishlab chiqilgan o‘quv rejasiga kiritilgan mavzular mavjud. Bu mavzular aniq fanlar yo`nalishidagi akademik

litsey uchun mavzuviy taqvim rejasiga kiritilgan mavzular ketma-ketligi quyidagicha:

1-mavzu: “Kvant fizikasining paydo bo‘lishi, issiqlikdan nurlanish qonunlari” bo‘lib, mavzuni o‘rganishni issiqlik nurlanishidan boshlash ko‘zda tutilgan. Bu mavzuda o‘quvchilar: jismlarning issiqlikdan nurlanishi, issiqlikdan nurlanish xarakteristikalari, Kirxgof qonuni, Stefan-Bolsman qonuni va Vinning siljish qonuni o‘rganadilar.

2-mavzu: Plank gipotezasi. Yorug‘lik kvanti bo‘lib, unda o‘quvchilar Plank gipotezasi, yorug‘lik kvantlari, Reley-Jins qonuni, foton va uning xarakteristikalari haqida ko‘plab ma’lumotlarni bilib oladilar.

3-mavzu: “Fotoeffekt hodisasi” haqida. Unda fotoeffektning kashf etilishi, turlari, ichki va tashqi fotoeffekt, Stoletov tajribasi, Stoletov qonunlari, to‘yinish toki, tutuvchi potensial, fotoeffekt hodisasining talqini, Eynshteyn tenglamasi, fotoeffektning qizil chegarasi, Stoletov qonunlarining talqini kabi bilimlarni o‘zlashtiradilar.

4-mavzu: “Fotoeffektning qo‘llanilishi”. Unda fotoeffektning qo‘llanilishini, fotoelement, vakuumli fotoelement, gazli fotoelement, fotoelementning qo‘llanilishi, fotoqarshilik, fotoelektr yurituvchi kuch, to‘siqli fotoelementlar kabi tushunchalarni o‘rganadilar.

5-mavzu Yorug‘likning bosimi, yorug‘likning korpuskulyar-to‘lqin dualizmi” haqida bo‘lib, yorug`likning to‘lqin tabiati, yorug‘likning korpuskulyar tabiati, yorug‘likning ikki yoqlama tabiati haqidagi qarashlarning ahamiyati va xususiyatlari o‘rganiladi.

6-mavzuda esa “Gelioenergetika” O‘zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanish va uning istiqbollari” o‘rganiladi.

Keying darslarda 2 para ya‘ni 4 soat masala yechishga bagishlanib, unda o‘quvchilar kvant fizika bo‘limini tushunchalarini mustahkamlovchi masalalar yechishni o`rganadilar va shu bilan birga o‘rgangan bilimlarini qayerda qo‘llashni bilib oladilar. Masala yechish darslari o‘quvchilar bilimini nazorat qilishni va ularni darslarni qay darajada o‘zlashtirishganini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun masala yechish darslarini tashkil qilishga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. [2, 146-bet]

Kvant fizikasi tushunchalarini o‘zlashtirish o‘quvchilarda birmuncha qiyinchilik tug‘dirsada, nazariyani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi kvant fizikaga doir masalalarni yechishda qiynalmaydi. Chunki nazariya va amaliyot bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo`lib, ular bir-birini to‘ldirib turadi. [6, 76-bet]

Xulosa qilib aytganda, akademik litseylarda fizika fanining “Kvant fizikasi” bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda

ularning bilimlarini, akademik litseylarda kvant fizikasini o‘qitishda unung mazmunini takomillshtirish asosda olamning zamonaviy ilmiy manzarasi va ilmu-fanda erishilgan yutuqlar to‘g‘risida tasavvurlar hamda, olamning zamonaviy ilmiy manzarasi to‘g‘risida fikrlarning ortib borishi barobarida, akademik litseylarning “Kvant fizikasi” bo‘limiga kiritiladigan materiallarining mazmun-mohiyati kengroq yoritish asosida o‘quvchilarning mavzular mohiyatini kengroq tushunishiga hamda ularda ehtimoliy-statistik tasavvurlarni shakllantirish asosida ishlab chiqilsa, akademik litseylarda kvant fizikasi bo‘limini mazmuni va o`qitishni takomillashtirish imkonini beradi degan umiddamiz.

Adabiyotlar:

1. Akademik litseylar uchun namunaviy o’quv dasturi- T.: 2021 y. 19 b.

2. Ғаниев А.Г., Авлиёқулов А.К., Алимардонова Г.А. Физика. Акаемик лицейлар ва Касб-ҳунар коллежлари учун дарслик. 2- қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” НМИУ, 2009, 178 б.

3. Джораев М. Физика ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Т. 2015 256 б.

4. Ландау Л.Д., Лифшиц Е.М. Статистическая физика, М.Наука,1976 с.584 с

5. Джораев М., Саматов Ғ.Б., Хўжанов Э.Б. Узлуксиз таълим тизимида физика ўқитишни статистик метод асосида такомиллаштириш, ўқув қўлланма,Тошкент, “Абу матбуот- консальт” 2017. 288 б.

6. Джораев М.,Саматов Ғ.Б., Хўжанов Э.Б. Академик лицейлар физика курси квант ва атом физика бўлимларининг эҳтимолий – статистик асослари.- Гулистон. “Университет”, 2016. 100 б

РЕЗЮМЕ

Maqolada akademik litseylarda “Kvant fizikasi”ni o‘qitishda mavzu materiallarini kengroq yoritish yordamida, talabalarda ehtimoliy-statistik asosida takomillashtirish, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish va rivojlantirish to‘g‘risida fikrlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены представления о формировании и развитии научного мировоззрения учащихся на основе вероятностно-статистической основы, с помощью более широкого освещения предметных материалов при преподавании “Квантовой физики” в академических лицеях.

SUMMARY

The article presents ideas about the formation and development of the scientific outlook of students on the basis of a probabilistic-statistical basis, with the help of a wider coverage of subject materials when teaching “Quantum Physics” in academic lyceums.

NOANIQ MA'LUMOTLARNING MURAKKAB BIOTEXNOLOGIK SISTEMALARGA XOS BO'LGAN ASOSIY KO'RINISHLARI VA TURLARI

Kamolov E. R.
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti "Informatika o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: noaniq, ma'lumotlar, biotexnologik, sistema, qaror, avtomatlashtirish, to'liqmas ma'lumot, boshqarish ob'ekti.

Ключевые слова: неопределенность, данные, биотехнология, система, решение, автоматизация, неполная информация, объект управления.

Key words: uncertain, data, biotechnological, system, decision, automation, incomplete information, control object.

Kirish. Hozirgi kunda qarorlar qabul qilishni avtomatlashtirish sohasida qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi sistemalar va biotexnologik sistemalarni (BTS) boshqarishning ekspert sistemalari jadal rivojlanmoqda. Texnologik jarayon kechishini tavsiflashda BTSni boshqarish sistemalarida foydalaniladigan ma'lumot ko'pincha to'la aniqlanmagan bo'ladi, shuning uchun texnologik jarayonlarda va qarorlar qabul qilishda (QQQ) to'liqmas ma'lumotni (TM) ko'rinishlari va turlari bo'yicha tahlil qilish masalasi paydo bo'ladi.Murakkab BTSdagi boshqaruv yana shunisi bilan murakkablashadiki, real ishlab chiqarish sharoitlarida noaniqliklar turli ko'rinishlarda yuz beradi. Bu noaniqliklar o'lchashlarning, maqsadlarning, cheklovlarning va QQQlarning puxta emasligi tufayli quyidagi tamoyillarga ko'ra paydo bo'lishi mumkin:

– boshqarish ob'ektidan bevosita olingan yoki hisob-kitob va identifikatsiyalashtirish natijasida olingan dispetcherlik ma'lumotidagi katta xatolik; noaniqlikning bu turi ob'ektning boshlang'ich va joriy holatini va unga atrof-muhitning ta'sirini aniqlashni qiyinlashtiradi;
– boshqarish ob'ekti modellarining aniq emasligi (murakkab jarayonning ideallashtirilgan modelining ortiqchaligi, chiziqlashtirish, diskretlashtirish, apparatlarning real xarakteristikalarni almashtirishdagi xatoliklar, parametrlarning qiymatlarini ularning prognoz qiymatlari bilan almashtirilishi va h.k.) yoki ularning puxta emasligi;

– bir qator faktorlarni formallashtirib bo‘lmasligi, QQQ jarayonida sub’ektiv cheklovlar va kriteriyalarning borligi tufayli yuz beradigan nopuxtalik. Bu kriteriyalar va cheklovlarning hammasi nopuxta to‘plamlar nazariyasi yordamida lingvistik o‘zgaruvchilar ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin;
– ba’zi parametrlar haqidagi ma’lumotning qisman yoki to‘la yetishmasligi, masalan, Angren kaolinini boyitish jarayonlari uchun ifloslantiruvchilar (temir, titan, marganes va boshqa birikmalar) sifatidagi metallar tarkibining aniq o‘lchamlarining yetishmasligi ular holatining rejimlarini belgilashda va diagnostika qilishda katta noaniqliklarga olib keladi;
– murakkab BTJ da kriteriyalarning ko‘pligi, bir-biriga zid bo‘lgan modellar va qarorlar qabul qilish usullari bilan bog‘liq noaniqliklar;
– ko‘p pog‘onali ierarxik sistemalarda, BTJ ham xuddi shunday sistema, qarorlar qabul qilish jarayoni shunisi bilan farq qiladiki, boshqaruvning har bir darajasida va har bir qism sistema uchun aniq (nuqtama-nuqta) maqsadlar va qarorlarning qo‘yilganligi koordinatsiyalashtirish jarayonini qiyinlashtiradi va qarorlarning iteraktiv xarakterda bo‘lishini taqazo etadi.

Asosiy qism. QQQ masalalarida ko‘p uchraydigan noaniqliklarning turlarini quyidagicha guruhlarga ajratamiz (rasm.1.1.). Klassifikatsiyaning birinchi darajasi yetishmayotgan ma’lumotlarning miqdorini xarakterlovchi atamalardan tuzilgan.


QQQ masalalarining elementlari haqidagi ma’lumotlarning to‘la yetishmasligi noma’lumlik holatiga olib keladi.

Ma’lumotlarning yetarli emasligi, noaniqlik, noadekvatlik va nokorrektlik to‘la bo‘lmagan holat haqida guvohlik beradi.

QQQ masalalarining elementlari haqidagi ma’lumotlarning qisman yetishmasligini yetarli emaslik deb ataymiz.

To‘la ma’lum bo‘lmagan (to‘la aniqlanmagan) ma’lumot ko‘rinishidagi to‘la emaslik ob’ektlarning turlari, kattaliklarning miqdorlari, ular orasidagi munosabatlarga tegishli bo‘lishi mumkin [2].

Ma’lumotlarning to‘lib-toshib ketishi natijasida ham to‘la emaslik holati yuz berishi mumkin. O‘ta katta hajmdagi ma’lumotlarni kayta ishlab chiqishning imkonsizligi ularning biror qismini tashlab yuborishga, maqsadlar va kriteriyalar ichidan birinchi va ikkinchi darajalilarini ajratish, asosiy va ikkinchi darajali faktorlarni ko‘rsatish, munosabatlarni (nokorrektlik holatini) aniqlashni zarur qilib qo‘yadi. Bundan tashqari, amaliyot ko‘rsatadiki, aniq ma’lumotning o‘rnini bosuvchi tasdiq tadqiq etilayotgan masalalarning ixtiyoriy elementlariga taalluqli bo‘lishi mumkin. Shu tarzda qurilgan boshqarish modeli ko‘pincha



tadqiq etilayotgan sistemani noadekvat tavsiflashga (noadekvatlik holatiga) olib keladi. QQQ masalalarining elementlari haqidagi hamma ma'lumotlarni to'plab ham to'la aniqlikka erishmaslik mumkin (bir qiymatli emaslik holati) [3].

Agar QQQ masalasining biror ob'ektini tavsiflash uchun bittadan ortiq til ob'ektidan foydalanilgan bo'lsa, u holda sinonimlik holati haqida gapirish mumkin.

Nafaqat qaror qabul qilayotgan shaxsning tili (lingvistik noaniqlik holati), balki tashqi muhit (fizik noaniqlik holati) ham shubhalilikka manba bo'lishi mumkin. Fizik noaniqlikning paydo bo'lish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ulardan ba'zilarini, boshqarish ob'ekti uchun xarakterli bo'lganlarini qarab chiqamiz.

Har qanday boshqaruv o'lchashlar bilan bog'liq, har qanday o'lchash esa xatoliklar bilan yuz beradi, xatolikning xarakteri esa asbob-uskunaga bog'liq bo'lganligi uchun boshqaruv shu turdagi to'siqlar ichida sodir bo'ladi.

Bundan tashqari, har qanday qabul qiluvchi va eslab qoluvchi texnik qurilma o‘zining aniqligiga ega bo‘lib, bu uning asosiy xarakteristikalaridan biridir. Bu aniqlik miqdorlarning yaxlitlanish xatoligini topadi. O‘lchash xatoliklari va yaxlitlash xatoliklari real miqdorlarni aniq o‘lchashga imkon bermaydi (aniq emaslik holati).

Tashqi muhitda bir necha imkoniyatlarning borligi, bu imkoniyatlarning har biri tasodifiy tarzda kerakli imkoniyatga aylanishi mumkinligi tasodifiylik holatini keltirib chiqaradi.

Real ob’ekt faoliyati davomida o‘zining xossalarini o‘zgartirishi mumkin. Bu o‘zgarishlar adashtiruvchi xarakterga ega va ular ob’ektning parametrlari trendiga keltiriladi. Trend sistemali va tasodifiy bo‘lishi mumkin (o‘zgaruvchanlik holati).

Real ob’ekt faoliyati davomida o‘zining xossalarini o‘zgartirishi mumkin. Bu o‘zgarishlar adashtiruvchi xarakterga ega va ular ob’ektning parametrlari trendiga keltiriladi. Trend sistemali va tasodifiy bo‘lishi mumkin (o‘zgaruvchanlik holati).

Birinchi turdagi so‘zlar qiymatining noaniqligiga bitta so‘z bir necha (qandaydir ma’noda bir-biriga bog‘langan) ma’nolarga va qiymatlarga ega bo‘lgandagi, ya’ni polisemiya holatiga olib keladigan holatni kiritamiz [4].

Agar QQQ masalasining bitta so‘z bilan ifodalanadigan ob’ektlari bir-biriga o‘xshab ketsa, u holda nopuxtalik holati yuz beradi. Ma’nolarida qat’iy chegaralar bo‘lmagan tushunchalar va munosabatlardan, ko‘p ma’noli fikrlar va tasdiqlardan foydalanilganda nopuxtalik (puxta emaslik) holati yuz beradi [5].

Sintaksik va morfologik omonimiyani ikkinchi turdagi so‘zlar qiymatining noaniqligiga kiritamiz. So‘z (kontekstga bog‘liq tarzda) turli grammatik kategoriyalarga ega bo‘lganda sintaksik omo¬nimlar paydo bo‘ladi [9].

Sintaksik omonimlar na faqat so‘z darajasida, balki iboralar darajasida ham paydo bo‘ladi. Bitta gap (tasdiq) turlicha grammatik strukturaga ega bo‘lib, shuning uchun bir necha talqinga ega bo‘lsa, strukturaviy noaniqlik ro‘y beradi [9]. Grammatik va stilistik xatolar sintaksik noaniqlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Iboralar ma’nosining morfologik noaniqligi (morfologi¬k omonimiya) ba’zida qaysidir predlog (old qo‘shimcha)ning qatnashmasligi tufayli ro‘y beradi [9].

Ba’zi so‘z birikmalar gapda turlicha vazifani bajarib, gapning ma’nosini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin, bunday hollarda semantik noaniqlik ro‘y beradi.

Birinchi va ikkinchi tur pragmatik noaniqlik [9] da ta'riflangan. Iboraning (qiymatlari to'plami ichidan) yagona ma'nosini ajratib olish usuli mavjud bo'lmaganda birinchi tur prag¬matik noaniqlik yuz beradi. Kriteriya iborasining (vaqtning ma'lum momentida) yagona ma'nosini aniqlash jarayonida iboraning shu kriteriyani qanoatlantiradigan yagona ma'nosi mavjud bo'lmasa ikkinchi tur pragmatik noaniqlik yuz beradi [9].

Lingvistik noaniqlik QQQ masalasini biror tildan foydalanib tavsiflash bilan bog'liq. Bunday noaniqlik formal tillarda ham, tabiiy tillarda ham uchraydi. QQQ masalasidagi cheksiz ko'p sondagi turli holatlarni tavsiflash uchun tilning chekli sondagi so'zlaridan foydalanish zaruriyatidan shu ko'rinishdagi noaniqlik hosil bo'ladi. Bir tomondan, so'zlarning ko'p ma'noliligi (omonomiya va shunga yaqin hodisalar), boshqa tomondan, iboralar ma'nosining bir qiymatli emasligi ling¬vistik noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Yuqorida sanab o'tilgan noaniqlik holatlari to'liqmas ma'lumot (TM) larni qo'llash bosqichida konkret ko'rinishda paydo bo'ladiki, u bahsli holatga olib kelishi mumkin; - QQQning biror holatidagi tasodifiylik, to'la emaslik noaniqlik sharoitlarida qarorlar qabul qilish zaruriyatiga olib keladi; - sinonimlik quyidagi turdagi noaniqlikda paydo bo'lishi mumkin: ma'lumot u saqlanayotgan ko'rinishda so'ralmaydi, va bu ko'rinishlarning bir xil ekanligini aniqlay olmaydi; - tabiiy tilning asosiy xossasi bo'lgan oshkormaslik (indamaslik) noaniqlikning manbasi bo'lib qolishi mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, noaniq hodisalarni, voqealar va faktlarni, hamda ob'ektlar va operatsiyalar orasidagi aloqalarni qarab chiqish shuni ko'rsatadiki, noaniqliklarning turli sinflari mavjud bo'lib, ular har doim ham tasodifiylik va nopuxtalik bilan bog'liq emas.

TM ning ba'zi sinflari uchun sun'iy intellekt nazariyasi, ehtimolliklar nazariyasi, G.Shefferning guvohliklar nazariyasi, Lukasevichning cheksiz ko'p qiymatli logikasi, L.Zadening nopuxta to'plamlar nazariyasi va h.k.lar foydali va samarali bo'lishi mumkin. TMni qo'llaganda paydo bo'ladigan eng muhim masalalardan biri noaniq ma'lumotni formallashtirishga yondashishni tanlash masalasidir.

Noaniq ma'lumotni formallashtirishga yondashishni tanlash masalasi juda muhim, shuning uchun murakkab BTSda nopuxta to'plamlar nazariyasi asosida QQQ jarayonini tavsiflashning ustun jihatlarini alohida ta'kidlash zarur. Bu apparat BTS uchun nopuxta sharoitlarda QQQ jarayonining mohiyatini adekvatroq tarzda aks ettirish, nopuxta cheklovlar va maqsadlar bilan amallar bajarish, hamda ularni lingvistik o'zgaruvchilar yordamida berish imkonini yaratadi. Shuning uchun nopuxta to'plamlar nazariyasining matematik apparati

murakkab BTSda QQQ jarayonlarini va texnologik jarayonlarni boshqarishni tavsiflashning asosiy apparati sifatida qabul qilingan.

Adabiyotlar:

1. Лелеко А.И., Худин Ю.Л., Устинов М.И. Перспективы развития добычи угля в Средней Азии. Минск: Белгео 1993.220 с.

2. Черносвитов Ю.Л. Требования промышленности к качеству минерального сырья. М.: Госгеолтехиздат. 1982.123 с.

3. Шакиров Ш.Ю., Салимов З.С, Шакиров Т. И., Мкртчян Р.В. Обогащение Ангренских каолинов с помощью электромагнитного сепаратора. Узбекский химический журнал. 1993.№1,с. 52-58.

4. Семенов В.С. и др. способ обогащения каолина. А.С.№412164.1974.

5. Ахметов К.А., Исмаилов М.А. Математическое моделирование и управление технологическими процессами биохимического производства. Ташкент,: Фан 1988.96 с.

РЕЗЮМЕ

Biotexnologik sistemalarda modellashtirish, boshqarish va qarorlar qabul qilish tamoyillarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, biokimyoviy ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari ko‘p o‘lchovli murakkab sistemalar sistemalar sinfiga taalluqli ekan. Shuning uchun puxta bo‘lmagan to‘plamlar nazariyasining matematik apparati ko‘p pog‘onali ierarxik sistemani tavsiflashning, biotexnologik sistemalarda qarorlar qabul qilish jarayonlarining va texnologik jarayonlarni nazorat qilishning asosiy apparati sifatida qabul qilingan.

РЕЗЮМЕ

Изучение принципов моделирования, управления и принятия решений в биотехнологических системах показало, что технологические процессы биохимического производства относятся к классу многомерных сложных систем. Поэтому в качестве основного аппарата описания многоуровневой иерархической системы, процессов принятия решений в биотехнологических системах и управления технологическими процессами принят математический аппарат теории неточных множеств.

SUMMARY

The study of the principles of modeling, management and decision-making in biotechnological systems showed that the technological processes of biochemical production belong to the class of multidimensional complex systems. Therefore, the mathematical apparatus of the theory of imprecise sets is accepted as the main apparatus for describing a multi-level hierarchical system, decision-making processes in biotechnological systems, and control of technological processes.

НЕФТЬ-ГАЗ САНОАТИГА ОИД ТЕРМИНЛАР ТИПОЛОГИЯСИ

Азимова Ф. Х.
Жиззах Политехника институти

Таянч сўзлар: термин, терминология, нефть-газ саноати, мавзуий гуруҳлаштириш, терминологик бирлик, лексик бирлик, этимиология, таржима қийинчиликлари.

Ключевые слова: термин, терминология, нефтегазовая отрасль, тематическая группировка, терминологическая единица, лексическая единица, этимология, трудности перевода.

Key words: term, terminology, oil and gas industry, thematic grouping, terminological unit, lexical unit, etymology, translation difficulties.

Терминология ҳар қандай миллий тилнинг мустақил соҳаси бўлиб, касбий фаолият билан чамбарчас боғлиқ. Термин фан, техника, ишлаб чиқаришнинг муайян соҳасига тегишли муайян терминологик тизимнинг таркиби бўлиб, унинг концептуал мазмуни тизимдаги ўрни билан белгиланади [8]. Нефть-газ саноати оғир ва мураккаб иш жараёнларнинг кетма-кетлигидан иборат саналади. Хусусан нефть-газ саноати деганда қуйидаги ишлар мажмуи тушунилади: қидирув ишлари, қудуқнинг қурилиш ишлари, қазиб олиш ишлари, транспорт орқали ташиш фаолияти, нефтни қайта ишлаш, нефтни реализatsiя қилиш, газни қайта ишлаш ва унинг маҳсулотларини қайта ишлаш сингари иш жараёнларини бир-биридан ажратиб бўлмайди. Ушбу занжир ўз ичига нефть-газ саноатида амалга ошириладиган ишларнинг хомашё базасидан оқилона фойдалана олиш имкониятини тақдим этиш билан бирга, инвестицион фаолиятда ва тавакалчилик даражаси бўйича юқори баҳоланган капиталнинг интенсивлигини ташкил этади. Нефть-газ саноатининг қазиб олинган ресурсларнинг қайта тикланмаслиги ҳамда нефт-газ қудуқларининг маҳсулдорлиги бўйича чегаравий жойлашганлиги тармоқнинг асосий хусусиятларидан саналади [5].Нефть-газ саноати терминологияси умумий ҳолда 2 терминологик турга ажратилади: 1) нефть-газ қазиб олиш; 2) нефть ва газни қайта ишлаш [7].Терминологик бирликларни таҳлил қилишимиз қуйидаги мавзуий гуруҳларни аниқлашга имкон берди:

1) моддалар;

2) нефть-газ геофизикаси;

3) нефть-газни қайта ишлаш маҳсулотлари;

4) нефть-газни қайта ишлаш моддалари ва маҳсулотларининг хусусиятлари;

5) технологик жараёнлар ва operatsiялар;

6) жиҳозлар ва ускуналар;

7) нефть-газ саноатида ишлаб чиқариш, ташиш ва реализatsiя қилиш иштирокчилари;

8) нефть-газ қазиб олиш соҳасидаги ҳужжатлар [7].

«Вещества»

объединены лексемы и сочетания терминологического характера типа кислород, окись алюминия, силикагель, водная фаза, высокооктантная добавка, дистиллят, светлый дистиллят, фракция, углеводород, легкий углеводород, предельные углеводороды, насыщенные углеводороды, диены, изомеризат, петролейный эфир, фуллерен, нефтяной крекинг-газ, алканы

«Вещества»

объединены лексемы и сочетания терминологического характера типа кислород, окись алюминия, силикагель, водная фаза, высокооктантная добавка, дистиллят, светлый дистиллят, фракция, углеводород, легкий углеводород, предельные углеводороды, насыщенные углеводороды, диены, изомеризат, петролейный эфир, фуллерен, нефтяной крекинг-газ, алканы

«Вещества»

объединены лексемы и сочетания терминологического характера типа кислород, окись алюминия, силикагель, водная фаза, высокооктантная добавка, дистиллят, светлый дистиллят, фракция, углеводород, легкий углеводород, предельные углеводороды, насыщенные углеводороды, диены, изомеризат, петролейный эфир, фуллерен, нефтяной крекинг-газ, алканы

«Вещества»

объединены лексемы и сочетания терминологического характера типа кислород, окись алюминия, силикагель, водная фаза, высокооктантная добавка, дистиллят, светлый дистиллят, фракция, углеводород, алар» терминлари: кислород / oxygen, окисьалюмин / aluminum oxide, силикагель / silica gel, сув фазаси / aqueous phase, юқори октантли қўшимча / high-octant additive, дистиллят / distillate, очиқ рангли дис-

тиллят / light distillate, фракция / fraction, углеводород / hydrocarbon, енгил углеводород / light hydrocarbon, маргинал углеводородлар / marginal hydrocarbons, тўйинган углеводородлар / saturated hydrocarbons, диенлар / dienes, изомеризат / isomerizate, петролейли эфир / petroleum ether, фуллерен / fullerene, нефт крекинг гази / petroleum cracking gas, алканлар /alkans.

«Нефть-газ геофизикаси» терминлари: deposit / залежь, crack / ёриқ, siltstone / силицтон, anticline / антиклиналь, exploration / разведка, gravity exploration / гравитатsion разведка, oil and gas reservoir / нефть-газ омбори, rock / тош, hydrosphere / гидросфера, deep fault / чуқур ёриқ, ridge / тизма, geotectonics / геотектоника, monocline / моноклин.

«Нефть-газни қайта ишлаш маҳсулотлари» терминлари: oil / нефть, gas / газ, natural gas / табиий газ, liquefied gas / суюлтирилган газ, asphalt / асфальт, bitumen / битум, liquid bitumen / суюқ битум, construction bitumen / қурилиш битуми, insulating bitumen / изоляцион битум, propane / пропан, butane / бутан, jet fuel / реактив ёқилғи, defoamer / дефоамер, fuel / ёқилғи, diesel fuel / дизел ёқилғиси, paraffins / парафинлар, rubber / каучук, dump tails / думп думлари, lubricant / мойлаш материаллари, demulsifier / демулсификатор, tar / смола, gasoline / бензин, heavy gasoline / оғир бензин, wax / мум, petroleum jelly / нефть жели, rubber / каучук, petroleum semi-manufactures / нефть ярим ишлаб чиқариш.

«Нефть-газни қайта ишлаш моддалари ва маҳсулотларининг хусусиятлари» терминлари: viscosity / ёпишқоқлик, gas factor / газ омили, moisture dew point / намлик шудринг нуқтаси, flammability / ёнувчанлик, octane number / октан сони, diesel (cetane) index / дизел (сетан) индекси, ash content / кул таркиби, viscosity index / ёпишқоқлик индекси, induction period / индукция даври, evaporation / буғланиш, iodine number / йод сони, acidity / кислоталилик, coking ability / кокслаш қобилияти, kinematic viscosity / кинематик ёпишқоқлик, concentration of actual resins / ҳақиқий қатронлар концентратsiяси, well flow rate / қудуқ оқими тезлиги, reservoir pressure / резервуар босим.

вязкость, газовый фактор, точка росы по влаге, горючесть, октановое число, дизельный (цетановый) индекс,зольность, индекс вязкости, индукционный период, испаряемость, йодное число,кислотность, коксуемость, кинематическая вязкость, концентратsiя фактических смол,дебит скважины, пластовое давление «Технологик жараёнлар ва операtsiялар» терминлари: drilling / бурғулаш, borehole drilling / қудуқ бурғулаш, deep drilling / чуқур бурғулаш, fountain drilling method / фаввора бурғулаш усули, vertical seismic profiling / вертикал сейсмик профиллаш, gasification /

газлаштириш, absorption / сингдириш, adsorption / адсорбсия, visbreaking / висбреакинг, water treatment / сувни тозалаш, secondary distillation / иккиламчи дистиллаш, granulation / грануляция, demercaptanization / демеркаптанизатsiя, distillation / дистиллаш, cracking / ёрилиш, evaporation / буғланиш, quenching / сўндириш.

«Жиҳозлар ва ускуналар» терминлари: flow reactor / оқим реактори, continuous feed pump / узлуксиз беслем насоси, autoclave / автоклав, accumulator / аккумулятор, aerotank / аэротенк, bubbler / қабариқ, buffer / тампон, vacuum pump / вакуум насоси, gas generator / газ генератори, gas storage / газни сақлаш, oil storage / мойни сақлаш, fountain equipment / фаввора ускуналари, multistage compressor / кўп босқичли компрессор, degasser / дегассер, reservoir / резервуар, gas processing plant / газни қайта ишлаш заводи, drip / томчи, receiver / қабул қилувчи.

проточный реактор, насос непрерывной подачи сырья, автоклав, аккумулятор, аэротенк, барботер, буфер, вакуумный насос, газогенератор, газовое хранилище, нефтехранилище, фонтанная аппаратура, многоступенчатый компрессор, дегазатор, пласт-коллектор, газоперерабатывающий завод, дрип, ресивер

«Нефть-газ саноатида ишлаб чиқариш, ташиш ва реализатsiя қилиш иштирокчилари» терминлари: drilling rig supervisor / бурғулаш ускунаси бошқарувчиси, surveyor / сурвеер, rig fitter / бурғулаш мосламаси, presser / presser, oil pumping station operator / нефть насос станцияси оператори, drilling crew / бурғулаш экипажи, driller / бурғулаш устаси, drilling foreman, oilman / нефтчи, gas worker / газ ишчиси, drilling supervisor, as well as shale producers / бурғулаш ишлари бўйича назоратчи, шунингдек сланец ишлаб чиқарувчилар, Gazprom / Gazprom, Gazpromneft / Газпромнефть, Tatneft / Татнефт, OPEC / ОПЕК, OPEC countries / ОПЕК мамлакатлари, Novatek / Новатек, Lukoil / Лукойл, Rosneft / Роснефть, oil company / нефть компанияси.

«Нефть-газ қазиб олиш соҳасидаги ҳужжатлар» терминлари: inventory balance / инвентаризатsiя баланси, inventory classification / инвентаризатsiя таснифи, drilling time balance / бурғулаш вақти баланси, technonormative / технонорматив.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришганидан сўнг нефть саноатини ривожлантириш масаласи муҳим ишга айланди. 1992-йил 23-декабрда нефть ва газ саноати ҳамда у билан боғлиқ барча корхона, ташкилот, муассасалар ягона бошқарувга бирлаштирилиб, «Ўзбекнефтгаз» миллий корпоратsiяси ташкил этилди. 1993-йилда Фарғона ботиғининг

ўта чуқур қатламларидан (Мингбулоқ тузилмасидан) нефть отилиб чиқди (қидирув-бурғилаш ишлари давом этмоқда). Республика нефть саноати халқ хўжалигининг нефтга бўлган талабини тўлиқ қондириш имкониятларига эга. Айниқса, Кўкдумалоқ кони жадал суръатлар б-н ишга туширилди. 1995-йилда Ўзбекистонда 7 млн. тоннага яқин нефть ва конденсат қазиб олинди. 1991-2003-йилларда Ўзбекистонда нефть ва газ конденсатини олиш 2,8-марта ошди (1990-й. да 2,81 млн. т; 1997-й. да 7,9 млн. т) ва 1995-йилда нефть импортини тугатиб, республиканинг нефть мустақиллигини таъминлашга имкон яратди. 2001-йилнинг январига келиб Ўзбекистонда 59 кондан нефть олинди, 17 та кон ишлатишга тайёрланган ва кон-serbatsiяда, 13 та кон қидирув ҳолатида. Нефть қазиб олиш ва конларни излаб-текшириш бўйича Ўзбекистон-Малайзия қўшма корхонаси (O‘z-Maloyl) (1994) ташкил этилди. Ўзбекистон нефть мустақиллигига эришгач, четдан нефть ва нефть маҳсулотлари ташиб келтиришга зарурат қолмади. 2000-йилда Ўзбекистон нефть саноатида газ конденсата билан бирга 7,53 млн. тонна нефть қазиб олинди [3].

Янги иқтисодий муносабатларнинг шаклланиш шароитида давлат саноатнинг асосий тармоқлари, чунончи ёқилғи-энергетика мажмуи корхоналарига катта ёрдам берди. Бу борадаги давлат сиёсати энергетика стратегиясининг асосий йўналишлари сифатида нефть ва газ конденсатини қазиб олишни кўпайтириш орқали ёқилғи мустақиллигини таъминлаш белгиланди [4]. Нефть-газ саноатига оид терминларни қуйидаги типологик белгилари аниқланди (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

Нефть-газ саноатига оид терминлар типологияси

Таҳлиллар натижаси бизга нефть-газ саноатига оид илмий мақолаларда лексик бирликларини қуйидаги тематик гуруҳларга тақсимлашга имкон берди:

1) нефть-газ саноатининг умумий шартлари;
2) бурғулаш ишлари;
3) иқтисодий кўрсаткичлар;
4) нефтни тиклашни ошириш усуллари;
5) сланец жинсларнинг гидравлик синиши;
6) қазиб олиш;
7) углеродни сақлаш;
8) сунъий ақлдан фойдаланиш.

Нефть-газ компаниялари ҳисоботлари таҳлили қуйидаги тематик гуруҳлар аниқланди:

1) нефть-газ саноатининг умумий терминлари;
2) иқтисодиёт ва менежмент;
3) экология.

Нефть-газ саноатини ривожлантириш прогнозлари таҳлили қуйидаги лексик бирликлар гуруҳларини аниқлашга имкон берди:

1) нефть-газ саноатининг умумий терминлари;
2) иқтисодиёт ва иқтисодий прогнозлар;
3) энергетика соҳаси;
4) экология;
5) сиёсат;
6) умумбашарий тенденциялар.

“Қора олтин” бошқа таркиб ва сифатга эга бўлиши қазиб олиш жойига боғлиқ бўлади. Шу сабабли, дунёда ишлаб чиқарилган барча нефть навларга бўлинади. Ҳар бир нав ўзига хос таркибга эга ва таркибида ҳар хил миқдордаги олтингугурт, алканлар гуруҳлари ва бошқа аралашмалар мавжуд. Қоида тариқасида, нефть навлари енгил ва оғирга бўлинади. Шу сабабдан нефть навларига оид терминлар қуйидагича ажратилади:

Brent – Буюк Британия нави;
WTI (West Texas Intermediate) и Light Sweet – АҚШ нави;
Urals – Россия нави.
Arab Light и Arab Heavy – араб нави;
Kuwait Export Crude – Қувейт нави;
Iran Heavy и Iran Light – Эрон нави;
Basra Light, Basra Light и Kirkuk – Ироқ нави;
Statfjord – Норвегия нави;
Tengiz или Tengiz Light – Қозоғистон нави.

Нефть-газ саноати терминларга оид тадқиқотлар инглиз тилида сўзлашадиган анъана шуни кўрсатдики, терминлар гуруҳлари терминологик қатламлар муайян терминлар битта макро тизим остида бирлаштирилган, бунинг натижасида инглиз тилидаги нефть-газ саноатининг терминологик таркиби оқилона лексик-семантик табақаланиши учун ўзини қарз, қайси ушбу терминологик бирликларни ўрганиш ва таҳлил қилишни соддалаштиради.

Терминнинг этимологик таҳлилини ўтказиш, биринчи навбатда, тилнинг келиб чиқиши аниқланади, ундан уни билдирувчи сўз келиб чиққади. Табиийки, тил “тирик” модда бўлгани учун сўз ўзгаради (ортади, қисқаради, ҳарфларни йўқотади ва ҳоказо.), кўпинча бошқа фонетик маънога эга бўлади ва идрок этиш учун мутлақо нотаниш шаклда бизга етиб боради.

Масалан, oil терминининг яратилиш эволюциясини кузатиш учун қуйидаги занжирни кузатиш лозим: oleum (лотин тили) – оливко дарахти; huile (қадимги француз тили) – суюқ мой; oil (инглиз тили) – нефть, ёғ. Бундан ташқари, oil терминининг маъноси биринчи marta 1520 йилда ишлатилган [10].

Аммо умуман олганда таржималарнинг маъноси мазмунга боғлиқ: ... analogous projects of optimal development of oil and/or gas fields – нефть конларини ривожлантиришни бирлаштириш бўйича аналогик лойиҳалар. Ушбу терминнинг бошқа маънолари ҳам мавжуд:

development of heat – иссиқлик тарқалиши, иссиқлик ҳосил бўлиши;

advanced development – тажрибани ишлаб чиқиш;

crestal development – нефть конини марказдан ривожлантириш;

delayed development – конни бир вақтнинг ўзида ишлатиш билан секин бурғулаш;

early development – дастлабки ривожланиш, конни қазиб олишнинг дастлабки даври;

marginal development – конни атрофдан марказга бурғулаш;

field development – нефть конини қазиб олиш;

recent development – охирги ривожланишлар, техниканинг сўнгги ютуқлари;

wave development – тўлқинларни шаклланиши.

Шундай қилиб, соҳавий терминларни инглиз тилидан таржима қилишда юзага келадиган қийинчиликларни енгиш учун у махсус адабиётлар ва юқори сифатли, доимий янгиланиб турадиган маълумотномаларни ўрганиши керак. Нефть-газ саноатига оид матнларни таржима қилишда қуйидаги қийинчиликлар пайдо бўлиши мумкин:

кўпмаънолилик, нефть-газ саноатига оид билимлардан фойдаланган ҳолади таржима учун муҳим бўлган сўзнинг маъносини танлаб олинади;

кўп компонентли, ҳар бир термин битта компонент ёки кўп компонентли бўлиши мумкин. Матн билан ишлашда концепциянинг таржимасини алоҳида ва қўшни сўз билан биргаликда текшириш керак;

она тилидаги терминологияни билмаслик, таржимада терминнинг она тилидаги мос таржимасини топилиши мумкин, аммо унинг аниқ маъносини билмайди. Бундай вазиятларда нефть-газ саноати соҳасидаги билимлар ҳам фойдали бўлади.

реалилар, исмлар, уларнинг таржимаси текширилиши керак, чунки улар кўпинча турли тилларда ўз таржималарига эга [6].

Шунингдек, нефть-газ саноатига оид терминлар тизимининг махсус гуруҳи илмий-техник фразеологик бирликлар сифатида ҳамда зоонимлар бўлиб хизмат қилади. Масалан:

wildcat – қидирув қудуғи;

monkey board – площадка для верхового рабочего;

pipe dog – труба калити;

rabbit – қувурни тозалаш учун қирғич;

butterfly – битирув клапани;

doghouse – бурғулаш устасининг трейлер кабинаси;

snake – асбест шнури; арқоннинг учини дастгоҳнинг юқори қисмига боғлайдиган қурилма;

dog leg – қудуқнинг кескин эгрилиги;

nodding donkey – тебранадиган насос [9].

Кўпмаъноли терминларни таржима қилишда уларнинг мазмунига эътибор бериш керак. Масалан, advanced development – истиқболи ишланма; field development – нефть конларини ривожлантириш; marginal development – депозитни перифериядан марказгача бурғулаш; heat development – иссиқлик тарқалиши; delayed development – бир вақтнинг ўзида ишлайдиган майдонни кечиктирилган бурғуланиши [7].

Соҳавий терминларларнинг типологияси аниқлангандан сўнг ўқитиш методикасига оид тадқиқотларда мазкур терминлар типологиясини мустаҳкамлаш учун имкон яратиб беради [1, 2].

Хулоса қилиб айтганда, нефть-газ саноатига оид терминлар типологияси моддалар, нефть-газ геофизикаси, нефть-газни қайта ишлаш маҳсулотлари, нефть-газни қайта ишлаш моддалари ва маҳсулотларининг хусусиятлари, технологик жараёнлар ва operatsiялар, жиҳозлар ва ускуналар. нефть-газ саноатида ишлаб чиқариш, ташиш ва реализatsiя қилиш иштирокчилари, нефть-газ қазиб олиш соҳасидаги ҳужжатлар каби мавзулар бўйича гуруҳлаштириш имконини беради. Бунда нефть-газ саноатига оид матнларни таржима қилишдаги қийинчиликларни аниқлашни талаб этади.

Адабиётлар:

1. Isakulova N. Using the Venn Diagram in Teaching Geography Terms //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 2519-2523.

2. Isakulova N. USE OF BLITS-QUESTION METHODOLOGY IN TEACHING TERMS OF GEOGRAPHY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 84-88.

3. Neft sanoati. Электрон ресурс: NEFT SANOATI □ WWW.MALUMOT.RU - Malumotlar bazasi

4. 1.1. Ўзбекистоннинг энергетика сиёсати. Электрон ресурс: uzb_un_uzb_1_The_Outlook_for_the_Development_of_Renewable_Energy_in_Uzbekistan.pdf (undp.org).

5. Ваҳобов Ш.В. Нефть ва газ саноатида ишлаб чиқаришни ресурслардан фойдаланиш усулларининг илмий-назарий асослари // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90). Электрон ресурс: https://cyberleninka.ru/article/n/neft-va-gaz-sanoatida-ishlab-chi-arishni-resurslardan-foydalanish-usullarining-ilmiy-nazariy-asoslari. Мурожаат санаси: 07.11.2022.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада нефть-газ саноатига оид терминлар типологияси терминологик бирликларни таҳлил қилиш орқали мавзуий гуруҳлаштириш, лексик бирликларнинг тематик гуруҳлари, терминнинг этимологик таҳлили, термин таржимасидаги қийинчиликлар ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье типология терминов, относящихся к нефтегазовой отрасли, освещается путем анализа терминологических единиц, тематических групп лексических единиц, этимологического анализа термина, трудностей при переводе термина.

SUMMARY

In this article, the typology of terms related to the oil and gas industry is covered by the analysis of terminological units, thematic groups of lexical units, etymological analysis of the term, difficulties in the translation of the term.

EKOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Obidova G. K.
TATU Farg‘ona filiali Xorijiy tillar kafedrasi mudiri PhD, dotsent

Tayanch so‘zlar: ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, tabiat, globallashuv.
Ключевые слова: экология, экологическая культура, экологическое сознание, природа, глобализация.
Key words: ecology, ecological culture, ecological consciousness, nature, globalization.

Kirish. Hozirgi kungacha vatanimiz qaysi bir sohani olmaylik yuqori natijalarga yerishib rivojlanishning o‘zbek modelini dunyo hamjamiyatiga ko‘rsatib qo‘ymoqda. Bu borada ekologik ta’lim sohasiga ham alohida e’tibor berib kelinmoqda. Davlatimiz tomonidan ekologik ta’limni rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlarning barchasi yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lib yetishishiga xizmat qilmoqda. Ekologik ta’lim jarayonida talabalarni faoliyatiga o‘rgatish har bir professor – o’qituvchidan yuksak mahorat, ta’limni tashkil etish tug’risidagi bilimlar tizmini mukammal egallash, ular bilan ishlash va ularni mustaqil faoliyatlarni tashkil etishni uyushtira olish ko’nikma va malakalariga ega bo’lishlikni talab etadi. XXI asr bosag’asida axborot texnologiyalari jamiyatning shu qadar muhim bo‘lagi va tarkibiy qismiga aylandiki, mamlakatning barcha sohalari jadal sur’atlar bilan rivojlanishi bevosita unga bog‘liq bo‘lib qoldi. Shu sababli har bir davlat bugungi kunda jamiyatni va shu bilan birga ta’limni ham axborotlashtirish masalasiga jiddiy e’tibor bermoqda. Ekologik ta’limni axborotlashtirish-axborotlashgan jamiyat sharoitida talaba-yoshlarni jamoatchilik va kasbiy faoliyatda samarali qatnashishga tayyorlash maqsadida ta’lim tizimining barcha komponetlarini axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida yaxshilash bosqichidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologik ta’limi o‘qitish jarayonini axborotlashtirish va o‘qitishda o‘quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish; o‘qituvchi va uning rolini o‘zgartirishga bo‘lgan talablarni ortishi; o‘rganuvchi shaxsining va uning individuallashtirish xususiyati rolining ortishi; ta’lim muassasa rolining o‘zgarishi va uning o‘quvchi-yoshlar tarkibi joylashgan joyga ta’siri; axborot resurslarining mumkin bo‘lgan hajmining to‘satdan

ortishi; axborot xizmati ko‘rsatishning ahamiyatini o‘sishi, ayniqsa, ta’limiy va ilmiy xarakterdaligi kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ekologik fanlarini o‘qitish tizimini axborotlashtirish bu jarayonni sifatini oshirish; aholi bilimdonlik saviyasi oshishi va mamlakatning iqtisodiy potensiali o‘sishini ta’minlash; milliy ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalanishini ta’minlash kabi muhim masalalarni hal qilishni ta’minlaydi. Bu masalalarning o‘z vaqtida hal etilishi esa: a) biologik bilimlarni mexanik tarzda o‘zlashtirishdan yangi bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmasiga o‘tishni ta’minlovchi tabiatni muhofaza qilish ishlanmalarni amaliyotga keng joriy etishga asos yaratadi; b) axborotlar (to‘plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish) bilan ishlashning zamonaviy usullarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi; v) ekologik ta’limi fanlarini o‘qitishda o‘quv-biluv faoliyatni intellektuallashtiradi. Axborot texnologiyasi dasturli-apparatli imkoniyatga ega bo‘lib, uni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish quyidagilarni ta’minlaydi: interaktiv rejimda ishlash; foydalanuvchi va axborot texnologiyasi o’rtasida sezilarli teskari aloqa o‘rnatish; o‘rganilayotgan jarayonni, shu jumladan, haqiqiy kechayotgan jarayonni aniq tassavur qilish, turli xil ob’ektlar yoki haqiqiy kechayotgan jarayon yoki hodisa modelini kompyuter ekranida obrazli ko‘rinishda tasvirlash va uni boshqarish; o‘rganilayotgan ob’ekt va unda ro‘y berayotgan hodisa yoki jarayon haqidagi ma’lumotlarni qayd etish, to‘plash, saqlash va qayta ishlash; yetarli katta hajmdagi axborotlarni baza ko‘rinishida saqlash va ulardan optimal foydalanish imkoniyatini ta’minlash; eksperiment natijalarini qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish.

Qayd etilganlar esa, o‘z navbatida, axborot texnologiyalari ekologiya fanini o‘qitish jarayonida foydalanishning quyidagi pedagogik maqsadlarini aniqlash imkonini beradi:

- talabaning ijodiy salmog‘ini rivojlantirish;
- munosabat xatti-harakatlarga qobiliyatlilikni rivojlantirish;
- tajriba-sinov - tadqiqot faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘quv-biluv faoliyat ekologik madaniyatini rivojlantirish;
- o‘quv-tarbiya jarayoni barcha pog’onalarini sifat va samaradorligini oshirish;

Talabaning ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarini monitoring qilish hamda baholash katta ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish og‘zaki, yozma va amaliy shaklda amalga oshiriladi. Og‘zaki tekshirish talabalar bilimining saviyasi, puxtaliga va ongliligini aniqlash imkonini beradi. Bilimlarni yozma tekshirish nisbatan kamroq, odatda talabalar bilimini sinab ko‘rish kerak bo‘lganda, ya’ni ularni berilgan mavzuni

o‘rganishga u yoki bu masala bo‘yicha qanday bilimlar bilan kelganligini va bu bilimlar mavzuni o‘rgangandan keyin qanday darajada to‘lganligini aniqlash zarur bo‘lganida qo‘llanadi.

Talabalarda ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish jarayoni quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan:

1. Bilim, ko‘nikma va malakalar sifatini aniqlash. Bilim, ko‘nikma va malakalarning sifati, eng avval ularning puxtaligi va ongliligi bilan tavsiflanadi. Bilim, ko‘nikma va malakalarning puxtaligiga ishonch hosil qilish uchun ularni faqat o‘zlashtirayotgan paytida emas, balki o‘quvchilarning keyingi faoliyatida ham tekshirib borish kerak. Shunday, qilib, butun ekologik ta’lim davomida talabalar faoliyati tizimli ravishda uzluksiz nazorat qilib boriladi.

2. Talabalarni ekologik ta’lim jarayonidagi faoliyatlarini rag’batlantirish. Bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish pedagog va talaba uzaro yordam ko‘rsatishi uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tekshirish jarayonida ularni ishlaridagi xatolarni ko‘rsatish bilan cheklanib qolmay, bu kamchiliklarni bartaraf etishga yordam bersagina bunga erishish mumkin. Bundan tashqari, ular bajargan ish bosqichining umumiy tavsifini tushuntiradi, bunda u o‘quvchilarda bajariladigan ishning bajarilgan ishlardan farqlari haqida-uning murakkablik darajasi yoki javobgarligi va ekologik axborotlar haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Natijada talabalar kelajakni ko‘radilar va bu ularni safarbar qiladi, o‘z vazifalarini tashkil qilish, mustaqil topshirilarini sifatli bajarish ishtiyoqini uyg‘otadi.

3. Talabalar o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini o’zlashtirish. Ekologik ta’limi pedagogi, ko‘nikma va malakalarini tekshirishga talabalarni o‘zlarini ham jalb etadi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish baholash bilan yakunlanadi. ekolodiya mashg‘ulotlarida baholash ta’lim tizimi barcha bo‘g‘inlarida keng joriy etib borilayotgan reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. Ekologik ta’limi fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalansa, uning hozirgi zamon talablari darajasida talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganadi va ularda tabiatni muhofaza qilish bilimlari, ko‘nikma va malaka shakllanadi. Demak, talabalarni ekologiya fanidan bilim olish faoliyatini tashkil etish ishi hozirgi kunda ta’lim sohasining dolzarb maslalaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda va axborot texnologiyalarni bu jarayonda o’rni beqiyosdir.

Tahlil va natijalar. Ekologik ta’limda talabalarning ekologik madaniyatini shakllan-tirish maqsadida eng muhim vazifalardan biri zamonaviy kompyuter texnologiiyalaridan foydalanishdir. Mazkuv vazifani bajarishga yo‘naltirilgan kompyuter dasturlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

– ekologik fojia yuz bergan holatlarda talabalarga barcha mavjud samarali usullarni to‘g‘ri qo‘llash yoki talofatni kamaytirishni o‘rgatish;
– talabalarga yuzaga kelgan ekologik xavfning darajasini baholashni o‘rgatish;
– talabalarni fanning va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida qoidalarga amal qilishning foydali tomonlariga ishontirish.

Ta’kidlab o‘tish joizki, samarali ta’lim texnologiyalarni tanlash u ekologik ta’limning maqsad va vazifalariga erishishning universal vositasi ekanligini ham inobatga oladi, ya’ni o‘z mohiyatiga ko‘ra nazariy va amaliy faoliyat turlarini o‘zaro bog‘liqligini nazarda tutadigan ekologik madaniyatni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Ta’limning ekologiyalashtirish jarayonida o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyat nafaqat uning maqsad, vazifalari va turli pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mazmunini to‘g‘ri aniqlashga, balki ko‘p sonli o‘qitish metodlariga bog‘liq bo‘lishi kerakligini ham yodda tutish kerak. Ma’lumki, o‘qitish metodlari o‘qituvchi va talaba o‘rtasida tadrijiy va o‘zaro bog‘liq harakatlarning universal tizimi sifatida aniqlanadi. Ushbu o‘qitish metodlari ta’lim mazmunini o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Dunyoning turli mamlakatlarida ekologik ta’limning nazariy asoslarini o‘rganish uning kategorial apparati (maqsad, vazifa va prinsipial qoidalari) olam jarayonlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarila-yotganini ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar umuman olganda zamonaviy pedagogika fanini rivojlantirishga (global muammolar, umuminsoniy qadriyatlar ustunligi) hamda geosiyosiy va milliy mazmundagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy muammolarga ta’sir ko‘rsatadi. Ular tabiat va uning zaxirala-riga munosabatning iste’molchilik madaniyatini qayta qurish, atrof-muhitda uni holati uchun javobgarlikka asoslagan sifat jihatidan yangi xatti-harakatni shakllantirish ehtiyoji bilan bog‘liq. Vazifalarning mazmuniga shaxs bilan tabiat munosabatlarini boshqarishning axloq va odob komponentlari, mahalliy, mintaqaviy va global turli tashkiliy bosqichlarda ijtimoiy tabiat muhiti uchun javobgarlikni tarbiyalash kiritiladi. Oliygoh talabalarining ekologik madaniyati va tarbiyasi – bu ko‘p qirrali, dinamik, ko‘p pog‘onali jarayon. Uni turli taraflardan o‘rganish mumkin. Jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi shaxsning ideal modeliga bo‘lgan talablar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tarkib toptirishda jahon hamkorligiga bo‘lgan tendensiyani o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi ta’lim maqsad va vazifalari, mutaxassis vazifa va funksiyalari, tayanch kasbiy-pedagogik qadriyatli yo‘nalganliklarni, shaxs-ning kasbiy shakllanish yo‘nalishi, uning dunyoqarash asoslarini sezilarli darajada o‘zgartiradi.

Adabiyotlar:

1. Горлачев В.П. Формирование экологической культуры личности в образовательном процессе: региональный аспект: Дис. докт. пед. наук. –Чита, 2005. – С. 14

2. Ишмухаммедов Р.Ж, Юлдашев М Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар – Т.: Тошкент, 2017.- 169, 182, 212 б.

3. Kuzibaevna, O. G. (2020). Technologies of developing the ecological culture of students in the process of learning a foreign languages in higher educational institutions. Solid State Technology, 63(1s), 1816-1825.

4. Kuzibaevna, O. G. (2021). Analysis of Effective Ways to Develop Students' Environmental Culture in Foreign Language Teaching. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(12), 37-43.

5. Обидова, Г. (2021). Развитие экологической культуры в образовательных моделях развитых стран мира. Общество и инновации, 2(10/S), 251-256.

6. Обидова, Г. К., & Гайбуллаева, М. Ф. (2021). Хорижий тилларни ўқитишда экологик таълимнинг педагогик психологик имкониятлари. Scientific progress, 2(7), 312-321.

7. Обидова, Г. К. (2016). Закономерности и принципы становления и развития экологической культуры будущих учителей в системе педагогического образования. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3-5), 82-85.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola uzluksiz ekologik ta'lim tizimini samarali joriy etish natijasida aholi va jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirish, aholini uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar va talabalar o'rtasida ekologik ong va madaniyatni shakllantirmasdan turib, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga mumkin emasligi hamda ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, uning ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va buzilishlardan himoya qilish, aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье показано, что повышение экологической культуры населения и общества возможно благодаря эффективному внедрению в нашей стране системы непрерывного экологического образования. Дело в том, что без формирования экологического сознания и культуры у населения, в первую очередь у студентов и студентов, обучающихся в системе дополнительного образования. Актуальность экологического образования определяется природой нашей страны, ее экосистемами, необходимостью защиты окружающей среды от нестабильности и нарушения, повышения экологической культуры населения.

SUMMARY

The article illustrates the improvement of the ecological culture of the population and society is possible due to the effective introduction of a system of continuous environmental education in our country. The fact is that without the formation of ecological consciousness and culture among the population, primarily among students and students studying in the system of continuing education. The relevance of environmental education is determined by the nature of our country, its ecosystems, the need to protect the environment from instability and disruption, increase the ecological culture of the population.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫТЕСНЕНИЯ ГАЗА ВОДОЙ И КОНДЕНСАТОМ ИЗ ГИДРОФИЛЬНЫХ И ГИДРОФОБНЫХ ПОРИСТЫХ СРЕД

Авлаярова Н. М.
доцент (Каршинский инженерно-экономический институт)
Азизова Д. Г.
доцент (Каршинский инженерно-экономический институт)
Номозов Б. Ю.
доцент (Каршинский инженерно-экономический институт)

Таянч сўзлар: газоконденсатли қатламлар, ретроград, конденсация, углеводородли аралашма, конденсатли ҳошия, конденсат, гидрофил тоғ жинси, гидрофобизация, гидрофоб ғовак муҳит.

Ключевые слова: газоконденсатные пласты, ретроград, конденсация, углеводородная смесь, оторочка конденсата, конденсат, гидрофильная порода, гидрофобизация, гидрофобная пористая среда.

Key words: gas condensate reservoirs, retrograde, condensation, hydrocarbon mixture, condensate rim, condensate, hydrophilic rock, hydrophobization, hydrophobic porous medium.

Введение. Ведущее место в добыче углеводородного сырья в стране занимают газоконденсатные месторождения. Многие из них содержат нефтяные оторочки и остаточную нефть. Известный способ повышения углеводородоотдачи газоконденсатных месторождений путем закачки в пласт сухого газа характеризуется значительными сроками разработки, высокими затратами и недостаточно эффективен в условиях пониженных пластовых давлений. Традиционные методы разработки газоконденсатнонефтяных месторождений обеспечивают очень низкий коэффициент извлечения нефти.

Получение высоких значений коэффициента углеводородоотдачи продуктивных пластов связано с необходимостью обеспечения устойчивой работы эксплуатационных скважин при наличии жидкости (воды, конденсата) в добываемой продукции. Вместе с тем многие вопросы технологии и техники эксплуатации газовых скважин с жидкостью недостаточно изучены.

Проблема повышения углеводородоотдачи месторождений природных газов относится к числу важных и актуальных в газовой промышленности и имеет большое народнохозяйственное значение.

Газоконденсатные и газоконденсатнонефтяные месторождения занимают ведущее место в добыче углеводородного сырья в нашей стране. В настоящее время они обеспечивают большую часть общесоюзный добыча газа. С каждым годом возрастает их роль в добычи жидких углеводородов.

Разработка газоконденсатнонефтяных залежей — это комплекс работ по извлечению газа и конденсата из пласта. Осуществляется на газоконденсатном месторождении посредством реализации определённой системы разработки — размещением на площади газоносности и структуре необходимого числа эксплуатационных и нагнетательных скважин, соблюдением поддержанием необходимых технологических режимов эксплуатации скважин.

Из методов повышения углеводородоотдачи на отдельных газоконденсатнонефтяных месторождениях нашей страны внедрены барьерное заводнение, законтурное заводнение и их сочетание, а также проведен успешный промышленный эксперимент по приконтурному заводнению с частичным смещением нефтяной оторочки в газовую часть пласта. Закачка воды не обеспечивает достаточно полного извлечения нефти из пласта. В связи с этим необходимы поиски более эффективных вытесняющих агентов. Рациональная технология разработки газоконденсатнонефтяных месторождений должна предусматривать поддержание пластового давления в нефтяной и газовой частях пласта и эффективное вытеснения нефти из пористой среды дешевыми и доступными агентами.

Обзор литератур.Газоконденсатные пласты могут заводняться при начальном пластовом давлении или после **снижения** давления на некоторую величину и ретроградной конденсации углеводородной **смеси. Согласно** опытным данным в условиях проявления водонапорного режима **часть** выпавшего конденсата вытесняется водой из **пористой** среди **с** образованием впереди фронта воды оторочки конденсата. **В этом** случае газ вытесняется конденсатом, а тот в свою очередь- водой.

Гиматудинов Ш.К. считает, что большинство коллекторов газоконденсатных месторождений сложено гидрофильными породами /2/. Ретроградная конденсация углеводородной смеси способствует некотором гидрофобизации пористой среды. Более существенное влияние оказывает остаточная нефть, встречающаяся во многих газоконденсатных пластах. При наличии ее поверхность породы гидрофобизируется. Кондрат Р.М. /3/ считает, что коллекторы нефтяных залежей имеют преобладающе гидрофобный характер.

таълим соҳасида гендер тенглик ва фарқларни ўрганишга оид тадқиқотларнинг асосий мақсади – жинсларнинг ижтимоий хулқидаги ўхшаш ва фарқли томонларини тадқиқ этиб, таълим-тарбия жараёнида ҳисобга олишдан иборат. Бунда таълим-тарбия жараёнига гендер ёндашув болаларнинг ижтимоийлашув жараёни енгил ва қулай кечишини таъминлашга йўналтирилган бўлиб, ўзларини қиз ёки ўғил бола сифатида идентификация қилишларида ёрдам бериш учун таълим ва тарбиянинг зарур восита, метод ва усулларини танлаш ва амалиётда қўллашни назарда тутади.

Адабиётлар:

1. Дусказиева Ж.Г. Гендерная психология: учебное пособие / Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева. – Красноярск, 2010. – 108 с. (-С.71)

2. Гулямов Д.Р., Нурбоев Қ.М. Мактабгача ёшдаги болаларга таълим беришда бош мия яримшарлари асимметриясини ҳисобга олиш муаммоси // Уз МУ Ахборотнмаси, 2020, ¼. - Б. 89-93.

3. Гулямов Д.Р., Каланходжаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе / Ж. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. № 11, 2018. –С.38-43

4. Ибраимов Ҳ. Нейропедагогика как новое прикладное направление в педагогике. International scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy. Конфер.Boston, USA, 10–11 октября 2018г

5. Сиротюк А.Л. Нейропсихологическое и психофизиологическое сопровождение обучения. – Москва: «ТЦ СФЕРА», 2003. — 288 с.

6. Ушакова М.Ю. Гендерные особенности речи детей дошкольного возраста: Автореф. дисс. кандидата психологических наук. –Иркутск, 2006. – 24 с.

7. Цветков А.В. Нейропедагогика для учителей: как обучать по законам работы мозга. – М.: Издател. “Спорт и Культура, - 2000”, 2017. –С.26-27

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчиларнинг гендер фарқлари ва индивидуал ўзига хосликларини инобатга олиб ўқитишнинг муҳимлиги адабиётларда таҳлил қилинган бўлиб, тадқиқотимиз доирасида катта гуруҳ болаларини ўқув жараёнларида БКМларини педагогик диагностига методларда ва индивидуал ўзига хосликларини нейропедагогик диагностика методлари орқали аниқлаш муҳим эканлиги таъкидланади. Натижада болаларни билиш фаоллиги ошганлигини математик-статистик таҳлиллар орқали исбот қилинган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проанализирована значимость воспитания в организациях дошкольного образования с учетом гендерных различий и индивидуальных особенностей обучающихся в литературе, а также подчеркнута важность выявления МДК большой группы детей в образовательный процесс в методах педагогической диагностики и их индивидуальные особенности с помощью нейропедагогических методов диагностики. В результате математическим и статистическим анализом было доказано, что познавательная активность детей повысилась.

SUMMARY

This article analyzes the importance of upbringing in organizations of preschool education, taking into account gender differences and individual characteristics of students in the literature, and also emphasizes the importance of identifying MDT of a large group of children in the educational process in the methods of pedagogical diagnostics and their individual characteristics using neuropedagogical diagnostic methods. As a result, mathematical and statistical analysis proved that the cognitive activity of children increased.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI NUTQ O‘STIRISH MASHG‘ULOTLARIDA BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH METODIKASI

Musulmonova Sh. T.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so’zlar: nutq, og‘zaki nutq, muloqot, fikr, til, til vositalari, muomila madaniyati, psixologik jarayon.

Ключевые слова: речь, устная речь, общение, мысль, язык, языковые средства, культура общения, психологический процесс.

Key words: speech, oral speech, communication, thought, language, language means, culture of communication, psychological process.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev “Yoshlarni ezgu g‘oyalar ruhida kamol toptirish murabbiylarninig asosiy vazifasidir” deya ta’kidlaydi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5 ta muhim tashabbus, “Davlat talablari”, “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida bolalarga bilim, ko‘nikma va malakalar berib kelinmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti boshlang‘ich ta’limning poydevori sanaladi. Shu jihatdan MTTda bolalardagi iste’dod va qobiliyatlarni aniqlash bilan bir qatorda badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish orqali bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish imkoni ancha keng sanaladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini grammatik tomondan shakllantirish qo‘yidagicha amalga oshiriladi.

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo‘lgan kattalar, muloqoti tufayli insoniyatning ko‘p asrlik tajribalarini o‘zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning amalda tadbiqini esa insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina yetkazish mumkindir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilida so‘zlashni o‘rgatish, ularning nutqini rivojlantirish va ularni nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar nutqini rivojlantirish yuzasidan quyidagi maxsus xususiy vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, ularning nutqini o‘stirish va boyitish
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash
4. So‘zlashuv nutqini (dialog) ni shakllantirish
5. Hikoya qilishga o‘rgatish (monologik nutqni shakllantirish).
6. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish
7. Bolalarni boshlang‘ich savodga tayyorlash

Ushbu vazifalar har bir guruhdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha taqsimlangan.

Kichik guruhlarda:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, bolaning lug‘atini boyitish
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash
4. So‘zlashuv nutqini (dialog)ni shakllantirish
5. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish

Ushbu guruhda hikoya qilishga o‘rgatish (monologik nutqda) bo‘yicha boshlang‘ich ma’lumot berish belgilangan. Kichik guruh bolalari tarbiyachining hikoyasini eshitib, uning savollariga javob bera olishi, mavzulardagi rasmlar yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga, avval eshitgan ertak va hikoyalarini xotirasida tiklab uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishlari lozim.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, ularning nutqini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish mazkur bosqichlarning navbatdagi eng muhim jihatlaridan biridir. Chunki lug‘at ustida ishlash bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Ularni tevarak-atrofdagi buyumlar, hodisalar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va shu kabilar bilan tanishtirish jarayonida buyumlarning nomlarini, ularning sifatlari, xususiyatlari, xarakterlarini so‘zlar bilan bayon etamiz. Masalan, buyumlarni nomini anglatadigan ko‘zgu, taroq, sovun, tish va kiyim cho‘tkalari, palas gilam, javon, krovat, xontaxta kabilar. Sabzavotlarning nomini anglatadigan sabzi, karam, sholg‘om, bodring, baqlajon, o‘simliklar, daraxtlar, gul, o‘t va boshqalar, mevalar olma, nok, olcha, gilos, olxo‘ri va hakozolar .

Uy xayvonlaridan xo‘roz, tovuq, ot, sigir, it, mushuk, qo‘y, eshak va ularning bolalarining nomini bildiruvchi katta, kichik, qizil, sariq, ko‘k, zangori, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq va hakozo so‘zlar bolalarni tevarak-atrof

bilan tanishtirish jarayonida ularning lug‘atiga kiritiladi. Buning natijasida ularning so‘z zaxirasi ortadi va nutqi rivojlanadi.

Nutqning grammatik tomonini shakllantirish lug‘at, tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so‘zlarning o‘zgarishi va ularning o‘zaro bog‘lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari grammatika tilning qurilish modelini (so‘z, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi) belgilaydi.

Bola atrofdagilardan grammatik tomondan shakllangan nutqni eshitadi, eshitgan so‘zning ma’nosini tushunish bilan birga tilning grammatik tomonini egallaydi, uning modelini bilib oladi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash uchun bola eng avvalo, tilning tovush tomonini egallashi kerak, ya’ni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi lozim.

Nutqning tovush tomoni ustida ishlashi o‘zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasiga asoslanadi. Bola kattalarga taqlid qilib so‘zlarda urg‘uni to‘g‘ri ishlatishga o‘rganib oladi. Ona tilining intonatsion tomonini o‘zlashtiradi hamda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga odatlanadi. Agarda tarbiyachi bola nutqidagi, tovush talaffuzida nuqsonlar, ohang va tempga, diksiyasiga (aniq, burro gapirish) nutqning mazmundorligi va ifodaliligiga e’tibor bermasa, bunday nuqsonlar bilan maktabga borgan bola berilgan bilimlarni o‘zlashtira olmaydi. Bu uning kelajakdagi mustaqil hayot tarzida ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolaning nutqi boshqalarga tushunarsiz bo‘ladi. O‘z fikrini ifodalashga qiynaladi, uyaladi, natijada esa gapirmaslikka harakat qilib indamas jizzaki bo‘lib qoladi. Bularning hammasi uning ruhiy rivojlanishiga ham ta’sir etadi.

So‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish bolalarga bilim va tarbiya berishda so‘zlashuv nutqiga (dialog) o‘rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so‘zlashish kundalik faoliyatlari va turli voqea va hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo‘lgan tushunchalarni aniqlash va uni tizimga solishga eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. Bolada so‘zlashuv nutqini shakllantirish bu boshqalarning nutqini tinglash va tushuntirish, so‘zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so‘rashdir (savollar berish). Bola so‘zlashuvi nutqining rivojlanganlik darajasi, uning lug‘at boyligiga shu o‘rinda tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog‘liqdir.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ularning o‘rtasida keng tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini imotsional taassurotlarini boyitadi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan, u bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi.

1. Badiiy asarni tinglash va tushunish

2. Asar kahramonlarini hatti-xarakatini baholaydi

3. Insonlardagi axloqiy sifatlar va nuqsonlarni ta'riflab beradi

Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish kichik hajmdagi she'rlarni intonatsiyaga rioya qilib yodlab olish va ta'sirchan qilib aytib berish va hokazo. Bola hikoya, she'r, ertak tinglayotganida quvonadi, xuzurlanadi. Bu emotsional ta'sirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, ya'ni uni san'at asari sifatida his qilish qobiliyatini paydo bo'lishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg'ularini shakllantiradi.

Tarbiyachining nutqiga qo'yiladigan pedagogik talablar.

Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nuqtai nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi lozim. Biroq u har doim ham o'z nutqidagi kamchilikni aniqlashga muvaffaq bo'lmaydi. Chunki uning diqqati nutqning shakliga emas, balki mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari uzoq vaqtgacha o'z nutqiga ehtiyotsizlik bilan qaraganligi tufayli ayrim kamchiliklar nutqda mustahkam o'rnashib qolishi va bu nuqson o'ziga mutlaqo sezilmasligi mumkin. Buning uchun tarbiyachi hamkasblarining ko'rsatmalariga amal qilishi va o'z kamchiligini bartaraf etishga harakat qilishi lozim.

Tarbiyachi nutqining samimiy bo'lishida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

- ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi;
- Sof, aniq, ravon nutqqa ega bo'lishi, ya'ni diksiyasi talabga javob berishi;
- bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda yengil, sekin tempdagi o'rtacha baland ovozdagi nutqdan foydalanish;
- bolalar bilan so'zlashganda baland tonda gapirmaslik, qo'pol so'zlardan, adabiy til normalariga to'g'ri kelmaydigan mantiqsiz birikmalardan foydalanmaslik.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni birgina mashg'ulot orqali barcha rivojlantiruvchi markazlarda nutqiy vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, maishiy faoliyatga tabiat hodisalariga, qo'l mehnati va tabiatdagi mehnatga taalluqli so'zlar faqat tabiiy holda bolalarning shaxsan ishtiroklari jarayonidagina (ovqatlanish, yuvinish, kiyinish, o'simliklarni parvarish qilish, tabiatda mehnat qilish va hokazolar) ular lug'atiga kiritiladi.

Mehnat va uning turlari (maishiy-xo‘jalik, qo‘l mehnati va tabiatdagi mehnat) bolalar lug‘atini boyitishda va nutqiy munosabat malakalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari» Toshkent. «Istiqlol» 2016y.
2. D.R.Babayeva «Nutq o‘stirish metodikasi» Toshkent. 2009y.
3. «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi Toshkent. 2008y.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari .
5. SH.M.Mirziyoyev. Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. 2019 y. 20 mart.

РЕЗЮМЕ

So‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish bolalarga bilim va tarbiya berishda so‘zlashuv nutqiga (dialog) o‘rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so‘zlashish kundalik faoliyatlari va turli voqea va hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo‘lgan tushunchalarni aniqlash va uni tizimga solishga eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi.

РЕЗЮМЕ

Формирование разговорной речи (диалога) обучение разговорной речи (диалога) имеет большое значение в познавательно-воспитательной работе детей. Разговор с детьми дошкольного возраста-важнейшая рабочая задача выявления и систематизации понятий, образующихся в результате их повседневной деятельности и наблюдения за различными событиями и явлениями.

SUMMARY

Formation of colloquial speech (dialogue) teaching colloquial speech (dialogue) is of great importance in providing knowledge and education to children. Speaking with children of preschool age is the most necessary work task to identify the concepts generated by their daily activities and observation of various events and phenomena and to systematize it.

MAKTABGA TAYYORGARLIK GURUHI BOLALARINING O'QUV FAOLIYATIDA O'ZINI NAZORAT QILISHNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YONDASHISHLARI

Абдумўминова Л. А.
Низомий номидаги ТДПУ нинг мустақил тадқиқотчиси

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, katta yoshdagi tarbiyalanuvchilar, o'zini ozi nazorat qilish, tasodifiylik.

Ключевые слова: дошкольное образование, старшие ученики, самоконтроль, случайность.

Key words: preschool education, kata-age educators, self-control, randomness.

O'z-o'zini nazorat qilish - kamchiliklar va xatolarning oldini olish yoki aniqlashga qaratilgan inson faoliyatining har qanday turining asosiy qismidir. Ya'ni, o'zini o'zi nazorat qilish yordamida, odam har doim o'yinda, ishda yoki o'qishda nima bo'lishidan qat'i nazar, o'z harakatlarining to'g'riligini anglaydi.

Ta'lim faoliyatini tashkillashtirish bolalarda mustaqil ravishda mustaqil ta'lim vazifalarini belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish uchun o'quv tadbirlarini tanlash, ish jarayonini kuzatish va natijalarni baholash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida, u maktab yoki maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lsin, bola o'zini baholash va nazorat qilish ehtiyojidan ozod qilinadi. Shu munosabat bilan, bolaning ta'lim faoliyati asta-sekin baholovchi va nazorat qiluvchi tarkibiy qismlarni va shu sababli ichki yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi asosni yo'qotmoqda.

Ta'kidlash joizki, amalda, bolaning tashqi nazorati natijaga qarab ustunlik qiladi, bu yerda har bir qadamning to'g'riligi va har bir qadamni emas, balki natijani emas, balki individual jarayonlar ketma-ketligi tekshiriladi. Bu bo'lajak o'quvchilarda o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon bermaydi [3, 119-b].

Bu katta yoshdagi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida, chalg'itmaslik uchun bolalar turli usullarni qo'llashni boshlaydilar. Motor sezgilarining nazorati ostida ular o'zlarining xatti-harakatlarini boshqarishni boshlaydilar.

Katta yoshli bola ancha vaqt davomida sobit pozitsiyani saqlab qoladi, bu esa ulardan ko'p harakat talab etmaydi [12, 220-b].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ichki aqliy tekislikda sodir bo'ladigan ruhiy jarayonlar tasodifiylikga aylanadi: tasavvur, idrok va nutq, fikrlash, xotira. Xuddi shu yoshda, kattalar bilan muloqotda tasodifiylik shakllanadi. Voyaga yetgan kishining so'rovlari va topshiriqlari bilan bog'liqlik, taklif qilingan qoidalarga muvofiq ularni qabul qilish va bajarish qobiliyati muloqotning tasodifiyligining ko'rsatkichidir. Bu tasodifiylikning asosiy xususiyatlari bo'lgan anglash va xabardor bo'lshdir [12, 221-b].

O'yinda rol o'ynash - bu bolaning xatti-harakatlarini boshqarishga yordam beradigan tashqi ustun. Qoidalar to'g'ridan-to'g'ri bolaga tegishli emas, balki rol orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi bolaning harakatlarini rag'batlantiradi va ularni amalga oshirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qoidali rol o'ynash o'yiniga rioya qilish qiyin emas va bu qoidalar hayotda buzilishi mumkin. Katta maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar o'zlarini, ularning imidjlarini o'z vaqtida ko'rishlari mumkin (nima qilaman yoki nima qildim, nima qila olaman).

Bolalarning tasodifiylik bilan xatti-harakatlarining rivojlanishi o'z-o'zini anglash va faoliyatning individual komponentlari bilan bog'liq. 5 yoshga kelib, bola nafaqat maqsadlar va ob'ektlarni, balki ular bilan ishlash usullarini ham aniqlaydi. Va 6 yoshga kelib, qurilish ishlari tajribasi umumlashtiriladi. Bolaning o'z faolligi va tashabbusi tasodifiy xatti-harakatlarning shakllanishidan dalolat beradi. Bola tarbiyachining ko'rsatmalariga amal qiladi: «Mushukni rasmini chiz», «Bor qo'lingni yuv», «O'yinchoqlarni yig'ishtir» va u o'zing maqsadga erishishda tashsbbus ko'rsat: «Keling xor bo'lib kuylaymiz», «Ketdik, Onalar-qizlarni o'ynaymiz». Tasodifiylikning ko'rsatkichi - bu o'z harakatlarini rejalashtirish va tashkil qilish, maqsadlarni belgilash va o'zini aktyor sifatida tanib olishda bolaning kattalarnikidan nisbiy mustaqilligi. Mustaqil faoliyatda bola tashqi nazorat bo'lmasa, axloqiy meyorni tez-tez va osonlikcha buzadi. Bu ularning harakatlarini tartibga solishning ichki mexanizmining shakllanmaganligidan dalolat beradi. Tasodifiylik, shuningdek, o'z harakatlariga ma'nolarni qo'shish qobiliyatini, o'zlarining o'tmish tajribalarini hisobga olishni, bu harakatlar nima uchun amalga oshirilayotganligini tushunishni ham beradi. Masalan, agar bolalar onasi qilgan sovg'asi uchun qanchalik baxtli bo'lishini tushunishlari va tasavvur qilishlari mumkin bo'lsa, unda ularga bu ishni bajarish oson bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish asosida, o'z faoliyatini tartibga solish shakllanadi. O'zlarining xatti-harakatlarini nazorat qilishning dastlabki shartlari yosh

maktabgacha tarbiylanuvchida paydo bo'ladi, bu bolaning mustaqillikka intilishidan kelib chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qoidalar, natijalar va harakatlar tartibidan xabardorlik o'zini o'zi nazorat qilishni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolada o'zini o'zi nazorat qilishni rivojlanishida ikki jihat ajralib turadi:

– o'z-o'zini tekshirish usullarini ishlab chiqish;
– ularning ishini moslashtirish va tekshirish zaruriyatini ishlab chiqish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar katta yoshlilarning talablarini yaxshi bilishadi, lekin har doim ham ular bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtira olmaydilar. Agar o'qituvchi talab qilsa, ular o'z-o'zini tekshiribko'rishlariga murojaat qilishlari osonroq. Va agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa va ishning to'g'riligiga shubha tug'dirsa, o'zini o'zi nazorat qilish zaruriyati paydo bo'ladi. Bolani asosan natijaga jalb qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kattalar rahbarligisiz katta yoshdagi bolalarda o'z-o'zini nazorat qilish talab etilmasligi mumkin. Muvaffaqiyatli ravishda o'zini o'zi nazorat qilish maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar tomonidan bir-birlarini o'zaro nazorat qilish natijasida yuzaga keladi.

Bolalar o'zaro nazorat paytida «boshqaruvchi» va «ijrochi» funktsiyalarini o'zgartirganlarida, ularning ishlariga bo'lgan talablar ortadi, uni boshqalarning ishi bilan solishtirish istagi paydo bo'ladi, buni yaxshiroq qilish istagi paydo bo'ladi. Ya'ni, o'zaro nazorat bu o'z-o'zini boshqarishning rivojlanishiga turtki bo'lib, faoliyatni qoidaga muvofiqlashtirish qobiliyatini talab qiladi [12, 224-b.].

Maktabgacga katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda o'z-o'zini nazorat qilishdagi kamchiliklarni tuzatish va bartaraf etishga qaratilgan faoliyat sifatida ishlaydi. Ammo, bolalar o'zlaridan ko'ra tengdoshlarini nazorat qilishi osonroq. Bolalarda o'zini o'zi nazorat qilishning paydo bo'lishi, ya'ni, o'z xatti-harakatlarini (va so'zlarini) o'rgatilgan narsalar bilan taqqoslash qobiliyati ta'lim faoliyati rivojlanishidagi muhim bosqichdir [8, 478-b].

Bolalar o'zlarini, o'zlarini tomosha qilishni va ularga berilgan ko'rsatma va tushuntirishni nazorat qilishni boshlaydilar. Bolalarda ish jarayonini diqqat bilan rivojlantirish uchun asos aynan shunday o'zini tuta bilishdir. Bu qurishni, chizishni boshlashdan oldin, bolalar pauza qiladilar va keyin ishga kirishadilar. O'z-o'zini nazrat qilish bolalar ruhiyatida, harakatlar rejimida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Bolalar nafaqat ko'rsatmalarni «tinglashadi», balki ularni «eshitishadi», ularni o'z ishlarida ishlatishadi. Bolalarda «tinglash» qobiliyati maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borilgan tarbiyaviy ishlarning natijasidir. «Eshitish» qobiliyati katta yoshdagi odamlarning reaktsiyalari bilan

bog'liq - bola biron narsani orqaga surishni so'raydi, savol beradi, tushuntirishni so'raydi va hokazo. [6, 228-b]

Bu shuni ko'rsatadiki, bolalar bajaradigan ishlariga qiziqish bildirishadi va ular buni oddiy itoatkorlik bilan qilmaydi. O'z-o'zini boshqarishning paydo bo'lishi - bu o'rganish ta'siri ostida bolaning xatti-harakati va ongida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ko'rsatadigan eng muhim dalil.

Bolalar ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi, ko'pincha duch keladigan bir-biriga mexanik taqlid yo'q qilinadi. O'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantiradigan bolalar shou va tushuntirishga tayanib, endi boshqa bolaning noto'g'ri harakatlariga e'tibor bermaydilar. Xatti-harakatlarning mustaqilligi, kontsentratsiyasi xatti-harakatlaridagi tashqi ko'rinish o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq va mashg'ulot amaliyotiga bog'liq. Umuman olganda, bolalar diqqatli, yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi haqida eslatmalarga muhtoj emas, chunki o'quv jarayonining o'zi bolalarga va ularning xatti-harakatlariga intizomli ta'sir ko'rsatadi [7, 87-b].

Ko'pincha boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar o'zini tuta bilish darajasining pastligi haddan tashqari faollik, aqliy, axloqiy, hissiy rivojlanishdagi kechikishlar bilan birga keladi. Maktab topshiriqlarini bajarishdagi qiyinchiliklar faolligi yuqori bo'lgan bolalarda yuzaga keladi, chunki ular uchun xotirjam o'tirish va diqqatni jamlash qiyinroq. Ular nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish harakatlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga ega. Va bu ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir [10, 558-b].

D.B. Elkonin va V.V. Davydovlarning ta'kidlashicha, nazorat qilish harakati maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatining yaxlit tuzilishi doirasida ko'rib chiqiladi. Shunday qilib, D.B. Elkoninning fikriga ko'ra, o'zini o'zi boshqarish va nazorat qilish, avvalo, o'z harakatlarining bir qismi bo'lgan operatsiyalarning to'g'riligi va to'liqligini nazorat qilishni tushunish kerak [11, 254-b].

Harakatda ijro etuvchi, indikativ va boshqarish funktsiyalari bajariladi. N.F. Talizinaning ta'kidlashicha, insonning har qanday harakati «boshqarish organi», ijro etuvchi «ishchi organ», kuzatuv va taqqoslash mexanizmini o'z ichiga olgan nazoratning mikrotizimi hisoblanadi [11, 258-b].

P.Ya. Galperin boshchiligidagi bir guruh psixologlar nazorat qilishni ixtiyoriy diqqatning shakli sifatida o'rgangan, diqqat bu nazorat, ammo har bir nazorat diqqat emasligini ta'kidladi. Aynan mana shu qoida tarbiyaviy faoliyatni boshqarish xususiyatlarini tushunishga mos keladi [11, 262-b].

L.V. Bertsauning ta'kidlashicha, agar kishi o'z harakatlarini namuna bilan taqqoslasa, u ixtiyoriy e'tibor shaklida nazoratdan foydalanadi. Talaba yetarli darajada harakat qilish usullarini izlayotgan ta'lim faoliyatida u ixtiyoriy e'tibor

shaklida nazoratdan foydalana olmaydi. Shuningdek, u o'quv faoliyati ustidan nazorat qilish kerakligini aytadi, bu ob'ektiv harakatning uni amalga oshirish shartlari va kutilgan natijalar bilan o'zaro bog'liqligi. Bertsfau faol va samarali nazoratni ta'kidlaydi. Masalan, ma'lum bir ta'lim muammosini hal qilishning zarur usullarini izlayotganda, talabalar taklif etilgan harakat usullarini ichki ravishda o'ynashlari va ularni kutilgan natijalar bilan taqqoslashlari kerak. Bu profilaktik nazorat. Agar talaba harakat usulini o'zgartirib, uni yangidan qursa, u boshqa boshqaruv turidan foydalanadi: u biron bir usulni tanlamaydi, balki uni o'zi (yoki o'qituvchining yordami bilan) quradi. Shunday qilib, refleksiv boshqarish amalga oshiriladi.

D.B. Elkonin ta'lim faoliyatida nazoratning ikki turini ta'kidladi:

– natijani nazorat qilish topshiriq bajarilgan yoki qilinmaganligi, uning qanchalik sifatli ekanligi asosida amalga oshiriladi. Agar talaba xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, nazorat jarayoniga qaytadi defan ma'no bor;
– jarayonni nazorat qilish - bu natijani olish usullari, operatsiyalari va harakatlarini aniqlashtirish. Ushbu nazorat uchun siz talabalarning tartibini, ishlash usulini bilishi kerak [11, 259-b].

M.V. Gamezo nazorat harakati bu harakat, tashqi tomondan o'rnatilgan loyiha bilan xatti-harakatlarning o'zaro bog'liqligi deb hisoblagan. U nazoratning uch turini aniqlaydi:

– natija bo'yicha (yakuniy nazorat),
– tezkor (harakat yo'nalishini kuzatish, faoliyatni to'g'rilash),
– istiqbolli (yaqinlashib kelayotgan tadbirlar va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini taqqoslash, oldinda bir nechta operatsiyalarni bajarish uchun sozlash).

O'z-o'zini nazorat qilish 3 jihatni o'z ichiga oladi:

– haqiqiy harakat va tasvirni taqqoslash jarayoni;
– harakatning kerakli natijasi tasviri;
– harakatni tuzatish va davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilish [2, 358-b.].

Bu subyektning uni amalga oshirish ustidan ichki nazoratining tuzilishi. G.V. Repkina va E.V. Zaykalar o'quv mashg'ulotlarining meyorida olib borilishining asosiy sharti ularning bajarilishini nazorat qilishning mavjudligi ekanligini isbotladi [1, 208-b].

O'qitishning dastlabki bosqichida o'zini o'zi nazorat qilish namunaga, so'ngra g'oyaga muvofiq amalga oshiriladi va nihoyat namunalarning umumlashtirilgan namoyishiga asoslanadi. Bajarilgan vazifalar natijalarini bajarilgan harakatlar bilan taqqoslash qobiliyati o'quvchining o'quv faoliyatida

o’zini o’zi nazorat qilishning boshlang’ich turlari shakllanganligidan dalolat beradi [9, p. 38].

E.V. Zayka va G.V. Repkinlar boshlang’ich sinf o’quvchilarida o’zini o’zi nazorat qilishning quyidagi rivojlanish darajalarini aniqladi:

– nazoratning yo’qligi;
– ixtiyoriy e’tibor darajasida nazorat qilish (ongli va ongsiz);
– ixtiyoriy e’tibor darajasida potentsial nazorat (xatolarini tuzatadi, o’z harakatlarini tushuntiradi);
– ixtiyoriy e’tibor darajasida amaldagi nazorat (o’rganilgan umumiy harakatlar sxemasi bilan muammoni hal qilish jarayoni bilan muvaffaqiyatli bog’liq);
– potentsial refleksiv nazorat;
– haqiqiy refleksiv nazorat (xatolarni mustaqil ravishda aniqlaydi) [4, 247-b].

Shunday qilib, ta’lim faoliyatida o’zini o’zi nazorat qilish - bu obyektiv harakatning uni amalga oshirish shartlari va kutilgan natijalar bilan bog’liqligi.

Namuna bilan bajarilgan harakatlarni taqqoslash, ularning harakatlarining natijalarini oldindan ko’rish va xatolarning oldini olish imkoniyati mavjud bo’lganda, o’zini o’zi nazorat qilish rivojlangan deb hisoblanadi. Shuni yodda tutish kerakki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o’zini o’zi nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosi, bolalarning shaxsiy va kognitiv sohasini rivojlantirishdagi muhim roliga qaramay, juda yaxshi tushunilmaydi [5, 118-b].

Adabiiyotlar:

1. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. - СПб.: Питер, 2009. - 400 с.

2. Гамезо М. В., Петрова Е. А., Орлова Л. М. Возрастная и педагогическая психология. - М.: Педагогическое общество России, 2003. - 512 с.

3. Гиппенрейтер Ю. Б. Введение в общую психологию. Курс лекций. М.: «ЧеРо», при участии издательства «Юрайт», 2002. - 336 с.

4. Давыдов В. В. Психологические проблемы учебной деятельности школьника. - М.: Педагогика, 1977. - 308 с.

5. Зак А. З. Развитие умственных способностей младших школьников. - М.: ВЛАДОС, 1994. - 320 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada «o’zini o’zi nazorat qilish» tushunchasi mohiyati ochib berilgan va uning maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar rivojlanishining ahamiyati ko’rsatib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье раскрыта сущность понятия «самоконтроль» и показано значение его для развития дошкольников.

SUMMARY

The article reveals the essence of the concept of «self-control» and shows its importance for the development of preschool children.

OILADA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA OTA-ONALARNING MUNOSABATLAR KOMPETENTSIYASI

Sheralieva M. A.
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: oila, ota-ona, maktabgacha ta'lim , bola tarbiyasi , maktabgacha yoshdagi bola, qarorlar, shaxs, omillar, rivojlanish, ta'lim.

Ключевые слова: семья, родители, дошкольное воспитание, воспитание ребенка, дошкольник, решения, личность, факторы, развитие, воспитание.

Key words: family, parents, preschool education, child upbringing, preschooler, decisions, personality, factors, development, upbringing.

Oila bu farzandlarining asosiy tarbiyachisidir. Oilada ota-ona va faqat oila a'zolarigina o'sayotgan bolaning nimalarga qodirligini, qanday qobiliyatga ega ekanligi va bolasidagi o'ziga xos xususiyatlarini birinchi bo'lib ko'rishadi va his qilishadi, oilada ota–ona o'z farzandining asosiy qobiliyatini aniqlaydi va dastlab bu fazilatlarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Oilaviy tarbiyaning asosiy muammolaridan biri bu oiladagi ota-onalarning pedagogik madaniyati etishmasligidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 3 maydagi PQ–4307-son qaroriga muvofiq yoshlarni mustaqil hayotga kafolatli tayyorlash, tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib, 18 yoshigacha davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizligiga asoslangan metodikani ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, yoshlarni shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi" tasdiqlandi.

Har bir ota-ona o'z bolasini baxtli bo'lishi uchun astoydil, har kuni tarbiyalash zarurligini yaxshi biladi. Biroq, farzandlarini o'z vaqtida tug'ilgandanoq ta'bir joiz bo'lsa homiladorlik vaqtidan tarbiya qilishlikni unutib qo'yishadi. Ba'zan ilk yoshlardan, bosqichma-bosqich, uzluksiz tarbiyalashga e'tibor berishmaydi. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar birdaniga ko'rinmaydi. Noto'g'ri tarbiyaning asoratlari oradan ko'p yillar o'tgach, jamiyatda inson omili tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarda ko'rinadi. Bugungi

kunda O'zbekistonning peshqadam yoshlari davlat, ota-onalarining maqsadli, uzluksiz tarbiyalari tufayli turli sohalarda, jahon miqyosida mislsiz yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda. Darhaqiqat, barkamol shaxsni shakllanishida oilaning, aniqrog'i ota-onaning roli nihoyat katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shunga ko'ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muomma bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bolaga yaxshi tarbiya berish, farzandini hayotda qoqilmasdan muvaffaqiyatlarga erishib kamolga yetishini ota-onaning asosiy maqsadi, vazifasi va orzusi hamdir. Qolaversa, bu ota-ona uchun ham qarz ham farzdir. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishi bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ma'lumki shaxsning qadriyati uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanib, ko'p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ota-ona o'z bolalarining tarbiyachisi hisoblanadi. Tarbiya, irsiyat (nasl) va muhit bola shaxsining rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Bu haqda muborak islom dini manbalarida, barcha mutaffakirlarning asarlarida u yoki bu jihatdan ilmiy asoslangan. Ayniqsa, har uch omilning ichida tarbiyaning roli ahamiyati alohida e'tirof etilgan. Ammo, tarbiya ta'sirining kuchi va natijasi irsiyat hamda muhit kabi omilllarning hamkorligi bilan belgilanishi ham sir emas. Chunki, nasl va muhitda kamchilik bo'lsa tarbiyaning ijobiy ta'siri sezilmasligi mumkin. Yuqoridagi sozlarimizning yaqqol misolini sifatida muqaddas dinimiz islomda ham Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ta'kidlaydilar: Abu hurayra (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilinadi: "Nabiy(sollallohu alayhi vasallam) Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tug'iladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy."bu hadisi sharifdan irsiyat, ya'ni biologik omil insonning shakllanishida asosiy o'rin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi G'arb faylasuf va olimlarning fikrlari asossiz ekanligini va tarbiyaning muhimligini ko'rsatadi. Buyk allomalarimizdan Abu Ali Ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalansa, oila baxtli bo'ladi" degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat,oilada bolalarning asosiy huquqlari amalga oshiriladi. oiladagi bolaning ahvolini aniqlash diagnostikasi, oilaning tarbiyaviy salohiyatini o'rganish.Psixologik va pedagogik kompetentsiyani yaxshilash uchun tarbiyachilarning ota–onalar bilan o'zaro munosabatlari modeli bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, birinchi bosqichlardan biri diagnostika bo'lib, u huquqiy kompetentsiya darajasini, oiladagi buzilish huquqlarini amalga oshirishni aniqlashga imkon beradi.

Vazifalar:

1. Oilaviy rivojlanish, oila bilan o’zaro munosabatlar bo’yicha tarbiyachilarning psixologik va pedagogik kompetentsiyasini oshirish.

2. Ota-onalar va o’qituvchilar o’rtasidagi muloqotning samarali shakllari uchun ko’nikmalarga ega bo’lish, ota-onalarning kommunikativ tajribasini boyitish.

3. Tarbiyachining ota–onalar bilan o’zaro munosabatlarining interfaol shakllari, oilada bolani psixologik va pedagogik qo’llab-quvvatlashning samarali usullari va usullarini boyitishi

Oila bilan o’zaro munosabatlarni tashkil etish bu qiyin ish, tayyor texnologiyalar va retseptlarga ega emas. Uning muvaffaqiyati o’qituvchining sezgi, tashabbusi va sabr-toqati, oilaning professional yordamchisi bo’lish qobiliyati bilan belgilanadi.

Ma’lumki, oila bolalarni ijtimoiylashishi uchun birinchi va eng muhim institutdir.”Ilk qadam” davlat o’quv dasturini amalga oshirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga oila va mahalliy jamoatchiliklar bilan yaqindan hamkorlik qilish vazifalarini qo’ydi. Bolalarni oilaviy tarbiyalashda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan o’zaro hamkorligi boshlang’ich ta’limga bolalarni sifatli tayyorlashning umumiy qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-onalari va jamoatchilikning ta’lim jarayonida faol ishtirokisiz erishib bo’lmaydi, ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan hamkorligi borasidagi qarashlari turlicha bo’lganligi bois Maktabgacha ta`lim tashkiloti sharoitlaridan ota-onalarning qoniqish jihatlari o’zgarib bormoqda. Ba’zi oilalarda ota-onalarning o’z farzandlarini tarbiyalash va shaxsiy rivojlanishi masalalarini hal qilishdan voz kechish tendensiyasi kuchaygan. Ba’zi ota-onalar esa faqat bolaning ovqatlanishi bilan qiziqishadi, ular Maktabgacha ta’lim tashkilotini faqat bolalarni boqadigan joy deb hisoblashadi.Tarbiyachilarning maslahatlarini e’tiborsiz qoldiradigan ota-onalar toifasi ham uchraydi.Bolalarimizning yuqori sifatli ta’lim olishiga, ota-onalarning ehtiyojlari va bolalarning manfaatlarini to’liq qondirishga, bola uchun yagona ta’lim makonini yaratishga faqat erta bolalikdan vasiylik va oila o’rtasidagi o’zaro hamkorlikning yangi tizimini ishlab chiqqan holdagina erishish mumkin.Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila uchun ochiqligi- har bir ota-onaga uning bolasi qanday yashayotganini va rivojlanishini bilish va ko’rish imkoniyatini yaratib berishdan iboratdir. Bu muammoli vaziyatlarning paydo bo’lishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo’lib, tarbiyachilar va ota-onalar o’rtasida shaxsiy aloqalarni o’rnatish, har kuni ota-onalarga bolaning kunni qanday o’tkazganligi, nimani o’rganganligi,

qanday yutuqlarga erishganligi haqida ma'lumot berib borish kerak.Shuning asosida ota-onalarning psixologik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash zamonaviy davrning eng dolzarb vazifasiga aylandi.

Amerikalik psixolog X.Djaynotning fikricha, teng aloqa muloqotning 3 asosiy qoidasiga asoslanadi. Birinchidan, ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy o'zgarishni ma'qullashga intilishlari kerak, har qanday holatda ham uni kamsitmaslik, bolada ijobiy Men siymoni qo'llab-quvatlashdan iborat. Ikkinchidan, bola bilan uning qilgan ishi, bu ishning oqibati, vaziyat haqida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi haqida gapirmaslik kerak, uning shaxsini salbiy baholashdan qochish lozim . Kattalarning bolalar haqida fikri, bolaning kelajakdagi taqdiriga tashhis qo'yishga, uni oldindan aytib berishga qaratilmaslik kerak. Maqtash va tanbeh berish ham o'sha qoidaga asosan tuzilishi kerak: tayyor baholash o'rniga, qilingan harakatlar va ular natijasini keng yoritib berish darkor, xulosa chiqarish va baho berishni bolaning o'ziga qo'yib berish lozim. Uchinchidan, aloqa jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor bo'lishlari kerak. Bunda harakat usuli to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib berilmasligi kerak, balki muammoli vaziyatni hal qilish imkoniyatlarini bola oldiga shunday qo'yish kerakki, bolaning o'zi eng to'g'riroq usulni tanlashni mustaqil amalga oshirsin. Ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar tomonidan bu qoidalarni kundalik hayotda ketma-ket amalga oshirilishi da'volash qoidalarini tarbiya amaliyotiga kiritishdan boshqa narsa emas. Psixodinamik nuqtai nazardan ota-ona guruhlariga rahbarlik qilishning maqsadi ota-onalarni bu qoidalardan amalda foydalanish malakasi bilan qurollantirishdan iboratdir. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, ota-ona guruhlarining mahsuli ota-onalarni bolaga da'volash munosabatida bo'lishni o'rgatishdan iborat.

Hozirgi vaqtda chet elda ota-onalar trening guruhlari bolaga maslahat berish amaliyotida mahsuldor ish shakli sifatida juda ommaviy tus olgan. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, bolaga qaratilgan bir butun tuzatish tadbirlari sistemasidan ajratilgan holda ota-onalar treninglari, maslahat berish jarayonida tuzatish vazifalarini muvaffaqqiyatli hal qila olmaydilar.Respublikamizda ota-onalar guruhlari bilan ish olib borishning zarurligibolaning psixik taraqqiyoti uchun kattalar bilan muloqot hal qiluvchi rol o'ynashi bilan asoslanadi va tuzatish ishlarini o'tkazishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, bu muammo oilaviy psixoterapiya yo'nalishida tuzatish ishlarining eng to'g'ri shakli sifatida jadal ishlab chiqarilmoqda.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki Oila bilan samarali hamkorlik qilish uchun ,bittagina istakning o'zi yetarli emas. Guruh tarbiyachilari va ota-

onalarning o’zaro munosabatlaridagi asosiy nuqta oilani o’rganishdir. Oilada bolani tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish juda qiyin. Odatda, buning uchun kuzatuvlar, anketalar va suhbatlar qo’llaniladi. Ota-onalar va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati bizga bolalarni tarbiyalashda mavjud muammolarni birgalikda aniqlash va ularni hal qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari.- Toshkent 2018 yil.

2. F.Qodirova, SH.Toshpo’latova, N.Kayumova, M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika” darslik Toshkent-2019. Tafakkur nashriyoti.

3. A.Abdusamidov va boshqalar “Mustahkam oila ma’naviyatlari” Toshkent-2012 Sano-standart nashriyoti.

4. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi. 3-modul.-Toshkent.2008 yil

5. “Mustahkam oila-ma’naviy tarbiya maskani” ilmiy to’plam Toshkent 2012 Sano-standart nashriyoti

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada farzand tarbiyasida oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotida ota-onalarning munosabatlar kompetentsiyasini amalga oshirish vazifalari benihoyat katta ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещается, что в воспитании детей неоценимое значение имеют задачи реализации родительской компетенции взаимоотношений в семье и дошкольной образовательной организации.

SUMMARY

This article covers the great importance of the tasks of implementing the competence of parents ‘ relationships in the family and preschool educational organization in the upbringing of children.

IV SINFDA «TABIATSHUNOSLIK» FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHI EKOLOGIK TAFAKKURINI SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA SHAKLLANTIRISH

Do’stov S.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tayanch so’zlar: tabiatshunoslik, ekologik tafakkur, o‘qitish metodikasi, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekologiya.

Ключевые слова: естествознание, экологическое мышление, методика обучения, внеурочная деятельность, экология.

Key words: natural science, ecological thinking, teaching methodology, extracurricular activities, ecology.

Kirish: Barcha tarbiyaviy va tarbiyaviy vazifalarning bajarilishi usullarni to’g’ri tanlashga bog’liq. Kichik maktab o‘quvchilarida kuzatish qobiliyatini tabiatda mustaqil kuzatishlarsiz rivojlantirish mumkin emas, tirik organizmlarni bevosita o‘rganmasdan turib o‘simlik va hayvonlar hayotini anglab bo‘lmaydi, qishloq xo‘jaligida amaliy mashg‘ulotlar va ko‘nikmalarni o‘stirishda amaliy ishlarsiz shakllantirib bo‘lmaydi.

Multimedia texnologiyalari - bu multimediali maxsulot yaratish jarayonidagi texnik va dasturiy vositalarni tanlash va qo‘llash jarayoniga aytiladi. Multimedia texnologiyalarining asosiy maqsadi - axborotni qabul qilishda sodda va qulay bo‘lgan multimedia maxsulotini yaratishdan iborat. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari inson faoliyatida, ya’ni biznes, ta’lim, tibbiyot, xarbiy va boshqa sohalarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bu faoliyat yo‘nalishlarida multimedia maxsulotlarini yaratish uchun keng ko‘lamdagi dasturiy vositalar mavjud. Ularning ayrimlari multimedianing alohida komponentalari bilan ishlashga mo‘ljallangan. Multimedia ta’rifiga kura oddiy tuyulsa ham, u bilan ishlash jaraeni murakkab xisoblanadi. Multimediani bilish bilan bir qatorda multimedianing texnik va dasturiy vositalarini ham bilish lozim. Multimediali axborotlardan birgalikda ilovalarini yaratuvchilar mutaxassislarni multimedia yaratuvchilar deb ataymiz.

Multimedia ilovalari kompyuter, TV ekranida, PDA (personal digital assistant) shaxsiy raqamli yordamchi, yoki mobil telefon orqali ko‘rish mumkin. Bundan tashqari multimedia ilovalari tijorat yo‘lida, yoki biror manzilga yetkazilishi maqsadida CD yoki DVD tashuvchilarda yoki ma’lumotni tortib olish uchun Internet tarmog‘iga joylashtirilishi mumkin.

Oliy ta’limda darsdan keyin barcha turdagi to‘garaklar ochilgan, ammo bu to‘garaklar mukammal faoliyat olib boraayotganiga hech kim kafolat berolmaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kompyuter texnologiyalaridan unumli va samarali foydalana oladigan qilib tayyorlashida o‘zida kompyuter (Notebook) bo‘lgach, unda kompyuter texnologiyasidan samarali foydalanish va kompyuter texnologiyasini mukammal o‘rganish imkoniyati qulaylashadi. Buning natijasida talabalarni o‘zlashtirishlari yaxshilanadi. Uzluksiz ta’lim tizimida bu imkoniyatlardan samarali foydalanish o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etishga jalb qiladi. Bu sohadagi samara esa o‘qituvchilarning bilimi, malakasi, kasbiy mahorati, iqtidori, iste’dodi va madaniyatiga hamda dars jarayonida yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalana olish faolligiga bog‘liqdir.

Xulosa, bo‘lajak boshlang‘ich pedagoglarni kompyuter texnologiyalarida mukammal ishlay olishga o‘rgatilsa, joylarda ta’lim-tarbiya jarayonlari yaxshilanib borardi, degan fikrdamiz. Chunki axborot komunikatsiyalaridan

samarali foydalana olgan o‘qituvchi-pedagog shogirdlariga hamma ma’lumotni yaxshi yetkazib bera oladi va ularni darsga qiziqtira biladi. Bugungi kun tolibi ilmlarini darslarga qiziqtirib o‘qitish juda murakkab jarayonga aylanib bormoqda. Chunki yoshlarimiz texnika-texnologiya zamonida tug‘ilmoqda. Shu sababli ularni kompyuter, telefon, televizor va hokazo kabi axborot texnikalaridan ajratib olish qiyinlik tug‘dirayapti. Keling, yoshlarga bugungi kun muhitidan kelib chiqib ta’lim beraylik! Kompyuter asrimi, kompyuter bilan o‘qitaylik!

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.

2. Aripov M., Ahmedov A., Ikromova H va boshq. Axborot texnologiyalari: O‘quv qo‘ll. – T.: 2003

3. G‘afforova. Boshlang`ich ta’limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. – T.: 2016

4. Ro`ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi” / Metodik qo`llanma –T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.- 115b.

5. Sayidahmedov N. “ Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”.- T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining axborot kompotentligini rivojlantirish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kompyuter texnologiyalaridan unumli va samarali foydalana oladigan qilib tayyorlashida o‘zida kompyuter (Notebook) bo‘lgach, unda kompyuter texnologiyasidan samarali foydalanish va kompyuter texnologiyasini mukammal o‘rganish imkoniyati qulaylashadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье развитие информационной компетентности будущих учителей начальных классов. Наличие компьютера (ноутбука) при обучении будущих учителей начальной школы эффективному и действенному использованию компьютерных технологий облегчит им эффективное использование компьютерных технологий и идеальное изучение компьютерных технологий.

SUMMARY

In this article, the development of information competence of future primary school teachers. Having a computer (Notebook) in training future elementary school teachers to be able to use computer technology efficiently and effectively will make it easier for them to use computer technology effectively and learn computer technology perfectly

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI DIVERGENT FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Adizova N. B.
Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti

Tayanch so‘zlar: divergent, intellektual, kontseptsiya, identifikatsiya, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, tafakkur, assotsiatsiya, motiv, faoliyat, konvergentsiya, reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik.

Ключевые слова: дивергентный, интеллектуальный, концепция, идентичность, внимание, восприятие, процесс ассоциаций, мышление, ассоциация, мотив, деятельность, конвергенция, репродуктивное, творческое мышление, независимое, эвристическое.

Key words: divergent, intellectual, concept, identification, Attention, Perception, process of associations, contemplation, Association, motive, activity, convergence, reproductive, creative thinking, independent, heuristic.

Milliy pedagogikada ta’lim - tarbiya jarayoniga bugun butunlay yangicha talablar asosida yondashilmoqda. Zamonaviy tarbiyashunoslikda ta’lim - tarbiyaning oldiga o‘quvchini zarur bilimlari yig‘indisi bilan ta’minlash doirasidan chiqib, o‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish, unda bilishga ichki ehtiyoj paydo qilish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy, divergent fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish kabi sifat jihatidan yangi talablar qo‘yilyapti. Maktabdan o‘quvchi o‘z ma’naviy kamolotini ta’minlash uchun mustaqil ravishda kitob o‘qish malakasini shakllantirish, bilim olish yo’lida bor imkoniyatlarini qo’llagan holda ijodkorlik ko‘nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. Ta’limga bunday yondashuv, o‘z navbatida, o‘quvchini taqlidchilik, ko‘chirmaslik, tayyor andazalar, belgilangan qoliplar asosida faoliyat yuritishdan qutqaradi.

Shu ma’noda muammoli ta’lim mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy, divergent fikrlashga o’rgatish, bu yo’lda uchragan to‘siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir. Bu ta’lim o‘quv materiali o’zlashtirilganligini tezgina namoyish etadi, mustahkamlaydi, bilimlarni qatiylashtiradi. O‘quvchida o‘qishga ijobiy hissiy munosabat uyg‘otadi, bilim olishga ehtiyoj paydo qiladi. Ta’lim amaliyotida muammoli oqitish texnologiyasidan foydalanilganda tarbiyashunoslikning bosh maqsadi -

oʻquvchida shaxslik sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish osonlashadi.

Muammoli ta'limda oʻquvchi oldiga bilim berishga yoʻnaltiradigan masalalarni qoʻyish ham, uning ma'naviyatini shakllantirish yoʻlidagi muammoli savol yoki topshirqlar ham muhim o'rin egallaydi. Ular muammoli vaziyat hosil qilishning asosiy sharti sanaladi. Bilim berish yoki ma'naviyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan muammoli savol yoki topshiriqlar oʻquvchi uchun ma'lum qiyinchilik tugʻdiradigan darajada boʻlishi, avval egallagan bilimlariga mos kelishi, shu bilan birga, uning imkoniyatlari doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Ya'ni muammoli vaziyatlar bolaning hayotiy tajribasi va nazariy bilimini hisobga olgan holda yaratilishi kerak.

Muammoning qoʻyilishi va uni yechish jarayoni uzilmas bir zanjirdir. Muammo koʻtarilishi bilanoq uning yechimi ustida oʻylanadi va bu, oʻz navbatida yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu tariqa, uzluksiz tarzda yangi bilimlarni oʻzlashtirish amalga oshadi. Ta'lim amaliyotida oʻqituvchining sinfga olib kiradigan ma'lumotlari oʻquvchilar tayyor bilim sifatida qabul qiladigan yoki oʻzlari mehnat qilib oʻzlashtiradigan shaklda boʻladi. Ta'limning dastlabki bosqichlarida, ya'ni boshlangʻich sinflarda birinchisi koʻproq qoʻllanilishi tabiiy. Lekin oʻqitish kechimida bilimlarni mehnat qilib oʻzlashtirish shakli ham oʻrni bilan qoʻllanilishi va uni tashkil etishda quyidagi me'yorlarga amal qilinishi masadga muvofiqdir:

a) oʻquvchilar mustaqil ravishda o'zlashtirishlari lozim boʻlgan bilimlar ularning imkoniyatlariga mos murakkablikda bo'lishi;

b) berilajak materialning yechimi dasturda belgilangan vaqt oralig'ida amalga oshirilishi;

v) ijodiy yoʻl bilan oʻzlashtirilgan bilimlar muslahkamligi va darajasi reproduktiv yoʻl bilan olinadigan bilimlardan baland boʻlishi.

Muammoli ta'lim muammoni hal etish jarayonini butun sinf jamoasining faol aqliy ishiga aylantiradi. Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini maksimal darajada inobatga olinishini taqozo etadi. Faqat shundagina sinfdagi jamoaning barcha a'zosi butun oʻquv jarayoni davomida tom ma'nodagi ijod kishisiga, fikr odamiga aylana boradi.

Muammoli ta'limda oʻquvchilar qiyinchiliklarga duch kelishlari, tabiiy. Muammoli vaziyatda qiyinchilik oʻzlashtirilishi lozim bo'lgan noma'lum narsaning yangiligi va umumlashtirilishi zarurligi hamda oʻquvchi intellektual imkoniyatlari darajasi bilan xarakterlanadi. Oʻquvchining intellektual imkoniyati qancha kichik bo'lsa, biror masalani hal qilishda muammoli vaziyatning murakkabligi shuncha katta bo'ladi.

Muammoli ta’limda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan individual ishlaydi. Bu undan kasbiy mahoratni talab qiladi. Gap shundaki, u yoki bu o‘quv topshirig‘i bir bola uchun qiyin, ikkinchisi uchun oson. O‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish uchun har bir o‘quvchi dars jarayonida o‘zining kuchi darajasidagi masalani hal qilish bilan shug’ullanishiga erishish lozim. Shundagina har bir o‘quvchining bilim olishga bo’lgan qiziqishini saqlab qolish mumkin. Buning uchun o’qituvchilarning oldida hamisha qiyin didaktik masala ko’ndalang turadi. U dars mavzusida nafaqat o‘quv-biluv muammosim yechishi, balki qanday yo’llar bilan bu mavzu mazkur sinfdagi o‘quvchilarning barchasi tomonidan o‘zlashtirilishi mumkmligini oldindan ko‘ra olishi kerak.

Ta’lim jarayonini muammoli tashkil etish o‘qitishni tarbiyaviy, ta’limiy, qiziqtiruvchi, rivojlantiruvchi imkoniyatlar bilan ta’minlaydi. Muammoli ta’limning uchta maxsus vazifasi mavjud:

1. Mantiqiy usullar yoki ijodiy faoliyatning maxsus yo’llaridan foydalanib o‘quvchilarda bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish.

2. Hayotiy vaziyatga ko’ra mavjud bilimlardan ijodiy foydalanish ko’nikmasini tarbiyalash.

3. Ijodiy faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Polyak pedagogi V. Okon muammoli ta’limga xos vaziyatni muammoni biror masala yuzasidan tashkil qilish, uni shakllantirish bilan birga hal etish jarayonida o‘quvchilarga zarur ko’mak berish, bu jarayonning izchilligini ta’minlash va boshqarish, olingan natijalarni tekshirish hamda bilimlarni mustahkamlash kabi faoliyatlar yig‘indisi sifatida baholaydi. Muammoli ta’lim masalasi bilan maxsus shug‘ullangan rus pedagogi M. Maxmutovning fikricha, muammoli ta’lim bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish va faoliyatning maxsus qonuniyatlariga asoslangan, ilmiy izlanishning asosiy jihatlarini o‘zida jamlagan, o‘qitish hamda o‘qish metodlari, usullarini uyg‘unlikda qamrab olgan didaktik tizimni o‘zida aks ettiradi. U bilimlar asosini chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydi, o‘quvchining bilim olishdagi mustaqilligini, ijodiy qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, kengaytiradi.

Olimlarning fikriga qo‘shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, muammoli ta’lim o‘quvchilarda shaxslik sifatlarining shakllanishiga, manaviyatining boyishiga ham sharoit yaratadi. U bilimlarni, yangi tushunchalarni o‘qituvchi rahbarligida, o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishini ta’minlash va faollashtirishga xizmat qiladi.

Muammoning, muammoli vaziyatning vujudga kelganini o‘quvchi hodisa bilan u haqidagi tasavvur orasida qarama-qarshilik paydo bo‘lganda his qiladi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf qilish uchun unga avval o‘zlashtirgan bilimlari

va tajribasining o‘zi kamlik qiladi. Muammoni anglab yetishning o‘zi har qanday fikrlash jarayonining boshlanishidir.

Sog‘lom ma’naviyatga ega shaxsni tarbiyalashda asosiy yuk maktab ta’limi zimmasiga tushadi. To‘g‘ri, ma’naviyatni shakllantirish vazifasi maktabdagi barcha o‘quv fanlari zimmasida ham u yoki bu darajada mavjud. Lekin, boshlang‘ich sinflarda, bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning asosiy diqqati inson va uning ruhiyatini aks ettirishga qaratilgan. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limida odamga xos tuyg’u, kechinma, quvonch va iztiroblar adabiy qahramonlar timsoli misolida o‘rganilib, tahlil qilinadi. O‘quvchilar asar qahramonlari bilan birga xursand bo‘lishadi, yig‘lashadi, iztirob chekishadi, xulosalar chiqarishadi.

Boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘quvchining butun e’tibori asar qahramonlari timsolida insonni o‘rganishga qaratiladi. O‘quvchida shaxslik sifatlarini tarbiyalashga, uyg‘oq ruhiyat kishisini shakllantirishga, shu bilan birga, san’at asarlarining har qanday turini tushunish, uni tahlil qila bilish hamda o‘zlashtirishni ta’minlashga yo‘naltirilgan. O‘qish darslarida, birinchi navbatda, adabiy asarlarning o‘quvchi shaxsiga qanday ta’sir etishiga e’tibor qaratiladi. Asar ustida ishlagan o‘quvchi undan o‘z oldida turgan ijtimoiy, axloqiy, estetik savollarga javob topishi kerak.

Boshlang‘ich sinflardagi o‘qish darslarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘rganiladigan asar matni bilan tanishishning istisnosiz tarzda majburiy ekanligidadir. Muammoli vaziyatlarni yaratishdan oldin o‘quv materiali bilan bevosita tanishish, ayrimlari parcha holida bo‘lsa-da, muammoning yechimini topishda, ayni zamonda inson ma’naviyati shakllanishida favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarni birinchi marta o‘qish yoki mohir mutaxassis ijrosida tinglash o‘quvchi aqligagina emas, balki ruhiyatiga ham katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qish darslarida asar bilan ilk uchrashuv o‘quvchida unutilmas taassurotlar qoldiradi. Uning o‘quvchi shuuriga nechog‘lik chuqur o‘rnashib qolishini ham hal qiladi. Ayni zamonda, tarbiyalanuvchining kitobxonlik biografiyasida, uning axloqiy-ma’naviy rivojlanishida alohida hodisaga aylanadi. O‘qish darslarida o‘qituvchining mutolaasida hamisha poeziyaning nafasi va badiiy so‘zning jozibasi sezilib turishi kerak. O‘qituvchining o‘zi tabiatan shu xususiyatlarga moyil bo‘lishi, muallifning o‘rganilayotgan asarda aks etgan fikri va undagi timsollar bilan shaxsan qiziqishi maqsadga muvofiqdir. Badiiy asarda ko’tarilgan muammolar, ularning o‘quvchilar tomonidan anglanishi va yechimini topishi ham o‘qituvchining diqqat markazida turmog‘i lozim. Tasvirdagi o‘ziga xoslik, avvalo, uni bezovta qilgan bo‘lishi, badiiy go‘zalliklar haqida gapirganda ko‘nglidagi dard, muhabbat yoki nafrat, iztirob

yoki xursandchilik samimiyligi bilan o‘quvchilarni ishontirishi, ularda fikr uyg‘otadigan, ko‘zqarashlar shakllanishiga faol ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalanilganda uning o‘quvchi ma’naviy kamoloti yo‘lidagi samaradorligini ta’minlash uchun bolalarning faolligi, individual rivojlanish darajasi va yosh xususiyatlarini inobatga olish zarur. Muammoli darsda o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchi ularning shaxsi, qobiliyati, imkoniyati, qiziqishlari, aqliy va ruhiy faollik darajasini puxta bilishi taqozo etiladi. O‘quvchilar ta’limning har bosqichida asar matnidan yaratilgan muammolar yechimi ustida o‘ziga xos tarzda ishlashga o‘rgatilsa, timsollar badiiyati, so‘zning qudrati chuqurroq his etiladi. Muammoning yechimini topish jarayonida o‘quvchi qahramonning ichki dunyosi, shaxsi va xarakteri uning xatti-harakatlari, fikrlari, nutqida namoyon bo‘lishini o‘rgana boradi. Shunday belgilarga qarab odamni baholashga odatlanadi. Odamning odamlik darajasi uning so‘zidan ko‘ra tutumlarida yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Badiiy matndagi o‘zgarishlarning xatti-harakatlarini talilil qilish asnosida o‘quvchi o‘zligini anglab, shakllantirib boradi. Badiiy asarlar tahlilidagi bunday faoliyat boshlang‘ich adabiy ta’limda belgilangan maqsadni amalga oshirish yo‘lida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida badiiy asar loqaydlik bilan o‘qilmasligi va befarq tinglanmasligi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarni asar bilan tanishtirish jarayonida ulardagi loqaydlikni yo‘qotishga bor kuchini sarflamog‘i lozim. San’at asari bilan muloqotga kirishganda bevosita estetik zavqning yo‘qligi boshqa barcha tadbirlaming samarasizligiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qish asnosida badiiy asardagi boshqachalikni, g‘ayrioddiylikni his qilib borishlari lozim. Buning uchun o‘qituvchining qiziqarli, ilmiy va hayotiy asoslarga boy, o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadigan kirish so‘zi kerak bo‘ladi. Shu bilan birga matnni o‘qishga kirishish ko‘p vaqtni olmasligi ham kerak. Har bir asarni o‘rganishda qat’iy maqsadni belgilash va aniq yo‘nalishga tayanish lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda o’qish fanini o‘qitish vazifalaridan biri o‘quvchini asarning takrorlanmas badiiy olamiga olib kirish, bu ijodiy olamni imkon qadar kengroq va chuqurroq anglatish uchun sharoit yaratish, uni bugunning ruhi bilan o‘zlashtirishga ko‘maklashishdir. O‘qish darslaridagi bunday tadbirlar muammoli ta’lim texnologiyasidan oqilona foydalanilganda yanada samarali bo‘ladi.

Badiiy asar yozuvchining tafakkuri mahsuligina bo‘lib qolmay, uning hayot haqidagi xulosasi hamdir. Asar sujetining rivoji, xarakteri, tili, qismlari

oʻzaro aloqadorlikda oʻquvchiga muallif fikrlari rivoji, tafakkur yoʻsinini ochib beradi. Asarni uqib oʻqish kitobxonning muallif badiiy fikrlarini oʻzlashtirish bilan oʻz ichki dunyosini boyitadigan ijodiy faoliyatidir. Boshlangʻich sinflar adabiy ta'limining har bosqichida oʻquvchilarni asar muallifi badiiy tafakkurini tushunish va his qilishga oʻrgatish oʻqituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Har xil adiblaming asarlarini oʻqish, ular haqida mulohaza qilish oʻquvchining badiiy tafakkuri rivojlanishiga koʻmaklashadi, tasavvurini soʻz san'ati namunalari hamda hayot hodisalari bilan boyitadi. Bu jarayonda muammoli ta'limdan foydalanish uning samaradorligini ikki barobar orttiradi.

Muammoli tahlilga tortilgan badiiy matnni oʻqish uning tahlili va o'zlashtirilishi uchun birinchi bosqich sanaladi. Oʻqish davomida kitobxon koʻnglida u yoki bu qahramonga nisbatan muayyan hissiyot - munosabat tugʻiladi, oʻquvchi ulaming xarakteri va asar voqealari rivoji oʻrtasidagi munosabat toʻgʻrisida oʻylaydi. Asarga oʻzining dastlabki bahosini beradi. O'qituvchi matn ustida ish boshlashdan oldin oʻquvchilar uni qanchalik oʻzlashtirganliklarini, nima yetib bordi-yu nelar anglashilmay qolgani, nima notoʻgʻri tushunilgani-yu qay bir jihatlar umuman ilgʻanmaganini kichik suhbat asnosida aniqlab olishi lozim. Bu oʻqituvchiga asar ustida muammoli ishlashni qiziqarli tashkil etish, vaqtni tejash, busiz ham tushunarli boʻlgan narsalarga vaqt sarflamaslik imkonini beradi.

Tushunarsiz qolgan yoki oʻquvchilar e'tibor qilmay oʻtkazib yuborgan jihatlarga koʻproq toʻxtalish va ularni qiziqtirish uchun oʻsha oʻrinlar bilan bogʻliq jumboqli savollarni oʻrtaga tashlash oʻquvchilarning e'tiborini tortadi. Asar qanchalik qiziqarli ekanligini, oʻquvchilarning asar sujeti, muallifning hayotga munosabatidagi oʻziga xoslikni ilgʻash darajasini, timsollar va hodisalar orasidagi aloqa qanchalik anglanganligini oʻquvchilarning javoblaridan bilish mumkin. Shundan soʻnggina ularning oldiga qoʻyilgan muammoning samarali yechimiga erishish mumkin boʻladi.

Umuman, shuni aytish mumkinki, inson ma'naviyatining sogʻlomlashuvi uning fikrlari va xatti-harakati tozarishida aks etadi.

Shuni anglagan holda oʻquvchilarni ta'limning dastlabki bosqichidan toʻgʻri tarbiyalashga erishmoq lozim. Toʻgʻri tarbiya - tarbiyalanuvchida tabiatan mavjud bo'lgan sifatlarni uygʻotish va ularning rivojlanishi, ma'lum maqsad sari yoʻnalishiga ko'maklashish, shu jarayonga monand ravishda bilim berishdan iborat. Adabiyot oʻqitish jarayonida beriladigan tarbiyada hissiyot, badiiylik va samimiylik oʻzaro uygʻunlikda boʻladi. Badiiylik oʻquvchida bilim, koʻnikma, malaka shakllantirish bilan birga unga hayotning rangi, ohangi, mohiyatini ochib beradi. Tarbiya jarayonidagi hissiyot va samimiyat

esa, tarbiyaviy tadbirlarning ta’sirchanligini ta’minlaydi. Bolalarga beriladigan bilimlar ham hissiyot bilan sug‘orilgandagina ulaming ruhiyatiga kirib, chuqur o‘rnashadi.

Adabiyotlar:

1. Абакумова, Н.Н. Компетентностный подход в образовании: органи¬зация и диагностика [Текст] / Н.Н. Абакумова, И.Ю. Малкова. - Томск: ТГУ, 2007. - 368с.

2. Аверьянов, А.Н. Система: философская категория и реальность [Текст] / А.Н. Аверьянов. - М.: Мысль, 1976. - 188 с.

3. Адлер, Ю.П. Обзор прикладных работ по планированию эксперимента [Текст] / Ю.П. Адлер, Ю.В. Грановский. - М.: Изд-во МГУ, 1967. - 96 с.

4. Акимова, М.К.Теоретические подходы к диагностике практического мышления [Текст] / М.К.Акимова, В.Т. Козлова, Н.А. Ференс. // Вопросы психологии.- 1999. - № 1. - С.21- 30.

РЕЗЮМЕ

Bizning maqolamizda boshlang‘ich maktab yoshidagi o’quvchilarning divergent fikrlashini rivojlantirishda muammolo ta’lim texnologoyasi muhim o’rin tutishi haqida fikr mulohazalar keltirib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В нашей статье приводится мнение о том, что проблемно-образовательная технология играет важную роль в развитии дивергентного мышления учащихся младшего школьного возраста.

SUMMARY

In our article, feedback on the importance of muammolo educational technology in the development of divergent thinking of students of primary school age is given.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raxmatova F.
p.f.f.d, dotsent

Tayanch so‘zlar: talaba,kompetensiya, tadqiqot, pedagogik, ijtimoiy muhit, ta’lim muassasasi, didaktika, o‘quv dasturi, o‘quv rejalari, ta’lim, ko‘nikma, bilim, malaka, tahlil, qadriyat, analitika, bilim.

Ключевые слова: студент, компетентность, исследование, педагогика, социальная среда, образовательное учреждение, дидактика, учебная программа, учебные планы, образование, умение, знание, компетенция, анализ, ценность, аналитика, знание.

Key words: student, competence, research, pedagogy, social environment, educational institution, didactics, curriculum, curricula, education, skill, knowledge, competence, analysis, value, analytics, knowledge.

O‘zbekiston Respublikasida amalaga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi millat kelajagi bo‘lgan yoshlarning kognitiv qobiyatini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mustaqil fikriga ega, bilimli va tashabbuskor yoshlar masalasida 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday takidlaydi: “jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga etishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. SHu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama etuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz” deb bildirgan fikr-mulohazalarida ham ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan kelajak avlod kadrlarini kopetentligi rivojlangan yosh-avlodni kamol tomishi muhim ahamiyat kasb etadi .

Pedagog-olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o‘rganish imkoniyatini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o‘rganib chiqilgan. Kompetentlikning o‘zi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya,

boshqaruv nazariyasi va ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari bo‘yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o‘z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga qodirlik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga qodirlik bilan belgilanadi.

Psixologik jihatdan kompetentlik – atrofdagi olamni tushunish mezoni va u bilan o‘zaro ta’sirining mutanosibligi sifatida belgilanadi, faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir yoki insonning atrof-muhitga va o‘z-o‘ziga ta’sir etish metodlarini egallaganligidir.

N.Muslimov o‘z ilmiy izlanishlari doirasida ta’limiy tadqiqotlarga alohida urg‘u berib o‘tgan bo‘lib, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kompetensyaviy ta’limni tashkil etishda quydagi omillar muhim o‘rin tutishining asosiy jihatlarini yoritib o‘tar ekan:

“individuallashtirish va tabaqalashtirish asosida har bir talaba bilan alohida ishlab, iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste’dodini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish;

- oliy ta’lim muassasalari talabalari bilan ta’lim va tarbiyani uyg‘un olib borish, talaba-yoshlarni nafaqat bilimli, balki, ma’naviy, ahloqiy hamda kasbiy tayyorlangan etuk shaxs sifatida voyaga etkazish bo‘yicha ta’sirchan pedagogik choralarni belgilash;

talaba-yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab shiqib, joriy etish;

oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilg‘or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish;

o‘quv-tarbiya jarayyonini individuallashtirish va tabaqalashtirish ilmiy asoslarini yaratish to‘g‘risida keltirib o‘tilgan bo‘lib, shuning uchun ham talabalar tadqiqotchilik kompetensiyalarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etishi kabi pedagogik jihatlarni ifodalab o‘tgan.

YU.A.Konarjevskiy kasbiy ahamiyatga ega shaxsiysifatlarni ko‘rib chiqar ekanlar, kompetentlikni xushaxloqlik,pedagogik-tashkilotchilik, boshqaruvchilik, kommunikativlik va boshqa sifatlar bilan bir qatorga qo‘yadilar.

S.E.SHishkov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta’riflari keltirilgan:

– Bilimlarni o‘rganish asosida egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik;
– bilim va vaziyatlar o‘rtasidagi aloqani o‘rnata bilish qobiliyati, ularni hal etishning muammoga mos keladigan yo‘lini topish.

L.M. Abolin ning fikricha, kompetentlik – egallagan bilimlar asosida faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishdir. Kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik – ijtimoiy-amaliy ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalardan iborat mavjudlik bo‘lib, ta’lim jarayoni natijalariga jamiyat tomonidan ijtimoiy-madaniy talablar qo‘yiladigan holatlarda namoyon bo‘ladi.

SHunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, kasbiy tayyorgarlik, imkoniyatlaridan foydalanish va shu bilan birga, ma’lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning maqsadli vazifalarni mukammal bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi. Umumiy holda ta’riflaydigan bo‘lsak, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan kasbiy faoliyat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofidagi ob’ektlar va sub’ektlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha muayyan malakalar va kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

Kompetentlikning shakllanganligi to‘g‘risida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir xizmatchining kompetentlik darajasi uning bajarayotgan ishi, o‘z kasbiy faoliyatining yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Kompetentlik to‘g‘risida insonning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki kasbiy faoliyatining natijasiga qarab ham baho berish to‘g‘ri bo‘ladi. Xuddi shuningdek, egallagan kasbi bo‘yicha savodxonlik darajasiga qarab kompetentlikni belgilab bo‘lmaydi.

E.S.Mixaylova kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati deb ataydi va uning o‘ziga xos tomonlarini quyidagicha yoritadi:
– kompetentli mutaxassisning bilimlarni egalashda xarakatlari amaliy tezkor va harakatchan, ular doimo yangilanib turadi;
– muammo mazmunini tushunishning o‘zigina etarli emas, zero, kompetentlik mazmuniy (bilimlar) va protsessual (ko‘nikmalar) komponentlarga ega. Uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan hal eta bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tasnifi hisoblanadi;

– kompetentlik darajalarini rivojlantirishning maqbul echimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri qaror qabul qilish yo‘llaridan voz kechish, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

Kompetentlik tushunchasi bilim, ko‘nikma va malakalar tushunchalariga nisbatan kengroq, kompetentlik ularni ta’lim natijasi sifatida o‘z ichiga oladi (lekin bunda kompetentlik bilim, ko‘nikma va malakalarning oddiy yig‘indisi emas, birmuncha boshqacharoq mazmundagi tushunchadir). Kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv va operatsion-texnologik, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy tarkibiy qismlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ta’lim jarayonining ham mazmunini, ham shakllarini zamonaviy ta’lim tamoyillariga asosan birdek o‘zgartirish zarur. Bunda o‘zgartirilgan shakllar ta’lim oluvchilarga muayyan kompetensiyalar bo‘yicha bilim bermasdan, balki butun ta’lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishlarini ta’minlashi kerak. YA’ni, ta’lim oluvchi navbatdagi ko‘nikmalar to‘plamini shakllantirish yo‘li bilan kelgusi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida singdirib borishi kerak. SHuning uchun kompetentlik yondashuv natijasida quyidagi vositalar ta’minlanishi lozim:

– o‘z-o‘zini rivojlantirish manbai sifatida ta’lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo‘lishi;
– yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o‘quv faoliyati jarayonida o‘z-o‘zini safarbar etish qobiliyati;
– har bir odamga o‘zining u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtira olishdarajasini aniqlash imkoniyatini beruvchi o‘z-o‘zini differensiatsiyalash (o‘z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;
– ta’lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishish;
– ta’lim jarayonining sub’ektlari o‘z kasbiy faoliyatlariga oid ko‘nikma va malakalarni egallashlarida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash.

SHu bilan birga, kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’limning metod va texnologiyalari ma’lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarning boshqa bir sharoitlarga oson ko‘chishi va moslashuvchanligini ta’minlashi kerak, ya’ni “noadaptiv faollik” xususiyatlarini hosil qilishi lozim.

Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan malakaviy talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va ko‘nikmalarning faoliyat usullari majmuasini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Hozirgi zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohot talablaridan kelib chiqib dolzarb muammolardan biri – bo‘lajak boshlang‘ich

sinf o‘qituvchilarning oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishga ehtiyojlarini kuchaytirish hamda ularda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali shaxsiy-kasbiy muammolarni hal eta olishga qodir, yuksak salohiyatli etuk mutaxassislarni tayyorlashdir. Kompetentlik – o‘qituvchining pedagogik faoliyatida shakllanadigan va takomillashadigan, yuqori professionalizm darajasiga etishiga yordam beradigan, o‘z-o‘zini boshqarish jarayonining intellektual, irodaviy, emotsional va jismoniy jihatlari birligi bilan tavsiflanadi.

Адабиётлар:

1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 30 dekabr №-255 son

2. Muslimov N.A muallifligi asosida yozilgan. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi” nomli Monografiyasi. Fan va texnologiY.: 2013 y. 6-10 b.

3. Конаржевский Ю.А. Формирование педагогического коллектива. –М.: Профиздат, 1997. – 60 с.

4. Шиян О.А. Послеуниверситетский тренинг учителей в США: новые ориентиры //Педагогика. –1996. –№1. –С. 104.

5. Аболин Л.М., Кашин А.П. Педагогическое мастерство учителя.–Казань. –Изд-во КГУ.–1992.–48 с.

6. Михайлова Е.С. Коммуникативный и рефлексивный компоненты и их соотношение в структуре педагогических способностей: Автореф. дис. канд. психол. наук.- Л.: 1990.- 18 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida real ilmiy-texnik va ijtimoiy muammolarni tizimli va yaxlit tarzda tasavvur qilish hamda bilimlarni integrallashga imkoniyati, tadqiqotchi analitik tadqiqot mantig‘ini ijodiy o‘zlashtirishi doirasida nazarda tutiladigan psixologik-pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье основное внимание уделяется развитию творческих способностей учащихся, способности будущих учителей начальных классов системно и комплексно представлять себе реальные научно-технические и социальные проблемы, а также способности интегрировать знания в рамках исследовательской мысли. творческое овладение логикой аналитического исследования Выделены психолого-педагогические возможности.

SUMMARY

This article focuses on the development of students’ creative abilities, the ability of future primary school teachers to systematically and comprehensively imagine real scientific, technical and social problems, as well as the ability to integrate knowledge within the framework of research thought. creative mastery of the logic of analytical research Psychological and pedagogical possibilities are highlighted.

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

ТАСВИРИЙ САНЪАТНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Султанов Х. Э.
Чирчиқ давлат педагогика университети
Марасулова И. М
Чирчиқ давлат педагогика университети

Таянч сўзлар: мустақил таълим, тасвирий санъат, касбий ва ижодий фаолият, амалий кўникмалар, ҳамкорлик, ижодкорлик, таълим дастурлари, таълим сифати

Ключевые слова: самостоятельное образование, изобразительное искусство, профессионально-творческая деятельность, практические навыки, сотрудничество, творчество, образовательные программы, качество образования.

Key words: independent education, fine arts, professional and creative activity, practical skills, cooperation, creativity, educational programs, quality of education.

Замонавий таълимда талабаларнинг мустақил таълим жараёнини ташкил этиш уларнинг касбий маҳорати ва ижодкорлигини ривожлантиришда муҳим ўрин тутади. Айниқса, педагог-рассом мутахассислиги бўйича таҳсил оладиган талабаларнинг мустақил иш фаолиятини ташкил этиш катта аҳамиятга эга. Чунки тасвирий санъатни ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, бу соҳада рақобатга чидамли кадр тайёрлаш учун ҳам илмий-педагогик ҳам ижодий кўникмаларини ривожлантириш керак. Бунинг учун жуда кўп вақт талаб қилинадиган жараён. Талабаларни мустақил таълимга фаоллаштирмасдан туриб, олдинга қўйилган мақсадга фақат аудиториядаги машғулотлар давомида эришиш мумкин эмас. Ҳозирги кунда талабаларни мустақил таълимга йўналтириш механизмларини ишлаб чиқиш барча соҳалар қатори тасвирий санъатда ҳам долзарб муаммолардан бири бўлиб турибди.

Президентимизнинг Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида Фармонида талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш масалаларига катта эътибор қаратилганлигини кўрамиз. Мустақил таълимни ташкил этиш мавзусида жуда кўплаб тадқиқотлар қилинган. Хорижий олимлардан М.А. Фёдорова мустақил таъ-

лимни шакллантиришда назарий ва методик таъминлашга бағишланган ўз тадқиқотларида мустақил таълимни ушбу фаолият компетенциясини шакллантиришнинг меъёрий мазмунини белгиловчи таълим компетенцияларидан бири сифатида кўриб чиқиш таклифини беради.

Маҳаллий тадқиқотчилардан М.Ғ. Келдиёрова талабалар мустақил фикрлашини ривожлантириш омили сифатида таъкидлар экан мустақил таълим топшириқларини талабаларнинг мантиқий фикрлаши ва ижодкорлигини оширишига йўналтирадиган шаклда ишлаб чиқиш керак деган фикрни айтади. Дарҳақиқат мустақил таълим талабалардаги ижодкорлик кўникмаларининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Ушбу мақолада биз тасвирий санъат соҳасида таълим олаётган талабаларнинг касбий ўсиши ва ижодий ривожланишига ёрдам берадиган мустақил таълимини ташкил этиш бўйича амалий ёндашувлар ва тавсияларни кўриб чиқамиз.

1. Тасвирий санъатда мустақил таълимни ташкил этиш:
   – Дастурнинг таълим мақсадларига мос келадиган мустақил ишнинг мақсад ва вазифаларини аниқлаш.
   – талабаларнинг касбий маҳоратини ва ижодий фикрлашни ривожлантиришни рағбатлантириш.
   – талабаларнинг мустақил ишга нисбатан фаоллиги ва ташаббусини қўллаб-қувватлаш.

2. Мустақил таълимни амалга ошириш учун муҳит ва керакли ресурсларни ташкил этиш:
   – мустақил иш учун зарур материаллар ва воситалар мавжудлиги ва улардан фойдаланиш имкониятини таъминлаш.
   – талабалар учун қулай ва билимларни ўзлаштиришга илҳомлантирувчи муҳит яратиш.
   – ижодий лойиҳалар учун замонавий технологиялар ва дастурий таъминотлардан фойдаланиш имкониятини таъминлаш.

3. Талабалар билан индивидуал ишлаш ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш:
   – мустақил таълимни ташкил этишда талабаларнинг индивидуал талаб ва қизиқишларини ҳисобга олиш.
   – талабаларнинг мустақил ишлаш жараёнида ёрдам ва маслаҳатлар бериш.
   – талабалар тараққиёти ва ривожланишини баҳолаш мақсадида фикр-мулоҳазалар ва таклифларини ўрганиш учун мунтазам учрашувлар ташкил қилиш.

4. Жамоадаги ўзаро таъсирни рағбатлантириш:

– талабалар ўртасида ўзаро ҳамкорлик ва тажриба алмашишни рағбатлантириш учун гуруҳ лойиҳалари ва ҳамкорликни ташкил қилиш.
– бошқа талабалар ижоди ва ўз ишларини муҳокама қилиш ҳамда танқид қилиш имкониятини яратинг.
– талаба-педагог-олим-ижодкор рассом тизимида ҳамкорликдаги илмий-тадқиқот ва ижодкорликни рағбатлантириш.

Мана шундай ташкил этилган мустақил таълим жараёнида талабалар касбий-ижодий фаолиятга йўналтиради. Талаба иқтидорига қараб ўз келажаги учун илмий-тадқиқот, педагогик, ижодий, маънавий-маърифий ва ташкилий йўналишлар бўйича мақсадни аниқлаштириб олади. Бу билан ўқитувчининг талаба билан ишлаш диапазони қисқаради, фикр алмашиш учун имкониятлари кенгаяди, таълим бериш жараёни осонлашади. Мустақил изланиш, янги материалларни ўзлаштириш, инновацион ғоялар устида ишлаш, ўз фикрини бошқаларга етказишга интилиш орқали талабалардаги касбий маҳорати шаклланади, мустақил ишга нисбатан фаоллиги ва ижодий фаолияти рағбатлантирилади. Таълимни ривожлантириш, ижодий экспериментларга оид ташаббуслари қўллаб-қувватланади.

Бунинг учун аввало, талабалар мустақил шуғулланишлари учун зарур материаллар ва керакли воситалар билан таъминлаш ҳамда талабаларнинг улардан фойдаланиши учун имконияти яратиш керак. Мустақил фаолият учун қулай мана шундай муҳит ўзлари учун қизиқарли билимларни ўзлаштиришга илҳомлантиради. Турли ижодий лойиҳалар устида ишлаш жараёнида замонавий технологиялар ва дастурий таъминотлардан фойдаланиш имконияти уларнинг фаоллигини оширади. Талабаларнинг индивидуал талаб ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда мустақил таълимни ташкил яхши натижалар беради. Бунда албатта, ўқитувчи томонидан керакли ёрдам ва маслаҳатлар бериш муаммонинг ечимини топишга қийналган пайтларида талабаларга ишни давом эттириш учун моитивация беради. Фаолиятдаги ўзгариш ва ривожланишини баҳолаш мақсадида ташкил этилган учрашувлар талабалардаги фикр-мулоҳазалар ва таклифларини ўрганишга хизмат қилади.

Жамоа бўлиб янги лойиҳалар устида ишлаш асосида ўзаро ҳамкорлик кўникмалари шаклланади ва ўзаро тажриба алмашиши рағбатлантирилади. Талабаларнинг ижодий ишлари, лойиҳалар бўйича тақдимотларни муҳокама қилиш, бошқалар иши ва ўз ишларига нисбатан танқидий мулоҳазалар билдиришга имконият яратиш орқали хатосини тушуниб етиш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантирилади. Талабаларнинг тажрибали педагоглар, илмий-тадқиқот олиб бораётган олимлар ва таниқли ижодкор рассомлар билан учрашувларини ташкил этиш улардаги илмий-тадқиқот ва

ижодкорликка нисбатан рағбатлантиришга хизмат қилади. Мустақил таълимга йўналтириш талабаларнинг педагогик, ижодий, маънавий-маърифий ва ташкилий фаолият бўйича лаёқатини аниқлашга қаратилган яхлит ёндашув ва уларнинг қизиқишларини ҳар томонлама синчиклаб ўрганишни талаб қилади. Талабанинг қобилиятини аниқлашнинг бир неча усуллари мавжуд:

1. Педагогик фаолият:
– талабанинг методика дарси ва тўгараклардаги ўқитувчи ва устоз сифатида ўз тенгдошлари ва талабалар билан мулоқот фаолиятини кузатиш. Уларнинг тушунтириш, бошқаларга ўз фикрини аниқ етказиш, ишланмаларини бошқаларга тақдимот қила олиш малакасини баҳолаш.
– педагогик тайёргарлиги, дарс ёки тўгарак машғулотларини режалаштириш, ўқув материалларини ишлаб чиқиш ва рағбатлантирувчи ўқув муҳитини яратиш.
2. Ижодий фаолият:
– талабалар ижодий ишларини таҳлил қилиш ва баҳолаш, шу жумладан техник маҳорати, ғоянинг ўзига хослиги ва ифодалилиги.
– уларнинг ижодий ишлаш жараёнини таҳлил қилиш ва муҳокама қилиш, шу жумладан тадқиқот ишлари, ижодий фикрлаши ва кутилмаган вазиятларда муаммоларни ҳал қилиш лаёқати.
3. Маънавий-маърифий фаолият:
– маънавий-маърифий соҳадаги фаоллиги, жамиятдаги ижтимоий ўзгаришларга нисбатан ўз фикрига эгалиги.
– миллий қадриятларга нисбатан муносабати, воқелик ҳақидаги фикри ва унинг интеллектуал мазмунни бошқаларга етказиш қобилиятини баҳолаш.
4. Ташкилий фаолият:
– талабаларнинг кўргазмалар, тадбирлар ва бошқа бадиий лойиҳаларни режалаштириш, мувофиқлаштириш ва ташкил этиш қобилиятини кузатиш.
– коммуникатив кўникмалар, жамоада ўзини тутиши, етакчилик қобилиятларини баҳолаш.

Бу жиҳатларнинг ҳар бири бўйича талабаларнинг қизиқишини баҳолаш учун тизимли кузатиш, ишларини таҳлил қилиш ва бевосита мулоқотни тақозо этади. Ҳар хил усулларни бирлаштири, турли соҳаларда талабаларнинг қобилиятлари ҳақида тўлиқ тасаввурга эга бўлишга ёрдам беради. Қобилиятлари ва лаёқатларини синчиклаб ўрганиш, талабалар билан ишлашни осонлаштиради. Тўғри қўйилган мақсад албатта, ўз натижасини

беради. Талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, ўқув жараёнида амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш уларнинг касбий ва ижодий жиҳатдан фаоллашишига сабаб бўлади.

Хулоса: тасвирий санъатни ўқитиш соҳасида мустақил таълим жараёнини ташкил этиш орқали талабалар касбий ва ижодий фаолиятга йўналтирилади. Мустақил таълим уларнинг истеъдодларни юзага чиқариш ва ушбу соҳада юқори малакали мутахассисларни шакллантириш имконини берувчи истиқболли ёндашув ҳисобланади.

Ушбу ёндашувнинг кейинги тадқиқотларда такомиллаштирилиши ва амалиётга татбиқ этилиши тасвирий санъат соҳасида талабаларни фаоллаштириш ва касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнини оптималлаштиришга ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон

2. Abduvoitovich, B. D. (2023). Tasviriy san‘atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 6(4), 54-58.

3. Байметов, Б. Б., Собиров, С. Т., &Исматов, У. Ш. (2019). Проблемы профессиональнопедагогической подготовки учителей изобразительного искусства. Вестник науки, 1(7), 63-66.

4. Бердиев, Д. А. (2023). Кластер ҳамкорлигида ташкил этилган тасвирий санъат тўгаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(15), 13-18.

5. Eraliyevich, S. H. (2021). Shaping StudentsЪ Spiritual Worldviews Through Fine Arts. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 79-86.

6. Eralievich, S. K. (2020). The importance of a cluster in achieving efficiency of educational quality. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(11).

7. Имоматова, У. М. (2023, March). Композицияда эскиз бажариш орқали бадиий тасаввурни ошириш. In International scientific research conference (Vol. 1, No. 12, pp. 13-17).

8. Келдиёрова М.Ғ. Мустақил таълимни самарали ташкил қилиш талабалар мустақил фикрлашини ривожлантириш омили сифатида // Замонавий таълим / Современное образование -2022, № 4. (113) -41-49 б.

9. Султанов, Х. Э. (2023). Zamonaviy ta‘limda tasviriy sanъatni o‘qitish muammolari. Innovative developments and research in education, 2(15), 7-12.

10. Федорова М.А. Теория и методическое обеспечение формирования учебной самостоятельной деятельности студентов в вузе: дис.… д-ра пед. наук/ М. А. Федорова. - Орел, 2011. - 342 с.

РЕЗЮМЕ

Мақолада тасвирий санъатни ўқитиш соҳасида мустақил таълимни ташкил этиш орқали талабаларни касбий ва ижодий фаолиятга йўналтириш имкониятлари ёритиб берилади.

РЕЗЮМЕ

В статье освещаются возможности направления студентов на профессиональную и творческую деятельность путем организации самостоятельного образования в сфере обучения изобразительному искусству.

SUMMARY

The article highlights the possibilities of directing students to professional and creative activities by organizing independent education in the field of teaching fine arts.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

O‘QUVCHILARDA SPORT VOSITASIDA MILLIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA IMKONIYATLARI

Qosimov A. N.
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilarda sport, xalq an’anaviy qadriyatlari, madaniyatlararo munosabatlar, amaliy ko‘nikmalar, uzluksiz ta’lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim standartlari, ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik, sub’yektiv yangilik.

Ключевые слова: спорт, народные традиционные ценности, межкультурные связи, практические навыки, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, воспитание и обучение, научно-методические, субъектные инновации у студентов.

Key words: sports, folk traditional values, intercultural relations, practical skills, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and training, scientific-methodical, subjective innovation in students.

Kirish. Milliy identiklikdagi aksiologik qadriyatlar tizimini o‘rganishda ijtimoiy-gumanitar, falsafa tarixi sohalarida G‘arb va Sharq olimlari ilmiy izlanishlaridan foydalanildi. Aynan identiklik atamasi ostida G‘arb tadqiqotchilari XX asr davomida va XXI asr boshlarida katta miqyosda tizimlashgan tadqiqotlarni olib borishgan.[1] Bu tadqiqotlarda identiklik va qadriyatlar ko‘proq milliy davlatchilikni tashkil etish asosi sifatida olib qaraladi.[2] O‘zbekiston ijtimoiy-gumanitar fanlarida identifikasiya, identiklik, milliy identiklik muammolari nihoyatda kam o‘rganilgan masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbek ijtimoiy fanlarida identiklik atamasi aksariyat hollarda, xususan, S.Otamurodovning “Globallashuv va millat” asarida aynan identiklik kontekstida qo‘llanilmasada, an’ana, qadriyat, milliy ma’naviyat sifatida olib chiqiladi.[3] Mahalliy tadqiqotchi Sh.Qahhorovaning “Global ma’naviyat- globallashuvning g‘oyaviy asosi” nomli kitobida identiklik milliy ma’naviy ildizlar ma’nosida millat va global taraqqiyotni bog‘lovchi mexanizm sifatida olib qaralgan.[4] Identiklik va aksiologiyani bog‘liqlikda o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda tez sur’atlar bilan oshib bormoqda. Sh.O.Madayevaning “Identiklik antropologiyasi” kitobida ushbu masalalarning nazariy-metodologik tadqiqi amalga oshirilgan, tarixiy-retrospektiv tizim ostida o‘rganilgan.[5] Identiklikdagi aksiologik jihat identiklik

hosil qilishdagi fenomenal asos bo‘lgani uchun, bizning tadqiqotimizda ushbu ilmiy ob’yekt identiklik va aksiologik tizim aloqadorligida olib o‘rganilgan. Shuningdek, milliy identiklik tushunchasi mazmun mohiyatini yoritilishi, unga berilgan ta’rifimizda “milliy identiklik – bir millat tarixiy rivojlanish jarayonidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, aksiologik jarayonlarning milliy o‘zlikni anglashda o‘z-o‘ziga aynanlashuvchi tizimi, belgilari, usuli, reprezentativ xususiyatlaridir”. Ta’rifimiz milliy identiklikning umumiy xususiyatidan kelib chiqib berilgan va aksiologik tizim o‘z-o‘zidan identiklik fenomenining tashkil etuvchi atributlaridir.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, o‘z iro¬dasi, kuchi va imkoniyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamalash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularni kamol topti¬rish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tar¬biya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017 yil 3 iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3031-son qarori qabul qilinda. Unga ko‘ra, «jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasala¬rini ilmiy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori mala¬kali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta’minlash, ularning o‘quv muassasala¬rida funksional vazifalarni belgilab olish muhimligini bugungi davrning o‘zi ko‘rsatmoqda».[1] Darhaqiqat, o‘quvchilarda jismoniy madaniyatni shakllantirishdagi muhim vazifalardan biri jismoniy tarbiya va sport sohasida zamonaviy kadrlarni tayyorlash, ularni malakasini oshirish, ustoz-murabbiylar uchun keng imkoniyatlar yaratishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (literatura i metodologiya /Methods). Tarixiy xotira millatning ongli faoliyati davomida yuzaga keladi va uning ijtimoiy ong yuksalishi jarayonida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadi. O‘z tarixiy xotirasini saqlab qola olmagan, uni keyingi avlodga yetkazishga salohiyati yetmaydigan millatning kelajagi ham bo‘lmaydi. Chunki xotira millat kelajagi uchun o‘tmishdagi hayotiy tajribadan saboq beruvchi muhim manba hisoblanadi. Xuddi ana shu manbaviylik imkoniyati milliy identiklikka kuch bag‘ishlab turadi. Har bir millatning tarixiy xotirasi mustahkam, uni avloddan-avlodga o‘tkazishga salohiyati kuchli bo‘lsa, uning g‘oyasida milliy ruhiyat ham mustahkam bo‘ladi va o‘zligini asrab yashaydi.

Milliy identiklik millatga mansublikni his qilish, uning tarixini, urf-odat, an’ana, qadriyatlarini tizimlashgan holda anglashda namoyon bo‘ladi. Milliy madaniy o‘ziga xoslik – bu millat bo‘lishning dinamik tarixiy sifati.

Milliy identifikasiya jarayonida aksiologik tizim millatning sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millatning manfaatlariga zarar keltiradigan holatlar boshlanib ketgan vaqtda yaqqol sezilib, millatni jipslashtiruvchi, birlashtiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Bunday holatda millatning barcha vakillari iqtisodiy ahvolidan va qanday mansabni egallashidan qat'i nazar, millat oldida turgan maqsad va manfaatlar umumiyligini anglash asosida birlashadilar.

Milliy identifikasiya millat vakillarining his-tuyg'ularida, harakatlarida, psixologiyasida, iymon-e'tiqodida, o'z millatining moddiy va ma'naviy qadriyatlariga munosabatida, Vatan taqdiri haqidagi orzu- havaslarida o'z ifodasini topadi. Ya'ni milliy o'zlikni anglash odamlarning ongida namoyon bo'ladigan ruhiy holatdir. Shunga ko'ra u millatning, milliy davlatning moddiy, ma'naviy manfaatlarini himoya qilishda va rivojlantirishda harakatga keluvchi, millatni ana shu maqsadlar yo'lida harakatga keltiruvchi, birlashtirib turuvchi ichki ma'naviy-ruhiy kuch bo'lib xizmat etadi.

Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi muammolarni hal etishda millatni faol harakatga safarbar etuvchi va uyushtirib turuvchi omildir.

Milliy identiklik o'zagida yotgan aksiologik tizim millatning barcha shakl va ko'rinishidagi manfaatlarini ifodalash yoki himoya qilish bilan cheklanib qolmasdan, millatning mavjudligini ta'minlab turuvchi mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. U Ona tilga, Vatanga, an'ana, urf-odatlarga, millatning turmush-tarziga, madaniyatiga sodiq qolishi, har qanday sharoitda ham uni tark etmasligi, Vatan mustaqilligi uchun jon fido qilishga tayyor bo'lishini ong orqali ta'minlaydi. Jahonda notinchlik hukmronlik qilayotgan bir paytda har bir millat vakili turli ekstremistik kuchlar, diniy fundamentalizm va boshqa zararli g'oyalar ta'siridan ogoh bo'lishi ayniqsa, o'sib kelayotgan bugungi avlodni bu yot ta'sirlardan himoya qilish, mamlakatda mavjud bo'lgan barcha sog'lom kuchlarni bunday yovuz kuchlarga qarshi turish uchun umummilliy aks ta'sirni vujudga keltirish zarurligini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan vositalarning har birini milliy o'zlikni anglashning asosiy jihatlarini o'z ichiga olib, uning mazmunini tashkil etadi, lekin uning barcha tomonlarini qamrab ololmaydi. Chunki milliy o'zlikni anglash shunday jarayonki, u millat taraqqiyotining har bir bosqichida uning mazmuni kengayib, ahamiyati ortib boradi.

Millatning ijtimoiy yo'nalganligi va aksiologik tizimi mohiyatining birlashishi, millat faoliyatining asosiy maqsadi va e'tiqodiga aylanishi natijasida milliy identiklik shakllanadi.

O‘zbek milliy identikligi tizimini aksiologiya asoslarni yaratgan G‘arb olimlari G.Vindelband, G.Rikkert, V.Diltey, M.Veber ta’limotlari nazariyalariga asosan o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, bu murakkablik yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning yondoshuvlaridagi farq nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Lekin bu yondoshuvlarni umumlashtiruvchi mezon aksiologik tizimda ideal borliq tushunchasini hosil qiluvchi tamoyillardir. Unga ko‘ra ontologik borliqni anglashdagi aksiologik dunyoqarashda ideal makon tushunchasi asosiy kategoriya bo‘lib, o‘zbek xalqi tarixidagi etnik dunyoqarash shaklida ideal makon real hududiy chegara, Vatan, yer tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek xalqi tarixida islomgacha bo‘lgan davrdagi identifikasion xususiyatlar qadimiy va o‘lmas madaniy qadriyatlar asosida shakllangan bo‘lib, dunyoni aksiologik anglash tizimida islom dinigacha etnik ongda o‘zini anglash jarayoni borliqni o‘z “men”i bilan uyg‘unlikda deb bilish va boshqa etik va estetik qadriyatlarni ana shu tizimga yo‘nalganligini ko‘rish mumkin. Bu qonuniyat boy xalq og‘zaki ijodi namunalari, turkiy, zardushtiy yozma bitiklar, Alpomish, Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlar, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlarida o‘z aksini topgan. Shiroq, To‘maris, Kuntug‘mish kabi afsonalar, behisob hikoyalar, matal-masallar, topishmoq qo‘shiq kabi tildan tilga o‘tib kelayotgan merosimizda dunyoni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yer nuqtai nazaridan qadriyat deb tushunish, qadriyatlar tizimining boshqa jihatlarini Vatan tushunchasi atrofiga qurishni ko‘ramiz.

Natijalar. O‘zbek identikligi tarixida dunyoni territorial anglash yurt, Vatan, maksan, Ona Yer tushunchasi bilan bog‘lansada, odamlar borliq to‘g‘risida o‘ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlarda olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma’nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, hatto, ularning ba’zilarini ilohiylashtirganlar.

Qadimgi bitik – toshlarga bitilgan yozuvlar garchi milloddan oldingi 8-asrga oid bo‘lsa-da, lekin ularda xalqimiz tarixining uch ming yillik davriga oid tasavvurlari tafakkuri, turmush tarzi, orzu-umid va intilishlari, qadriyat va an’analari, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, diniy, badiiy qarashlari, umuman, tarixiy va ma’naviy xotirasi o‘z aksini topgan. Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan kadimgi naqllar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya’ni xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Ma’lumki, islomgacha bo‘lgan davr, ya’ni arablar istilosiga qadar, Markaziy Osiyoda zardushtiylik, budda, xristian va moniylik dinlari mavjud bo‘lib, ular orasida keng tarqalgani zardushtiylik edi. Avestoshunos Oldenburgning fikricha, “...zardushtiylik o‘tmishdagi dinlar ichida, insonning yer yuzida farovon yashashga katta ahamiyat bergan, eng oqilona dindir”. Ushbu dinning asoschisi Zardusht bo‘lib, u yashagan

va “Avesto” kitobi yozilgan davrda Markaziy Osiyoda aholining asosiy qismi o‘troq hayotga, dehqonchilik va hunarmandchilikka o‘ta boshlagan, ko‘chmanchi chorvachilikka e’tibor kuchaygan, qadimgi shaharlar va dehqonchilik viloyatlari (So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Baqtriya, Parfiya, Xorazm)ning shakllanish jarayoni kuchayotgan payt edi. Vatanimizning xalqlari hayotida yuz berayotgan bu ijtimoiy o‘zgarishlar uning taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘layotgan mafkurani yangilashi, yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan diniy islohotlarni amalga oshirilishi talab etilardi. “Avesto”da ana shu islohiy talab o‘z ifodasini topgan. Qolaversa, bu o‘sha davr insonlar ongida identifikasion xususiyatlarning kurtak ochishiga zamin yaratgan.

“Avesto” zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma’naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o‘rin berilgan. Asarda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar Axuramazda qiyofasi orqali ko‘rsatilgan. Kitob mualliflaridan biri Zaratushtra (Zardusht) fikricha, odamlar yaxshilik, yorug‘lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida Axuramazda tomonida bo‘lishi lozim. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g‘alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma’naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Ilk O‘rta asr va O‘rta asr Sharq uyg‘onish davrining o‘zbek identikligiga ta’siri va uning aksiologik jihatlarda aks etishi tamoyillari tahlili ham mazkur bobda o‘rin olgan. Markaziy Osiyoda qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom rasmiy hukmron dinga aylangan, islom fenomeni ostida Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda yagona tizim ostida o‘yg‘onish davri jarayoni vujudga keldi.

Shu bilan birga islomning yurtimizda tarqalishi va arab itilosi davrida ko‘pgina milliy kadriyatlar islom dini bilan sinkretlashuvi yuz berdi. Bu to‘g‘rida Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ma’lumot beradi. Shuningdek, alohida ta’kidlash kerakki, vatanimiz sivilizasiyasining qadriyatlari arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta aks ta’sir ko‘rsatganligi shubhasiz. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulug‘bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Kubro, Axmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab kabi zotlarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizasiyamiz madaniyati va kadriyatlarining ta’siri beqiyos. Islom dini yurtimizga kirib kelganidan keyingi davrlarda ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu nisbiy barqarorlik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi. O‘sha davr buyuk mutafakkirlaridan biri

Muxammad al- Xorazmiy xalifa al-Ma’mun tashkil qilgan “Baytul hikma”da katta mavqega ega bo‘lgan. U ilgari surgan g‘oyalarda qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari izohlangan.[7] Sharq madaniyati tarixida muhim o‘rin tutgan Abu Nasr Forobiyning qadriyat to‘g‘risidagi fikrlarini “Madina al-fozila” ta’limotida yaqqol kuzatish mumkin. Qomusiy olim sifatida Forobiy ta’limotida yuksak g‘oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar karor topgan davrda vujudga keladigan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning umumiy tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo‘lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fikx (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshkarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-xukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta’kidlaydi. Mutafakkir diniy karashlar g‘oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o‘sha davrda, inson, jamiyat va ilm-fan qadriyatlarini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida qaray olgan dastlabki Sharq faylasuflaridan biri bo‘ldi.

Abu Nasr Forobiyning g‘oyalari O‘rta asr Sharq falsafasi allomasi Alisher Navoiy ta’limotida rivojlantirildi. Unga ko‘ra, dunyoni panteistik anglashda inson eng oliy qadriyat sifatida maydonga chiqdi.

Jadid milliy demokratik ta’limotida milliy identiklik va aksiologiyaning asosiy jihatlari millatni asrab qolish, buning uchun jamiyatda ilm-fan, ta’lim, ma’rifatparvarlik idealini qadriyat sifatida targ‘ib qilishdan iborat bo‘ldi. Jadidlar o‘z davri va imkoniyatiga ko‘ra progressiv fikr va ta’limot orqali milliy birlik va jamiyatni asrab qoluvchi g‘oyalarni taqdim etar ekanlar, ularda ko‘proq xalq ongida qotib qolgan stereotiplarni yo‘qotish hamda millatni qadriyat maqomidagi tushuncha sifatida yondoshish, uni asrash uchun tafakkur madaniyatini o‘zgartirish xarakatini olib bordilar.

O‘zbek xalqining milliy identikligini namoyon etishida o‘zlikni anglash jarayonlarida kechayotgan o‘zaro munosabatlar va axborotlashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning tahlili asosida tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasidagi fuqarolik jamiyati rivojining zamonaviy bosqichida polietnik munosabatlarning milliy, etnik, diniy, fuqarolik va hududiy identiklikni qo‘llab-quvvatlashda erishilgan falsafiy identiklik omillari tahlil etiladi. Axborotlashgan global dunyoda bir tomondan madaniyatlarning o‘zaro diffuziyalashuvi jarayoni, ikkinchi tomondan, milliy madaniyatlardagi differensiasiyalashuv pandemiya sharoitida butunlay yangi mazmunga o‘tishi kutilmoqda. Bu jarayonlar, tabiiyki o‘zbek xalqining milliy identikligiga yangicha mazmun bag‘ishlaydi.

Muhokama. Bugungi yuksak taraqqiyot davrida hech bir mamlakat umumiy integrasiyalashuv jarayonlaridan chetda tura olmaydi. Har bir davlat boshqa

davlatlar bilan hamkorlikda rivojlanib boradi. Zero, xalqaro munosabatlarsiz taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Chunki, ko‘p asrlar mobaynida jahon mamlakatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitib kelgan.

Bugun o‘zbek xalqi yangi sharoitda va yangi zamonda yashamoqda. U mustaqillik yillarida qanchalik ulkan muvaffaqqiyatlarni qo‘lga kiritmasin, globallashuvning kuchli bosimi ostida yashashga majbur bo‘lmoqda. Ammo aholimizning turli tabaqalari o‘rtasida o‘tkazilgan sosiologik so‘rov natijalariga qaraydigan bo‘lsak, uning ana shu bosimi milliy ma’naviyatimizga o‘tkazayotgan ta’siri darajasida anglanmayotganligi, tushunib yetilmayotganligi ma’lum bo‘lmoqda. Bu millatning o‘zligini anglashi rivojlanishida bir qadam sokinlik yuzaga kelmoqda. Biz respondentlarga “Siz o‘zingiz tug‘ilib o‘sgan mamlakat tarixi hamda madaniyatini yetarli darajada bilasizmi?”, degan savol bilan murojaat qildik. Olingan javoblar tahlili quyidagi diagrammada o‘z aksini topgan.

Diagramma. Siz o‘zingiz tug‘ilib o‘sgan mamlakat tarixi hamda madaniyatini yetarli darajada bilasizmi?

Diagrammada ko‘rib turganimizdek, respondentlarning qariyb 54,30 % o‘zining etnik tarixini yaxshi biladi. Demak, respondentlarning o‘z milliy xulq-atvori va ruhiyatini mukammal darajada tushunishi uchun yetarli darajada asos yaratilgan, bu borada o‘quv qo‘llanma, darslik va ilmiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu, o‘z navbatida, bag‘rikeng O‘zbekistonda tenglik asosida o‘z imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratilganligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborotlashgan jamiyat va globallashuv jarayonlari aholining nafaqat mentaliteti, balki identikligiga ta’sir o‘tkazgan. Umuman olganda, millatning shakllanishi va rivojlanishi o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, unga har bir davr muayyan ta’sir o‘tkazadi.

Shuningdek, bu jarayonda millatning tipologik belgilari bo‘lgan til, madaniyat, urf-odat va qadriyatlardan tashqari, ijtimoiy-siyosiy jihatlarning ham o‘rni bo‘lib, millatning birlashishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda insonda o‘zining millat sifatidagi maqomini anglab, o‘z taqdirini millat taqdiri bilan bog‘liq holda tushunib yetishi kuzatiladi. Tadqiqotlar davomida «O‘zbek xalqining o‘zlik va mansublik jihatlarini nimalarda ko‘rasiz?», degan savol bilan murojaat qilindi.

O‘zbek identikligi tarixi yirik sivilizasion hodisalar bilan sifat jihatdan takomillashgan. Aksiologik tamoyillar shunga ko‘ra bir davrdan ikkinchi davr paradigmal qonuniyatlariga bo‘ysungan holda sinkretik, simbioz xarakter kasb etadi. Zardushtiylik, Moniylik, Islom, Ilk o‘rta asr va O‘rta asr uyg‘onish davri milliy identiklikning diniy va milliy xarakterdagi aksiologik tizim sifatlarini ta’minlagan. Abu Nasr Forobiyning g‘oyalari O‘rta asr Sharq falsafasi allomasi Alisher Navoiy ta’limotida rivojlantirildi, dunyoni panteistik anglashda inson

eng oliy qadriyat sifatida maydonga chiqdi. O‘zbek milliy identikligining tarix sinovidan o‘tish jarayoni jadid milliy demokratik ta’limoti davriga to‘g‘ri keldi. Jadidchilik ta’limotida millatni asrab qolish dasturi qadriyatlar tizimida o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan ma’rifat va taraqqiyot mezonlari bilan tashkil etildi. Tafakkurda progressiv bo‘lgan jadidchilik g‘oyalari mustaqillik davri uchun ham yo‘llanma bo‘ldi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin qayta tiklangan qadriyatlar, xalq bayramlari, oilaviy marosimlar, diniy bayramlar, mustaqillik davri bayramlari, umumxalq bayramlari, madaniy va ma’rifiy bayramlar, sport bayramlari va boshqalarda milliy o‘ziga xoslikning namoyon bo‘lishi milliy tarbiyani singdirishda amaliy ahamiyati katta ekanligi tadqiqot bo‘yicha olib borilgan sosiologik so‘rovlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Aynan o‘zbek identikligini shakllantirgan aksiologik tamoyillar hech bir xalqda aynan takrorlanmasligi sosiologik so‘rovlar, qiyosiy tahlilda aniqlandi. Xalq an’anaviy qadriyatlari bayram, marosim, udumlar va tadbirlarning milliy tarbiyaning manbasi sifatidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligi global taraqqiyot jarayonida identiklik tanazzulini vujudga keltiruvchi davrda hal qiluvchi rol o‘ynashi yoritib berildi.

Adabiyotlar:

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. -М.: Флинта, МПСИ, Прогресс, 2006. Anderson, B. Imagined 2.Communities. Reflections on the Origin and Spread of Nationalism . - London: Verso, 1983. Barth, F. Ethnic Groups and Boundaries . - Oslo: Bergen, 1969. Brubaker, R. Ethnicity without Groups. Cambridge: Harvard University Press, 2002.

2. Геллнер, Хрок и др.. Нации и национализм.-М: Прогресс. 1991.

3. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат, -Тошкент: Янги аср авлоди. 2008.

4. Қаҳҳорова Ш.Б. Глобал маънавият глобаллашувнинг ғоявий асоси,-Тошкент: Тафаккур, 2009.

5. Мадаева Ш.О. Идентиклик антропологияси, -Тошкент: Нишон ношир, 2015.

6. Файзуллаев А.Ф. Научное творечество Мухаммеда ал-Хоразме.-Т.:Фан. 1983 й.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada o‘quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning pedagogik asoslari va imkoniyatlari, xalq an’anaviy qadriyatlari bayram, marosim, udumlar va tadbirlarning milliy tarbiyaning manbasi sifatidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligi global taraqqiyot jarayonida identiklik tanazzulini vujudga keltiruvchi davrda hal qiluvchi rol o‘ynashi yoritib berildi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье особое значение имеют теоретико-методологические основы формирования национального самосознания у студентов через спорт, роль национальных традиционных ценностей праздников, обрядов, обычаев и мероприятий как источника национального воспитания.

SUMMARY

In this article, the theoretical-methodological foundations of the formation of national identity in students through sports, the role of national traditional values of holidays, ceremonies, customs and events as a source of national education are of particular importance. playing was explained.

THE PROCESS OF TEACHING VOLLEYBALL TO CENTRAL ASIAN STUDENTS WITH THE HELP OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES

Ismailova A.
Senior Lecturer, Department of Physical Education, Karakalpak State University
Abdikamalov Kh.
Assistant teacher of the interfaculty department of physical culture
Karakalpak State University

Tayanch so'zlar: sportda konsentratsiya, sportda qarz olish, voleybol, sport.
Ключевые слова: концентрация в спорте, заимствование в спорте, волейбол, спорт.
Key words: concentrating in sport, borrowing in sport, volleyball, sport.

Introduction. Currently, volleyball training is included in the curriculum of the academic discipline «Physical Culture» for students of higher educational institutions of various specialties within the framework of the subject and optional classes. In order to prevent a decrease in activity and interest in physical education, there is a need to create gaming technologies that will help transform the process of physical education. Game technology, in particular borrowed elements from various sports, will help to improve the results of physical fitness of students, and most importantly, change the motivation for physical activity.

In the educational environment, a large number of various methods of improving the effectiveness of the physical education process are presented, including when teaching volleyball, where there is a task of modernizing the training process at the initial stage of preparation [4], the solution of which would allow students to master volleyball faster and not lose interest in it in the learning process.

Within the framework of this study, the improvement of the process of teaching volleyball to university students is based on the introduction of interrelated processes of «borrowing» and «concentration» in the learning process. According to modern interpretations [1, 25 pp.], the concept of «concentration» implies «concentration», «gathering» and «accumulation», and all other meanings of this concept, for example, «saturation of solutions

and mixtures» and «aspiration of thoughts, feelings and interests» belong to special areas of cognition. The meaning of the concept of «borrowing» implies «adopting», «assimilating» and «taking» something, and fully reflects the essence of symbiotic relationships between various objects of any progressive system Various examples of the results of borrowing and concentration in sports activities, technology, daily activities and science [2, 12 pp.] are shown in Figure 1.

A striking example of the result of the interaction of these processes are all kinds of multifunctional tools that have concentrated all kinds of functions borrowed from various individual tools. The processes of concentration and borrowing also take place in science, for example, as the science of cybernetics has a base based on borrowing key elements from such sciences as mathematics, probability theory, mathematical statistics and modeling, econometrics and computer science based on techniques, methods and research tools, hypotheses, elements of theory and means of analysis, which are elements of concentration. Concentration and borrowing also affect the implementation of modern progressive solutions in technology, for example, a pickup truck-SUV, borrowing the functions of a passenger, truck and all-terrain vehicle, represents the concentration of a cargo platform, passenger body, increased clearance and all-wheel drive.

Methods and results. All modern sports, as a rule, are a complex of borrowings consisting of processes, functions, characteristics, tactics, strategies and concepts of various sports disciplines. As an example of the complex application of the elements of «concentration» and «borrowing» is biathlon, which appeared with the help of «borrowing» from bullet shooting and cross-country skiing, through the concentration of basic elements such as a rifle and a target, skis (Fig. 1). Of course, the principle of concentration and borrowing is also applicable in the training process, in particular when teaching volleyball to university students [3, 11 pp.]. The application of the principle of concentration and borrowing is based on the concentration of functions, characteristics, tactics, strategies, the use of sports equipment and exercises from various sports disciplines. For example, for general physical training aimed at complex development of muscle strength and muscle groups and strengthening the foundation for special physical training, such sports disciplines as weightlifting, gymnastics, kettlebell lifting and athletics can be used as an object of borrowing, where the elements of concentration are exercises with a barbell (lifting), exercises on rings, parallel bars and crossbar (pull-ups, flexion, extension of arms, walking

on hands), shifting and lifting weights, squats with weights, jumping and running, respectively.

The practical application of this approach is a powerful incentive for activating students' interest in physical education, in particular when teaching volleyball. Thus, students, performing such a program of general physical training, acquire and develop a set of physical qualities necessary for a volleyball player. Game technologies in which elements from other sports are applied (or borrowed) help to master specific skills needed in volleyball. An example is the borrowing of movements from a sport such as field hockey. Movements and racks from this type will help to master movements and racks in volleyball, which helps to increase the efficiency of the preparation process. For two years, an experiment was conducted to introduce the principles of concentration and borrowing at K.E. Berdakh Karakalpak State University (KSU). At the Department of Physical Education, during optional volleyball classes for 1st-year students, game technologies were used during classes, in which elements from other sports were present (they are presented in Table 1). [4, 12 pp.]

One of the results should be considered that already at the end of the first year, students with anthropometric data optimal for volleyball were included in the reserve of the KSU volleyball team, which takes first place in the championship of the Nukus region among higher educational institutions and is the current champion of the Nukus region.

In addition, special physical training for the KSU national volleyball team includes a set of borrowings based on weightlifting, kettlebell lifting, athletics, basketball, lawn tennis, gymnastics and acrobatics and the use of exercises with a barbell and kettlebell, triple jump, hurdling, wrist basketball throw, swing movements of tennis with a racket and various jumping exercises, which leads to the improvement of the explosive strength of the muscles of the arms, legs, trunk, as well as an increase in the functional capabilities of the body (Table 2). Further improvement of the training of volleyball players with the division into playing roles, as is known, occurs through differentiation [5, 15 pp.] and individualization, which makes it possible to successfully manage the development of athletes. It should be noted that within the framework of this article, such types of training as technical, tactical and gaming are not considered, since the scope of the educational program of a non-physical education university provides only for the development of their basic principles.

One of the effective ways to improve the process of teaching volleyball to university students should be considered the implementation of borrowing and concentration in sports, which allows to increase the proportion of students

and students who systematically engage in physical culture and attract them to various sports, which is the basis of a healthy lifestyle and a manifestation of an active lifestyle. All this is marked by priority directions in the Strategy for the development of physical culture and sports in the Republic of Uzbekistan for the period up to 2020 [6, 25 pp.].

Conclusion. The health of students is an important indicator of the economic and labor, defense and cultural potential of modern society . Classes with the use of gaming technologies will allow you to form the right attitude to a healthy lifestyle, prepare for future professional activity and life in modern society. And understanding that it is possible to apply various techniques and tools from related game forms will help students to creatively approach any type of activity.

Literature:

1. Guba V. P., Rodin A.V. (2009) «Volleyball at the University: Theoretical and educational supportof the system of training students in the sports club. The manual» / V. P. Guba, A.V. Rodin. - Moscow:Soviet sport. pp. 164

2. Guba V. P. (2009) Individualization of training of young athletes / V.P. Guba, P.V. kvashuk, V.G. Nikitushkin. Moscow: physical Education and sport. pp. 280

3. Efremov T.F. (2010) The Modern dictionary of the Russian language, three in one: orthographic,morphemic, word-formative. Moscow: ACT. pp.699.

4. Zheleznyak Y.D. (2004) Trends in the development of the classic volleyball today / Y.D.Zheleznyak, G.I. Shipulin, Serdyukov O.E. // Theory and practice of physical culture. № 4.Pp. 33.

5. Zhuravleva I. V. (2012) Students health: sociological analysis: monography / I.V. Zhuravleva. Moscow: Institute of sociology, RAS, 2012 pp. 252

6. Lopatin V. V. (2013) Explanatory dictionary of the modern Russian language / V. V. Lopatin, L.E. Lopatin. M.: Eksmo. pp. 928

РЕЗЮМЕ

Maqolada universitet talabalarining voleybol bo’yicha o’quv jarayonini o’yin texnologiyalari orqali takomillashtirish yo’nalishi keltirilgan. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonida kontsentratsiya va qarz olishning o’zaro ta’siri va o’zaro ta’siri mexanizmi aniqlandi.

РЕЗЮМЕ

В статье представлено направление совершенствования процесса обучения волейболу студентов ВУЗов посредством игровых технологий. Раскрыт механизм взаимодействия и взаимного влияния концентрации и заимствования на тренировочный процесс при общей и специальной физической подготовке.

SUMMARY

The article presents the direction of improving the process of teaching volleyball to University students through game technologies. The mechanism of interaction and mutual infl uence of concentrating and borrowing on training process during general and special physical training is revealed.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

№ 4

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:
А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:
А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:
П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 12.07.2023. Форматы 70x100$^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 29,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №